


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

A.A. KARIMOV

GIDROGAZDINAMIKA

DARSLIK



TOSHKENT – 2019

UDK 532.5. (075.8)

BBK 22.253YA73

A.A. Karimov *Gidrogazodinamika. Darslik* – Toshkent- 2019.

Darslik *Gidrogazdinamika* faniga oid dasturlar asosida tuzilgan, hamda o‘z ichiga quyidagi bo‘limlarni qamrab olgan: suyuqlikni qattiq jismdagi va gazlardan farqlanishi, suyuqliklarning asosiy fizik xossalari, gidrostatikaning asosiy qonuniyatlari, suyuqlik va gaz gidrodinamika asoslari hamda suyuqliklar kinematikasi, suyuqlik va gazlarning harakat rejimlari, gaz filtratsiyasi, kichik teshiklardagi suyuqlik va gazlarning oqimlari, suyuqlik va gazlarning modellari, misollar va massalar orqali aniq misollar berilgan.

Darslik – talabalarning 5310100-Energetika (issiqlik energetikasi) tarmoqlar bo‘yicha, 5312100-Energoaudit va sanoat korxonalarini energetik tekshiruvi, 5312400-“Muqobil energiya manbalari (tarmoqlari bo‘yicha), ta‘lim yo‘nalishlari uchun yo‘nalishlariga mo‘ljallangan.

Toshkent davlat texnika universiteti – ilmiy-uslubiy kengashining qaroriga asosan chop etildi.

TAQRIZCHILAR:

t.f.d. A.M.Arifjonov

**TIQXMMI “Gidravlika va gidroinformatika”
kafedrasi mudiri, professor**

t.f.d. R.P.Babaxadjaev

Issiqlik energetika va AES kafedrasi professori

КИРИШ

Mustaqil Respublikamizning taraqqiyoti, uning va yaqin xorijiy mamlakatlar bilan keng ko‘lamdagi aloqalarining rivojlanishi, oliy o‘quv yurtlarida hozirgi kun talablariga javob beradigan bilimdon, texnika jihozlari va texnologiyalarni bevosita takomillashtira oladigan, fan yutuqlarini amaliy ishlab chiqarishda bevosita qo‘llay oladigan yuqori malakali mutaxassislar, muhandislar tayyorlashda taqazo etadi.

Bunday dolzarb muammoni hal etish uchun tabiiy fanlar sohasidagi eng so‘ngi yutuqlar o‘zida aks ettiruvchi yangi o‘quv dasturlari asosida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar yaratish zarur. Qolaversa hozirgi kungacha o‘zbek tilida jahon andozasi talabiga javob berish darajasida darsliklar chop etilmagan. Yuqorida keltirilgan mulohazalarga ko‘ra, gidrogazodinamika fanidan oliy texnika o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan yangi darslik yaratildi.

Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi oliy texnika o‘quv yurtlari uchun o‘quv adabiyoti Davlat ta‘lim standartining bakalavr mutaxassisligi yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlar va texnik yo‘nalishlarida ta‘lim olayotgan talabalar, doktorantlar, ilmiy tadqiqotchilar va shu soha professor-o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin. Bu darslik muallifining 2006 yil Sankt-Peterburg davlat politexnika universitetida olgan tajribalardan va ma‘ruzalardan shu sohadagi ko‘p yillik pedagogik va ilmiy ish tajribalari asosida yozilgan.

Darslikning “Gidrostatika” qismidagi bo‘limlarda gidrostatik bosim va ularni o‘lchash asboblari to‘g‘risida mukammal to‘liq tushinchalar berilib, barcha muhim formulalar izchillik bilan keltirib chiqarilgan.

“Gidrodinamika” asoslariga tegishli bo‘limlarda suyuqlik va gazlardagi uzliksizlik tenglamasi, suyuqlik va gazlardagi harakat rejimlari, D. Bernulli tenglamasi suyuqlik va gazlar uchun va boshqa mavzularda texnikaviy–mexanikaviy energiya saqlanish qonuni yaqqol namoyon bo‘lishini nazarga tutub, bu bo‘limga mos barcha muhim formulalar bir necha ko‘rinishda soddalashtirib berilgan.

Ushbu darslik sakkizta bobdan iborat bo‘lib, har bir bobdagi mavzularga tegishli masalalar, sxemalar va tajribalardan olingan koeffitsientlar jadvallarga, rasmlarda

keltirilgan daslikdagi birinchi bob fanning kirish qismi, ikkinchi bob suyuqlik gaz statikasi, uchunchi bob suyuqliklarning gidrodinamikasi, to'rtinchi bob suyuqlik va gazlarning harakat rejimlari, beshinchi bob gaz dinamikasi, oltinchi bob gaz filtratsiyasi, yettinchi bob kichik teshiklardagi suyuqlik va gazlarning oqimlari, sakkizinchi bob suyuqlik va gazlarning modellari misollar va massalar orqali aniq berilgan.

Nazariy qismida asosan suyuqlik va gazlarning gidrostatika, suyuqlik gaz statikasida bosim va ularni o'lchash asboblari to'g'risida mukammal, to'liq tushuncha berilib, barcha muhim formulalar izchillik bilan ketirib chiqarilgan.

Suyuqlik va gaz dinamikasida uzliksizlik tenglamalari, Bernulli tenglamasi va mavzularda mexanikaviy energiyaning saqlanish qonuni, Darsi tenglamalari va qonunlari, yaqqol namoyon bo'lishini nazarda tutib, sohasidagi barqaror va beqaror, tekis va notekis harakatlar yo'qotilgan napor va bosim, oqim kinematikasiga ta'siri mavzusiga bag'ishlangan, ulardan tashqari filtratsiya qonuni, Darsi qonuni boshqacha filtratsiya tezligi va bosim gradienti orasidagi bir hadli daraja ko'rinishda hamda katta bosimlarda, to'g'ri chiziqli-parallel filtratsiya oqimi, tekis radial, radial – sferik, hamda real va ideal gazning barqaror filtratsiyasi, gazning holat tenglamasi Klapeyron tenglamasi, qisman boshqa uzviy bog'lanishlarni ham ko'ramiz.

Bundan tashqari barcha suyuqlik va gazlarga kerakli bo'lgan, muhandislik hisob-kitob ishlarida kerakli koeffitsientlar jadvallarga bu bo'limga oid barcha muhim formulalar bir necha ko'rinishda soddalashtirilgan holda berilgan va keltirilgan.

Darslikda gidrogazodinamika fanida ko'pgina ishlarni hisoblashda gidravlik usularni qo'llash orqali barcha mavzularda qisman masalalar va ularning yechimlari jadvallari, grafiklari berilgan, gidrodinamika sohasida boshlang'ich bilimga ega bo'lgan talabalar va shu soha egalari uchun o'zlashtirish oson bo'ladigan qilib bayon qilingan.

I. BOB. GIDOGAZODINAMIKA:

1.1. SUYUQLIK VA GAZ DINAMIKASI FANI VA UNING QISQACHA TARIXIY TARAQQIYOTI

Gidrogazodinamika (suyuqlik va gaz dinamikasi) bu fan suyuqlik va gazlarning muvozanat va harakat qonunyatlarini o'rgatadi. Texnika universiteti talabalari ushbu fanning texnik masalalarini gidravlika qonuniyatlari asosida o'rganadilar va amaliyotga bu qonuniyatlarini qo'llash yo'l-yo'riqlari bo'yicha ko'nikmalar oladilar.

Suyuqlik va gaz dinamikasi, gidravlika va aerodinamikaning bir ko'rinishi bo'lib, gidravlika suyuqliklar mexanikasini muhandislik hisoblariga qo'llanishi bo'yicha saboq beradi.

Aerodinamika esa gaz mexanikasini o'rganishga oid bo'ladi. Shuning uchun ham *gidro-deganda suv* yoki umumiy holda *gaz mexanikasini* ifodalaydi. Albatta mexanikada asosiy hisoblash suyuqlik va gazlar muvozanati va harakatidan iborat bo'lgani uchun ko'pincha suv va havo parametrlarini e'tiborga olinadi. O'qish jarayonida gidravlika fani boshqa muhandislik fanlarining suyuqlik va gaz bilan bog'liq bo'lgan barcha fanlarning nazariy asosini tashkil qiladi.

Ayniqsa issiqlik tizimlari va issiqlik elektr stansiyalari, gidroelektrstansiyalar, muqobil energiya hosil qilishda issiqlik energetikasida suv o'tkazish quvurlari neft va gazning quvurli transpartirovkasi quduqlarni burg'ulash tog' va konchilik ishlarida nazariy asosi hisoblanadi. Qurilishni loyihalashda hamda hisoblash ishlarini bajarishida suv va havo ta'sirini yuqorida keltirilgan loyihalash ishlarida suv va gazning yer osti suvlarini, neft va gaz konlarida bo'ladigan gidrostatik va dinamik bosimlari e'tiborga olinadi.

Texnika xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini hisobga olishda ushbu fan qonuniyatlarini hisobga olinmasa va to'g'ri hisob-kitob ishlari qilinmasa iqtisodiy tomondan katta talofatlarga uchrashi mumkin.

O'shbu darslikdan qanday foydalaniladi.

Birinchidan kitobni boshdan oxirigacha koʻzdan kechiriladi, undan keyin diqqatni bir joyga qoʻyib boshidan oxirigacha oʻqib chiqiladi. Daslikni oxirgi boʻlimlarida qoʻshimcha ravishda quyidagi savollarga eʼtibor beriladi:

- oraliq va joriy nazoratlar uchun nazorat savollari roʻyxati keltirilgan
- harflar belgisi koʻrsatilganlari bilan
- narsalarning alfavit koʻrsatkichlari
- maʼlumotnomalar

Shuni taʼkidlash kerakki, ushbu kitobda qoʻshimcha maʼlumotlar topish uchun qulay darslik hisoblanadi. Ammo u hajm jihatidan chegaralangan. Shunga qaramay muhandislar uchun amaliyot oʻtishda, maʼlum loyiha va kurs ishlarni bajarishda muhim qoʻllanma hisoblanadi. Talabalar esa oraliq va joriy nazoratlarni bajarishda toʻgʻri va qulay maʼlumotlar oladilar.

Gidravlika, gidromashinalar (turbinalar, nasoslar va kompressorlar) va gidrouzatmalarning umumiy masalalari hozirgi zamon fan va texnikasining har xil sohalarida eʼtiborga olinadi.

Bularga: gidrotexnik va gidroenergetik inshootlar qurilishi, neft quvurlari, suv bilan taʼminlash tarmoqlari, sugʻorish, metall qirquvchi stanoklarning loyihalari, avtomatlashgan liniyalar, robotlar, qurilish va yoʻl mashinalarini, togʻ-kon mashinalari, gidropnevmomashinalar va boshqalarni yaratish va ishlatishlar kiradi.

Gidrogazdinamika uchta qismga boʻlinadi: suyuqlik va gidrostatika, suyuqlik va gazdinamikasi, gaz filtratsiyasi.

Gidrostatika – suyuqliklarning nisbiy tinch holat qonuniyatlarini oʻrganib, ularni amaliyotda qoʻllash uchun uslubiyatlar yaratadi.

Gidrodinamika – suyuqlikning harakat qonuniyatlarini va ularning paydo boʻlish sabablarini oʻrganish bilan birgalikda ularning tuzilish strukturalarini ham oʻrganadi.

Bu fanning tashkil topish tarixi ancha uzoq boʻlib, bir necha ming yillik tarixni oʻz ichiga oladi. Umuman, insoniyat, suyuqliklar bilan maʼlum maʼnoda munosabat oʻrnatishi bilan suyuqliklar haqidagi qonuniyatlarni oʻrganishga kirishgan.

Gidravlika fani bilan tarixda birinchi ilmiy asar – Arximed tomonidan yozilgan (eramizdan avvalgi 287-212), «Suzuvchi jismlar» trakti hisoblanadi. Arximeddan keyingi XVII asr mobaynida Gidravlika fani taraqqiyotida sezilarli yutuqlar bo‘lmagan.

XV-XVI asrlarda Leonardo da Vinchi (1452-1519) - “Suvning harakati va o‘lchanishi” asarini yozdi, ammo bu asar 400 yildan keyin nashr etildi. S.Steven (1548-1620) - “Boshlang‘ich gidrostatika”, Galileo Galiley (1564-1642), “Suvdagi jismlar tushunchasi va ularning harakati” maqolasini yozdi, E.Torrichelli (1608-1647 yillar) - kichik teshikdan oqayotgan yopishqoq bo‘lmagan suyuqlikning tezligini aniqladi, B.Paskal (1623-1662) – suyuqliklarda bosimning tarqalish qonunini yaratdi, I.Nyuton (1643-1727) - suyuqliklardagi ichki ishqalanish tushunchasini berdi.

Nazariy jihatdan, Gidravlika fani Peterburg Akademiyasining haqiqiy a‘zolari D.Bernulli (1700-1782), L.Eyler (1707-1783) va M.V.Lomonosov (1711-1765) tomonidan rivojlantirildi. Gidravlika fani rivojida katta xizmat qilgan olimlardan - D.Poleni (1685-1761), A.Shezi (1718-1798), P.Dyubua (1734-1809), D.Venturi (1746-1822), YU.Veysbax (1806-1871), O.Reynolds (1842-1912) va boshqalarni keltirish mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmidan Rossiyada Gidravlika fani yanada taraqqiy etishiga quyidagi olimlar katta hissa qo‘shdilar. I.S.Gromika (1851-1889), D.I.Mendeleev (1834-1907), N.P.Petrov (1836-1920), N.E.Jukovskiy (1847-1921), N.N.Pavlovskiy (1884-1937) va keyingi yillarda I.I.Agroskin, E.A.Zamarin, I.I.Levi, K.A.Mixaylov, va boshqalar. Shuni ta‘kidlash lozimki, fanning «Gidrodinamika» bo‘limi asoschisi D.Bernulli matematika qonuniyatlari asosida inson organizmida qonning harakatini o‘rganish bilan shug‘ullangan. Peterburg akademiyasining haqiqiy akademigi D.Bernulli «Nafas olish» nomli dissertatsiya yozgan bo‘lib, tabiatni matematika bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganish g‘oyasini targ‘ibot qilgan. Fikrimizning asosi sifatida uning zamondoshi L.Blyumentrostga yozgan xatidan quyidagilarni keltirish mumkin:

«Nazarimda muskullar harakati, nafas olish, oziqlanish, ko‘rish, ovoz paydo bo‘lishi va boshqalarni o‘rganish borasida juda ko‘p kuzatishlar o‘tkazdim...».

Bundan tashqari uning zamondoshi E.Eyler ham «Gidrodinamika» fani rivojlanishiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan. U ham tabiatda suyuqlik harakatini matematik qonuniyatlar bilan asoslab o‘rgangan. Uning «Arteriyalardagi qon harakati trakti» ilmiy ishi bunga yaqqol dalildir.

«Suyuqliklar mexanikasi» fanining eng rivojlangan davri sifatida XIX-XX asrlarni ko‘rsatish mumkin. Bu davrning mashhur tadqiqotchilari F.Forxgeymer (1852 – 1933), M.Veber (1871 – 1951), Prandtl (1875 – 1953), M.A.Velikanov, (1879 – 1964), B.A.Baxmetov (1880 – 1951), N.N.Pavlovskiy (1886 – 1937), va boshqalardir. Suyuqlik va gaz mexanikasi (gidravlika) A.D. Girgidov Sankt-Peterburg bosmaxonasi SPbGPU 2004 yil. 544.bet.

Gidravlika fani, asosan, ikki yo‘nalishda rivojlangan:

1. Nazariy yo‘nalish – nazariya asoslarini matematik qonuniyatlar asosida o‘rganish.

2. Texnik yo‘nalish, ya‘ni suyuqliklarning nisbiy tinch holati va harakat qonuniyatlarini amaliyotda qo‘llashga doir tadqiqotlarni o‘tkazish va o‘rganish. Texnik yo‘nalish suyuqliklarning texnik atamasi, ya‘ni Gidravlika deb atala boshlagan. Amaliyotdagi muammolarni yechishni yengillashtirish uchun ayrim cheklanishlar va taxminlarga yo‘l qo‘yiladi. Ko‘pgina hollarda suyuqliklar bilan bog‘liq fizik jarayonlarni o‘rganishda ma‘lum masshtabdagi tadqiqot va eksperimentlar o‘tkazilib, ular natijasida, asosan, emperik va yarim emperik formulalar olinadi hamda hisob-kitob va loyihalashtirishda ulardan keng foydalaniladi.

Gidravlika so‘zi grekcha “xyudor” va “aulos” so‘zlari birikmasidan olingan bo‘lib, “suv” va “quvur” degan ma‘nolarni bildiradi. Gidravlika qonunlari texnikaning barcha sohalarida qo‘llanilganligi uchun bu fanning amaliy ahamiyati benihoya kattadir. Gidravlika fanini qo‘llanish sohalari– gidrotexnika, suv xo‘jaligi va melioratsiya, gidroenergetikani suv bilan ta‘minlash va kanalizatsiya, mashinasozlik, aviatsiya va xokazo.

Ko'p yillik arxeologik qazilmalar – yer sharining ko'p qismida katta-katta gidrotexnik inshootlar bizning eramizdan ancha ilgari qurilganligini ko'rsatadi. Qadim zamonlarda, tajriba va kuzatishlarga asosan ko'plab gidrotexnik inshootlar Markaziy Osiyo, Xitoy, Yegipet, Vavilon, Rim va Gretsiyada qurilgan. Ashxaboddagi (Annau) nurab ketgan injenerlik inshooti qadimda quruvchilar katta sug'orish sistemalarini qurishni bilganliklaridan dalolat beradi.

Masalan, juda qadimiy, hozirda ham ishlayotgan sug'orish sistemasi – «Shoxrud» ming yillar ilgari O'rta Osiyoda qurilgani bizni hayratga soladi. 861 yilda Abul Abbos Axmad ibn Muxammad ibn al-Farg'oniy (taxminan 797-865) Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan.

O'zbek davlatchiligi asoschilaridan biri Amir Temur saroyida qurilgan favvora inshooti ko'pchilik yevropalik elchilarni hayratga solganligi tarixiy manbalarda ta'kidlangan. Fikrimizning isboti sifatida frantsuz yozuvchisi Lyusen Keren tomonidan yozilgan «Amir Temur saltanati» asarida Ispaniya hukmdori Henri III ning Vatanimizga jo'natgan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaligida 1404 yil 8 sentyabrdagi Ulug' Amir Temurning Samarqand shahri tashqarisidagi uchrashuvini quyidagicha ta'riflagan:

Hukmdor (Amir Temur) hashamatli uy oldidagi shoxsupa ustida o'tirardi. Uning yonidagi favvora suvlari ancha balandga otilib, xovuzga qaytib tushar, xovuzda esa qizil olmalar suzib yurardi. Bu ma'lumotlar suyuqlik va suyuqlik oqimini o'rganish va undan foydalanish bizning Vatanimizda qadimdan boshlanganligi haqida so'z yuritishimizga asos bo'ladi.

Suyuqlik va gaz oqimi muammolarini o'rganuvchi Gidravlika fani – fizika va nazariy mexanika qonunlariga asoslangan. Gidravlika fanida uchraydigan murakkab masalalarni hamma vaqt nazariya asosida yechib bo'lmaydi. Nima uchun? Chunki, ro'y berayotgan jarayonlarni matematik differentsial tenglamalar yordamida tavsiflash mumkinligini bilamiz. Bu fizik jarayon matematik differentsial tenglamalar yordamida yozilganda sistema tarkibidagi tenglamalar soni va bu tenglamaga kiruvchi noma'lum parametrlar orasida nomutanosiblik mavjud bo'ladi

hamda bu nomutanosiblikni hozirgi tafakkurimiz doirasida faqat amaliy tajribalar natijasiga asoslanib, talqin qilish mumkin. Shuning uchun gidravlikada amaliy tajribadan keng foydalaniladi, ya'ni ilmiy tajriba keng qo'llaniladi. Gidravlikada amaliy tajriba yo'li bilan birinchidan, nazariy formulalarga kiruvchi koeffitsientlar va tuzatishlar, ikkinchidan, tajribaga asoslangan yangi formulalar kashf etiladi. Nazariya bilan amaliy tajribaning o'zaro aloqasi va ilmiy-tekshirish ishlarini keng tashkil etilishi Gidravlika fanini kelgusida yuqori ko'rsatkichlarga erishishida, xalq xo'jaligida muhim masalalarni yechimini topishda amaliy imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, Gidravlika faniga qisqacha quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Gidravlika — tabiiy fanlardan biri bo'lib, suyuqlikning nisbiy tinch holat va harakat qonuniyatlarini o'rganadi va bu qonuniyatlarni kishilar jamiyatining mehnat faoliyatida qo'llash uchun uslublar yaratadi.

Umuman, fan, o'zining o'rganilish jarayonida o'ziga xos yo'nalishlarga bo'linadi. Masalan, qurilish mutaxassisliklarida gidravlik inshootlar qurilishiga va ekspluatatsiyasiga bog'liq bo'lgan muammolar bilan shug'ullanadi yoki mashinasozlik, aviasozlik mutaxassisliklarida – bu sohalarga bog'liq bo'lgan fizik hodisalarni loyihalashtirish va ekspluatatsiya jarayonini o'rganadi.

Fanning rivojlanishi bilan hozirda, Gidravlika fanida o'rganish sifatida, nafaqat suvni, balki, barcha tabiatda mavjud bo'lgan suyuqliklar qabul qilingan. Bo'lg'usi shifokorlarning ham fiziologiya fanini Gidravlika fani bilan qo'shib o'rganishi foydadan holi emas. Fikrimizning dalili sifatida Belgiyaning Gent universiteti «Gidravlika» kafedrasi olimlari tomonidan yaratilgan sun'iy inson yuragi modelidan sun'iy klapanlar sinovida juda ham keng foydalanayotganligini keltirish mumkin.

Suyuqlik va gazlarning asosiy fizik xossalari **Zichlik va solishtirma og'irlik**

Zichlik (bir hajm birligidagi massa)

$$\rho = \lim_{V \rightarrow 0} \frac{\dot{M}}{V}$$

bu yerda, M- jism (modda) massasi; V- jism (modda) hajmi. XO'Tda zichlikning o'lchov birligi [ρ]= kg/m³.

Ayrim suyuqlik va gazlarning zichliklari jadvallarda keltirilgan.

Solishtirma og'irlik (bir birlik hajmdagi og'irlik miqdori)

$$\gamma = \lim_{V \rightarrow 0} \frac{G}{V} = \lim_{V \rightarrow 0} \frac{Mg}{V} = \rho g$$

XO'Tda solishtirma og'irlik o'lchov birligi $[\gamma] = \text{N/m}^3$

1.2. SUYUQLIKLARNING ASOSIY FIZIK XOSSALARI

Suyuqlikning zichligi deb, hajm birligidagi suyuqlik massasiga yoki suyuqlik massasining uning hajmiga bo'lgan nisbatiga aytiladi.

$$\rho = \frac{M}{V}, \quad (1.2.1)$$

bunda, M – suyuqlik massasi;

V – suyuqlik hajmi;

ρ - zichlik.

$$M = \rho \cdot V \quad (1.2.2)$$

Solishtirma og'irlik:

$$\gamma = \frac{G}{V}. \quad (1.2.3)$$

Hajm birligidagi suyuqlik og'irligiga yoki suyuqlik og'irligini uning hajmiga bo'lgan nisbatiga solishtirma og'irlik yoki hajm og'irligi deb ataladi (1.2.3) dan

$$G = \gamma V. \quad (1.2.4)$$

Bizga ma'lumki,

$$G = g M, \quad (1.2.5)$$

bunda, g - jismlarning erkin tutish tezlanishi.

(1.2.3)ni (1.2.2) va (1.2.4)ga qo'ysak,

$$\gamma V = g \rho V \quad (1.2.6)$$

bundan quyidagi ifodaga ega bo‘lishimiz mumkin:

$$\rho = \frac{\gamma}{g}, \quad \gamma = \rho g; \quad (1.2.7)$$

va o‘lchov birliklari:

$$\rho = \left[\frac{M^3}{L} \right]; \quad \gamma = \left[\frac{F}{L^3} \right] = \left[\frac{M}{T^2 L^2} \right],$$

bunda, M, L, F, T - massa, uzunlik, kuch va vaqt.

$$M \rightarrow kg = \frac{H \cdot s^2}{m}; \quad L \rightarrow m; \quad F = H; \quad kH; \quad T \rightarrow s$$

demak:
$$\gamma = \frac{H}{m^3} = \frac{kg}{m^2 s^2}.$$

Siqiluvchanlik – suyuqliklarning tashqi kuchlari ta‘sirida hajmining kamayishidir. Bu holat siqiluvchanlik koeffitsienti, β_s (m^2/N) bilan belgilanadi.

$$\beta_s = -\frac{1}{W} \frac{dw}{dp} \quad (1.2.8)$$

formuladagi minus hajm bosimining ortishi bilan suyuqlik kamayishini ko‘rsatadi.

Suyuqlik massasi o‘zgarmagan holda,

$$\beta_s = -\frac{1}{\rho} \frac{d\rho}{dp}. \quad (1.2.9)$$

Hajm siqiluvchanlik koeffitsienti teskari qiymati suyuqliklarning elastiklik moduli – E_j harfi bilan belgilanadi.

$$E_j = \frac{1}{\beta_s} \quad (1.2.10)$$

(1.2.9) formulani hisobga olsak, (1.2.10) ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$E_j = \rho \frac{dp}{d\rho}, \quad (1.2.11)$$

bundan,

$$\frac{dp}{\rho} = \frac{dp}{E_j}. \quad (1.2.12)$$

(1.2.11) ifoda Guk qonunini ifodalaydi va u harorat 0 dan 200 gacha va bosim 20 atmosfera bo'lganda chuchuk suv (distillangan suv)ning o'rtacha hajm siqilish koefitsientiga teng. Suyuqliklarning siqilish imkoniyati juda kichik bo'lganligi sababli, gidravlikaning amaliy masalalari yechilganda ular hisobga olinmaydi va ularni amalda siqilmaydigan deb qaraladi.

Suyuqliklarning qovushqoqligi deb, suyuqlik bir qatlamini ikkinchi qatlamiga nisbatan siljiganda ko'rsatadigan qarshilikka aytiladi. Yoki suyuqlik harakatida qatlamlardagi ishqalanish kuchiga qovushqoqlik kuchi deb ataladi.

I.Nyuton 1687 yilda quyidagi gipotezani aytadi, ya'ni, suyuqlik qatlamlari harakat davomida ishqalanganda ichki ishqalanish kuchi quyidagiga teng:

$$T = \mu \omega \frac{d\vartheta}{dh}, \quad (1.2.13)$$

bunda, T - qatlamlardagi ishqalanish kuchi;

ω - qatlam ishqalanish yuzasi;

$\frac{d\vartheta}{dh}$ - tezlik gradienti, sirpanish tezligi;

μ - qovushqoqlik dinamik koefitsienti.

N.P.Petrov 1876-1920 yillarda Nyuton gipotezasini tasdiqladi.

(1.4.13) formuladan dinamik qovushqoqlik koefitsienti quyidagicha aniqlanadi.

$$\mu = \frac{T}{\omega \frac{d\vartheta}{dh}} = \frac{\tau}{\frac{d\vartheta}{dh}}, \quad (1.2.14)$$

bunda, - ishqalanish kuchlanishi.

- o'lchov birligi quyidagicha:

$$\mu = \frac{m}{LT}; \quad \frac{H \cdot s}{m^2}; \quad \frac{kg}{m \cdot s} \text{ yki } \frac{g}{sm \cdot s} = \text{puaz.}$$

har xil haroratdagi suv uchun μ qiymatlari.

Gidrogazodinamika va gidravlika fanini o'rganishda dinamik yopishqoqlik koeffitsienti bilan bir qatorda kinematik qovushqoqlik koeffitsientidan ham foydalaniladi:

$$\nu = \frac{\mu}{\rho}. \quad (1.2.15)$$

Bu kattalik o'zida uzunlik, vaqt, kinematik qiymatlarni mujassamlashtiradi.

Uning o'lchov birligi: $[\nu] = \frac{L^2}{T}; \frac{m^2}{s}; \frac{cm^2}{s} = \text{stoks}.$

Amaliy tajribalar ko'rsatishicha, suyuqlikning qovushqoqlik suyuqlik turiga va uning haroratiga bog'liq. Harorat ko'tarilishi bilan suyuqliklarning qovushqoqligi kamayadi. Suyuqliklarning kinematik qovushqoqlik koeffitsienti quyidagi jadvallarda keltirilgan.

Suyuqliklarning qovushqoqlik koeffitsienti viskozimetr yordamida o'lchanadi. Suyuqliklar maydonni uzluksiz to'la egallash modeli. Biz o'rganadigan suyuqliklar bir jinsli suyuqliklar bo'lib, ularni o'z maydonlarini uzluksiz to'la egallaydi, deb qaraymiz.

Haqiqatda esa, molekulalar oralig'i mavjud bo'lib, uzlukli bo'lsada, matematik usulda gidromexanikaning murakkab masalalarini yechishda ko'rsatilgan suyuqliklarning to'la uzluksiz maydonni egallashi qo'l keladi. Uzluksiz to'la maydon lotincha "continuum" deb ataladi. Amaliyotda suyuqliklarning uzluksiz maydonni to'la egallash modeli tasdiqlangan.

Real va ideal suyuqliklar. Suyuqliklarning harakat qonuniyatlarini o'rganishda qovushqoqlik, ichki ishqalanish kuchlari asosiy rol o'ynaydi. Ideal suyuqliklar tabiatda uchramaydi, ularni absolyut siqiluvchan emas va ko'ndalang kuchlanishlarni qabul qilmaydi, qovushqoqlikka ega emas deb hisoblanadi. Bunday holatda, matematik qonuniyatlarni keltirib chiqarishda suyuqliklar harakati bilan bog'liq bo'lgan qiymatlar bizga qo'l keladi.

Real suyuqlik - zarrachalari harakatchan deb qaralsada, ular choʻzilish va siljish kuchlariga qarshilik koʻrsatadilar. Koʻndalang kuchlanishlar suyuqliklar harakatida asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Ideal suyuqliklar - suyuqliklarning muvozanat va harakat qonuniyatlarini matematik keltirib chiqarishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Haqiqiy suyuqliklarga tajribaga asosan topilgan koeffitsientlar yoki kuchlanishlarni oʻzgarishini bilgan holda oʻtiladi. Shunday qilib amaliyot nazariya bilan bogʻlanadi.

Suyuqlik va gaz mexanika fanining bir boʻlimi bu Gidravlika boʻlib faqat suyuqliklarning muvozanat va harakat qonunlarini oʻrganadi (tor maʼnoda). Gidravlika - bu muhandislik hisoblash ishlarida va amaliyotda eksperimentdan olingan formulalardan foydalanishda aniq hisoblash uchun beriladi. Albatta hisob-kitob ishlarida eksperimental koeffitsientlarni joy-joyida ishlatish kerak boʻladi. Koʻpincha texnik masalalarni hal qilish amaliyotlarida quyidagi keltirilgan suyuqliklarning fizik xususiyatlaridan foydalaniladi. Asosiy parametrlar bular zichlik, solishtirma ogʻirlik, qovushqoqliklardir.

Zichlik ρ - bir birlik suyuqlik hajmidagi massa (kg/m^3);

$$\rho = \frac{m}{V_0} \quad (1.2.16)$$

bu yerda, m - suyuqlik massasi, kg ; V_0 - suyuqlik xajmi, m^3 .

Suv zichligi $+4^\circ\text{C}$ minimum qiymatga ega va 10000 kg/m^3 ga teng. Suvning haroratga (temperaturaga) bogʻliqligini maxsus spravochniklardan uning miqdorini olish mumkin. Ushbu darslik sahifada qisqacha maʼlumot keltirilgan.

Maʼlumotlardan koʻrinadiki, suvning zichligi haroratga bogʻliqligi unchalik katta farqga ega emas. Koʻpchilik holatlarda gidravlik hisoblash jarayonlarida suyuqlikni qisilish koeffitsienti hamda issiqlikdan kengayishi koeffitsientlarida qiymatlari eʼtiborga olinmaydi. Odatda suv uchun zichlik qiymati oʻzgarmas va 1000 kg/m^3 kub hisobga olinadi.

Solishtirma ogʻirlik γ - bir birlik hajmdagi suyuqlik ogʻirligi (N/m^3);

$$\gamma = \frac{G}{V_0} \quad (1.2.17)$$

bu yerda, G -suyuqlik og'irligi (og'irlik kuchi), N; V_0 - suyuqlik hajmi, m³. Solishtirma og'irlik va zichlik erkin tushish tezlanishi ($g = 9,81 \text{ m/s}^2$) bilan bog'liq bo'ladi.

$$\gamma = \rho g \quad (1.2.18)$$

Suyuqliklarning siqilishi.

Suyuqliklarning bosim ostida o'z hajmini o'zgartirish xususiyati - siqilish deyiladi. Suyuqlikning siqilishi hajmiy siqilish koeffitsienti bilan tavsiflanadi.

$$\beta = -\frac{dV}{V} \cdot \frac{1}{dP}, \quad (1.2.19)$$

bu yerda, dV -suyuqlik hajmining o'zgarishi; dP -bosim o'zgarishi; β ning o'lchov birligi $[\beta_v] = \text{m}^2 / \text{N}$.

Hajmiy siqilish koeffitsientining teskari qiymati suyuqlikning hajmiy elastiklik modeli deyiladi: $E_v = \frac{1}{\beta_v}$, $[E_v] = \text{N} / \text{m}^2$ (1.7., 1.8-jadvallar). Qattiq jismlarning elastik xususiyati ham E_q parametr bilan ifodalanadi.

Haroratdan kengayish.

Haroratdan kengayish asosan haroratdan kengayish koeffitsienti bilan tavsiflanadi. U harorat o'zgarishida hajmning o'zgarishi bilan ifodalanadi. Matematik ifodada quyidagicha yoziladi.

$$\beta_t = \frac{dV}{V} \cdot \frac{1}{dT}, \quad [\beta_t] = 1/^\circ\text{C}. \quad (1.2.20)$$

Turli xil suyuqliklar uchun haroratdan kengayish koeffitsientining qiymatlari quyidagi jadvallarda keltirilgan.

Qovushqoqlik.

Qovushqoqlik suyuqlikning xususiyatlaridan biri bo'lib, uning harakati davomida zarrachalarning bir-biriga ishqalanishda hosil bo'lgan ichki ishqalanishdagi qarshilikdan iborat. Suyuqlikning teng holatida qovushqoqlik bo'lmaydi.

Qovushqoqlik dinamik va kinematik qovushqoqliklardan iborat bo‘ladi. Ularni biridan, ikkinchi turlariga o‘tkazishda qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Qovushqoqlik dinamik va kinematik qovushqoqliklarga bo‘linadi. Dinamik qovushqoqlik koeffitsienti μ bilan, kinematik qovushqoqlik koeffitsienti ν bilan belgilanadi. Ular orasidagi bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi.

$$\nu = \frac{\mu}{\rho}, \quad (1.2.21)$$

bu yerda, ρ - suyuqlik zichligi.

Issiqlik sig‘imi.

Issiqlik sig‘imi deb - jismning issiqligini bir Kelvinga o‘zgartirishga zarur bo‘lgan issiqlik miqdoriga aytiladi. Issiqlik sig‘imi haroratga va isitish jarayoniga bog‘liq.

Solishtirma issiqlik sig‘imi quyidagi formula orqali topiladi.

$$C = \lim_{\Delta T \rightarrow 0} \left(\frac{\Delta Q}{\Delta T} \right), \quad (1.2.22)$$

bu yerda: ΔQ - issiqlik sig‘imi bo‘lib, ΔT harorat oralig‘ida o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Solishtirma issiqlik sig‘imi C , bosim $p = \text{const}$ - izobarik holatda va hajm $V = \text{const}$ - izoxarik holatlar bilan farqlanadi. Bunda, hamma vaqt $C_p > C_v$ bo‘ladi.

Issiqlik o‘tkazuvchanlik.

Jismning harorati yuqori bo‘lgan qismidan issiqlik jism harorati past bo‘lgan qismiga harakatlanish jarayoniga issiqlik o‘tkazuvchanlik deyiladi.

Issiqlik o‘tkazuvchanlik k harfi bilan belgilanadi. Ayrim gazlar uchun uning qiymati jadvallarda berilgan.

2- BOB. GIDROSTATIKA

Nazariy ma‘lumotlar.

Gidrostatika - gidravlikaning bir bo‘limi bo‘lib, unda muvozonatdagi suyuqlikni va unga to‘la yoki chala cho‘ktirilgan qattiq jismlarga ta‘sir qilayotgan kuchlar

qonuniyatini o'rgatadi. Tinch turgan suyuqlikka ikkita kuch ta'sir qiladi: ichki va tashqi kuchlar.

Ichki kuchlarga zarrachalarning bir-biriga teng va qarama-qarshi kuchlari kiradi.

Tashqi kuchlarga: massa va sirtqi kuchlar kiradi.

Massa kuchlariga suyuqlik massasiga proporsional bo'lgan kuchlar: og'irlik kuchi, inertsia, magnit, elektrik va boshqa kuchlar kiradi.


Sirtqi kuchlarga misol qilib idish devorini suyuqlikka ta'sir qilayotgan reaksiya kuchi, porshenni suyuqlikka ko'rsatayotgan bosim kuchi, suyuqlik sirtiga ta'sir qilayotgan atmosfera va boshqa kuchlarni olish mumkin. Suyuqlikni oquvchanlik hisobiga unda mujassamlangan kuchlar bo'lmay, balki sirtqi kuchlar, ajratilgan suyuqlik hajmi sirtiga uzluksiz taqsimlangan kuchlar bo'ladi.

Masalalar yechishda ishqalanish kuchi bilan normal bosim kuchi hisobga olinadi.

Gidrostatik bosim.

Muvozonatda turgan suyuqlik ichida yuzaga kelgan siqiluvchan kuchlanishga gidrostatik bosim yoki gidrostatik bosim kuchlanishi deyiladi.

Buni isbotlash uchun idishda muvozanatda turgan suyuqlik olamiz va shu suyuqlik hajmini AB tekislik bilan I va II qismga bo'lamiz (3.51-rasm). Suyuqlikning I qismi II qism bilan AB tekislikdagi umumiy yuz ω bilan o'zaro ta'sir qilishadi.



3.5.1-rasm. Gidrostatik bosim tushunchasini isbotlovchi sxema

Agar I qismni fikran tashlab yuborsak, u holda II qismni muvozanatda ushlab turish uchun tashlab yuborgan I qismga teng bo'lgan P kuch – gidrostatik bosim kuchini ω yuzaga qo'yamiz.

P kuchni ω yuzaga bo'lgan nisbati P o'rtacha gidrostatik bosim kuchini beradi, ya'ni

$$\frac{P}{\omega} = p_{ur}, \quad (3.5.1)$$

Tekislikda kichik $\Delta\omega$ maydonchani belgilab olamiz. Δp_n maydonchaga ΔP kuch taʼsir koʻrsatayotgan boʻlsin. Agar $\Delta\omega$ maydoncha nolga intilsa, u holda $\Delta P / \Delta\omega$ nisbati nuqtaga taʼsir qilayotgan gidrostatik bosim kuchi boʻladi:

$$P = \lim_{\Delta\omega \rightarrow 0} \left(\frac{\Delta P}{\Delta\omega} \right), \quad (3.5.2)$$

Gidrostatik bosim quyidagi oʻlchamlarga ega, yaʼni $\left(\frac{\text{kuch}}{\text{maydon}} \right)$, bosim N/m^2 (Paskal), atmosfera bosimi texnik atmosferada (98100 Pa) yoki fizik atmosferada (101325 Pa), baʼzi hollarda barda (1 bar = 10^5 Pa) oʻlchanadi


Gidrostatikaning asosiy tushunchasi - nuqtadagi gidrostatik bosim (GSB) boʻlib, u nuqtaga va yuza boʻyicha qoʻyilgan boʻladi.

p_A - nuqtadagi mutloq bosim;

p - ortiqcha bosim;

p_0 - yuzaga berilgan bosim;

$p_{og'}$ - ogʻirlik bosim;



3.5.1-rasm

p_{am} - atmosfera bosimi (2.1-jadval);

p_{vak} - vakuum bosim.

Bosim qiymatini topish uchun gidrostatikaning asosiy qonunidan foydalaniladi.

$$p_A = p_0 + \gamma h, \quad (2.1)$$

bu yerda, h -erkin sirtan tekshirilayotgan nuqtagacha boʻlgan chuqurlik, ogʻirlik bosimi $p_{og'} = \gamma h$;

$$p = p_A - p_a, \quad p_A > p_a \text{ bo'lganda}$$

$$p_{vak} = p_a - p_A, \quad p_A < p_a \text{ bo'lganda}$$

O'lchov birliklari.

Si tizimida - Paskal, $1\text{Pa}=1\text{N/m}^2$

Boshqa o'lchov birliklarida:

Texnik atmosfera, $1\text{at}=1\text{kg.k/sm}^2=10^4\text{kg.k/m}^2=10\text{ t.k/m}^2=0,981\cdot 10^5\text{ Pa}$;

Fizik atmosfera $1\text{at}=1,01325 \cdot 10^5\text{ Pa}$;

Metr suv ustuni, $1\text{m. suv ustuni}=0,1\text{at}=0,981\cdot 10^4\text{ Pa}$;

Og'irlik kuchi bosimi miqdorini $F_{og'}$ desak, ixtiyoriy tekis yuzaga berilayotgan og'irlik bosimi.

$$F_{og'} = (p_{og'})_s \cdot \omega, \quad (2.1.2)$$

bu yerda, $(p_{og'})_s$ –shaklning og'irlik markaziga berilayotgan og'irlik bosim; ω –shakl yuzasi.

$F_{og'}$ qo'yilgan nuqta $(p_0 = p_{og'})_s$, ortiqcha bosim bo'lganda), og'irlik markazidan pastda bo'lgan quyidagi kattalikdagi e -ekssentrisitet uzunlikda bo'ladi:

$$e = \frac{J}{Z_c \omega}, \quad (2.1.3)$$

bu yerda, J - shaklning inertsia momenti, Z_c - shaklning og'irlik markazi koordinatasi bo'lib, erkin sirtga nisbatan olingan, e - ekssentrisitetni hisoblash uchun 2.1.1 -jadvalda berilgan qiymatlardan foydalaniladi.

2.2. SUYUQLIKNING FUQAROVIIY MUHANDISLIK MEXANIKASI

Nega biz gidrodinamikani fuqaroviy texnik qurilish kursida o'rganayapmiz? Industrial jamiyatning rivojlanishida ichimlik suvi bilan ta'minlash, drenaj, kanalizatsiya kabi xizmat tizimlariga kerakli suvni yetkazib berish muhim hisoblanadi. Aynan shu xizmatlarni fuqaroviy muhandislar amalga oshiradilar.

Suyuqlik mexanikasi fuqaroviy qurilishning deyarli barcha sohalarida to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita ishtirok etadi. Quyidagi suyuqlikni manipulyatsiya qilish ishlari biz uchun uning bevosita ishtiroki misoli bo'lib xizmat qila oladi.

- Dengiz va daryo mudofaasi;
- Suv ta'aminoti tarmog'i- kanalizatsiya (sanitariya);
- Suv tozalovchi inshootlarni gidravlik loyihalashtirish;
- To'g'onlar;
- Irrigatsiya;
- Nasos va turbinalar;
- Suv ushlab turuvchi jihozlar;

va yana quyida asosiy bino bo'lib qurilma ishtirok etuvchi misollar beriladi, bunday hollarda suyuqlik mexanikasi tahlili juda muhim hisoblanadi.

- Bino ichiga va uning atrofidagi havo oqimi;
- Daryolardagi ko'priklar ustunlari;
- Grunt suvlarining oqimi;

E'tibor bering, sanab o'tilgan misollarning deyarli barchasi suv bilan bog'liq. Quyidagi kurs suyuqliklarning umumiy tushunchalari va printsiplarini kiritsada, amalda suyuqlik misolida aynan suv ishtirok etgan holatlarni ko'rib chiqadi.

Birliklar tizimi.

Istalgan kattalik sizga qulay bo'lgan istalgan uslub orqali ko'rsatilishi mumkin. Biroq ba'zi hollarda absolyut to'g'ri bo'lgan narsalarda ham adashish mumkin. Ayniqsa bu suyuqlik mexanikasida ko'p uchrashi mumkin. Ko'p yillar davomida turli kattaliklarni ifoda etish uchun turli uslublardan foydalanilgan. Xatto hozirgi kunda ham turli mamlakatlarda bir xil narsalar uchun turli atama va o'lchov birliklari ishlatilsa ba'zi hollarda boshqa narsalarni bir xil nomlashadi. Masalan amerikaliklarning pintalari britanlarning pintalarini 4/5 ni tashkil etadi.

Ushbu kursda chalkashliklarni bartaraf etish uchun biz sizga tanish bo'lgan o'lchov tizimidan foydalanamiz. Barcha kattaliklar bir tizimda ifodalanishlari juda muhim bo'lib, bu sizning ishingiz natijalari noto'g'ri bo'lishini oldini oladi.

Bu ogohlantirishga qaramay siz savol berayotganingizda yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p xato ekanligini tushunasiz.

Yuqorida ko‘rsatilgan birliklardan doim foydalanishimiz kerak. Boshqa birliklar ma‘nosini ushbu tizimning kerakli qismiga o‘tkazmasdan turib ulardan foydalanish mumkin emas. Siz biror birlikning ma‘nosini bilmasangiz, siz aniqlashtirib olishingiz lozim bo‘ladi, aks holda sizning taxminlaringiz noto‘g‘ri bo‘ladi.

$$30\text{kg/m.s}=30\text{m}$$

Sizga bir foydali maslahat beramiz, siz foydalanmoqchi bo‘lgan istalgan tenglamaning o‘lchov birliklarini yozib oling.

O‘lchov birliklariga misollar.

Suv kompaniyasi bu hududda uzoq vaqt mobaynida suv yetarli miqdorda bo‘lishini tekshirmoqchi. U qamrab olayotgan mintaqqa 500 mil kvadratini tashkil etadi va turli ofislar esa quyidagi iste‘mol ko‘rsatkichlarini jo‘natdilar. Suv miqdorini hisoblash uchun yetarli ma‘lumot bo‘lsada, ular turli o‘lchov tizimlarida ifodalanganlar.

Umumiy hududdan 100000 gektar qishloq xo‘jalik yerlaridan qolganini esa shahar yerlaridir. Shahar aholisining zichligi kvadrat metrga 50 kishini tashkil etadi. O‘rtacha unitaz 200 mm ga 15 dyumga 0.3 o‘lchamli bo‘lib, har bir odam o‘rtacha kuniga 3 marotaba undan foydalanadi. Shahar aholisi zichligi 1 dyum kvadratiga 5 kishini tashkil etadi. Har bir odam haftasiga 2 marta vanna qabul qiladi, vannadagi o‘rtacha suv miqdori 6 ta gallonni tashkil etadi. Mahalliy sanoat haftasiga 1000 m³ suv iste‘mol qiladi. Suvdagi boshqa ehtiyojlar kishi boshiga 1 gallon deb aniqlandi. Mintaqadagi Amerika aviabazasi AQSH ning 1 kishisiga kuniga 50 gallon suv kerak degan ma‘lumotni berdi. Yog‘ingarchilikning 1 oy (28 kun) mobaynidagi o‘rtacha miqdori. Shahar hududidagi yog‘ingarchilikning deyarli to‘liq qismi daryoga ketsa, qishloqlarda faqatgina 10 % igina, daryolarga 85% yo‘qolib ketadi va qolgan 5% esa mintaqani suv bilan ta‘minlab turuvchi suv omboriga ketadi. Ushbu rezervuar 500 akrga teng maydon bo‘lib u ko‘chatlardan 10 m chuqurlikda joylashgan. Uning 10% oy davomida turli maqsadlarga binoan ishlatiladi.

- A) kun davomida umumiy suv iste'moli miqdori qancha?
- B) agar rezervuar bo'sh bo'lganida va suvni daryodan ola-olmaganlarida, yomg'ir faqatgina 10 % gagina suv yetarli bo'larmidi?

2.3. SUYUQLIK MEXANIKASI VA UNING XOSSALARI

Suyuqlik mexanikasi nimani anglatadi? Nomidan kelib chiqqan holda u amaliy mexanikaning bo'limi bo'lib, u suyuqlikning statik va dinamik holatini - gaz va qotishma holatlarini ko'rib chiqadi. Suyuqlik o'zini qanday tutishi tahlillari bizga tanish bo'lgan qattiq jisimli mexanikaning xususiyatlarini hisobga olgan holda mexanikadagi massa va energiya kuch va impuls bilan uzluksizligini bog'lovchi qonunlariga asoslanadi.

• *Ushbu bo'lim maqsadlari:*

1. Suyuqlikning tabiatini aniqlash.
2. Suyuqlik mexanikasi va qattiq jism mexanikasining tutash joylarini aniqlash, tub farqlanish joylarini ko'rsatish.
3. Yopishqoqlik tushunchasini kiritish nyuton va nonyuton suyuqliklar nima ekanligini tushuntirish.
4. Suyuqliklarning o'ziga xos fizik xossalarini aniqlash, va shu bilan birga ular qanday qilib suyuq massalar va qattiq jismlarni, gazlar va qotishmalarni differentsiallarini ko'rsatadi.


2.4. SUYUQLIK TO'G'RIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

Suyuqlik mexanikasini qattiq jism mexanikasidan ajratib turuvchi ikkita jihati mavjud: Odatda biz materiyaning 3 holatini ya'ni suyuq, qattiq va gaz holatini bilamiz. Biroq suyuqlik va gaz bir vaqtning o'zida suyuqlik hisoblanadilar, ular qattiq jismdan farqli o'laroq deformatsiya shakl o'zgarishiga qarshilik ko'rsata olmaydilar.

1. Suyuqlik tabiati qattiq jism tabiatidan tubdan farq qiladi.

2. Suyuqliklarda biz odatda boshlanishi va oxiriga ega bo'lmagan suyuqlik oqimini kuzatishimiz mumkin. Qattiq jismlarda esa biz faqatgina alohida elementlar holati bilan ishlay olamiz.

Shunday qilib deformatsiya kuchiga qarshilik ko'rsata olmagan suyuqlik, u harakatlanadi, u kuch ta'siri ostida oqa boshlaydi. Uning shakli uzluksiz o'zgarib boradi, kuchning ta'siri yakunlanmaguncha shakl o'zgaraveradi. Qattiq jism deformatsiya kuchiga qarshilik ko'rsata oladi. Tinch holatda bu kuch ba'zida joy o'zgartirishi mumkin. Biroq qattiq jism cheksiz harakatlana olmaydi.




2.4.1-rasm. F suyuqlik elementiga ta'sir ko'rsatuvchi harakat kuchi

Deformatsiya chiqib ketish kuchlari natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ular sirtga nisbatan tendentsial ta'sir ko'rsatishadi. Quyidagi chizmaga nazar solsak, ABDC ning to'g'ri burchakli (yaxlit tekislangan) elementlarida tendentsial harakatlanayotgan F kuchni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Aynan shu chiqib ketuvchi kuch ABDC ning ramkali (nuqtali) elementini paydo qiladi. Biz shunday deya olamiz.

Suyuqlik bu harakatlanuvchi kuch ta'sirida tinimsiz yoki oqimlar bilan deformatsiyalanuvchi moddadir.

Aksincha bu ta'rif muhim bir jihatga e'tibor qaratishni talab etadi. *Agar suyuqlik tinch holatda bo'lsa unga harakatlanuvchi kuchlar ta'sir ko'rsatmaydi. Barcha kuchlar ular ta'sir ko'rsatayotgan tekisliklarga perpendikulyar bo'lishlari kerak.*




2.4.2-rasm. Quvurdagi tezlik profili.

Suyuqlik harakatidagi, suyuqlik zarralari bir-biriga qarama-qarshi harakatlansa harakatlanuvchi quvvat oshib boradi. Bu holat sodir bo‘layotgan paytda, yonma-yon joylashgan zarralar turli tezlikka ega bo‘ladilar.

Agar suyuqlikning tezligi har bir nuqtada bir xil bo‘lsa, unda harakatlanuvchi quvvat yuzaga kelmaydi va zarralar 0 ga teng bo‘lgan qiyosiy tezlikka ega bo‘ladilar. Suv oqayotgan quvurdagi oqimni ko‘rib chiqamiz. Quvur devorlaridagi suvning harakat tezligi 0 ga teng bo‘ladi. Suvning harakatlanish tezligi quvurning markaziga yaqinlashgan sari oshib boradi.

Suv tezligining bu kabi oqimning yo‘nalishiga qarab ko‘ndalang o‘zgarishi bizga tezlik profili sifatida ma‘lum bo‘lib, u quyidagi chizmada ko‘rsatilgan. Oqayotgan suvdagi yonma-yon joylashgan zarralari turli tezlikda harakatlanadi va harakatlanayotganliklari sababli harakatlanayotgan hozirgi muhitda ko‘ndalang kuchlar amalda bo‘ladilar.

Ya‘ni ko‘ndalang kuchlar odatda harakatdagi oqayotgan muhitda kuzatiladilar. Biroq agar suyuqlik chegaradan uzoq joylashgan va barcha zarralar bir xil tezlikka ega bo‘lsa, u holda



2.4.3-rasm. Bir xil oqimdagi tezlik profili

tezlik profili taxminan bunday ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Barcha zarralar qiyosiy nol tezlikka ega bo‘lganlari sababli bu yerda harakatlantiruvchi kuchlar mavjud emaslar. Amalda esa biz qattiq chegaralarning oqishini kuzatishimiz mumkin, ya‘ni samalyotlar, avtomobillar, quvur devorlari, daryo kanallari va boshqalar va harakatlantiruvchi kuchlar ham mavjud bo‘ladilar.

Bizga ma‘lumki, tabiatda uch xil modda mavjud: qattiq, suyuq va gaz yoki plazma ko‘rinishda. Harorat va bosimning o‘zgarishi natijasida suyuq jism qattiq yoki gazsimon holatga o‘tishi mumkin. Masalan, yuqori bosim ostida suv – muz


kristalli holatga o'tadi yoki aksincha, past bosim ostida gazsimon holatni qabul qiladi.

Suyuqliklar qattiq jismlarga qaraganda o'z shaklini ushlab tura olmaydi va egallab turgan idish shaklini oladi. Suyuqliklar qattiq jismlarga nisbatan o'z zarrachalarining juda harakatchanligi bilan farq qiladi va oquvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Gidravlikada suyuqliklar ikki turga bo'linadi: tomchilanuvchi va gazsimon. Suyuqlik deganda tomchilanuvchi suyuqlik tushuniladi. Ular gazsimonlarga qaraganda juda ham kichik va katta zichligi bilan farqlanadi; bularga, suv, spirt, neft, simob, turli moylar va boshqalar kiradi.

Tomchilanuvchi suyuqliklar bir qancha xususiyatga ega:
hajmi bosim ta'sirida juda kam o'zgaradi;
temperatura o'zgarishi bilan hajmi o'zgaradi;
cho'zuvchi kuchlarga deyarli qarshilik ko'rsatmaydi;
sirtida molekulalararo qovushqoqlik kuchi yuzaga keladi va u sirt taranglik kuchini vujudga keltiradi.

Suyuqlikka quyidagicha ta'rif berish mumkin – tashqi bosim va harorat ta'siri ostida o'z hajmini o'zgartirmaydigan va oquvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan fizik jismga suyuqlik deb ataladi.



2.4.4-rasm. Suyuqlik oquvchanligini o'rganish sxemasi

Suyuqlikni oquvchanlik xususiyatining mohiyatini tushunish uchun quyidagi hisoblash sxemasidan foydalanamiz (2.4.4–rasm) T qattiq jism suyuqlikka botirilgan og'irlik kuchi hisobiga ma'lum kuchlanishlar paydo bo'ladi. Agar jismda *mn* ixtiyoriy kesimni oladigan bo'lsak, unda normal kuchlanishdan tashqari urinma kuchlanishlar ham mavjud bo'ladi. Faraz qilaylik, T - jism tinch holatda urinma kuchlanish ta'siriga bardosh berolmay, yemirila boshlaydi va idishning ko'rinishini qabul qiladi. Boshqacha qilib aytganda, suyuqlik qattiq jismdan farqli o'laroq, nisbiy tinch holatda turganida urinma kuchlanishiga ega bo'lmaydi.

Suyuqliklar tomchi va gazlarga bo‘linadi. Gidravlika kursida biz asosan tomchisimon suyuqliklarning qonuniyatlarini o‘rganamiz. Tomchisimon suyuqlik deb, oquvchanlik xususiyatiga ega bo‘lgan va biror idishga quyilganda shu idishni shaklini egallaydigan, amaliy siqilmaydigan fizik moddaga aytiladi.

Suyuqlik qattiq jismlardan molekulalar orasidagi tortishish kuchining juda kichikligi va oquvchanligi (siljuvchanligi) bilan farqlanadi. Shuningdek, suyuqlik, amalda o‘z hajmini o‘zgartirmaydi, tashqi kuchlar ta‘sirida va haroratning o‘zgarishi bilan sezilmas darajada o‘zgaradi.

Gazlar ham oquvchanlik xususiyatiga ega bo‘lish bilan bir qatorda, o‘z hajmlarini tashqi kuchlar ta‘sirida o‘zgartiradilar. Tomchili suyuqliklarga - suv, benzin, kerosin, spirt va boshqalar kiradi.

Kursimiz davomida “suyuqlik” deganda, melioratsiya va gidrotexnika sohalarini qamrab olgan suv ko‘zda tutiladi. Suyuqliklar – ma‘lum fizik xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun ham suyuqliklarning fizik xususiyatlarini bilan bir qatorda ularning bir-biri bilan bog‘lanishlarini ham kuzatamiz. Bulardan tashqari, gidravlika fanini o‘rganishda asosiylari quyidagilar hisoblanadi.

2.5. SUYUQLIKLARNING MUVOZANAT (TINCH) VA HARAKATI DAVOMIDA TA‘SIR ETUVCHI KUCHLAR

Suyuqliklarga ta‘sir etuvchi kuchlarni ikki turga bo‘lish mumkin: *Massa kuchlari* – suyuqliklar tomchisi (zarrasi) massasiga proportsional kuchlar. Bir jinsli suyuqliklarda massa kuchlarini hajmga proportsional kuchlar deb atash mumkin. Bunday kuchlarga – og‘irlik kuchlari, inertsia kuchlari va boshqalar kiradi.

$$F = mA, \quad (2.5.1)$$

bunda, $m - W$ – W hajmdagi suyuqlikning massasi;

A – nisbiy solishtirma massa birligidagi kuch, ya‘ni tezlanish. Tashqi yuzaga ta‘sir etuvchi kuchlar – suyuqlik tashqi yuzasiga proportsional bo‘lgan kuchlar. Bu kuchlar turkumiga - sirtga normal yo‘nalgan siquvchi bosim kuchlari va ko‘ndalang ishqalanish kuchlari kiradi. Masalan:

$$P = P\omega = \sigma\omega \quad (2.5.2)$$

$$\dot{O} = \tau\omega, \quad (2.5.3)$$

bunda, $\vec{D}$ - bosim kuchi; $\vec{T}$ - ishqalanish kuchi;


- suyuqliklar harakatidagi siqiluvchan normal kuchlanish;
- suyuqliklar harakatidagi ko'ndalang ichki kuchlanish;
- kuch ta'sir etayotgan yuza.

Yuqorida zikr etilgan kuchlar tashqi kuchlar turkumiga kiradi. Ichki kuchlar esa suyuqliklarning zarralarini bir-biriga ta'sirini ko'rsatadi va berilgan hajmda juft kuchlar bo'lganligidan ularning yig'indisi hamma vaqt nolga teng bo'ladi.

2.6. SUYUQLIKLAR MUVOZANATINING DIFFERENTIAL EYLER TENGLAMASI

Suyuqlikning muvozanat holatini kuzataylik. Muvozanat holatdagi suyuqliklarga bosim va og'irlik kuchlari ta'sir qiladi. Bosim suyuqlik egallagan hajmning har xil nuqtasida har xil qiymatga ega. Buning uchun kuzatayotgan suyuqlik ichida koordinata o'qlarini belgilab olaylik (x, y, z) . Koordinatamizning boshlanishida ixtiyoriy A nuqtani belgilab olaylik, uning koordinatalari x, y, z bo'lsin (2.6.1-rasmga qarang).

A nuqta atrofida cheksiz kichik parallelepiped 1-2-3-4-5-6-7-8 qaraylik. Parallelepipedning dx, dy, dz tomonlari bo'lsin. A nuqtamiz parallelepipedning markazida joylashgan bo'lsin. Endi suyuqlikka ta'sir qiluvchi kuchlarning muvozanat holatini tekshiraylik. Og'irlik kuchlarining proyeksiyalari $\rho X dW$; $\rho Y dW$; $\rho Z dW$ bo'lsin.



2.6.1-rasm. Eyler tenglamasiga doir chizma

Elementar hajmning YOZ tekislikda yotgan sirtiga Ox yoʻnalishda P ga teng, unga parallel boʻlgan sirtiga esa $p + \frac{\partial p}{\partial x}$ ga teng bosimlar taʼsir qiladi (2.6.1-rasm).

Bu sirlarga taʼsir qiluvchi bosim kuchlari esa tegishlicha $pdydz$ va $(p + \frac{\partial p}{\partial x})dydz$ larga teng. Olingan elementar hajm Ox oʻqi boʻyicha muvozanatda boʻlishi uchun bu oʻq boʻyicha yoʻnalgan kuchlar yigʻindisi nolga teng boʻlishi kerak:

$$pdy - (p + \frac{\partial p}{\partial x} dx)dydz - \rho x dx dy dz = 0 \quad (2.6.1)$$

Oy oʻqi boʻyicha, yOz tekislikda yotuvchi sirtga $pdx dz$, unga parallel boʻlgan sirtga

esa, $(p + \frac{\partial p}{\partial y} dy)dxdz$ kuchlar taʼsir qiladi.

Oy oʻqi boʻyicha muvozanat sharti:

$$pdx dz - (p + \frac{\partial p}{\partial y} dy)dxdz - \rho y dx dy dz = 0 \quad (2.6.2)$$

Oz oʻqi boʻyicha:

$pdx dy$ va $(p + \frac{\partial p}{\partial z} dz)dxdy$ kuchlar taʼsir qiladi hamda muvozanat sharti quyidagicha boʻladi:

$$pdx dy - (p + \frac{\partial p}{\partial z} dz)dxdy - \rho Z dxdy dz = 0 \quad (2.6.3)$$

Oʻxshash miqdorlarni qisqartirish va qolgan hadlarni dx , dy , dz ga boʻlishdan keyin quyidagi tenglamalar tizimini olamiz:

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial p}{\partial x} &= \rho X \\ \frac{\partial p}{\partial y} &= \rho Y \\ \frac{\partial p}{\partial z} &= \rho Z \end{aligned} \right\} \quad (2.6.4)$$


Bu tenglamadan koʻrinib turibdiki, muvozanatdagi suyuqliklarda bosimning oʻzgarishi massa kuchlariga bogʻliq (3.7.4) tenglamalar tizimi suyuqliklar muvozanat holatining umumiy differentsial tenglamasidir. Bu tenglamani L. Eyler 1755 yilda ishlab chiqargan.

2.7. CHOʻKGAN EGRI SATHDAGI NATIJAVIY KUCHLAR


Yuqorida koʻrsatilganidek, agar sath egri boʻlsa, sathning har bir element kuchlar parallel boʻlmaydilar. Vektor uslubini qoʻllagan holda birlashtirilib qoʻllanishlari mumkin boʻladi.

Gorizontal va vertikal komponentlarni hisoblash va natijaviy kuchlarni hamda ularning yoʻnalishlarini osonroq olish uchun ularni birlashtirish osonroq hisoblanadi. (Bu shu tarzda qolgan 3 ta oʻlchovlar uchun ham qoʻllanilishi mumkin, biroq bu yerda biz faqatgina bitta vertikal tekislikni koʻrib chiqamiz).

Quyida keltirilgan diagrammada suyuqlik egri asosga tayangan. Element ABC suyuqlik elementi muvozanatda (chunki suyuqlik tinch holatda).



2.7.1-rasm. Cho'kgan egri sathdagi natijaviy kuch



2.7.2-rasm. Cho'kgan egri AC , F_{AC} gorizontall kuch.

Gorizontall kuchlarni hisobga olgan holda, ularning hech biri CB ga ta'sir qila olmaydi. Chunki statik suyuqlikda siljish kuchlanishi bo'lmaydi.

Shuning uchun ham kuchlar pastda ko'rsatilganidek AC va AB chegaralarida harakatlanadilar. AC , F_{AC} dagi gorizontall kuch teng bo'lishi kerakligini, egri sathdagi R_H 2.7.1-2.7.2-rasmlarda natijaviy kuchiga qarama-qarshi bo'lishi kerakligini bilamiz.

$AC - AB$ egri chiziqli sathining proektsiyasi ekan, biz buni umumlashtirishimiz mumkin:

Egri chiziqli sath ustidagi suyuqlikning natijaviy gorizontall kuchi

AC , F_{AC} quyidagini tashkil qiladi:


R_H vertikal sathga egri sathli proektsiyani natijaviy kuchi.

2.26. SUYUQLIK VA GAZLARDA BOSIM O'LCHASH ASBOBLARI

Suyuqlik bosimi quyidagi asboblarda yordamida o'lchanadi:

- pe'zometrlar,
- manometrlar,
- vakuummetrlar,

Pe'zometrlar va manometrlar ortiqcha yoki manometrik bosimlarni o'lchaydi, ya'ni atmosfera bosimidan

$$P_{atm} = 101325 \text{ Pa} = 0,101325 \text{ MPa} \text{ dan ortiqchasini o'lchaydi.}$$

Bu asboblarda atmosfera bosimidan yuqori bo'lgan bosimlarni o'lchaydi. To'liq bosim uchun P_{man} bosimga atmosfera bosimini P_{atm} barometrga berilgan qiymati qo'shib beriladi.

Gidravlikada atmosfera bosimi ko'pincha o'zgarmas bo'lib u $P_{atm} = 101325 \text{ Pa} \approx 100\,000 \text{ Pa}$ ga teng.

Pe'zometrlar odatda vertikal qo'yilgan shisha quvurlardan iborat bo'lib uni osti qismi bosimi o'lchanayotgan nuqtasida bo'ladi. (masalan, A nuqta 2.26.1- rasm) ustki qismi ochiq bo'lib atmosfera bosimiga ega pe'zometrda h_n ko'rsatkich suyuqlik ustuni qiymati ortiqcha (manometrik) bosim miqdorini ifodalaydi.


$$p = \gamma h_n , \quad (2.26.1)$$

bu yerda, h_n – pe‘zometr naporni ifodalaydi.

Eslatib o‘tilgan pe‘zometrlar ko‘pincha laboratoriya sharoitidagi bosimni o‘lchashga asoslangan, bu o‘lchov asbobini qulayligi shundaki o‘lchashda qo‘shimcha mexanizmlar ishlatilmay oddiy chizg‘ich yordamida o‘lchanadi.

Ammo bunday pe‘zometrlarning balandligi 5 m gacha bo‘lishi mumkin. Pe‘zometr sifatida har qanday suv bilan ta‘minlangan quduq, o‘ra va boshqa usti ochiq bo‘lgan havzalardagi suv chuqurligini o‘lchash natijasi h_n -miqdorini ifodalaydi.

Manometrlar uchun esa ko‘pincha mexanik manometrlar (2.26.1-rasmda) qo‘llaniladi, ayrim hollarda suyuqlik manometrlari ishlatilindi.



Barcha manometrlar to‘liq bo‘lmagan ortiqcha yoki manometrik bosimni o‘lchaydi.

2.26.1-rasm. Manometr

$$p_{atm} - p_{ort} = p - p_{atm} \quad (2.26.2)$$

Manometrlarni pe‘zometrlarga nisbatan afzalligi shundaki ularning o‘lchash chegarasi keng ammo ular kamchiliklardan holi emas, ularni ko‘rsatkichlari har doim kuzatib boriladi. Manometrlar hozirgi vaqtdagi ishlab chiqariladiganlari XUB asosida MPa yoki kPa. Shunga qaramay chet davlatlarda ishlab chiqarilgan manometrlar ishlatib kelinmoqda, ular ko‘rsatkichlari kgk/sm² ni ko‘rsatadi, uni ko‘rsatkichi atmosfera bosimdan yuqori qiymatni beradi.

Vakuummetr tashqi ko‘rinishi manometr (2.26.1-rasmga) o‘xshash bo‘ladi. Vakuummetrlar atmosfera bosimdan past qiymatni o‘lchaydi u miqdor p_{vak} asbobga to‘liq va atmosfera bosimga bog‘liq u quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$p_{vak} = p_{atm} - p \quad (2.26.3)$$

Ya'ni vakuum – atmosfera bosim va to'liq bosim ayirmasiga teng ekan. P_{vak} - vakuum bosim atmosfera bosimdan katta qiymatga ega bo'lmaydi, ya'ni uning chegara qiymati $P_{vak} = 100\,000\text{ Pa}$, chunki to'liq bosim absolyut noldan kichik bo'lishi mumkin emas.

Pe'zometrik balandlik bilan P_{man} - manometrik bosim yoki ortiqcha P_{art} bosim va P_{vak} vakuummetrik bosimlar orqali bog'lanishni quyidagi misollar orqali farqlarini ko'rsatamiz:

-pe'zometr ko'rsatkichi $h_n = 160\text{ sm}$ suv ust. Bo'lsa manometrik bosim XUB birlikda $P_{atm} = P_{vak} = 16000\text{ Pa}$ va to'liq bosim

$$p = 100\,000 + 16000 = 116\,000\text{ Pa}$$

-manometr ko'rsatkichi $P_{man} = 2,5\text{ kgk/sm}^2$ suv ustuni bo'yicha $h_n = 25\text{ m}$ va to'liq bosim XUB birlikda $p = 0,35\text{ MPa}$;


-vakuummetr $P_{vak} = 0,04\text{ MPa}$ ko'rsatkichda, to'liq bosim

$$P = 100\,000 - 40\,000 = 60\,000\text{ Pa},$$

bu 60% P_{art} bosimni tashkil etadi.

Masalalarni yechimini aniqlashda biror birlikdan ikkinchi o'lchov birligiga o'tishini ta'minlaydi.

Mikromanometr - juda kichik bosimlarni o'lchash uchun ishlatiladi va suyuqlik sathining o'zgarishi sezilarli darajada bo'lishi uchun suyuqlik to'ldirilgan idishga shisha naycha qiya burchak ostida ulangan bo'ladi 2.26.2-rasmda.



2.26.2-rasm.Mikromanometr

U holda idishdagi chegirma bosim quyidagicha aniqlanadi: $P = \gamma h$ bo'lgani uchun

$$P = \gamma L \sin \alpha, \quad (2.26.4)$$

shisha naychaning qiyalik burchagi α , qancha kichik bo'lsa bosim shuncha aniq o'lchanadi. Ko'p hollarda manometr shisha naychaning qiyalik burchagini o'zgaruvchan qilib ishlanadi, bu esa mikromanometrlarning qo'llash sohasi kengayadi.

Differentsial manometrlar-ikki idishdagi bosimlar farqlarini o'lchash uchun ishlatiladi 2.26.3-rasmda. Bosimlarni P_A va P_B ga teng bo'lgan ikki idish simobli U -simon naycha oqali tutashtirilgan. Bu holda $\tilde{N}$ nuqtadagi bosim birinchi idishdagi bosim quyidagicha ifodalanadi.

$$P_c = P_a + \gamma_1 h_1 \quad (2.26.5)$$

Ikkinchi idishdagi bosim orqali esa

$$P_c = P_a + \gamma_1 h_2 + \gamma_{sm} \cdot h \quad (2.26.6)$$


U holda idishlardagi bosimlar farqi

$$P_a - P_b = \gamma_1 (h_2 - h_1) + \gamma_{sm} \cdot h \quad (2.26.7)$$

Ikki idishdagi suyuqliklar sathi teng

bo'lganda esa $h_2 - h_1 = h$ va

$$P_a - P_b = \gamma_1 (\gamma_{sm} - \gamma_1) h \quad (2.26.8)$$




2.26.3-rasm. Differentsial manometr

Vakuummترلar. Tuzilishi xuddi suyuqlik U -simon manometrga o'xshash bo'lib, idishdagi siyraklanish darajasini aniqlaydi 2.26.4-rasmda.

Gidrostatik bosim tenglamasiga asosan

$$P + \gamma_{sim} h_{sm} = P_{at}$$

u holda



2.26.4-rasm. Vakuummטר

$$P = P_{at} - \gamma_{sm} h_{sm} \quad \text{simob ustunining pasayishi idishdagi bosim va } P_a$$

$$h_{sm} = \frac{P_a - P}{\gamma_{sm}}.$$


orqali quyidagicha ifodalanadi:

Doimiy zichlikka ega Statik suyuqlikda biz yuqorida ko'rsatilganidek

$$\frac{dp}{dz} = -\rho g$$

nisbatiga egamiz. Buni quyidagini olish uchun integrallasa

bo'ladi. $p = -\rho g z + \text{const}$



Erkin sathli suyuqlikda istalgan Z chuqurlikdagi bosim erkin sathdan hisoblaniladi.

2.26.5-rasm. Bakdagi suyuqlik bosim darajasini aniqlash

Demak, $z = -h$ (yuqoridagi rasmga qarang).

Bu $p = -\rho g z + \text{const}$ bosimini beradi.

Biz odatda ish olib boradigan suyuqliklar sathida bosim atmosfera bosimi sifatida ko'riladi.

S_o $p = -\rho g h + p_{atm}$ biz va boshqa barcha narsalar shu atmofera bosimi ostida harakatlanar ekanmiz, uni boshlang'ich nuqta sifatida qarash qulayroq bo'ladi.

Shuning uchun ham biz bosimni atmosfera bosimidan teparoq yoki pastroq olishimiz kerak bo'ladi.

Bu tarzda ko'rsatilgan bosimni manometr bosim sifatida ma'lum, ya'ni:

$$\text{Manometr bosim } p_{man} = \rho g h$$

Bosimning istalgan pastki chegarasi 0 ga teng – bu ideal vakuumdagi bosimdir. Bu kattalikdan katta qilib o'lchangan bosim absolyut bosim hisoblanadi, ya'ni:

Absolyut bosim

$$p_{\text{abs}} = p_{\text{atm}} + \rho gh \quad (2.26.9)$$

Absolyut bosim = Manometrik bosim + Atmosfera bosim

Biz g ni (taxminiy) doimiy deb olsak, manometrik bosimni shu bosimga teng bo'lgan ρ , zichlikdagi istalgan vertikal balandlikdagi suyuqlikni bergan holda olish mumkin bo'ladi.

$$p = \rho gh \quad (2.26.10)$$

Vertikal balandlik suyuqlik oqimining kuchi sifatida ma'lum

Ilova: Agar bosim o'qi kuchi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, u holda suyuqlikning zichligini ham ko'rsatish kerak bo'ladi.

Masalan, $\rho = 1000 \text{ kgm}^{-3}$ zichlikka ega suv ustunining balandligi atamasida 500 kN m^{-2} bosimini ko'rsatishimiz mumkin. $p = \rho gh$ dan foydalangan holda.

$$h = \frac{p}{\rho g} = \frac{500 \cdot 10^3}{1000 \cdot 9,81} = 50,95 \text{ m}$$

Merkuriy nuqtai nazaridan $\rho = 13,6 \cdot 10^3 \text{ kgm}^{-3}$ zichligi bilan.


$$h = \frac{500 \cdot 10^3}{13,6 \cdot 10^3 \cdot 9,81} = 3,75 \text{ m.}$$

Oqim kuchi va bosim o'rtasidagi nisbat bosimni manometr (suyuqlik indikator) sifatida ham ma'lum) yordamida o'lchash uchun kerak bo'ladi.

Tahlillarni namoyish qilish va bosimni o'lchash uchun turli xildagi manometrlardan foydalanish.

P'ezometrik manometr. Eng oddiy manometr bu tepasi ochiq, idishning tepa qismiga mustahkamlangan, ichida bosimi (atmosfera bosimidan yuqori) o'lchanishi kerak bo'lgan suyuqlikka ega quvurdir. Riko pastda 2.26.6-rasmda ko'rsatilgan. Bu oddiy uskuna P'ezometr trubkasi sifatida ma'lum. Trubkaning og'zi atmosfera

uchun ochiqdir. Uning bosimi esa atmosfera bosimiga nisbatan o'lgan. Shuning uchun manometrik bosim:



2.26.6-rasm. P'ezometr trubkasi

P'ezometr trubkasidagi A dagi manometr bosim = A dan yuqori suyuqlik ustunida aniqlangan bosim quyidagicha
 $p_A = \rho g h_1$, B dagi bosim = B dan yuqori suyuqlik ustuni sababli paydo bo'lgan bosim.

$$p_B = \rho g h_2 \quad (2.26.11)$$


Bu usul faqatgina suyuqliklar uchun (gazlar uchun emas) va balandlikni o'lchash mumkin bo'lgan hollardagina qo'llanilishi mumkin. U juda katta yoki juda kichkina bo'lishi kerak emas va bosimdagi o'zgarishlar aniqlanishi kerak.

Manometr "u" –trubkasi.

«U» -trubkasidan foydalanish bitta uskuna yordamida suyuqliklar va gazlarning bosimini o'lchash imkonini beradi. «U» pastdagi rasmda ko'rsatilganidek, bog'langan va manometrik suyuqlik bilan to'ldirilgan. Uzluksiz statik suyuqlikdagi bosim istalgan gorizontaal bosqichda bir xil bo'ladi. Shuning uchun, B bosim = C nuqtasidagi bosim $p_B = p_C$ Bir tomondan B dagi bosim = A dagi bosimga + o'lchanayotgan suyuqlikning h_1 balandlik bosimi

$$p_B = p_A + \rho g h_1 \quad (2.26.12)$$

Boshqa tomondan C dagi bosim = D dagi bosim + bosim balandligi manometrda suyuqlikning h_2 balandlik bosimi



2.26.7-rasm. "U" –Trubkali manometr

$$p_C = p_{Atm} + \rho_{man}gh_2 \quad (2.26.13)$$

Biz manometrik bosimni o'lcayotgan ekanmiz, biz p_{Atm} atmosfera bosimni olib tashlashimiz mumkin bo'ladi. U holda

$$p_B = p_C$$

$$p_A = \rho_{man}gh_2 - \rho gh_1 \quad (2.25.14)$$

O'lganayotgan suyuqlik gaz bo'lsa manometrik muhit zichligiga nisbatan zichlik juda past bo'lishi mumkin: ya'ni, $\rho_{man} \gg \rho$. Bu holda ρgh_1 bo'lagini olib tashlash quyidagi manometrik bosimni bersa bo'ladi.

$$p_A = \rho_{man}gh_2 \quad (2.25.15)$$

«U» -trubka manometri yordamida bosimlarning to'g'rililigini o'lchash:
Agar U shimon trubkali manometr idish bilan ikkita nuqtada bosim ostida bog'langan bo'lsa, u holda ushbu ikkita nuqta o'rtasidagi bosimlarning to'g'rililigini o'lchash mumkin bo'ladi.

Agar manometr yuqoridagi 2.28.8-rasmda ko'rsatilganidek joylashgan bo'lsa, u holda C dagi bosim = C nuqtasidagi bosim: $p_C = p_D$

$$p_C = p_A + \rho gh_a$$

$$p_D = p_B + \rho g(h_b - h) + \rho_{man}gh \quad (2.26.16)$$

$$p_A + \rho gh_a = p_B + \rho g(h_b - h) + \rho_{man}gh$$

Bosimlar farqini bera turib:


$$p_A - p_B = \rho g(h_b - h_a) + (\rho_{man} - \rho)gh$$

Agar bosimlari to'g'rililigi

o'lchanayotgan suyuqlik gaz bo'lsa va

$\rho_{man} \gg \rho$, u holda r ning

ishtirokchilarini e'tiborga olamiz.




2.26.8-rasm. "U" –Trubkali manometr yordamida bosimlarning to'g'rililigini o'lchash

Shuning uchun ham:

$$p_A - p_B = \rho_{man} gh \quad (2.26.17)$$

Quvurlik "U" simon manometriga o'tish: U-simon trubkali manometrnining kamchiligi shundan iboratki, balandlikning o'zgarishlarini ikki tomondan o'lchash kerak. Agar bir tomon diametri ikkinchi tomonga nisbatan juda katta bo'lsa buni bartaraf qilish mumkin bo'ladi. Bu holda kichik diametrli tomon ancha ko'p harakatlangan, bir paytda kattaroq diametrli tomon kam harakatlanadi.

Tasavvur qilib ko'raylik: gaz bosimlarini turlichaligini o'lchash uchun (kichik zichlikni e'tiborga olmagan holda) manometr yuqoridagi rasmdagidek joylashtirilgan. Bosimlarning turlicha bo'lishligi $p_1 - p_2$ ga teng. Agar bazaviy chiziqli bosimlarning turlicha bo'lishiga 0 ga tengligini ko'rsatgan holda manometrik suyuqlikning sathini ko'rsatsa va balandliklarning turli xil bo'lganligi berilgan bosimlarda ko'rsatilsa, u holda chap tarafdin o'ng tarafga o'tkazilayotgan suyuqlik hajmi $= z_2 \cdot (\pi d^2 / 4)$:



2.26.9-rasm. Quvurlik "U" simon manometriga o'tish

va chap taraf sathining tushishi:

$$z_1 = \frac{\text{VOLUME moved}}{\text{Area}} = \frac{z_2 \left(\pi d^2 / 4 \right)}{\pi D^2 / 4} = z_2 \left(\frac{d}{D} \right)^2$$


«U» trubkali manometr qoyidasidan bizga ma'lum bo'ldiki, ikki ustunchalarda farq qiluvchi balandlik, bosimning farqlanishini beradi, shuning uchun:

$$p_1 - p_2 = \rho g \left[z_2 + z_2 \left(\left(\frac{d}{D} \right)^2 \right) \right] = \rho g z_2 \left[1 + \left(\frac{d}{D} \right)^2 \right] \quad (2.26.18)$$

Ma'lumki, agar D , d dan ancha katta bo'lsa, u holda $(d/D)^2$ juda kichik bo'ladi shuning uchun ham,

$$p_1 - p_2 = \rho g z_2 \quad (2.26.19)$$

Shu sababdan ham bosimning to'g'rililigini o'lchash uchun faqat bitta ko'rsatkichdan foydalanish zarur bo'ladi.



2.26.10-rasm. Qiya manometr

Agar o'lchanayotgan bosim juda kichik bo'lsa, u holda dastakni ag'darish manometrnining kattaroq ko'chishiga qulayroq uslubni ta'minlaydi. Yuqorida keltirilgan qiya dastakli uskuna 2.26.10- rasmida ko'rsatilgan.

Bosimlarning to'g'rililigi endi ham manometrik suyuqlikning balandligini o'zgartirish orqali aniqlanadi, biroq shkalani qiya dastak chizig'i bo'ylab o'rnatish kerak bo'ladi va bu hisoblashda katta harakatlar kuzatiladi. Bosimning farqi esa quyidagicha bo'ladi:

$$p_1 - p_2 = \rho g z_2 \quad (2.26.20)$$


$$\rho g x \sin \theta$$

Bosimning o'zgarishiga sezuvchanlik manometrik idishning kuchli egilishi hisobiga kattalashishi mumkin, aks holda manometrda suyuqlikning zichligi o'zgarishi mumkin.

Manometrlarni tanlash: Idishga manometr mustahkamlanish jarayonida ehtiyotkorlikka e'tibor berish kerak bo'ladi, bo'g'im atrofida g'adir-budurlar bo'lishi kerak emas. G'adir-budurlar o'lchashga ta'sir ko'rsatuvchi bosimni lokal tebranishlarini yuzaga keltirgan holda oqimni o'zgartirib yuboradilar.

- Manometrlarning ba'zi kamchiliklari: sekin aks - manometr juda sekin o'zgaruvchi bosim uchun foydalidir – bosimning tebranish holatlarida, umuman ko'p hollarda foydalanilmaydi;
- «U» manometri uchun h ko'rsatkichini bir paytda olish uchun bir vaqtning o'zida ikkita o'lchov ishini amalga oshirish lozim. Buni faqatgina manometrning bir tarafida boshqa tarafiga nisbatan katta ko'ndalang kesishuvli maydonli trubkadan foydalanilsagina bartaraf qilish mumkin bo'ladi.;
- ko'p hollarda bosimning kichkina o'zgarishlarini o'lchash qiyinchilik tug'diradi, shu sababdan boshqa manometrik suyuqlikka ehtiyoj paydo bo'ladi.
- muqobil (alternativ) sifatida qiya manometrda foydalanish mumkin; u bosimning yuqori ko'rsatkichlari uchun foydalana olinmaydi, agar bir necha manometrlar ketma-ket o'zaro ulanmagan bo'lsalar;
- juda aniq ish uchun harorat, harorat va o'rtasidagi bog'liqlik ma'lum bo'lishi kerak;
- manometrlarning ba'zi ustunliklari:
- ular juda oddiylar;
- almashtirish uchun ehtiyoj bo'lmaydi - bosimni birinchi qoydalari asosida hisoblash imkoni bor.

Mexanik asboblari (katta bosimlarni oʻlchash uchun ishlatiladi va buning uchun turli mexanik jihozlardan foydalanadi): 2.26.11-rasmining a) **Purjinali manometr** ichi boʻsh yupqa egik latun 1 naychadan iborat boʻlib, uning bir uchi kavsharlangan.



2.26.11. a- rasm. Purjinali manometr. 2.26.11. b-rasm. Membranali manometr

Shu uchi zanjir ikkinchi uchi bilan tishli uzatma uchinchi uchiga ilashtirilgan boʻladi.

Ikkinchi uchi esa bosimi oʻlchanishi zarur boʻlgan idishga boʻyin toʻrtinchi uchi orqali tutashtiriladi. Egik latun naycha havo bosimi taʼsirida toʻgʻrilanishga harakat qiladi va natijada tishli uzatma yordamida strelkaning burilishiga sabab boʻladi. Bunday manometrlarda bosimni koʻrsatuvchi shkala chiziqlari bor.

(2.26.11. b-rasmining) esa **membranali manometr** yupqa temir plastinkadan iborat boʻlib, u membrana deb ataladi. Suyuqlik bosimi idish bilan tutashtiruvchi boʻyicha orqali oʻtib, membranani egadi va egilish natijasida uzatuchi qismlar orqali strelka harakatga keladi va shkala boʻyicha surilib qancha bosim borligini koʻrsatadi.

1. Modda miqdorini oʻlchaydigan asboblari.

Modda miqdorini oʻlchaydigan asboblari **hisoblagichlar** deb ataladi. Hisoblagichlar oʻzlaridan oʻtgan modda miqdorini istalgan vaqt (sutka, oy va hokazo) mobaynida oʻlchaydi. Uning miqdori hisoblagich koʻrsatkichlari farqi bilan aniqlanadi. Modda miqdori hajm (litr, m³) yoki massa (kg, t.) birliklarida ifodalanadi. Hisoblagichlar bevosita oʻlchash asboblari boʻlib, ularning shkalasi boʻyicha olingan koʻrsatkichlar qoʻshimcha hisoblashni talab qilmaydi.

Sarf o'lchash uchun ishlatiladigan asboblari **sarf o'lchagichlar** deb ataladi. Moddaniy berilgan kanal kesimi orqali vaqt birligi ichida o'tgan miqdori modda sarfi deyiladi. Sarf o'lchaydigan asboblari oniy sarfni o'lchaydi va texnologik rejimlar (ayniqsa uzluksiz jarayonlarda) ishining barqarorligini nazorat qilishga, texnologik jarayonning o'tishini har bir onda avtomatik ravishda rostlashga va rejimni berilgan yo'nalishda sozlashga imkon beradi.

Moddaniy hajmiy sarfi l/s , m^3/s , $m^3/soat$, massa sarfi esa kg/s , $kg/soat$, $t/soat$ va hokazolarda ifodalanadi. Asboblari hisoblagichlar (integratorlar) bilan ta'minlanishi mumkin, unda bu asboblari hisoblagichli sarf o'lchagichlar deyiladi. Bunday asboblari modda sarfi va miqdorini o'lchashga imkon beradi. Sanoatda keng tarqalgan hisoblagichlar va sarf o'lchagichlar ishlash printsipi va tuzilishlariga ko'ra bir qancha guruhlariga bo'linadi (GOST 15528-70).

Suyuqlik va gazlarning miqdorini o'lchaydigan hisoblagichlar quyidagi asosiy guruhlariga ajratiladi:

1) hajm hisoblagichlari; 2) tezlik hisoblagichlari; 3) vazn hisoblagichlari.

Ishlab chiqarishda suyuqlik, bug' va gazlarning sarfini o'lchaydigan asboblarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Bosim farqlari o'zgaruvchan sarf o'lchagichlar.
2. Bosim farqlari o'zgarmas sarf o'lchagichlar.
3. Tezlik bosimi sarf o'lchagichlari.
4. O'zgaruvchan sathli sarf o'lchagichlar.
5. Induktsion sarf o'lchagichlar.
6. Ultratovush sarf o'lchagichlar.
7. Kalorimetrik (issiqlik) sarf o'lchagichlar.
8. Ionizatsion sarf o'lchagichlar.

O'lchanayotgan moddaniy turiga ko'ra sarf o'lchagichlar suv, mazut, bug', gaz va hokazolar o'lchagichlariga bo'linadi.

2. Hajm hisoblagichlar.

Suyuqlik va gazlar miqdorini o'lchashga mo'ljallangan hisoblagichlar o'zlarining ishlash printsipiga ko'ra hajm, tezlik va vazn hisoblagichlariga bo'linadi.

Ko'proq hajm va tezlik hisoblagichlari ishlatiladi. Gaz miqdorini o'lchashda hajm hisoblagichlaridan foydalaniladi.

Vaqt oralig'i $t_1 - t_2$ dagi oqim, massa va energiya yig'indisini ko'rsatuvchi o'lchash asbobi hisoblagich deb ataladi. Hisoblagichlar o'z funktsiyasini quyidagi formulaga muvofiq bajaradi:

$$Q = \int_{t_1}^{t_2} g \cdot dt \quad (2.26.21)$$

bu yerda, Q — vaqt oralig'ida sarflanadigan modda miqdori;

g — vaqt birligi ichida modda yoki energiya sarfi.

Hajm hisoblagichlari modda miqdorini hajm bo'yicha, tezlik hisoblagichlari esa oqim tezligi bo'yicha o'lchaydi. Ikkala hisoblagich ham moddaning asbob ishlab turgan vaqtda undan o'tgan umumiy miqdorini ko'rsatadi. Ma'lum vaqt oralig'idagi modda miqdorini aniqlash uchun olingan davrning boshlanishi va oxiridagi hisoblagich ko'rsatishini belgilash kerak. Hisoblagich ko'rsatishlarining farqi shu davr ichida asbobdan o'tgan modda miqdoriga teng bo'ladi.

Hajm hisoblagichlarining ishlash printsipli suyuqlik yoki gaz oqimi muayyan miqdorga—**portsiya** (doza)larga bo'linib sarflanishi va bu portsiyalar sonini hisoblash yo'li bilan sarflanayotgan modda miqdorini aniqlashga asoslanadi.


Sarflanayotgan portsiyalar soni yig'indisi hisoblash mexanizmi yordamida aniqlanadi. Hajm hisoblagichlari asosan toza, mexanik aralashmalarsiz bo'lgan suyuqlik va gazlar miqdorini o'lchashga mo'ljallangan. Ularning asosiy afzalliklari o'lchash xatoligining kichikligi va o'lchash diapazonining kattaligidir.

Tuzilishiga ko'ra hajm hisoblagichlari ovalsimon shesternyali, rotatsion, porshenli, diafragmali, barabanli va boshqa xil turlarga bo'linadi.

Suyuq moddalar miqdorini o'lchash uchun ovalsimon shesternyali va porshenli hisoblagichlar keng qo'llaniladi. 5-rasmda ovalsimon shesternyali hisoblagichning printsiptal sxemasi ko'rsatilgan.

Shesternyalar oqimining kirishiga ko'ra bir-birini ketma-ket harakatga keltiradi. Ular aylanganda shesternya ovali va o'lchash kamerasi devori bilan cheklangan suyuqlikning muayyan hajmi chiqarib yuboriladi.

Shesternyaning bir marta to'liq aylanishida hisoblagich o'lchov kamerasining hajmi yig'indisiga teng bo'lgan to'rtta ma'lum hajmdagi suyuqlik oqib o'tadi. Hisoblagichdan o'tgan suyuqlik miqdori shesternyalarning aylanishlar soniga ko'ra aniqlanadi 1-holatda (2.26.12- rasm) suyuqlik o'ng shesternyani soat strelkasi harakati yo'nalishida aylantiradi, o'ng shesternya esa o'z navbatida chap shesternyani soat strelkasi harakati yo'nalishiga qarshi aylantiradi.



2.26.12-rasm. Ovalsimon shesternyali hisoblagich sxemasi


Bu holatda o'ng shesternya suyuqlikning I-qismini chiqarib tashlaydi. II holatda chap shesternya suyuqlikning yangi 2-qismini chiqaradi, o'ng shesternya esa avval chiqarilgan 1-hajmli hisoblagichning chiqishmasiga uzatadi. Ish paytida

aylantiruvchi moment ikkala shesternyaga ham taʼsir qiladi. III holatda chap shesternya yetaklovchi boʻlib, suyuqlikning 2-hajmini chiqaradi. IV holatda oʻng shesternya 3-hajmni chiqarishni tamomlaydi, chap shesternya esa 2-hajmni hisoblagichga kiritadi. V holatda 3-sigʻim batamom chiqariladi, ikkala shesternya ham yarim aylanishni bajarib, oʻng shesternya yana yetaklovchi boʻlib qoladi.

Shesternylar aylanishining ikkinchi yarmi yuqoridagidek oʻtadi. Suyuqlikning hajmi shesternylar aylanishiga mos.

Ovalsimon shesternyali suyuqlik hisoblagichlari $0,8 \div 36 \text{ m}^3/\text{soat}$ diapazondagi oʻlchashlarni taʼminlaydi. Shartli oʻtish diametrlari $15 \div 80 \text{ mm}$, asbobning xatosi $\pm 0,5\%$, ish bosimi $1,57 \text{ mPa}$ (16 kgk/sm^2). Hisoblagich oʻrnatilishidagi bosimning yoʻqotilishi taxminan $0,02 \text{ MPa}$ ($0,2 \text{ kgk/sm}^2$).

Gazsimon moddalar miqdorini oʻlchash uchun diafragmali, rotatsion va barabanli hisoblagichlar keng qoʻllaniladi. 39.2-rasmda NPM-04 markali gazsimon moddalarni miqdorini oʻlchash tipidagi diafragmali hisoblagich sxemasi koʻrsatilgan.




2.26.13-rasm. GKF tipidagi diafragmali hisoblagich

Diafragma 1 bilan boʻlingan hisoblagichning ikki kamerasi (I va II) maʼlum sikl boʻyicha gazga toʻlib va boʻshab turadi.

Bu kameralar richag 6 orqali klapanlar 3—4 bilan bogʻlangan boʻlib, yuqorigi klapanlar berkilganda gaz I kameraga, pastki klapanlar berkilganda II kameraga oʻtadi. Gaz I kameraga kirganda uning bosim kuchi diafragmani oʻng tomonga suradi, II kamera toraya boshlaydi va undagi gaz miqdori bir portsiya boʻlib, teshik

5 orqali sarfga o'tadi. Diafragma o'ngga surilib ma'lum oraliqqa kelganda, richag 6 pastki klapanlarni berkitadi. Endi gaz *II* kameraga yig'iladi va diafragmani chapga surib *I* kameradagi gazni teshik 5 orqali sarfga chiqaradi. Diafragma ma'lum oraliqqa surilganda richag 6 endi yuqorigi klapanlarni yopadi, gaz *I* kameraga yig'iladi. Shunday qilib, kameralardan teng miqdordagi gaz portsiyalari ma'lum sikl bo'yicha sarfga chiqib turadi. Richagning har bir sikldagi harakati hisoblagich 7 siferblatining shkalasida hisoblanib turadi.

Rotatsion hisoblagich (2.26.14-rasm) ko'p miqdordagi gaz hajmini o'lchashga mo'ljallangan. Bu asbobda o'lchov 8 raqami ko'rinishidagi ikkita rotor 1 yordamida bajariladi. Bu rotorlar g'ilof 2 ichida aylanadi. Hisoblagichga gaz turli filtrning kirish tarmog'i orqali keladi.



2.26.14-rasm. Rotatsion hisoblagich

3. Suyuqlik miqdorini o'lchaydigan tezlik hisoblagichlari.

Rotorlardan biri asbobdan o'tgan gaz hajmini ko'rsatuvchi hisoblash mexanizmi bilan bog'langan. Hisoblagichning o'lchash hajmi g'ilof devori va rotorlar orasidagi kamera orqali aniqlanadi.

Rotatsion hisoblagichlar $40 \div 40000 \text{ m}^3/\text{soat}$ sarfni o'lchashga mo'ljallab chiqariladi. Ish bosimlari: 0,1; 0,6; 1,6 va 6,4 mPa. Shartli o'tish diametrlari $50 \div 1200 \text{ mm}$. Asboblarning aniqlik klassi 1 va 1,5. Hisoblagich o'rnatilishidagi bosim sarfi (yo'qotilishi) $35 \div 40 \text{ mm suv. ust. dan}$ oshmaydi.

Suyuqlik miqdorini o'lchaydigan tezlik hisoblagichlari harakatdagi oqimning o'rtacha tezligini o'lchash printsipiga asoslangan.

Suyuqlik miqdori oqim harakati tezligi bilan quyidagi nisbat orqali bog'langan:

$$Q = g_{urt} \cdot S, \quad (2.26.21)$$

bu yerda, Q — hajmiy sarf, m^3/s ; g_{urt} — oqimning o'rtacha tezligi, m/s ; S — oqimning ko'ndalang kesim yuzi, m^2 .

Oqim yo'liga o'rnatilgan parraklarning aylanish soniga qarab asbobdan o'tgan suyuqlik miqdorini aniqlash mumkin. Parraklar aylanishining tezligi oqim tezligiga proporsionaldir:

$$n = K \cdot g_{urt}, \quad (2.26.22)$$

bunda n — parraklarning aylanish soni, $1/\text{s}$; K — asbobning geometrik hajmiga bog'liq bo'lgan doimiysi, m^{-1}

Agar (1.2) tenglamani nazarda tutsak:

$$n = K \cdot \frac{Q}{S}. \quad (2.26.23)$$

Parraklarning τ vaqt ichidagi aylanishlar soni asbobdan shu vaqt ichida o'tgan modda sarfiga proporsional:


$$N = n\tau = \frac{K}{S} \cdot Q\tau. \quad (2.26.24)$$

Parraklarning shakliga ko'ra tezlik hisoblagichlari ikki guruhga bo'linadi: spiralsimon va qanotli.


Spiralsimon parraklar o'lchanayotgan oqimga nisbatan parallel, qanotli parraklar esa oqim o'qiga perpendikulyar joylashadi. Spiralsimon parrakli tezlik hisoblagichlari ko'p miqdordagi suv sarfini o'lchashda ishlatiladi. 8-rasmda spiralsimon (gorizontal) parrakli (suv o'lchagich) hisoblagich ko'rsatilgan. Suyuqlik oqimi asbobning korpusi 1 ga kelib, sharra to'g'rilagich 5 orqali ko'p kirimli vint shaklida ishlangan parrak kurakchalari 2 ga yo'naladi. Parrakning aylanishi chervyakli juft 6 va uzatish mexanizmi 3 orqali hisoblagich 4 ga uzatiladi.

Bu hisoblagichlar 50÷200 mm shartli o'tishga mo'ljallanib, sarfni 70 ÷1700 m³/soat va ±2÷3% xato bilan o'lchaydi. Muhitning bosimi 0,98 mPa (10 kgk/sm²) dan oshmasligi kerak.

Suyuqlikni parrakga keltirish usuliga ko'ra qanotli hisoblagichlar bir sharrali va ko'p sharrali bo'ladi.



2.26.15-rasm. Spiralsimon parrakli suyuqlik hisoblagichi



2.26.16-rasm. Bir sharrali (a) va ko'p sharrali (b) hisoblagichlar sxemasi

2.26.16. a-rasmda bir sharrali va 2.26.16. b-rasda ko'p sharrali hisoblagichlar sxemasi ko'rsatilgan. Bu hisoblagichlarda suyuqlik asbobning parraklariga tangentsial ravishda yo'naltiriladi. Parrakli hisoblagichlar agressiv bo'lmagan

oqimda ishlasa va oqim temperaturasi 30°S dan oshmasa, ularning parragi plastmassadan tayyorlanadi. Oqim temperaturasi 90°S dan yuqori bo'lsa, parraklar jezdan tayyorlanadi.

Nazorat savollari:

1. Hisoblagichlar deb nimaga aytiladi?
2. NPM-04 tipidagi diafragmali hisoblagichni ishlash printsiplari qanday?
3. Rotatsion hisoblagichlarning ishlash printsiplari qanday?
4. NPM-04 tipidagi diafragmali hisoblagichdan qanday afzalliklari bor?
5. Suyuqlik miqdori oqim harakati tezligi qanday nisbat orqali bog'langan?

2.27. GIDROSTATIK BOSIM

Gidrostatik bosim P - bu skolyar miqdor bo'lib, suyuqlikning kuchlanganlik holatini ifodalovchi kattalikni xarakterlaydi.

Bosim nuqtadagi normal bo'yicha kuchlanganlik moduliga teng:

$$P = |\sigma|. \quad (2.27.1)$$

Bosim XO'B ligi bo'yicha paskal kattalik bilan o'lchanadi:

$$Pa = \frac{H}{m^2} \quad (2.27.2)$$

Boshqa o'lchov birliklar orqali bosim quyidagicha bog'langan:

$$10\,000\text{ Pa} = 0,1\text{ MPa} = 1\text{ kg/sm}^2 = 1\text{ at} = 10\text{ m suv ustuni}.$$

Gidrostatik bosim ikki xil xossaga ega:


1. Tinch turgan suyuqlikda gidrostatik bosim u ta'sir qilayotgan yuzaga normal bo'yicha yo'nalgan bo'ladi.
2. Gidrostatik bosim u ta'sir qilayotgan nuqtada hamma yo'nalishlar bo'yicha bir xil qiymatga ega bo'ladi.

Gidrostatikaning asosiy tenglamasi.


Gidrostatikaning asosiy tenglamasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: suyuqlik ichidagi bosim P suyuqlikka berilayotgan tashqi bosim P_0 bilan suyuqlik ustuni og'irligi γh yig'indisiga teng; ya'ni

$$p = p_0 + p_c = p_0 + \gamma h \quad (2.27.3)$$

bu yerda, h -suyuqlikda ko‘rilayotgan nuqttagacha bo‘lgan masofa (suyuqlik yuzidan nuqttagacha bo‘lgan chuqurlik) bo‘lib, nuqtadagi bosimni ifodalaydi (2.27.1-rasm).



2.27.1-rasm. Gidrastatika tenglamasinig umumiy sxemasi



2.27.2-rasm. Tashqi bosim o‘lchash usuli

Tenglamadan ko‘rinib turibdiki suyuqlik ichidagi bosim h chuqurlik bo‘yicha oshib boradi va chiziqli bog‘lanishga ega.

Xususiyl holda suyuqlik ochiq idishda bo‘lsa ya‘ni atmosfera bosim ta‘sirida bo‘lsa (2.27.2-rasm) tashqi bosim

$$P_0 = P_{atm} = 101325 \text{ Pa} \approx 1_{atm}.$$

U holda gidrostatikaning asosiy tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$P_0 = P_{atm} + \gamma h_n. \quad (2.27.4)$$

bu yerda, h_n - pe‘zometrik balandlik. Ortiqcha bosim (manometrik bosim) P_{ort} to‘liq bosimdan atmosfera bosimni ayirmasiga teng. Ochiq havzalarda ortiqcha bosim quyidagicha ifodalaniladi.

$$P_0 = P_{atm} = P - P_{atm} = \gamma h. \quad (2.27.5)$$

2.28. ARXIMED QONUNI. SUZIB YURUVCHI JISM MUVOZANATI


Tinch turgan suyuqlikdagi suzib yuruvchi jism muvozanati to'g'risidagi masala jismning suzuvchanligi hamda uning suvda botmay tura olish qobiliyatini o'rganish orqali yechiladi.

1. Ma'lum kuch ta'siri ostida jismning suzishi – jismning suzuvchanligini bildiradi. Masalan, kemalarning suzuvchanlik zaxirasiga ega bo'lishi kerak. Suzuvchanlik zaxirasi deb, kemanding suv ustidagi qismi hajmidagi suv og'irligiga teng bo'lgan qo'shimcha og'irlik tushuniladi.

2. Egiluvchanlik – ya'ni jismning suyuqlikda egilgandan keyin dastlabki holatiga qaytish xususiyati tushuniladi.

Arximed qonuni suyuqlik ichidagi jism sirtiga suyuqlikning bosim kuchini aniqlashda qo'llaniladi.

Aziz o'quvchi, Arximed qonuni o'rta maktab kursida quyidagicha keltiriladi: har qanday qattiq jism suyuqlikka botirilganda o'zining og'irligiga teng miqdorda suyuqlikni siqib chiqaradi.



2.28.1-rasm

Jismning sirti ixtiyoriy to'g'ri chiziqlarning faqat ikki nuqtasida kesishadi deb qaraylik (2.28.1-rasm). Jismning sirtini koordinata tekisligiga parallel bo'lgan vertikal tekisliklar yordamida elementar maydonchalarga bo'laylik.

U holda $d\omega'$ va $d\omega''$ maydonchalarga ta'sir qiluvchi elementar bosim o'qlarning vertikal proektsiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$(dP')_z = p'd\omega' \cos(dP', Z) = p'd\omega'_z \quad (2.28.1)$$

$$(dP'')_z = p''d\omega'' \cos(dP'', Z) = p''d\omega''_z \quad (2.28.2)$$

bu yerda, p' va p'' - $d\omega'$ va $d\omega''$ maydonlar og'irlik markazlaridagi bosim.

$$p' = \gamma h' \text{ va } p'' = \gamma h'' \quad (2.28.3)$$

bundan

$$dP'_z = \gamma h' d\omega'_z; \quad dP''_z = -\gamma h'' d\omega''_z \quad (2.28.4)$$

Bundan jismning sirtidagi bosimning $0z$ o'qidagi proektsiyasi

$$P_z = \gamma \int_{\omega'_z} h' d\omega'_z - \gamma \int_{\omega''_z} h'' d\omega''_z = -\gamma(W'' - W') = -\gamma W \quad (2.28.5)$$

bunda, W – jism siqib chiqargan suyuqlik hajmi

W' va W'' - prizmalarning hajmi

P_z kuchini - ko'tarish kuchi deb ataymiz.

Elementar bosimning qolgan ikkita o'qdagi proektsiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$P_x = \gamma \int_{\omega'_x} h' d\omega'_x - \gamma \int_{\omega''_x} h'' d\omega''_x = 0 \quad (2.28.6)$$

$$P_y = \gamma \int_{\omega'_y} h' d\omega'_y - \gamma \int_{\omega''_y} h'' d\omega''_y = 0 \quad (2.28.7)$$

bunda, $h' = h'' \quad d\omega'_x = d\omega''_x \quad d\omega'_y = d\omega''_y$

Natijada quyidagi xulosaga kelamiz:

Ichiga jism tushirilgan suyuqlikka suyuqlik bosimi ko'tarish kuchi – jism siqib chiqargan suyuqlik hajmidagi suv og'irligi yo'nalishiga qarama-qarshi miqdori bo'yicha tengdir.

$$P = \gamma W \quad (2.28.8)$$

bu yerda, γ - suyuqlikning hajmiy og'irligi

W - siqib chiqarilgan suyuqlik hajmi.

Jismning suzuvchanligi.

Agar G suyuqlik ichiga tushirilgan jism og'irligini P ko'tarish kuchidan $P = \gamma W$ kichik, ya'ni $G > P$ bo'lsa, u holda jism qalqib chiqadi. Agar $G < P$ bo'lsa, jism cho'kadi.

$$\text{Agar} \quad G = P = \gamma W \quad (2.28.9)$$

bo'lsa, suyuqlik ichida muallaq holda suzib yuradi.

Agar jism suyuqlik sirtida suzib yursa, bunda suv yuzasida suzish deyiladi. Aksincha suv osti suzish deyiladi. Bunda har ikkala holatda ham ko'tarish kuchi R jism og'irligiga teng bo'lishi kerak.

$$P = G \quad (2.28.10)$$

Agar jism butun hajm bo'yicha W_1 bir jinsli (masalan, g'ola) hajmiy og'irligi γ_1 bo'lib, suyuqlikda γ hajmiy og'irlik bilan suzib yursa, suv ustida suzishi uchun

$$\gamma_1 W_1 = \gamma W \quad (2.28.11)$$

bundan

$$\frac{W}{W_1} = \frac{\gamma_1}{\gamma} \quad (2.28.12)$$

Suv ustida suzishi uchun esa $W_1 = W$, chunki $\gamma_1 = \gamma$.

Bir jinsli jismlarning suv sirtida suzib yurishi holatidagi jismning botishini aniqlashda qo'llaniladi.

Suzib yuruvchi jismlarning cho'kishi deganda jism namlangan sirtining eng quyi nuqtasining botishi tushuniladi.


Suzib yuruvchi jismni kesib o'tuvchi suyuqlik yuzasining erkin sirtiga suzish sirti tekisligi deyiladi.

Suzib yuruvchi jism yon sirtining suzish tekisligi bilan kesishish chizig'iga vater chizig'i deyiladi.

Jismning og'irlik markazi S dan va suvning sig'im markazi D dan o'tuvchi chiziqqa suzish o'qi deyiladi (2.28.2-rasm). Vater chiziqlar bilan chegaralangan

maydonning og'irlik markazi orqali o'tuvchi bo'ylama chiziqqa vater chizig'i maydonining bo'ylama o'qi deyiladi.

Bo'ylama o'qqa perpendikulyar yo'nalishdagi shu nuqtadan o'tuvchi gorizontall chiziqqa vater chizig'i maydonining ko'ndalang o'qi deyiladi.



2.28.2-rasm

Agar suv ostida yoki suv sirtida suzayotgan jism muvozanatda bo'lsa, u holda suzish yoki vertikal holatda bo'lishi kerak. Kelgusida faqat simmetrik jismlarning suzishini ko'rib chiqamiz.


2.29. ARXIMED VA PASKAL QONUNLARI

Amaliyotda gidrostatika qonuniyatlaridan foydalanishda asosan qurilish ishlarida *Arximed va Paskal* qonunlaridan foydalaniladi.

Arximed qonunida jismni suyuqlikka tushirganda suyuqlik tomonida shu jismni ko'taruvchi kuch (Arximed kuchi) F_n ta'siri hosil bo'lishi quyidagi formula orqali ifodalaniladi:

$$F_n = \gamma V_m \quad (2.29.1)$$

bu yerda, γ -suyuqlik solishtirma og'irligi, V_m -jism orqali siqib chiqarilgan suyuqlik hajmi.



2.29.1- rasm. Arximed qonuniga asoslangan chizma

Shunday havzalardan sxematik ko‘rinishi 2.29.1-rasmda keltirilgan.

Ana shu havzaning ma‘lum qismi yer osti suv yuzasidan yuqorida joylashgan, 2.29.1-rasmda. Shunday qilib u suvni hajmini siqib chiqaradi. Bu hajm jismning suvga botirib turgan qismichalik suv hajmini beradi.

Ya‘ni Arximed kuchi F_n ni hosil qiladi. Agar F_n havzaning og‘irligidan esa katta bo‘lsa, u holda shu konstruktsiya suzib chiqishi mumkin. Bu avariya holat bo‘ladi.

Paskal qonuni quyidagicha ta‘riflanadi: yopiq idishda turgan suyuqlikka tashqi tarafdin shu suyuqlikka bosim berilsa suyuqlik ichidagi barcha nuqtalarga o‘zgarmas ravishda uzatiladi.

Bu qonun asosida turli gidravlik qurilmalar ishlangan: gidrodamkratlar, gidropretslar, mashina gidrouzatgichlari avtomashinalarning tormoz sistemalari.

Paskal qonuni gazsiz suyuqliklar, ya‘ni siqilmaydigan suyuqlik uchun o‘rinli bo‘ladi. Masalan, tormoz suyuqligi mashina g‘ildiraklarida uzatgich (rechagi) orqali bosim berilib barcha g‘ildiragiga barobar tarqaladi. Agar tormoz suyuqligini uzoq vaqt o‘zgartirilmasa u holda havo puffakchalari bilan to‘yingan holda bo‘lib, bunday suyuqlik siqiluvchan suyuqlikka aylanadi. Demak, bunday suyuqliklar uchun *Paskal qonuni* ishlamaydi. Demak, bunday hollarda texnikada mashinalarni avariya holatga tushishiga olib keladi.


2.30. GIDROSTATIK NAPOR

Gidrostatik napor H -bu tinch holatda turgan suyuqlikning energetik xarakteristikasini beradi. Napor metrlarda o‘lchanadi. U vertikal balandlikni beradi.

Gidostatik napor H ikkita naporlar yig‘indisidan iborat (2.30.1-rasmda);

$$H = Z + h_p = Z + \frac{P_{ort}}{\gamma} \quad (2.30.1)$$

bu yerda, Z -geometrik napor yoki ma‘lum hisoblash uchun ajratilgan gorizontal tekislik-O-O tekislikdan hisoblangan balandlik; h_p -pe‘zometr napor (balandlik)



2.30.1-rasm. Gidrostatik naporni tushunishga doir chizma

Gidrostatik napor H -suyuqlik potentsial energiyasini (tinch holat energiyasi) xarakterlaydi. Masalan, suv bashniyasi qancha yuqorida joylashgan bo‘lsa, suv quvur tizimida shuncha napor katta qiymatga ega bo‘ladi, h_p kattalik bosim orqali bog‘langan.

Masalan, ortiqcha bosim qancha katta bo‘lsa suv quvur tizimida, quvurdagi napor shuncha katta bo‘lib quvur orqali shuncha balandlikka ko‘tariladi. Suyuqlikning turli nuqtalaridagi naporni gorizontal tekislikdagi O-O tekislik orqali belgilanadi.

Bunday gorizontal tekislik O-O istalgan tekislik bo‘lishi mumkin. Masalan, gorizontal joylashgan quvurlar uchun bunday tekislik (laboratoriya sharoitida) auditoriya poli bo‘lishi mumkin.

Ayrim hollarda hisoblashni yengil holda olish uchun gorizontal quvurlarda shunday tekislik quvur o‘qi bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda $Z = 0$ bo‘ladi.

Odatda Z absolyut geodezik balandlik boltiq dengizi yuzasidagi o'lchamlaridan hsoblanadi. Masalan, $H_A = H_B$ naporning tengligi 2.30.1-rasmda.

Gidrostatik napor tinch holatdagi suyuqlikda barcha nuqtalari uchun bir xil, ular o'zaro bog'liqlikda.

A va V nuqtalarda har xil chuqurlikda joylashgan bo'lishiga qaramay bosim ularda bir xil emas. Ochiq havzalarda napor suyuqlik istalgan nuqtalarda erkin sirtidan, ya'ni O-O tekislik bo'yicha bosim (2.30.1-rasm) orqali ifodalanadi.

Gidrostatik bosim ikkita asosiy xossaga ega:

- doim ichki normal bo'yicha, suyuqliklarda sodir bo'ladigan ichki siqilish kuchlanishi bo'lganligi sababli o'zi ta'sir etayotgan yuzaga tik (perpendikulyar) yo'nalgan bo'ladi;

- miqdori esa berilgan nuqtada shu nuqta atrofida yuzaning o'zgarishi bilan o'zgarmaydi. Berilgan suyuqlik ichidan olingan nuqtada gidrostatik bosim hamma tomondan shu nuqtaga bir xil miqdorda ta'sir etadi; ya'ni,

$$R_x = R_u = R_z = R_p$$

bunda, R_x , R_u , R_z , va R_p koordinata o'qlariga nisbatan Ox , Ou , Oz va ixtiyoriy yo'nalishdagi « P » ga nisbatan gidrostatik bosim.


2.31. MUVOZANATDAGI SUYUQLIKNING DIFFERENTIAL TENGLAMASI

Muvozanatda turgan suyuqlikda gidrostatik bosimning taqsimlanish qonunini aniqlash uchun muvozanatda turgan suyuqlik umumiy holatini ko'ramiz (2.31.1-rasm.). Buning uchun muvozanatda turgan suyuqlikda X, Y, Z koordinatalar sistemasida tomonlari dx, dy va dz bo'lgan elementar kichik parallelepiped olamiz.

Parallelepipedning og'irlik markazida P bosim kuchi joylashgan bo'lsin va undagi suyuqlik massasi $\rho dx dy dz$ bo'lsin.

Parallelepipedni o'rab turgan suyuqlikni tashlab yuboramiz va tashlab yuborgan suyuqlikning parallelepiped tomonlariga ko'rsatib turgan ta'sirini uni tomonlariga

qo'yilgan kuchlar bilan almashtiramiz. Tomonlarga qo'yilgan bu kuchlar, siquvchi kuchlar bo'ladi, ya'ni kuchlar qo'yiladi. Xuddi shu tarzda parallelepipedni boshqa qirralariga ham gidrostatik bosim kuchlarini yozish mumkin. Suyuqlikka tashqi kuchlardan tashqari massa (hajmiy) kuch G ta'sir qiladi va bu kuchni X, Y, Z koordinatalariga bo'lgan birlik proektsiyalarini X, Y, Z bilan belgilaymiz.



2.31.1-rasm

ABEF qirrasiga

$$\left(P - \frac{dp}{dx} \cdot \frac{dx}{2} \right) dydz$$

DCHK qirrasiga

$$\left(P + \frac{dp}{dx} \cdot \frac{dx}{2} \right) dydz$$

Kuchlarni muvozanatda bo'lish shartiga asosan tanlangan yo'nalishda kuchlar proektsiyalari yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak.

OX o'qi bo'yicha kuchlar proyeksiyasi bo'ladi

$$\left(P - \frac{dp}{dx} \cdot \frac{dx}{2} \right) dydz - \left(P + \frac{dp}{dx} \cdot \frac{dx}{2} \right) dydz - X \rho dx dy dz = 0 \quad (2.31.1)$$

Qavslarni ochib qisqartirishlardan keyin

$$-\frac{dp}{dx} + X \rho = 0$$

Xuddi shu tarzda OY va OZ yo'nalishlari bo'yicha tenglamalarni tuzib quyidagilarni olamiz

$$\begin{aligned}
X - \frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} &= 0 & -\frac{\partial p}{\partial x} + X\rho &= 0, \\
Y - \frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial y} &= 0 & -\frac{\partial p}{\partial y} + Y\rho &= 0, \\
Z - \frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial z} &= 0 & -\frac{\partial p}{\partial z} + Z\rho &= 0
\end{aligned}
\quad \text{yoki} \quad (2.31.2)$$

Bu tenglamalarga muvozanatdagi suyuqlikning differentsial tenglamasi yoki Eyler tenglamasi (1755y. olingan) deyiladi.

Tenglamalardagi $\frac{\partial p}{\partial x}; \frac{\partial p}{\partial y}; \frac{\partial p}{\partial z}$ - bosim gradientlari, X, Y, Z –birlik massa kuchlarining mos o‘qlarga bo‘lgan proektsiyasi, ρ -suyuqlik zichligi. Har bir tenglamani o‘z tomonlari dx, dy va dz larga ko‘paytiramiz va ularni qo‘shib, massa kuchlarni barobardan keyinga o‘tkazib, quyidagi tenglamani hosil qilamiz

$$\frac{\partial p}{\partial x} dx + \frac{\partial p}{\partial y} dy + \frac{\partial p}{\partial z} dz = \rho(Xdx + Ydy + Zdz), \quad (2.31.3)$$

Tenglamani chap tomoni $P = f(x, y, z)$ bo‘yicha funktsiyani dp differentsiali bo‘ladi u holda (2.31.4) tenglama quyidagicha bo‘ladi

$$dp = \rho(Xdx + Ydy + Zdz), \quad (2.31.4)$$

(2.31.5) tenglamani chap tomoni $p = \text{const}$ bo‘lgan bir turli siqilmaydigan suyuqlikning to‘la differentsiali bo‘lsa, o‘ng tomonidagi, qavs ichidagi qandaydir $U(X, Y, Z)$ funktsiyaning to‘la differentsiali bo‘ladi; ya‘ni,

$$\frac{\partial U}{\partial x} = X; \frac{\partial U}{\partial y} = Y; \frac{\partial U}{\partial z} = Z; \quad (2.31.5)$$

Shunday qilib massa kuchlarining potentsiali bo‘ladi. U holda (2.31.6) quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin

$$dp = \rho \left(\frac{\partial U}{\partial x} \cdot dx + \frac{\partial U}{\partial y} \cdot dy + \frac{\partial U}{\partial z} \cdot dz \right) \text{ yoki } dp = \rho dU, \quad (2.31.6)$$

$dp = \rho dU$ tenglamani integrallab quyidagini hosil qilamiz

$$P = \rho U + C, \quad (2.31.7)$$

C integral doimiysi bo'lib, uni topish uchun chegaraviy shartlarni bilish kerak, ya'ni P_0 va U_0 , u holda $P_0 = \rho U_0 + C$

bo'lsa, unda $C = P_0 - \rho U$ va $P = \rho U + C = \rho U - P_0 - \rho U_0$ yoki

$$P - P_0 = \rho(U - U_0), \quad (2.31.8)$$


Bu tenglama, bir turli suyuqliklarda bosim taqsimlanishining kuch funktsiyasini o'zgarishi qonuniyatiga amal qiladi. Shuning uchun u bo'yicha funktsiyasining chegaraviy shartlari ma'lum bo'lsa, suyuqlikning ixtiyoriy nuqtasidagi bosimni aniqlash mumkin.

2.32. P'EZOMETRIK VA VAKUUMMETRIK BALANDLIKLAR

Suyuqlikka to'ldirilgan ochiq idish uchun muvozanat shartini ko'ramiz. Buning uchun suyuqlikda A nuqta olib, shu nuqta tekisligi bo'yicha usti ochiq shisha quvurchani idishga ulaymiz (2.32.1-rasm).

Og'irlik yoki ortiqcha $\rho \cdot g \cdot h$ bosim kuchi ta'sirida suyuqlik shisha quvur ichida h_{δ} balandlikka ko'tariladi. Shisha quvurni p'ezometr, undagi suvning balandligini esa p'ezometrik balandlik h_{δ} deyiladi.

Gidrostatikaning asosiy suyuqlikning muvozanat sharti tenglamasini suyuqlikdagi A nuqtadan o'tgan tekislikka nisbatan tadbqiq qilamiz. A nuqtadagi bosim idishning p'ezometr o'rnatilmagan tomonida quyidagicha aniqlanadi:



2.32.1-rasm. Ochiq idish uchun

$$p_A = p_{atm} + \rho gh \quad (2.322.1)$$

P'ezometr tomonida:

$$p = p_{atm} + \rho gh_p, \quad (2.32.2)$$

U holda:

$$p_{atm} + \rho gh = p_{atm} + \rho gh_p, \quad (2.32.3)$$

yoki

$$h = h_p \quad (2.32.4)$$

ya'ni p'ezometrik h balandlik nuqtadagi ortiqcha bosimni ko'rsatadi, bu yerda pe'zometr uzunlik o'lchami bo'yicha ulangan.

Yopiq idish uchun muvozanat shartini ko'raylik, unda erkin sirtga ta'sir etayotgan bosim p_0 atmosfera p_{atm} bosimidan katta 2.32.2-rasm. p_{atm} dan katta bo'lgan p_0 bosim va og'irlik bosimi ρgh ta'sirida suyuqlik ochiq idishnikiga qaraganda pe'zometrda h_p balandlikka ko'tariladi.

Idish tomondan A nuqtaga bo'lgan bosim:


$$p_A = p_0 + \rho gh \quad (2.32.5);$$

ochiq p'ezometr tomonida:

$$p_A = p_{atm} + \rho gh_p \quad (2.32.6);$$

U holda:

$$p_0 + \rho gh = p_{atm} + \rho gh_p \quad (2.32.7)$$



2.32.2-rasm. Yopiq idish uchun muvozanat sharti.

bu tenglikdan h_p uchun quyidagini olamiz:

$$h_p = \frac{p_0 - p_{atm} + \rho gh}{\rho g}, \quad (2.32.8)$$

Olingan tenglamani mulohaza qilib ko'rganimizda, p'ezometrik h balandlik p'ezometr ulangan nuqtadagi ortiqcha bosim kattaligiga teng va ortiqcha bosim ikkita qo'shilma yig'indisidan iborat: erkin sirtga ta'sir qilayotgan tashqi $p_{0.ort}^1 = p_0 - p_{atm}$ ortiqcha bosimdan va og'irlik bosimdan ρgh

$$h_p = \frac{p_0 + \rho gh}{\rho g} = \frac{p_{0.ort}^1}{\rho g} + h, \quad (2.32.9)$$

Ortiqcha bosim manfiy kattalikda ham bo'lishi mumkin, u holda bosimga vakuum deyiladi. Chunki markazdan qochma nasoslarni so'ruvchi kalta quvurchasida, silindrik nasadkalardan oqib chiqayotgan suyuqlik oqimida, qozonlarda suyuqlikda atmosfera bosimidan kichik bo'lgan yerlarda kam bosimli muhitlar - vakuum yuzaga keladi.


U holda: $p_{vak} = -p_{ort},$

$$p_{ort} = p_{abs} - p_{atm}, \quad (2.32.10)$$

$$p_{vak} = -(p_{abs} - p_{atm}) = p_{atm} - p_{abs} \quad (2.32.11)$$

Vakuum –bu atmosferadan kam bo'lgan bosim.

Rezervuar 1 da (2.32.3-rasm) mutlaq bosim atmosfera bosimidan kam bo'lsin (masalan vakuum - nasos bilan havoni bir qismi so'rib olingan bo'lsin).



2.32.3-rasm. Vakuummetrik balandlik

Suyuqlikli rezervuar 2 egilgan quvurcha 3 bilan rezervuar 1 bilan tutashsin. Rezervuar 2 dagi suyuqlikka atmosfera bosim ta'sir qilsin.

Rezervuar 1 da bosim kam bo'lgani uchun suyuqlik quvurcha 3 dan qandaydir balandlikka ko'tariladi, bu bosim vakuummetrik bosim deyiladi va h_{vak} belgilanadi. h_{vak} kattalik quyidagi tenglik orqali aniqlanadi.


$$p_{atm} = p_{abs} + \rho g h_{vak}, \quad (2.32.12)$$

$$h_v = \frac{p_{atm} - p_{abs}}{\rho g}, \quad (2.32.13)$$

Vakuummetrik bosimning maksimal qiymati 98,1 kPa yoki 10 suv ust.m., lekin amalda suyuqlik bosimi to'yingan bug' bosimidan kam bo'lmasligi kerak va 7-8 suv ust. m. teng.

2.33. TUTASHGAN IDISHDAGI SUYUQLIKNING MUVOZANAT SHARTI

Ikkita tutashgan idish bir-birini ho'llamaydigan ikki xil suyuqlik bilan to'ldirilgan bo'lsin (2.33.1 -rasm).



2.33.1- rasm. Tutashgan idishlar

Idishlar yopiq, P_{01} va P_{02} bosimlar 1 va 2 idishlarda har xil 0-0 chiziq, har xil suyuqlikni bo'lib turuvchi chiziq bo'lsin. 0-0 chiziqdan o'tuvchi gorizontaal chiziq esa teng bosimning tekisligi bo'ladi. Teng bosimli tekislikda yotgan C_1 va C_2 nuqtalardagi gidrostatik bosim kattaligini aniqlaymiz.

Gidrostatikani asosiy tenglamasiga binoan:

$$p_{C1} = p_{01} + \rho_1 g h_1 \quad (2.33.1)$$

$$p_{C2} = p_{02} + \rho_2 g h_2 \quad (2.33.2)$$

bu yerda, h_1 va h_2 – 1 va 2 idishdagi suyuqliklarni 0-0 tekislik yuqorisida joylashgan balandliklar; ρ_1 va ρ_2 suyuqliklar zichliklari.

U holda:
$$P_{C1} = P_{C2}$$

$$p_{01} + \rho_1 g h_1 = p_{02} + \rho_2 g h_2, \quad (2.33.3)$$

$$p_{01} - p_{02} = \rho_2 g h_2 - \rho_1 g h_1, \quad (2.33.4)$$

(2.33.4) tenglama tutashgan idishlardagi suyuqliklarni muvozanat holatini xarakterlaydi. Bu tenglama yordamida baʼzi bir masalalarni yechish mumkin.

1-hol. Idishlarlarda bir xil suyuqlik quyilgan, lekin ulardagi P_{01} va P_{02} bosimlar har xil, unda $\rho_1 = \rho_2 = \rho$ sharti boʻyicha quyidagini olamiz:

$$p_{01} - p_{02} = \rho g (h_2 - h_1), \quad (2.33.5)$$

2-hol. Suyuqlik bir xil, yaʼni $\rho_1 = \rho_2 = \rho$ va $p_{01} = p_{02}$.

U holda:

$$h_1 = h_2, \quad (2.33.6)$$

idishdagi suyuqliklar bir xil boʻladi.

3-hol. Suyuqlik bir xil $\rho_1 = \rho_2 = \rho$, lekin bitta idish ochiq $p_{01} = p_{atm}$ boshqasi yopiq $p_{02} > p_{atm}$.

U holda:

$$p_{C1} = p_{atm} + \rho g h_1, \quad (2.33.7)$$

$$p_{C2} = p_{02} + \rho g h_2, \quad (2.33.8)$$

Chunki $P_{C1} = P_{C2}$, unda

$$p_{atm} + \rho_1 g h_1 = p_{02} + \rho g h_2, \quad (2.33.9)$$

$$h_1 = h_2 + \frac{p_{02} - p_{atm}}{\rho g} \quad (2.33.10)$$


$\frac{p_{02} - p_{atm}}{\rho g}$ -yopiq idishning sirtida yotgan nuqtalar uchun p'ezometrik balandlik.

II. 4-hol. Har xil aralashmaydigan suyuqlik, lekin

$$p_1 = p_2 \text{ teng.}$$

U holda: $\rho_1 g h = \rho_2 g h \quad (2.33.11)$

yoki $\frac{h_1}{h_2} = \frac{\rho_2}{\rho_1} \quad (2.33.12)$



2.33.2-rasm. Naporni aniqlash

Yopiq idishda suyuqlik olamiz va uning ixtiyoriy chuqurlikdagi A va B nuqtalarda 1 va 2 p'ezometrlar ulangan bo'lsin (2.33.2- rasm). Idishdagi suyuqlik sirtidagi P_0 bosim P_{atm} atmosfera bosimidan katta. Quvurcha 1 yuqoridan ochiq bo'lib, yuqorisidagi bosim atmosfera bosimiga teng. $P_0' = P_{atm}$

Quvurcha 2 yuqoridan payvandlangan bo‘lib uning ichidan havo so‘rib olingan, ya‘ni undagi bosim nolga teng $P_0'' = 0$.

A va B nuqtalarni vertikal koordinatalarini aniqlash uchun ixtiyoriy balandlikdan 0-0 gorizonta tekislik o‘tkazamiz.

Bu tekislik taqqoslovchi tekislik deb ataladi. Taqqoslovchi tekislikdan ko‘rilayotgan nuqtagacha bo‘lgan balandlik geometrik balandlik deyiladi va Z harfi bilan belgilanadi.

Taqqoslovchi tekislik sifatida yer sathi, pol yoki ixtiyoriy fazoviy tekislik bo‘lishi mumkin. Idish ichidagi suyuqlik sirtiga ta‘sir qilayotgan bosim atmosfera bosimidan katta bo‘lgani uchun, 1 va 2 p‘ezometrik h quvurchalardan suyuqlik suv sathiga nisbatan yuqoriga ko‘tariladi. Ochiq p‘ezometrda suyuqlik balandligini h_p bilan yopiq p‘ezometrda quvurchadagini esa h_{KB} bilan belgilaymiz. P‘ezometr balandlik $h_p - A$ nuqtagi manometrik bosim. Keltirilgan balandlik $h_{KB} - B$ nuqtagi mutlaq bosim kattaligi. $h_{KB} - h_p = \frac{P_{atm}}{\rho \cdot g}$ balandliklar farqi suyuqlik ustuni atmosfera bosimiga teng, ya‘ni 10 m. suv ustuniga teng.

Suyuqlikning ixtiyoriy nuqtasidagi geometrik Z balandlik bilan p‘ezometrik h_p balandlikni yig‘indisi o‘zgarmas kattalik bo‘ladi va p‘ezometrik h napor deyiladi:

$$H_p = Z + h_p = const ; \quad (2.33.13)$$

lekin
$$h_p = \frac{P_m}{\rho g} = \frac{P_{abs} - P_{atm}}{\rho g} ; \quad (2.33.14)$$

Bu formulani (2.33.13) ga qo‘yib tenglikni olamiz,

$$H_n = \left[\frac{P_{abs}}{\rho g} - \frac{P_{atm}}{\rho g} \right] + Z ; \quad (2.33.15)$$

yoki

$$H_p = \left[\frac{P_{abs}}{\rho g} + Z \right] - \frac{P_{atm}}{\rho g}; \quad (2.33.16)$$

$\left(\frac{P_{abs}}{\rho g} + Z \right)$ - keltirilgan balandlik bilan holat balandligini yig'indisi gidrostatik napor H_S deyiladi.

U holda, keltirilgan balandlik bilan holat balandligini yig'indisi gidrostatik napor H_S dan $\frac{P_{atm}}{\rho g}$ ni ayirmasi

$$H_p = H_S - \frac{P_{atm}}{\rho g} \text{ ni beradi.} \quad (2.33.17)$$

(2.33.17) tenglama bo'yicha suyuqlikning ixtiyoriy nuqtasi uchun $H_S = \text{const}$ bo'ladi, $\frac{P_{atm}}{\rho g}$ esa nuqtaning qayerda joylashishiga bog'liq bo'lmaydi.

$$\text{Shunday qilib: } H_p = H_S - \frac{P_{atm}}{\rho g} = \text{const}, \quad (2.33.18)$$

Shuning uchun idishga qancha p'ezometr ulamasak ham baribir hamma p'ezometrlarda sath bir xil bo'ladi: 2-2 tekislikka to'g'ri kelgan tekislikka p'ezometrik L tekislik deyiladi, $N-N$ sathga esa napor tekisligi deyiladi.

P'ezometrik $\mathcal{V}$ napor suyuqlik solishtirma potentsial energiyasi bo'ladi. Faraz qilaylik suyuqlik hamma zarrachalarining A nuqtadagi og'irligi G (2.33.2-rasm).

Taqqoslovchi 0-0 tekislikka nisbatan potentsial energiya zaxirasi GZ , bu yerda Z tekislik 0-0 ga nisbatan A nuqtagacha bo'lgan masofa. h chuqurlikda yotgan suyuqlik zarrachasi ortiqcha P_i gidrostatik bosim ta'siri ostida h_p ko'tarilishi mumkin, u Gh_p ga teng bo'lgan potentsial bosim energiyasiga ega bo'ladi.

Og'irligi G bo'lgan suyuqlik zarrachasining to'la potentsial energiyasi $Gz + Gh_p$ ga teng. Solishtirma potentsial energiya, ya'ni zarracha og'irlik birligiga to'g'ri kelgan energiyaga teng bo'ladi:

$$Z + h_p = H_p, \quad (2.33.19)$$

Shuningdek, gidrostatik napor H_s ham suyuqlikning potentsial energiyasi kattaligi hisoblanadi, lekin $\hat{I}_p$ ga nisbatan solishtirma potentsial atmosfera bosimi miqdoridan katta.

$$H_s = H_p + \frac{P_{atm}}{\rho g}; \quad Z + h_p = H_s; \quad (2.33.20)$$

2.34. IXTIYORIY SHAKLDAGI YASSI SIRTGA SUYUQLIKNING BOSIM KUCHI

Amalda gidrotexnik inshootlarda, rezervuarlarda va boshqa qurilmalarda gidrostatik bosim kuchi yo'nalishi va uning qo'yilgan nuqtasini aniqlash kerak bo'ladi.

Gidrostatikaning asosiy tenglamasidan foydalanib yassi devorga nisbatan suyuqlikning bosim kuchini topish mumkin. Oldin suyuqlikning yassi devorga bo'lgan bosim kuchini va uning qo'yilgan nuqtasini aniqlaymiz.

Ma'lum chuqurlikda AV nuqtalar bilan chegaralangan gorizontga α burchak ostida perpendikulyar bo'lgan ω ixtiyoriy yuzali sirt (2.34.1-rasm) joylashgan bo'lsin. Bu sirtning OX o'qini 90° burchakka burib, uni chizma tekisligi bilan o'rnatamiz.

ω yuzaning h chuqurligida joylashgan m nuqta atrofida kichik bo'lgan $d\omega$ yuzani olamiz va shu yuzaga ta'sir qilayotgan dp bosim kuchini aniqlaymiz.

U holda elementar $d\omega$ yuzaga ta'sir qilayotgan elementar kuch bo'ladi.

$$dp = p d\omega = (p_0 + \gamma h) d\omega, \quad (2.34.1)$$

lekin bu yerda, $h = y \sin \alpha$ bo'ladi.

(2.34.1) tenglamani itegrallab ω yuzaga ta'sir qilayotgan to'la bosim kuchini topamiz;

$$dp = \int_{\omega} (p_0 + \gamma \cdot y \sin \theta) d\omega = p_0 + \gamma \sin \theta \int_{\omega} y d\omega, \quad (2.34.2)$$

bu yerda, $\int_{\omega} y d\omega$ — ω yuzani OX o'qqa nisbatan statik momenti, ya'ni


$\int_{\omega} y d\omega = y_{\tilde{n}} \omega$; bu yerda $y_c = 0$ o'qidan suyuqlikning og'irlik markazigacha bo'lgan masofa.

U holda $P = P_0 \omega + \gamma \sin \theta \cdot y_{\tilde{n}} \cdot \omega$, chunki $y_{\tilde{n}} \sin \theta = h_{\tilde{n}}$

unda
$$P = (P_0 + \gamma h_{\tilde{n}}) \omega, \quad (2.34.3)$$

ya'ni, yassi figuraga ta'sir qilayotgan bosim kuchi shu maydon figurasini og'irlik markaziga ta'sir qilayotgan gidrostatik bosimning ko'paytmasiga teng.

Agar tashqi bosim kuchini hisobga olmasak, u holda (2.34.3) tenglama quyidagicha bo'ladi



2.34.1-rasm. Bosim markazini aniqlash.

$$P = \gamma h_c \omega$$

Hisoblarda og'irlik markazidan tashqari bosim kuchi yig'indisi qo'yilgan markazni yoki bosim markazini bilish kerak bo'ladi. Bosim markazini aniqlash

uchun ta'sir etayotgan kuchlar momentining yig'indisi bo'lgan teng ta'sir etuvchi kuchning momentidan va uning tashkil etuvchilaridan foydalanamiz

$$dM = ydP = y \cdot \gamma h \cdot d\omega = y \cdot \gamma \cdot y \sin \theta \cdot d\omega = \gamma \sin \theta \cdot y^2 d\omega, \quad (2.34.4)$$

(2.34.4) tenglamani integrallab butun ω maydonchani teng ta'sir etuvchi M momentini topamiz;

$$M = \int_{\omega} \gamma \sin \theta y^2 d\omega = \gamma \sin \theta \int_{\omega} y^2 d\omega, \quad (2.34.5)$$

bu yerda, $\int_{\omega} y^2 d\omega$ – ω maydonchaniing OX o'qiga bo'lgan inertsia momenti;

$\int_{\omega} y^2 d\omega = J_x$ bilan belgilaymiz, u holda $M = \gamma \sin \theta J_x$ bo'ladi.

$$\text{Bu tenglamadan} \quad y_c = \sin \theta J_x / \omega h_c = J_x \omega y_o \quad (2.34.6)$$

Inertsia momenti o'qini maydonchaniing og'irlik markaziga o'tkazamiz.

Parallel o'qqa nisbatan bo'lgan inertsia momenti o'zaro quyidagi tenglik bilan bog'langan;

$$J_x = J_0 + \omega y_d^2, \quad (2.34.7)$$

bu yerda, J_0 – og'irlik markazi orqali X o'qiga parallel o'tgan maydonchaniing inertsia momenti; y_c – maydonchaniing og'irlik markazigacha bo'lgan masofani inertsia J_x ni (2.34.7) qo'yib topamiz,

$$y_d = y_c + J_x / \omega y_c \quad (2.34.7)$$

$$\text{yoki} \quad y_d = y_c + J_x / S \quad (2.34.8)$$

bosim markazi og'irlik markazidan har doim J_x / S masofada joylashgan.

III-BOB. SUYUQLIK VA GAZODINAMIKASI

Maqsadlari:

- harakatdagi suyuqliklarni tahlil qilish uchun kerakli bo'lgan tushunchalarni kiritish.
- Mo'tadil nostatsionar teng pastlovchi turli xil siqilmaydigan oqimlar o'rtasida farqni aniqlash.
- tok chiziqlari va oqimli trubkalarni namoyish qilish.
- massali va nazoratli hajmlarni saqlab qolgan holda uzluksizlik printsipini kiritish.
- Bernulli tenglamasini chiqarish (energiya).
- Bernulli tenglamasini amaliy qo'llashni va oqim tahlilidagi uzluksizlikni namoyish qilish.
- suyuqlik uchun harakat tenglamasini kiritish.
- impuls tenglamasining qo'llanilishi, oquvchi suyuqliklar sababli yuzaga kelgan kuchlarni bashorat qilish uchun impuls saqlash printsipini ko'rsatish.

Bu bo'limda harakatdagi suyuqlikni tahlili ya'ni suyuqlik dinamikasi muhokama qilinadi. Suyuqliklarning harakatini ham fizikaning fundamental qonunlari asosida qattiq jismlar harakatini bashorat qilib bo'lganidek, suyuqlikning fizik xossalari yordamida bashorat qilish mumkin.

Suyuqlikning juda murakkab oqimini ham oldindan nazarga olish qiyin emas. Avtomobil ortidagi spreylar, sohillardagi to'lqinlar, bo'ron va to'fonlar, tornado va istalgan boshqa atmosfera hodisalari – suyuqlikning murakkab oqimlarining misollari bo'lib, ular har xil natijalar bilan bashorat qilinadilar (ba'zi hollarda umuman bashorat qilina olmaydilar). Umuman olganda tahlil qilsa bo'ladigan umumiy vaziyatlar mavjud.

Bir tekis va mo'tadil oqim.

O'rganilayotgan oqimni uncha katta bo'lmagan guruhlariga klassifikatsiyalashning imkoni mavjud va bu foydadan holi emas. Hozirgi muhitga nazar tashlasak, hozirgi normal sharoitlardagisiga, masalan, daryoni kuzatsak, uning bir nuqtasidagi sharoitlar boshqa nuqtasidagi sharoitlardan farq qiladi. (Masalan, tezlikning turiligi), biz notekis oqimni guvohi bo'lamiz. Agar bir nuqtadagi

sharoitlar vaqt o'tgani sari o'zgarsa u holda nomo'tadil oqimga ega ekanligimizni tushunishimiz kerak bo'ladi.

Ba'zi holatlarda oqim yuqoridagidek o'zgaruvchan bo'lmaydi. Keyingi atamalar suyuqlik oqimlar holatlarini klassifikatsiya qilish yaratilganlar.

- bir tekis oqim: agar oqim tezligi suyuqlikning har bir nuqtasida kattaligi va yo'nalishi bo'yicha bir xil bo'lsa u holda bu bir tekis oqim hisoblanadi.
- bir tekis bo'lmagan oqim: ayni soniyada tezlik bir xil bo'lmasa, unda oqimning har bir nuqtasi notekis bo'ladi. (amalda, bu tavsif asosida, yassi chegara yaqinida oquvchi har bir oqayotgan muhit notekis bo'ladi. Chunki, suyuqlik chegarada odatda 0 ga teng bo'lgan chegaraning tezligini olishi kerak. Biroq agar suyuqlik oqimining chorraaviy oqimi o'lchami va shakli doimiy bo'lsa u bir xil hisoblanadi).
- mo'tadil: mo'tadil oqim - bu sharoitlar (tezlik, bosim, ko'ndalang kesishuv) nuqtadan nuqtaga farq qilsada vaqt mobaynida o'zgarmaydi).
- nostatsionar: agar suyuqlikning istalgan nuqtasida vaqt mobaynida o'zgarsa, oqim nomo'tadil deb tasvirlanadi. (Amalda doim tezlik va bosimda o'zgarishlar bo'ladi, biroq o'rtacha o'lchamlar doimiy bo'lib tursa oqim mo'tadil hisoblanadi).

Yuqorida berilgan ma'lumotlarni umulashtiradigan bo'lsak, biz istalgan oqimni 4 tipdan biriga klassifikatsiya qilishimiz mumkin bo'ladi:

1. ***Mo'tadil bir tekisdagi oqim.*** Oqimdagi sharoitlar xolat yoki vaqt ta'sirida o'zgarmaydilar.

Bunga misol sifatida doimiy diametr va doimiy tezlikdagi quvirdagi suv bo'lishi mumkin.

2. ***Bir xil bo'lmagan mo'tadil oqim.*** Sharoitlar oqimning bir nuqtasidan boshqa nuqtasiga o'zgaradilar, biroq vaqt davomida o'zgarmaydilar.

Misol sifatida torayuvchi quvirdagi kirishda doimiy tezlikka ega oqim bo'lishi mumkin. Tezlik quvirning uzunligi bo'ylab harakatlanish jarayonida o'zgarib boraveradi.

3. ***O'lchamli bir tekis oqim.*** Ayni soniyalarda har bir nuqtadagi sharoitlar bir xildirlar. Biroq ular vaqt davomida o'zgaraveradilar. Doimiy diametrga ega va doimiy tezlikka ega nasosga ulangan biroq keyin o'chuvchi quvir misol tariqasida ko'rsatilishi mumkni.

4. ***O'lchamsiz har xil oqim.*** Oqimning har bir sharoiti nuqtadan nuqtaga va vaqt davomida o'zgarishi mumkin. Masalan, kanaldagi oqimlar.

Agar siz yuqorida berilgan ma'lumotlarni ko'z oldingizga keltira olsangiz, u holda siz bu oqimlarning har biri qanchalar murakkab ekanligini tasavvur qila olsangiz kerak. Mo'tadil bir tekis oqim bu oqimlar ichida eng oddiysi hisoblanadi.

Ushbu kurs faqatgina shu 4 ta sinf oqimlari bilan chegaralanishini eshitib hursand bo'lsangiz kerak. Hech bir misolda biz siz bilan notekis yoki nostatsionar effektlar bilan to'qnash kelmaymiz. (Bitta yoki ikkita yaxshi tayorgarchilik bilan bartaraf qilinishi mumkin bo'lgan muammolardan tashqari).

Siqiluvchanlik va siqilmaslik xususiyatlari.

Barcha suyuqliklar siqiladilar, xatto suv ham, ularning zichligi bosim o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. O'rnatilgan sharoitlarda va bosim o'zgarishlari katta bo'lmaslik sharti bilan, oqim taxlili siqilmaydi va doimiy zichlikka ega degan holda taxlillarni oddiylashtirish mumkin. Siz albatta suyuqlikni siqish juda qiyinligini tushunasiz, shu sababdan ham eng stabil sharoitlarda ularni siqilmaydi deb qabul qilamiz.

Ba'zi o'lchamsiz sharoitlarda katta bosim o'zgarishlari yuzaga kelishi mumkin. Ularni suyuqliklar uchun hisobga olish kerak bo'ladi. Aksincha, gazlar juda oson siqiladilar va ko'p hollarda ulardagi bosimni hisobga olgan holda *siqluvchan deb* qabul qilish kerak ekan.

3.1. GIDROGAZODINAMIKA ASOSLARI. ASOSIY TUSHUNCHALAR


Gidrodinamika, gidravlika (suyuqliklar mexanikasi) bir bo‘limi bo‘lib harakatdagi suyuqliklarni o‘rganuvchi bo‘limdir. *Gidravlik atamalar lug‘ati*

Suyuqlik oqimida ikki rusumdagi oqimlar mavjud (3.1.1-rasm).

- 1) Naporli - bunda suyuqlik ma‘lum erkin sirtsiz chegaraga ega ya‘ni suyuqlik chegarasi hamma tomondan sirt bilan to‘silgan.
- 2) Naporsiz - bu harakatda erkin sirt mavjud.

Barcha suyuqlik oqimi umumiy gidravlik elementlarga ega:

tok zichligi, jonli kesim, sarf, tezlik. Quyida bular haqida qisqacha ma‘lumot beramiz.



3.1.1-rasm. Naporli va naporsiz harakatlar

Erkin sirt - bu suyuqlik bilan gaz orasidagi bosim atmosfera bosimiga teng bo‘ladi (3.1.1.a-rasmda). Uni borligi yoki yo‘qligi oqim rusumini aniqlaydi. Ular naporli yoki naporsiz harakatlar. Naporli odatda vodoprovod quvurlarida kuzatiladi (3.1.1.b-rasmda). Suyuqlik bu holda quvur ichida uning qiyaligi hisobiga harakatlanadi. Bunday harakatni kanalizatsiya quvurlarida uchratish mumkin. Tok zichligi ko‘ndlang kesim yuzasi juda kichik bo‘lgan oqimning elementar oqimchali. Oqim esa shu oqimchalar dastasidan iborat (3.1.1.v- rasmda).

Oqimning jonli kesim yuzasiga aytiladi (8.g- rasmda)

Oqim sarfi q (yoki Q) – bir birlik vaqt ichida jonli kesim orqali oqib o‘tgan suyuqlik hajmi V_0 ga teng.

$$q = V_0 / t \quad (3.1.1)$$

Xalqaro o'lchov birliklar (XO'B da sarf birligi m^3 / S larda o'lchanadi yoki $m^3 / soat$, (m^3 / sut) L/s.

Oqimning o'rtacha tezligi $V (m / s)$ – bu oqim sarfini ko'ndalang jonli kesim yuzasiga bo'linishdan hosil bo'lgan xususiy hol.

$$V = q / \omega. \quad (3.1.2)$$

Bundan sarfni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$q = V \omega \quad (3.1.3)$$

Suv oqimi o'rtacha tezligi uylarda vodoprovod to'rlarida va kanalizatsiya quvurlarida odatda ko'p hollarda $1 m / s$ ni tashkil etadi. Quyidagi ikkita atama, naporsiz harakatga tegishli.

Ho'llangan perimetr $\chi (m)$ -bu jonli kesimni perimetrini bir bo'lagi bo'lib, oqim bu yerda qattiq devorga tegib turgan perimetriga aytiladi. Masalan 3.1.1.v-rasm da χ aylana yoyi uzunligiga teng, chunki bu yerda jonli kesimni bir qismi pastki qismi quvur devoriga tegib turadi.

Gidravlik radius $R (m)$ - bu quyidagi nisbatga teng.

$$R = \omega / \chi. \quad (3.1.4)$$

Texnik gidrodinamika masalasining umumiy qo'yilishi.

Suyuqlik va gazlarning harakat oqimining asosiy gidrodinamik karakteristikasi sifatida r – gidrodinamik bosimning skalyar kattaligi va zarrachaning harakat tezligining (u) vektor kattaligini ko'rsatish mumkin. Suyuqlik harakatlanayotgan muhitning turli qo'zg'almas nuqtalarida bosim turli qiymatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, vaqtning turli qiymatlarida ixtiyoriy qo'zg'almas nuqtada bu kattalik turli qiymatlarga ega bo'lishi mumkin. Ya'ni:

$$\begin{cases} p = f_1(x, y, z, t) \\ u_x = f_2(x, y, z, t) \\ u_y = f_3(x, y, z, t) \\ u_z = f_4(x, y, z, t) \end{cases} \quad (3.1.5)$$

bunda, u_x, u_y, u_z – tezlikning dekart koordinatalar sistemasidagi proektsiyalari. Maʼlum bir t_1 - vaqtdagi f_1, f_2, f_3, f_4 funktsiyalar qiymatini bilish orqali bosimning skalyar maydoni va tezlikning vektor maydoni haqida maʼlumot olish imkoniyatini beradi. Shuning uchun matematik gidrodinamikada r va u kattaliklarni bilish asosiy masala hisoblanadi.

Masalaning bunday qoʻyilishida f_1, f_2, f_3, f_4 funktsiyalar qiymatini hisoblash shu darajada qiyin masalaki, xatto real suyuqlikni ideal suyuqlik deb faraz qilinganda ham, masalani hal qilib boʻlmaydi. qolaversa amaliyotda bu masalani nihoyatda yuqori darajada hisoblashga ehtiyoj boʻlmaydi.

Shu sababli texnik gidrodinamikada (3.1.5) ifodadan foydalanilmasdan, gidravlik usuldan keng foydalaniladi. Gidravlik usul yordamida harakatlanayotgan suyuqlik joylashgan muhitning ixtiyoriy qoʻzgʻalmas nuqtasidagi bosimni va tezlikni aniqlash oqimning ayrim oʻrtacha va integral harakteristikalariga asoslangan. Shu usulga asoslanib tuzilgan asosiy tenglamalar quyidagilardir:

- suyuqlikning siqilmaslik va uzluksizlik gidravlik tenglamasi;
- real xolatdagi butun oqim uchun kinetik energiyaning (Bernulli tenglamasi) gidravlik tenglamasi;
- real xolatdagi suyuqlik uchun harakatlar soni gidravlik tenglamasi;
- suyuqlikning harakatida paydo boʻladigan ishqalanish kuchlarining miqdorini baholash uchun emperik va yarim emperik ifodalar (Darsi va Veysbax ifodalari)dan foydalaniladi.

Tenglamalarning hadlarini aniqlab, ularning yordamida gidravlik hodisalarni taxlil qilish natijasida suyuqliklar mexanikasiga oid nihoyatda qiyin amaliy muammolarni hal qilish mumkin boʻlgan texnik nazariyani yaratish mumkin. Lekin

ayrim masalalarning yechimini topishda bu usullarni suyuqliklarning matematik mexanikasi bilan birgalikda qo'llanilishini ham ta'kidlashimiz kerak.

Gidrodinamikaning ikki xil masalasi. Suyuqlikning harakati bilan tanishganda, asosan, ikki xil masalani yechimini topishga to'g'ri kelishi mumkin:

- tashqi masala, ya'ni, suyuqlik oqimi ma'lum bo'lib, suyuqlikning o'zi aylanib oqib o'tayotgan qattiq jismga ta'siri;

- ichki masala, suyuqlikka ta'sir etayotgan kuchlar (hajmiy, masalan, og'irlik kuchi) berilgan bo'lib, oqimning gidrodinamik karakteristikasi – bosim, tezlik va xokazolarni topish.

3.2. SUYUQLIK HARAKATINING KINEMATIKASI

Suyuqlik harakatini kuzatishning ikki asosiy analitik usuli mavjud:

Lagranj usuli. Harakatlanayotgan suyuqlikda K sohani ajratib olib (3.2.1-rasm), qo'zg'almas Ox va Oz koordinata o'qlarini belgilaymiz. Boshlang'ich vaqtda kirish chegarasidan M_1, M_2, M_3 harakatlanayotgan zarrachalarni ko'rib chiqamiz. Ularning boshlang'ich koordinatalarini x_o va z_o deb belgilab olamiz.

Demak,

$$\left. \begin{aligned} x &= f_1(x_o, z_o, t) \\ z &= f_2(x_o, z_o, t) \end{aligned} \right\} \quad (3.2.1)$$

bu ifodalar yordamida har qanday belgilangan zarracha traektoriyasini aniqlashimiz mumkin. Endi zarrachaning dt vaqtda bosib o'tgan ds masofasini topib olishimiz mumkin. Bundan ixtiyoriy nuqtadagi tezlikni topishimiz mumkin. Belgilab olingan sohani bosib o'tayotgan zarrachani bosib o'tish uchun ketayotgan t vaqt davomida kuzatishimiz mumkin.

Lagranj fikriga asosan, zarrachalar traektoriyalarining umumlashgan ko'rinishi orqali oqimni o'rganish mumkin. Ta'kidlash kerakki, x va z lar suyuqlik zarrachasining o'zgaruvchan koordinatalari bo'lib, dx va dz kattaliklar ds kattalik proektsiyalari sifatida qaralishi mumkin.

Demak,

$$u_x = \frac{dx}{dt}; \quad u_z = \frac{dz}{dt}; \quad (3.2.2)$$

Eyler usuli. Faraz qilaylik, harakatlanayotgan suyuqlik bilan muhitning bir bo'lagini ajratib olish mumkin. Bu bo'lakni dekart koordinatalar sistemasiga joylashtirib, unda 1, 2, 3,...nuqtalarni tanlab olamiz. Bunda, x, z – Lagranj usulidagi kabi, zarracha koordinatalari emas, balki, muhitning qo'zg'almas nuqtalaridir (3.2.2-rasm). t_1 vaqt oralig'ini kuzatadigan bo'lsak, 1 nuqtada $u_1(t_1)$, 2 nuqtada $u_2(t_1)$ va xokazo tezliklarga ega bo'lgan zarrachalar mavjud bo'ladi.


Ko'rinib turibdiki, t_1 vaqtda oqim – tezlik vektori maydonlari ko'rinishida ifodalanib, har qaysi vektorga ma'lum qo'zg'almas nuqta mos keladi. Ikkinchi boshqa vaqt oralig'ida 1, 2, 3,...nuqtalar uchun $u_1(t_2)$, $u_2(t_2)$, $u_3(t_2)$ va xokazo tezliklar maydoniga ega bo'lamiz.

Umuman, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, oqim ma'lum vaqt oralig'ida muhitning qo'zg'almas nuqtalaridagi zarrachalarining tezlik maydonlari bilan ifodalanadi. t_1 va t_2 vaqt oraliqlariga mos keluvchi tezlik maydonlarini o'zaro taqqoslash bilan aytish mumkinki, oqim vaqt o'tishi bilan o'zgaradi.


Yuqorida ta'kidlanganidek, x va z koordinatalar, Eyler usuliga asosan, muhitning qo'zg'almas nuqtalari bo'lganligi sababli, dx va dz kattaliklarni ds kattalikning proektsiyalari sifatida qarash mumkin emas, balki, oddiy erkin vaziyatlar sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli (3.2.2) ifodani bunday vaziyatda qo'llab bo'lmaydi.

Suyuqlik harakatini tadqiq qilishning gidravlikada qo'llaniladigan usuli. Lagranj usuli o'ziga xos murakkabligi sababli amaliyotda keng qo'llanilmaydi. Bundan keyin asosan, Eyler usulidan foydalanamiz.

Bunda, biz, suyuqlik zarrachasi harakatini dt ko'rilyotgan nuqtadan o'tgunga qadar bo'lgan dt vaqt davomida kuzatamiz.



3.2.1-rasm. Lagranj usulining tasviri
 M_1, M_2, M_3 – suyuqlik zarrachalari.



3.2.2-rasm. Eyler usulining tasviri
 $2, 3, \dots$ – muhitning qo'zg'almas nuqtalari.

Masalani bunday qo'yilishida muhitning har qanday nuqtasida joylashgan zarracha dt vaqt davomida tashkil etuvchilari dx va dz bo'lgan ds masofani bosib o'tadi, deb qabul qilishimiz mumkin. Shu sababli, u_x va u_z tezlik tashkil etuvchilarini aniqlash uchun (3.2.2) ifodadan foydalanish mumkin.


Suyuqlikning barqaror va beqaror harakatlari.

Bunday harakat turlari haqida tushuncha hosil qilishimiz uchun 6.4-rasmida ifodalangan a_1, b_1 va a_2, b_2 chiziqlar bilan chegaralangan suyuqlik oqimi bilan tanishamiz. Rasmida ifodalangan muhitda 1 qo'zg'almas nuqta tanlab, bu nuqta orqali bir necha suyuqlik zarrachalari (M)ning harakatini kuzatamiz.


Bu qo'zg'almas nuqtadan t' vaqtda M' zarracha, t'' vaqtda M'' zarracha va xokazolar mos ravishda $u', u'', \dots$ tezliklar bilan o'tadi. Agar suyuqlik harakatlanayotganda muhitning biror nuqtasidagi tezlik vaqt davomida o'zgarib tursa, bunday harakat **beqaror harakat** deyiladi.

$$u = f_1(x, y, z, t). \quad (3.2.3)$$

Suyuqlik harakati davomida, u harakatlanayotgan muhitning har bir nuqtasida tezlik vaqt o'tishi bilan o'zgarmasa, bunday harakat **barqaror harakat** deyiladi. Bir qo'zg'almas nuqtadan o'tayotgan M zarrachalarning harakat traektoriyalari ustma-ust tushadi (3.2.4-rasm) va vaqt davomida ular o'zgaradi. Beqaror harakatda ikki xil xolat bo'lishi mumkin:



3.2.3-rasm. Suyuqlik zarrachalarining beqaror harakati.



3.2.4-rasm. Suyuqlik zarrachalarining barqaror harakati.

- alohida ayrim nuqtalarda tezlik sekin o'zgarganligi sababli $\frac{\partial u_x}{\partial t}$, $\frac{\partial u_y}{\partial t}$ va $\frac{\partial u_z}{\partial t}$ hadlarni hisobga olmaslik mumkin, bunday xolatdagi harakat **sekin o'zgaruvchan harakat** deyiladi;

- alohida ayrim nuqtalarda tezlikni tez o'zgarishi bilan kuzatiladigan harakat esa **tez o'zgaruvchan harakat** deyiladi.

Oqim chizig'i va elementar oqimchalar to'plami.


Barqaror harakat. Oqimning bunday harakatida vaqt davomida o'zgarmaydigan va undan suyuqlik zarrachalari ketma-ket harakatlanganidagi maydonlari tushuniladi (3.2.3-rasm.), $M'''-M''-M'-1-2$ chiziq.

Beqaror harakat. Bunday harakatda suyuqlik harakatlanayotgan muhitning ixtiyoriy qo'zg'almas nuqtalaridan zarrachalarning tezlik vektorlariga o'tkazilgan urinma chiziq - **oqim chizig'i** deb ataladi (3.2.5-rasm).


Beqaror harakatda 1, 1', 1'' nuqtalar orqali o'tuvchi oqim chiziqlari harakatning oniy vaziyatini ko'rsatadi. Vaqt o'zgarishi bilan bu vaziyat o'zgarishi mumkin. Endi oqimning ichki qismida tanlab olingan ixtiyoriy 1 nuqta olib, uning atrofida $\delta\omega$ elementar yuza tanlaymiz va bu yuza orqali oqim chiziqlarini o'tkazamiz.

Xuddi mana shu chiziqlar bilan chegaralangan muhitni (3.2.6-rasm) **elementar oqimchalar to'plami** deb ataymiz. Oqimning barqaror harakatida elementar oqimchalar to'plami quyidagi xususiyatlarga ega:

- oqimchalar chizig'i barqaror harakatda vaqt davomida o'zgarmas bo'lganligi sababli, oqimchalar to'plami shakli ham o'zgarmasdir;



3.2.5-rasm. Beqaror harakatdagi oqim chizig'i.




3.2.6-rasm. Oqim ichida ajratilgan oqimchalar to'plami.

- elementar oqimchalar to'plami oqim chiziqlari bilan chegaralangan bo'lib (3.2.6-rasm), ular orqali suyuqlik zarrachalari sirpanib harakatlanganligi sababli, oqimchalar to'plami ichiga tashqaridan zarrachalar kirmaydi va ichkaridagilari ham tashqariga chiqmaydi; - $\delta\omega$ - elementar yuza bo'lganligi sababli, butun yuza bo'ylab (u) tezlik va gidrodinamik bosim o'zgarmas bo'lib, uzunlik bo'ylab o'zgarishi mumkin.

3.3. UZLUKSIZLIK

Materiya paydo qilinishi yoki yo'q qilinishi mumkin emas - (u materiyaning boshqa shakliga o'zgarishi mumkin). Ushbu qoyida massani saqlab qolish sifatida ma'lum bo'lib, oquvchi muhitlarni ta.lil qilishda bizga kerak bo'ladi.


Bu printsip pastdagi rasmda ko'rsatilganidek nazorat qiluvchi qismlar (yoki sirtki qatlam) deb nomlanuvchi mustahkamlangan qismlar uchun qo'llaniladi.



3.3.1-rasm. Ixtiyoriy shaklning kontrol tovush balandligi

Barcha kontrol hajm uchun massa saqlash qonuniga asosan:

Vaqt birligiga ommaviy kiritish = vaqt birligiga ommaviy ketish + vaqt birligiga tekshirlayotgan hajmda massaning o'sishi.



3.3.2-rasm. Oqimli trubka

Muqarrar oqim uchun tekshirilayotgan hajm chegarasida massaning oʻsishi yoʻq, shuning uchun muqarrar oqim vaqt birligiga ommaviy kiritish = vaqti birligiga ommaviy ketishiga aytiladi. Buni oqim trubkasiga pastda koʻrsatilganidek qoʻllash mumkin.

Hech bir suyuqlik chiziqlar bilan egri chiziq tashkil etganida chegara orqali oqmaydi, shuning uchun ham massa oqimning shu jabxasidagi ikki yakuniy joylari orqali chiqadi va kiradi.

U holda biz quyidagini yozishimiz mumkin.

1 massa yakunida vaqt birligiga ommaviy toʻgʻri kelish = 2 yakunida vaqt birligiga ommaviy ketish;

$$\rho_1 \varphi A_1 \mathcal{G}_1 = \rho_2 \varphi A_2 \mathcal{G}_2 \quad (3.3.1)$$

yoki muqarrar oqim uchun

$$\rho_1 \varphi A_1 \mathcal{G}_1 = \rho_2 \varphi A_2 \mathcal{G}_2 = \text{const} = m \quad (3.3.2)$$

Bu uzluksizlik tenglamasi

Haqiqiy quvur (yoki istalgan boshqa idish) orqali suyuqlik oqimi devor borligi uchun oʻzgarib turadi. Bu holda biz oʻrtacha tezlikdan foydalanishimiz va quyidagini yozishimiz mumkin:

$$\rho_1 A_1 \mathcal{G}_{w1} = \rho_2 A_2 \mathcal{G}_{w2} = \text{const} = m \quad (3.3.3)$$


Suyuqlikni siqilmaydigan deb hisoblasak, yaʼni zichlik oʻzgarmaydi, $\rho_1 = \rho_2 = \rho$ (m indeksini olib tashlagan holda)

$$A_1 \mathcal{G}_1 = A_2 \mathcal{G}_2 = Q \quad (3.3.4)$$

Bu uzluksizlikning eng koʻp qoʻllaniladigan formulasidir.

Bu formula suyuqlik mexanikasida juda kuchli qurol hisoblanadi va bu kurs davomida koʻp marotaba qoʻllaniladi.

Ilovalarning baʼzi misollarida biz uzluksizlik printsipini oʻz uzunligi boʻylab oʻzgaruvchi koʻndalang kesishuvchi quvurlarga qoʻllashimiz mumkin. Pastdagi qisqartirilgan quvur diagrammasini koʻrib chiqamiz:



3.3.3-rasm. Quvur diagrammasi

Suyuqlik chapdan oʻngga qarab oqmoqda, quvur ham shu yoʻnalishda qisqarib bormoqda. Uzluksizlik printsipiga asosan ommaviy harakat har bir joyda bir xil boʻlishi kerak – quvurga kelayotgan massa, quvurdan chiqayotgan massaga teng. Shuning uchun ham biz quyidagicha yoza olamiz:

$$A_1 g_1 \rho_1 = A_2 g_2 \rho_2 \quad (3.3.5)$$

(ikki boʻlimda koʻrsatkichlar beruvchi 1 va 2 kesim yuzalari)

Odatda suyuqlik sifatida biz uncha siqilmaydigan suvni koʻrganimiz sababli, zichlik juda kam oʻzgaradi. Shuning uchun $\rho_1 = \rho_2 = \rho$ bu bundan tashqari ommaviy harakat doimiyligini yoki 1 boʻlakdagi harakat = 2 boʻlakdagi harakatni taʼkidlaydi.

$$\begin{aligned} Q_1 &= Q_2 \\ A_1 g_1 &= A_2 g_2 \end{aligned} \quad (3.3.6)$$


Masalan, agar maydon $A_1 = 10 \cdot 10^{-3} m^2$ va $A_2 = 3 \cdot 10^{-3} m^2$ va boshlanayotgan oqimning oʻrtacha tezligi $g_1 = 2,1 m/s$ boʻlsa, u holda pastlayotgan oqimning oʻrtacha tezligi ushbu formula yordamida hisoblansa boʻladi:

$$g_2 = \frac{A_1 g_1}{A_2} = 7,0 m/s$$

Eʻtibor beringki, pastga ketayotgan oqimning tezligi faqat boshlanayotgan oqim tezligidan quvurning ikkita qismi nisbatiga oʻzgaradi. Doirasimon quvurning maydoni dimetrga bogʻliq boʻlgani uchun, biz hisob kitob ishlarida yanada qisqartirishimiz mumkin.

$$g_2 = \frac{A_1}{A_2} g_1 = \frac{\pi d_1^2 / 4}{\pi d_2^2 / 4} g_1 = \left(\frac{d_1}{d_2} \right) g_1 \quad (3.3.7)$$

Endi bularni diffuzorda sinab koʻring. Pastdagi rasmda koʻrsatilganidek kengayib tarqaluvchi quvurda:



3.3.4-rasm. Diffuzorda kengayib tarqaluvchi quvur

Agar 1 boʻlim diametri $d_1 = 30 \text{ mm}$ teng boʻlsa, 2 boʻlimida esa $d_2 = 40 \text{ mm}$, 2 boʻlimdagi oʻrtacha tezlik $g_2 = 3,0 \text{ m / s}$ tashkil etsa u holda diffuzorga kelib tushuvchi tezlik:

$$g_1 = \left(\frac{40}{30} \right) 3,0 = 5,3 \text{ m/s.}$$


Uzluksizlik printsipini qoʻllashning yana bir misoli bu oʻtish joylaridan chiqqan quvurlardagi tezliklarni aniqlash boʻla oladi. Oʻtishdagi umumiy ommaviy harakat = oʻtish joyidan umumiy ommaviy harakat

$$\rho_1 Q_1 = \rho_2 Q_2 + \rho_3 Q_3 \quad (3.3.8)$$

Oqim siqilmas boʻlganda (masalan suv boʻlsa) $\rho_1 = \rho_2 = \rho$

$$Q_1 = Q_2 + Q_3$$

$$A_1 \mathcal{Q}_1 = A_2 \mathcal{Q}_2 + A_3 \mathcal{Q}_3 \quad (3.3.9)$$



3.3.5-rasm

Agar quvur diametri $1d = 50 \text{ mm}$ ni tashkil etsa, oʻrtacha tezlik 2 m / s , quvur diametri $d = 40 \text{ mm}$ umumiy harajatdan 30% ni tashkil etadi va quvur diametri $d = 60 \text{ mm}$.

Har bir quviudagi harajat va oʻrtacha tezlik koʻrsatkichlari qanday?

$$Q_1 = A_1 \mathcal{Q}_1 = \left(\frac{\pi d^2}{4} \right) \mathcal{Q} = 0,00392 \text{ m}^3/\text{s}$$

$$Q_1 = 0,3Q_1 = 0,001178 \text{ m}^3/\text{s}$$

$$Q_1 = Q_2 + Q_3$$

$$Q_3 = Q_1 - 0,3Q_1 = 0,7Q_1 = 0,00275 \text{ m}^3/\text{s},$$

$$Q_2 = A_2 \mathcal{Q}_2, \quad \mathcal{Q}_2 = 0,936 \text{ m/s},$$

$$Q_3 = A_3 \mathcal{Q}_3, \quad \mathcal{Q}_3 = 0,972 \text{ m/s}.$$

3.4. OQIMNING UZLUKSIZLIK TENGLAMASI

Oqimning uzluksizlik tenglamasi massasini saqlanish qonunini ifodalaydi quvur ichiga kirayotgan suyuqlik miqdori oqib chiqayotgan suyuqligiga teng. Masalan 10-

rasmda naporli quvurdagi ko'ndalang kesimlardan kirayotgan va chiqayotgan suyuqlik sarflanadi:


$$Q_1 = Q_2 \quad (3.4.1)$$

$Q = \mathcal{Q}\omega$, ekanligini e'tiborga olsak u holda uzliksizlik tenglamasini oqim uchun quyidagicha yozamiz:

$$\mathcal{Q}_1\omega_1 = \mathcal{Q}_2\omega_2. \quad (3.4.2)$$

Bundan quvurdan chiqayotgan suyuqlik tezligi quyidagi formula yordamida aiqlaymiz:

$$\mathcal{Q}_2 = \mathcal{Q}_1\omega_1/\omega_2, \quad (3.4.3)$$



3.4.1-rasm. Oqim va oqimchalar tenglamasi uchun sxemasi.

Bundan ko'rinib turibdiki quvurdan chiqayotgan tezlik jonli kesimlarga nisbatan teskari proportsional holda katta qiymatni olar ekan. Bu xulosa, tezlik bilan ko'ndalang kesimlar orasidagi teskari bog'lanish, uzluksizlik tenglamani texnikada muhandislik amaliyotida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa yong'inni so'ndirishda kuchli va uzoqqa suyuqlikni yetkizib berishda, mashinalarni yuvushda kuchli napor hosil qilishlarda ishlatiladi.

Quyidagi misolni e'tiboringizga havola etamiz.

Napor quvuri diametri d bo'lsa bu diametrni ikki barobarga kamaytirsak u holda oqim tezligi qanday qiymatga o'zgaradi.

Bunday quvurning ko'ndalang kesim yuzasi formula yordamida

$$\omega = \frac{\pi d^2}{4} \quad (3.4.4)$$

3.4.1-rasmda joyi aniqlanadi. (3.4.4) formulaga asosan ko'ndalang kesimlar nisbati 4 ga teng.

Shunday qilib quvur diametri ikki barobarga oshadi. Shuningdek, agar diametr uch barobarga kamaysa – tezlik 9 marta oshadi.


3.5. GIDRODINAMIK NAPOR

Gidrodinamik napor H (m) - harakatdagi suyuqlikni energetik xarakteristikasini ko'rsatadi. Bu tushuncha gidravlika fanining asoslaridan biridir.

Gidrodinamik napor H (3.5.1-rasm) quyidagi formula yordamida aniqlanadi;

$$H = z + h_p + h_g = z + \frac{P_{yuq}}{\gamma} + \frac{g^2}{2g}, \quad (3.5.1)$$

bu yerda, Z -geometrik napor (balandlik), m ; h_p -p'ezometrik napor, balandlik), m ; $h_g = g^2 / (2g)$ -tezlik napori, m ; g -oqim tezligi; g -erkin tushish tezlanishi, m^2 / s .



3.5.1-rasm. Hidrodinamik naporni tushintirishga doir sxema:

1- p'ezometr; 2-Pito naychasi.

Gidrodinamik napor gidrostatik naporga qaraganda uchta tashkil etuvchilar yig'indisidan iborat. Yuqoridagi tenglamadagi h_g kattalik suyuqlik harakatining kinetik energiyasini ifodalaydi. Qolgan hadlar potentsial energiyani ifodalaydi.

Napor asosan O-O tekislikdan o'tuvchi gorizontall chizig'i nol hisobida bo'ladi (3.5.1-rasm). Undan keyingi hisobidagi balandlik suyuqlik napori hisoblanib metr (m) larda o'lchanadi.

Tezlik napori h_g tezlik orqali hisoblanadi yoki p'ezometrlar va Pito quvurchalari yordamida o'lchanadi.

P'ezometr va pito quvurchalaridan ko'rsatkich farqi quvurchalar naporini ifodalaydi. Pito quvurchasi p'ezometrqa qaraganda uning pastki qismi suyuqlik harakatiga teskari ravishda quyilgan bo'lib, bosim va tezlikni o'lchaydi.

3.6. SUYUQLIKLAR HARAkatIDAGI NAPORNING YO'QOLISHI

1. Uzunlik bo'yicha napor yo'qolishi - h_l
2. Mahalliy qarshilikda napor yo'qolishi - h_m

Uzunlik bo'yicha napor yo'qotilishi.

Uzunlik bo'yicha napor yo'qotilishini hisoblashda Darsi-Veysbax formulasidan foydalaniladi, u dumaloq ko'ndalang kesimli quvur uchun

$$h_l = \lambda \frac{l}{d} \cdot \frac{g^2}{2g} \quad (3.6.1)$$

Boshqa ko'ndalang kesimli quvur uchun,

$$h_l = \lambda \frac{l}{4R} \frac{g^2}{2g}, \quad (3.6.2)$$


bu yerda, λ - gidravlik ishqalanish qarshilik koeffitsienti; l - quvur uzunligi (hisobdagi); d - quvur diametri; R - gidravlik radius, $R = \frac{\omega}{\chi}$; χ - ho'llangan perimetr; ω - suyuqlik kesimining yuzasi; g - oqimning o'rtacha tezligi.

Gidravlik ishqalanish koeffitsienti λ Reynol'ds soni Re ga va quvurning nisbiy g'adur-budurlikiga bog'liq bo'ladi.

$\bar{\Delta}_r = \frac{\Delta}{D}$ nisbiy g'adir-budurlik; Δ - mutloq ekvivalent g'adir-budurlik (qiymatlari 3.6.1-3.6.3-jadvallarda berilgan).

Laminar oqim uchun $\lambda = \frac{64}{Re}$, turbulent oqimda $\lambda = f(Re, \Delta_p)$ bo'lib, Nikuradze yoki Kolbruk-Uayt grafiklaridan aniqlanadi. Kvadratik qarshilik zonasida

bo‘lgan harakatda, naporning uzunlik bo‘yicha yo‘qolishini quyidagi Shezi formulasi orqali topish mumkin:



3.6.1-rasm

$$Q = \omega C \sqrt{Ri_e}, \quad (3.6.3)$$

bu yerda, Q - suyuqlik sarfi; C - Shezi koefitsienti, ko‘pincha $C = \frac{1}{n} R^{1/6}$

Mannin formulasi orqali topiladi; n – g‘adir-budirlik koefitsienti (3.6.13-jadval)

$i_e = \frac{h_l}{l}$ - gidravlik qiyalik. Shezi formulasiga asoslanib h_l quyidagicha, bo‘ladi:

$$h_l = \frac{Q^2}{K^2} l, \quad (3.6.4)$$

bu yerda, $K = \omega C \sqrt{R}$ - sarf moduli.

K ning qiymatlari cho‘yan quvurlar uchun 3.6.4-3.6.6 jadvallarda berilgan bo‘lib, C bilan λ o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha:

$$\lambda = \frac{8g}{C^2} \quad (3.6.4)$$

Po‘lat quvurlar uchun mutloq g‘adir-budurlik Δ ning qiymatlari

3.6.1-jadval

Ishlatilayotgan quvurlar sathlari tavsifi	Δ , mm
Suv o‘tkazuvchi quvurning yuzasi yangi va toza	
Ulanishlarsiz, toza	0,015-0,04/0,025 ^{*)}
Uzunligi bo‘yicha payvand qilingan ishlov berilgan toza	0,03-0,12/0,05
Ko‘ndalang bo‘yicha payvand qilingan toza ishlov berilgan	0,08-0,17/0,12
Ichki qismidan qoplama berilgan suv o‘tkazuvchi quvurning yuzasi yangi va toza	
Zavoddan bitum bilan ishlov berilgan	0,014-0,018/0,016
Xuddi shunday, ko‘ndalang bo‘yicha payvand qilingan	0,2-0,6/0,4
Suv o‘tkazuvchi quvurning yuzasi eski, lekin toza	
Unchalik korroziya(chirish)ga uchramagan	0,1-0,3/0,2
Biroz korroziyalangan yengil cho‘kindili	0,3-0,7/0,5
Ko‘p korroziyali	0,8-1,5/1,0
Zangdan tozalangan yuzali	0,5-0,2/0,18
Suv o‘tkazuvchi quvur bir necha yil ishlatilgandan so‘ng	
To‘liq payvandli 2 yilgacha ishlatilgan cho‘kindisiz	0,12-0,24/0,18
Xuddi shunday 20 yilgacha ishlatilgan cho‘kindisiz	0,6-0,5/2,8
Temir bakteriyali kuchli zanglagan, to‘lib qolgan	3,0-4,0/3,5
Xuddi shunday, faqat cho‘kindi qalinligi 5-25 mm	6 va katta
3 yil ishlatilgan ichki qismidan bitum bilan qoplangan	0,1-0,35/0,25

Suratda shu guruh uchun gʻadir-budurlik – Δ qiymatining oʻzgarish oraligʻi, maxrajda esa Δ ning ehtimolli qiymatlari keltirilgan.

Naporli tunnel uchun qoya toshli tuproqda mutloq gʻadir-budurlik Δ ning qiymatlari

3.6.2-jadval

Ishni olib borish usullari, yuza tavsifi	Δ , mm
Kichkina yoriqlarga ega tunnellar	100-140
Yoriqlari koʻp tunnellar	130-500
Yuzasi juda notekis tunnellar	500-1500

Turli xil materiallar uchun gʻadir-budurlik qiymatlari

3.6.3-jadval

Yuzasi	Δ , mm	N
Juda silliq sirtlar	0,02	0,009-0,013/0,010
Sementli suvoq:		
- toza tekislangan	0,02-0,03/0,1	<0,010
- oddiy	0,1-0,8/0,3	<0,012
Poʻlat quvurlar:		
- Ulanmagan, yangi, toza	0,010,02/0,014	0,009-0,011/0,010
- Payvandlangan, yangi, toza	0,03-0,12/0,05	0,011-0,013/0,012
- kam zanglagan	0,3-0,7/0,05	0,013-0,015/0,020
Choʻyan quvurlar:		
- yangi	0,25-1,0/0,7	0,013-0,016/0,015
- korrodirovkali	1,00-1,5/1,3	0,016-0,025/0,020
Taxtadan yasalgan yogʻoch lotoklar:		
- tekislangan (randalangan)	0,5-8,0/2,0	0,010-0,018/0,014
- randalanmagan	0,8-10,0/3	0,012-0,019/0,016
Betonlangan devor	0,3-5,0/2,0	0,012-0,015/0,013
Gʻishtli devor	1,0-6,0/3,0	0,013-0,017/0,015
Qoʻlbola devor	5-70/20	0,017-0,025/0,021
Toshli	15-30/25	0,020-0,025/0,022

Kanalizatsiya quvurlari:		
- betonli va temir-betonli	2	0,014
- keramikali	1,25	0,013
To'g'ri yo'nalishli yer kanallari:		
- ishlatilgandan so'ng toza	15-200/50	0,018-0,024/0,022
- kalta o'tli va suv o'tlari bor		0,024-0,033/0,028
- tagi toza, qiyaligi o't-o'lanli		0,04-0,08/0,06
Daryolar:		
- Toza, to'g'ri chiziqli, o'nqir-cho'nqirsiz		0,025-0,033/0,030
- Juda egri-bugri, o'nqir-cho'nqirli		0,033-0,045/0,040
- O't-o'lanlar o'sgan		0,075-0,15/0,11

Yangi bitumlangan cho'yan quvurlar uchun $\Delta = (0,10-0,15)$ mm bo'lganda sarf moduli – K ning qiymatlari (kvadratik qarshilik zonasi)

3.6.4-jadval

$D, \text{ mm}$	$K_{\min}, \text{ l/s}$	$K^2_{\min}, (\text{l/s})^2$	$K_{o'rt}, \text{ l/s}$	$K^2_{o'rt}, (\text{l/s})^2$	$K_{\max}, \text{ l/s}$	$K^2_{\max}, (\text{l/s})^2$
50	12,16	147,9	12,47	156,5	12,80	163,8
75	35,41	$1,254 \cdot 10^3$	36,07	$1,301 \cdot 10^3$	37,03	$1,371 \cdot 10^3$
100	74,96	$5,619 \cdot 10^3$	76,16	$5,800 \cdot 10^3$	77,70	$6,037 \cdot 10^3$
125	133,3	$17,796 \cdot 10^3$	135,2	$18,279 \cdot 10^3$	138,9	$19,253 \cdot 10^3$
150	214,2	$45,882 \cdot 10^3$	219,3	$48,092 \cdot 10^3$	227,8	$51,893 \cdot 10^3$
200	457,4	$20,921 \cdot 10^4$	474,9	$22,552 \cdot 10^4$	484,3	$23,455 \cdot 10^4$
250	833,3	$69,439 \cdot 10^4$	845,7	$71,521 \cdot 10^4$	859,3	$73,840 \cdot 10^4$
300	1334	$17,796 \cdot 10^5$	1352	$18,729 \cdot 10^5$	1387	$19,238 \cdot 10^5$
350	1986	$39,442 \cdot 10^5$	2019	$40,764 \cdot 10^5$	2065	$42,642 \cdot 10^5$
400	2801	$78,456 \cdot 10^5$	2863	$81,968 \cdot 10^5$	2924	$85,498 \cdot 10^5$
450	3817	$14,569 \cdot 10^6$	3878	$15,039 \cdot 10^6$	3924	$15,398 \cdot 10^6$
500	5020	$25,200 \cdot 10^6$	5069	$25,969 \cdot 10^6$	5193	$26,967 \cdot 10^6$
600	8079	$65,270 \cdot 10^6$	8169	$66,733 \cdot 10^6$	8377	$70,174 \cdot 10^6$
700	12008	$14,419 \cdot 10^7$	12251	$15,009 \cdot 10^7$	18296	$15,866 \cdot 10^7$

800	16949	$28,727 \cdot 10^7$	17324	$30,012 \cdot 10^7$	18827	$35,710 \cdot 10^7$
900	23069	$53,218 \cdot 10^7$	23627	$55,804 \cdot 10^7$	24177	$58,453 \cdot 10^7$
1000	30513	$93,104 \cdot 10^7$	31102	$96,733 \cdot 10^7$	31730	$100,680 \cdot 10^7$

Yangi bitumlangan cho‘yan quvurlar uchun $\Delta = (0,25-1.00)$ mm bo‘lganda sarf moduli – K ning qiymatlari (kvadratik qarshilik zonasi)

3.6.5-jadval

$D, \text{ mm}$	$K_{\min}, \text{ l/s}$	$K^2_{\min}, (\text{l/s})^2$	$K_{o'rt}, \text{ l/s}$	$K^2_{o'rt}, (\text{l/s})^2$	$K_{\max}, \text{ l/s}$	$K^2_{\max}, (\text{l/s})^2$
50	8,77	79,91	9,64	92,93	11,22	125,89
75	26,24	688,54	28,42	807,70	33,23	1104,2
100	56,40	$3,1810 \cdot 10^3$	61,37	$3,7663 \cdot 10^3$	70,94	$5,0325 \cdot 10^3$
125	102,32	$10,469 \cdot 10^3$	110,59	$12,230 \cdot 10^3$	125,93	$15,858 \cdot 10^3$
150	166,53	$27,732 \cdot 10^3$	181,42	$32,906 \cdot 10^3$	204,78	$41,943 \cdot 10^3$
200	359,35	$1,2913 \cdot 10^5$	391,36	$1,5288 \cdot 10^5$	429,20	$1,8421 \cdot 10^5$
250	649,83	$4,2228 \cdot 10^5$	701,99	$4,9280 \cdot 10^5$	770,71	$5,9398 \cdot 10^5$
300	1059,4	$11,223 \cdot 10^5$	1128,3	$12,724 \cdot 10^5$	1242,7	$15,443 \cdot 10^5$
350	1588,6	$25,237 \cdot 10^5$	1684,8	$28,383 \cdot 10^5$	1878,4	$35,285 \cdot 10^5$
400	2262,6	$51,194 \cdot 10^5$	2394,4	$57,312 \cdot 10^5$	2669,3	$71,252 \cdot 10^5$
450	3076,7	$94,661 \cdot 10^5$	3260,9	$106,34 \cdot 10^5$	3623,7	$131,48 \cdot 10^5$
500	4054,7	$16,439 \cdot 10^6$	4283,3	$18,347 \cdot 10^6$	4776,7	$22,810 \cdot 10^6$
600	3570,5	$43,171 \cdot 10^6$	6860,5	$47,66 \cdot 10^6$	7662,4	$58,706 \cdot 10^6$
700	9788,8	$95,828 \cdot 10^6$	10259	$105,25 \cdot 10^6$	11446	$130,99 \cdot 10^6$
800	13838	$191,49 \cdot 10^6$	14543	$211,47 \cdot 10^6$	16257	$264,29 \cdot 10^6$
900	18759	$351,91 \cdot 10^6$	20035	$401,36 \cdot 10^6$	22053	$445,59 \cdot 10^6$
1000	24603	$605,31 \cdot 10^6$	26104	$713,10 \cdot 10^6$	28895	$834,92 \cdot 10^6$

Oldin ishlatilgan cho‘yan quvurlar uchun $\Delta = (1.0-1.5)$ mm bo‘lganda sarf moduli – K ning qiymatlari (kvadratik qarshilik zonasi)

3.6.6-jadval

$D, \text{ mm}$	$K_{\min}, \text{ l/s}$	$K^2_{\min}, (\text{l/s})^2$	$K_{o'rt}, \text{ l/s}$	$K^2_{o'rt}, (\text{l/s})^2$	$K_{\max}, \text{ l/s}$	$K^2_{\max}, (\text{l/s})^2$
50	8,13	66,10	8,43	71,07	8,77	76,91
75	24,18	584,67	24,69	609,60	26,24	688,54
100	52,41	$2,7468 \cdot 10^3$	53,90	$2,9052 \cdot 10^3$	56,40	$3,1810 \cdot 10^3$
125	95,23	$9,0687 \cdot 10^3$	98,22	$9,6472 \cdot 10^3$	10,32	$10,469 \cdot 10^3$

150	155,48	$24,162 \cdot 10^3$	160,62	$25,799 \cdot 10^3$	166,53	$27,732 \cdot 10^3$
200	336,59	$1,1329 \cdot 10^5$	346,36	$1,1997 \cdot 10^5$	359,35	$1,2913 \cdot 10^5$
250	607,73	$3,6934 \cdot 10^5$	627,74	$3,9406 \cdot 10^5$	649,83	$4,2228 \cdot 10^5$
300	990,26	$9,8060 \cdot 10^5$	1017,8	$10,359 \cdot 10^5$	1059,4	$11,223 \cdot 10^5$
350	1491,0	$22,231 \cdot 10^5$	1534,6	$23,550 \cdot 10^5$	1588,6	$25,237 \cdot 10^5$
400	2124,8	$45,148 \cdot 10^5$	2195,5	$48,202 \cdot 10^5$	2262,6	$51,194 \cdot 10^5$
450	2911,7	$84,780 \cdot 10^5$	2980,9	$88,858 \cdot 10^5$	3076,7	$94,661 \cdot 10^5$
500	3857,3	$14,833 \cdot 10^6$	3954,0	$15,634 \cdot 10^6$	4054,7	$16,439 \cdot 10^6$
600	6278,2	$39,415 \cdot 10^6$	6415,0	$41,152 \cdot 10^6$	6570,5	$43,171 \cdot 10^6$
700	9370,0	$87,797 \cdot 10^6$	9531,2	$90,840 \cdot 10^6$	9788,8	$95,824 \cdot 10^6$
800	13213	$174,59 \cdot 10^6$	13487	$181,91 \cdot 10^6$	13838	$191,49 \cdot 10^6$
900	17971	$322,96 \cdot 10^6$	18297	$334,78 \cdot 10^6$	18759	$351,91 \cdot 10^6$
1000	23731	$563,16 \cdot 10^6$	24175	$584,43 \cdot 10^6$	24603	$605,31 \cdot 10^6$

**Cho‘yan quvurlar uchun gidravlik ishqalanish koeffitsienti λ ning qiymatlari
(kvadratik qarshilik zonasi)**

3.6.7-jadval

D, mm	Yangi bitumlangan ($\Delta = 0,10 - 0,15$ mm)			Oldin ishlatilgan ($\Delta = 1,00 - 1,50$ mm)			
	$\lambda_{\min}$	$\lambda_{o'rt}$	λ_{mak}	$\lambda_{\min}$	$\lambda_{o'rt}$	λ_{mak}	λ_{mak}
50	0,0230	0,0242	0,0255	0,0300	0,0410	0,0490	0,0570
75	0,0209	0,0220	0,0230	0,0260	0,0350	0,0416	0,0490
100	0,0200	0,0208	0,0215	0,0240	0,0320	0,0380	0,0440
125	0,0190	0,0200	0,0206	0,0230	0,0300	0,0350	0,0404
150	0,0177	0,0191	0,0200	0,0220	0,0280	0,0330	0,0380
200	0,0165	0,0172	0,0185	0,0210	0,0235	0,0300	0,0342
250	0,0160	0,0165	0,0175	0,0200	0,0240	0,0280	0,0320
300	0,0153	0,0161	0,0165	0,0190	0,0230	0,0262	0,0300
350	0,0149	0,0156	0,0161	0,0180	0,0224	0,0252	0,0286
400	0,0145	0,0151	0,0158	0,0170	0,0215	0,0242	0,0275
450	0,0142	0,0148	0,0153	0,0168	0,0209	0,0235	0,0262
500	0,0140	0,0145	0,0150	0,0165	0,0206	0,0230	0,0255
600	0,0134	0,0141	0,0145	0,0160	0,0200	0,0211	0,0242

700	0,0128	0,0136	0,0141	0,0155	0,0192	0,0212	0,0232
800	0,0125	0,0132	0,0138	0,0150	0,0185	0,0207	0,0227
900	0,0122	0,0128	0,0131	0,0147	0,0178	0,0203	0,0221
1000	0,0120	0,0125	0,0130	0,0145	0,0170	0,0200	0,0215


3.7. NAPORNING MAHALLIY QARSHILIKLARDA YO‘QOTILISHI

Naporning mahalliy qarshiliklarda yo‘qotilishi Veysbax formulasi yordamida aniqlanadi;

$$h_m = \xi_m \frac{g^2}{2g}, \quad (3.7.1)$$

bu yerda, ξ_m -mahalliy qarshiliklar koeffitsienti.

Laminar harakatda ξ_m va suv o‘tkazgichning geometriyasi Re soniga bog‘liq. Turbulent harkatda mahalliy qarshilik koeffitsienti ξ_m suyuqlik o‘tkazuvchining mahalliy qarshilikka ega bo‘lgan geometriyasiga bog‘liq.



3.7.1-rasm.Quvurning keskin kengayishi

Quvurlarning keskin kengayishidagi naporning yo‘qolishini nazariy ravishda chiqarilgan Bord formulasidan aniqlanadi;

$$h_{k.k} = \frac{(g_1 - g_2)^2}{2g}, \quad (3.7.2)$$


bu yerda, g_1 va g_2 - suyuqlik oqayotgan quvurning toraygan va kengaygan qismlaridagi tezliklari.

Formulani quyidagi qulay holatlarda yozish mumkin;

$$h_{k.k} = \xi'_{k.k} \frac{g_1^2}{2g} \quad \text{yoki} \quad h_{k.k} = \xi''_{k.k} \frac{g_2^2}{2g} \quad (3.7.3)$$


bu yerda,

$$\xi'_{k.k} = \left(1 - \frac{\omega_1}{\omega_2}\right)^2 = \left(1 - \frac{D_1^2}{D_2^2}\right)^2; \quad \xi''_{k.k} = \left(\frac{\omega_2}{\omega_1} - 1\right)^2 = \left(\frac{D_2^2}{D_1^2} - 1\right)^2 \quad (3.7.4)$$



3.7.2-rasm. Quvurdan suyuqlik idishiga o'tishi

suyuqlikning quvurdan idishiga o'tishidagi qarshilik koeffitsienti Bord formulasi orqali aniqlanadi. $\omega_2 \gg \omega_1$ va $V_2 \approx 0$ bo'lgani uchun $\zeta_{chiq} = 1,0$.



3.7.3-rasm. Quvurlarning keskin torayishi

keskin torayishda mahalliy qarshilik koeffitsienti $\zeta_{k.t.}$ ni quyidagi I.E. Idelchik formulasi yordamida aniqlash mumkin;

$$\xi_{k.t} = 0,5 \left(1 - \frac{D_2^2}{D_1^2}\right) \quad (3.7.5)$$

yoki A.D. Altshul formulasi yordamida $\xi_{k.t} = \left(\frac{1}{\varepsilon} - 1\right)^2$

bu yerda, ε - quvurga kirishdagi siqilish koeffitsienti, u quyidagiga teng

$$\varepsilon = 0,57 + \frac{0,043}{1,1 + \frac{D_2^2}{D_1^2}} \quad (3.7.6)$$

I.E. Idelchik formulasi $D_2 < 0,5D_1$ bo'lganda amaliyotga yaxshi moslashadi.
A.D. Altshul formulasi $D_2 > 0,5D_1$ bo'lganda amaliyot bilan mos kelishi mumkin.

Veysbax tajribalari asosidagi $\xi_{k.t}$ - ko'effitsientining qiymatlari


3.7.1- jadval

D_2/D_1	$\leq 0,1$	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	1,0
$\xi_{k.t}$	0,5	0,49	0,45	0,43	0,40	0,35	0,29	0,22	0,14	0

Quvurlarning idish devorlariga qanday ulanishiga qarab kirishdagi qarshilik ko'effitsienti turlicha bo'lishi mumkin.


To'g'ridan-to'g'ri chiqishda

$$\xi_{k.t} = 0,5$$




Quvurlarni egri holatda

$$\text{ulashda } \xi_{k.t} = 0,2$$




3.7.4-rasm. Suyuqlikning idishdan quvurga oqishi



l/D	δ/D			
0	0,5	0,5	0,5	0,5
0,01	0,68	0,55	0,52	0,5
0,05	0,82	0,63	0,54	0,5
0,15	0,90	0,72	0,60	0,5
$\geq 0,5$	1,00	0,83	0,68	0,5

Idish ichiga kirib turgan quvurlar uchun qarshilik ko'effitsienti ξ_{kir} , $\frac{\delta}{D}$ va $\frac{l}{D}$ ga bog'liq bo'ladi.



3.7.5-rasm. Quvurdagi diafragma

Diafragmadagi qarshilik koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlanadi;

$$\xi_D = \left(\frac{D^2}{\varepsilon \cdot d} - 1 \right)^2, \quad (3.7.7)$$

bu yerda, D -quvurning diafragmadan tashqaridagi diametri; d -diafragma teshikchasining diametri; ε -oqimchaning siqilish koeffitsienti (diafragmadan tashqarida) uning qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi


$$\varepsilon = 0,57 + \frac{0,043}{1,1 - \left(\frac{d}{D} \right)^2} \quad (3.7.8)$$

ξ_D va ε lar qiymatlari $\frac{d}{D}$ larning o'zgarishidagi natijalari 3.7.2 -jadvalda berilgan.

ε va ξ_D koeffitsientlar qiymatlari

3.7.2-jadval

$\frac{d}{D}$	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	1,0
ξ_D	292	83,3	29,5	11,6	4,8	1,79	0,52	0
ε	0,613	0,616	0,621	0,628	0,640	0,667	0,718	1



3.7.6-rasm. Konfuzorlar

Konfuzordagi qarshilik ko'effitsientini quyidagi formula yordamida topish mumkin;

$$\xi_{kon} = \xi_{kon.k} \left(1 - \frac{D_2^2}{D_1^2} \right) + \xi_{ishq} \quad (3.7.9)$$

bu yerda, $\xi_{kon.k}$ -konfuzorga kirishdagi qarshilik ko'effitsienti, uning miqdori 4.10-jadvalda berilgan. ξ_{ishq} - qarshilik ko'effitsienti bo'lib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$\xi_{ishq} = \frac{\lambda_{or}}{8 \sin \frac{\alpha}{2}} \left(1 - \frac{D_2^4}{D_1^4} \right) - \lambda_{or} f \left(\alpha, D_2/D_1 \right) \quad (3.7.10)$$

$\frac{\xi_{ishq}}{\lambda} = f \left(\alpha, D_2/D_1 \right)$ qiymatlari 4.11-jadval berilgan.

λ_{or} ishqalanish ko'effitsientining konfuzor boshida va oxiridagi qiymatlarining o'rtachasi olinadi.

Erkin konussimon kirishdagi $\xi_{kon.k}$ qiymatlari

3.7.3-jadval

Konuslik burchagi α^0	l/D							
	0,025	0,005	0,075	0,1	0,15	0,25	0,6	1
0	1	1	1	1	1	1	1	1
10	0,97	0,93	0,86	0,81	0,78	0,7	0,5	0,35
20	0,93	0,86	0,74	0,65	0,56	0,44	0,27	0,19

40	0,86	0,74	0,57	0,47	0,3	0,2	0,14	0,1
60	0,8	0,68	0,5	0,451	0,25	0,17	0,13	0,1
90	0,12	0,6	0,48	0,41	0,27	0,2	0,18	0,15
180	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5

ξ_{ishq} -kattaliklarini aniqlash uchun $\frac{\xi_{ishq}}{\lambda}$ qiymatlari

3.7.4-jadval

$\frac{D_2}{D_1}$	Konuslik burchagi					
	2	4	8	15	30	45
1	0	0	0	0	0	0
0,9	2,5	1,2	0,6	0,3	0,2	0,1
0,8	4,2	2,1	1,1	0,6	0,3	0,2
0,7	5,4	2,7	1,4	0,7	0,4	0,2
0,6	6,2	3,1	1,6	0,8	0,4	0,3
0,5	6,7	3,4	1,7	0,9	0,5	0,3
0,4	6,9	3,5	1,7	0,9	0,5	0,3
0,3	7,1	3,6	1,8	0,9	0,5	0,3

Diffuzorlar (konfuzorlar teskarisi).

Diffuzordagi qarshilik koefitsienti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\xi_{dif} = K_{yum} \left(\frac{D_2^2}{D_1^2} - 1 \right)^2 + \xi_{ishq} \quad (3.7.11)$$

bu yerda, K_{yum} -tekis kengayishdagi yumshatish koefitsienti, uning qiymatlari

3.7.4-jadval orqali topiladi. ξ_{ishq} - ishqalanish koefitsienti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\xi_{ishq} = \frac{\lambda_{o'r}}{8 \sin \frac{\alpha}{2}} \left(\frac{D_2^4}{D_1^4} - 1 \right) - \lambda_{o'r} f \left(\alpha, D_1/D_2 \right) \quad (3.7.12)$$

yoki tekis kengayishdagi K_{yum} qiymatlari orqali aniqlanadi. K_{yum} qiymatlari

3.7.5–jadvalda berilgan. Diffuzorning qarshilik koeffitsientini topishda $\frac{\xi_{ishq}}{\lambda}$

uchun berilgan bo‘lib quyidagi 3.7.6 –jadvaldan foydalanladi.

Tekis kengayishdagi yumshatish koeffitsienti K_{yum} -ning qiymatlari

3.7.5 -jadval

α^0	2	4	6	8	10	12	15	20	25	30	40	45
K_{yum}	0,02	0,05	0,1	0,14	0,16	0,22	0,3	0,42	0,62	0,72	0,85	1

Diffuzorning qarshilik koeffitsientini topish uchun $\frac{\xi_{ishq}}{\lambda}$ qiymatlari

3.7.6 –jadval

D_1/D_2	Konuslik burchagi α^0					
	2	4	8	15	30	45
3.22. IMPULS TENGLAMASI

Biz kuchlarga ta'sir ko'rsatuvchi harakatdagi suyuqliklarni ko'rganmiz. Samalyotdagi ko'tarish kuchi qanot ostida havodagi harakati bilan ta'sir qiladi. Shlangdagi suv oqimi u tegayotgan joyga kuch bilan ta'sir ko'rsatadi. Suyuqlik mexanikasi suyuqlik harakati tahlili xuddi qattiq jismlar harakatini tahlilidek, ya'ni Nyutonning qonunlari asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari suyuqliklarning harakatdagi holatining maxsus xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Impuls tenglamasi Nyutonning ikkinchi qonunini o'zida aks etgan bo'lib, u suyuqlik elementiga ta'sir etuvchi kuchlar yig'indisini uning tezlashishi yoki impuls o'zgarish tezligi bilan bog'laydi. Siz balki ketgan kuch va tezlashishni bog'lash uchun qattiq jism mexanikasining tahlili davomida foydalaniladigan $F = ma$ tenglamasini bilsangiz kerak.

Suyuqlik mexanikasida esa boshqa tenglamani qo'llash uchun harakatdagi suyuqlikning qaysi massasidan foydalanishimiz kerakligi noma'lum.

Nyutonning ikkinchi qonunini quyidagicha yozish mumkin:

Jism impulsining o'zgarish tezligi kuch yo'nalishida paydo bo'luvchi va jismga ta'sir etuvchi natijaviy kuchga teng.

Suyuqlikning impuls o'zgarish tezligini aniqlash uchun Bernulli tenglamasidagidek oqim trubkasini ko'rib chiqamiz, oqim trubkasida notekis oquvchi barqaror oqim bor deb taxmin qilishdan boshlaymiz.


δt vaqt davomida suyuqlik hajmi kirishdan $\mathcal{V}\delta t$ masofada harakatlanadi, shuning uchun ham δt vaqt davomida oqim trubkasiga kiruvchi hajm:

Oqim trubkasiga kiruvchi hajm = maydon * masofa = $A_1 \mathcal{V}_1 \delta t$ bu massa, kirayotgan oqimning massaviy quvuri = hajm * zichlik = $\rho_1 A_1 \mathcal{V}_1 \delta t$ va impuls oqim trubkasiga kiruvchi suyuqlik impulsi = massa*

$$\text{tezlik} = \rho_1 A_1 \vartheta_1 \delta t \vartheta_1$$

Analogik tarzda, chiqishda par trubkasidan chiqayotgan impuls uchun ham ifoda olishimiz mumkin:

$$\rho_2 A_2 \vartheta_2 \delta t \vartheta_2$$



3.22.1-rasm. Ikki va uch o'lchamli oqim trubkasi

Endi biz Nyutonning ikkinchi qonunini hisobga olgan holda suyuqlikka ta'sir etayotgan kuchni hisoblashimiz mumkin. Kuch impuls o'zgarish tezligiga teng.

Shunda kuch = impuls o'zgarish tezligi

$$F = \frac{(\rho_2 A_2 \vartheta_2 \delta t \vartheta_2 - \rho_1 A_1 \vartheta_1 \delta t \vartheta_1)}{\delta t} \quad (3.22.1)$$

Uzluksizlikdan ma'lumki, $Q = A_2 \vartheta_2 = A_1 \vartheta_1$, va agar biz doimiy zichlikli suyuqlikka ega bo'lsak, ya'ni $\rho_1 = \rho_2 = \rho$, biz quyidagicha yoza olamiz.

$$F = Q\rho(\vartheta_2 - \vartheta_1) \quad (3.22.2)$$

Xuddi shu ifodaning alternativ xulosasi uchun, oqim trubkasida massani saqlab qolishdan bilamizki, birinchi yuzadagi massa = ikkinchi yuzadan tashqaridagi massa bo'ladi.

Biz bunday yozishimiz mumkin

$$\text{Massaning o'zgarish tezligi} = m = \frac{dm}{dt} = \rho_1 A_1 \vartheta_1 = \rho_2 A_2 \vartheta_2$$

Impulsning birinchi chegaraga chiqish tezligi quyidagiga teng.

$$\rho_2 A_2 \vartheta_2 \vartheta_2 = m \vartheta_2 \quad (3.22.3)$$

Impulsning ikkinchi chegaraga kirish tezligi esa quyidagiga teng bo'ladi.

$$\rho_1 A_1 \vartheta_1 \vartheta_1 = m \vartheta_1 \quad (3.22.4)$$

Shunday qilib, oqim trubkasi orqali impulsning o'zgarish tezligi.

$$\rho_2 A_2 \mathcal{G}_2 \mathcal{G}_2 - \rho_1 A_1 \mathcal{G}_1 \mathcal{G}_1 = m \mathcal{G}_2 - m \mathcal{G}_1 \quad \text{ga teng.}$$

Ya'ni, kuch = impulsning o'zgarish tezligi

$$F = m(\mathcal{G}_2 - \mathcal{G}_1)$$


$$F = Q\rho(\mathcal{G}_2 - \mathcal{G}_1) \quad (3.22.5)$$

Ushbu kuch suyuqlik oqimi yo'nalishida harakatlanadi.

Ayni tahlilda kiruvchi va chiquvchi tezliklar bir xil yo'nalishda, ya'ni bir o'lchamli tizimda joylashganlar deb taxmin qilingan edi. Bunday hol kuzatilmaganida nima sodir bo'ladi?

Pastdagi 3.22.2-rasmda ikki o'lchamli tizimni ko'rib chiqamiz: Kirishda $\mathcal{G}_1$ tezlik vektori X o'qli φ_1 burchagini yuzaga keltiradi, chiqishda esa $\mathcal{G}_2 - \varphi_2$ burchakni.

Bu holda biz kuchlarni koordinata o'qlari yordamida yo'nalishlariga qaratilgan holda ko'rib chiqamiz.



Oqim trubkasidagi ikki o'lchamli oqim

X o'qi yo'nalishidagi kuch

$F_x = X$ yo'nalishidagi impuls

o'zgarishi tezligi

= x yo'nalishidagi massa o'zgarish

tezligi

3.22.2-rasm. Ikki o'lchamli tizim.

$$= m(\mathcal{G} \cos \varphi_2 - \mathcal{G}_1 \cos \varphi_1)$$

$$= m(\mathcal{G}_{2_x} - \mathcal{G}_{1_x})$$

$$= \rho Q(\mathcal{G}_2 \cos \varphi_2 - \mathcal{G}_1 \cos \varphi_1)$$

$$= \rho Q(\mathcal{G}_{2_x} - \mathcal{G}_{1_x})$$

va bu yo'nalishidagi kuch

$$F_y = m(\mathcal{G}_2 \sin \varphi_2 - \mathcal{G}_1 \sin \varphi_1) \quad (3.22.6)$$

$$= m(\mathcal{G}_{2_y} - \mathcal{G}_{1_y})$$

$$= \rho Q(\mathcal{G}_2 \sin \varphi_2 - \mathcal{G}_1 \sin \varphi_1)$$

$$= \rho Q(\mathcal{G}_{2_y} - \mathcal{G}_{1_y})$$


Soʻngra ushbu vektorlarni ixchamlashtirish orqali natijaviy kuchni topamiz: tortishish kuchlari.

Ushbu kuchlarni taʼsir qiluvchi burchak, ushbu ifoda orqali aniqlanadi.

$$F_{\text{resultant}} = \sqrt{F_x^2 + F_y^2} \quad (3.22.7)$$

$$F_{\text{resultant}} - \varphi = \tan^{-1} \left(\frac{F_y}{F_x} \right) \quad (2.22.8)$$

Uch oʻlchamli tizim uchun (x, y, z) biz Z yoʻnalishida hisoblash uchun qoʻshimcha kuchga egamiz.



Bu esa xuddi shunday koʻrinishga ega. **3.22.3-rasm. Kuch taʼsir qiluvchi burchak**

Natijada biz quyidagicha deyishimiz mumkin:

Suyuqlikning kuch yigʻindisi = nazoratdagi hajm orqali impuls oʻzgarish tezligi.

$$F = m(\mathcal{G}_{opt} - \mathcal{G}_{min}) = Q\rho(\mathcal{G}_{opt2} - \mathcal{G}_{min}) \quad (3.22.9)$$

Biz vektorlar bilan ishlayotganimizni yodda tutishingiz kerak boʻladi, demak F tezlik yoʻnalishida joylashgan. Ushbu kuch 3 ta komponentdan tashkil topgan:

F_R = nazorat hajmiga teguvchi istalgan qattiq jism tomonidan suyuqlikka taʼsir etuvchi kuchlanishdir.

F_B = oqayotgan jismga taʼsir etuvchi kuch (masalan ogʻirlik kuchi).

F_P = nazorat hajmidan tashqari suyuqlik bosimi tomonidan suyuqlikka taʼsir qiluvchi kuchlanishlar.

Demak, biz quyidagicha ayta olamiz, F_T toʻliq kuchli ushbu kuchlarning yigʻindisi orqali aniqlanadi.

$$F_T = F_R + F_B + F_P \quad (3.22.10)$$

Nazorat hajmiga tekkan holda suyuqlik tomonidan qattiq jismga koʻrsatilayotgan taʼsir F_P ga qarama-qarshidir. Demak, reaksiya kuchi ushbu formula bilan beriladi:

$$R = -F_R \quad (3.22.11)$$


Impulslar tenglamasining qoʻllanilishi

Biz quyidagi misollarni koʻrib chiqamiz:

1. Suyuqlik oqimi sababli egilgan quvur atrofida yuzaga keluvchi kuch.
2. Quvurdan chiqishda forsunkada yuzaga keluvchi kuch.
3. Yassi sathga oqimning taʼsiri.
4. Egilgan parrakda yuzaga keluvchi oʻrama kuch.

3.23. SUYUQLIK OQIMI SABABLI QUVUR ATROFIDA YUZAGA KELUVCHI KUCHLAR


Doimiy koʻndalang kesishuvga ega, gorizontal tekkislikda yotuvchi va φ burchakka burilayotgan quvurning burilish joyini koʻrib chiqamiz. Doimiy kesishuvli quvur burilish joyining oʻralishi, nega biz aynan shu holdagi kuchlarni bilmoqchimiz? Suyuqliklar yoʻnalishini oʻzgartirar ekan, burilish joyida kuch harakatlanadi bu holat suyuqlik oqimini va (suv oqimi quvurlari uchun juda katta).



3.23.1-rasm. Quvurda yuzaga keluvchi kuch.

Tahlilning qadami:

1. Nazorat jildini chizish;
2. O'qlar tizimi koordinatalari qarorini qabul qilish;
3. Umumiy kuchni hisoblash;
4. Bosim kuchini hisoblash;
5. Jism kuchini hisoblash;
6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqarish;



3.23.2-rasm. Koordinatalar tizimi

1. Hajm boshqaruv qurilmasi.

Nazorat hajmi yuqoridagi rasmda ko'rsatilgan. Burilish joyining kirish va chiqishida joylashgan va devorlarni qamrab oluvchi chegaralari bilan.

2. Koordinatalar tizimi. Koordinata o'qini kirishdagi tezlik yo'nalishiga ko'rsatuvchi qilib tanlash qulaydir. Yuqorida berilgan rasmda X o'qi kirishda tezlik yo'nalishida harakatlanayapti.

3. Umumiy kuchni hisoblash.

X yo'nalishida:

$$F_{T_x} = \rho Q (g_{2_x} - g_{1_x}) \quad (3.23.1)$$

$$g_{1_x} = g_1$$

$$g_{2_x} = g_2 \cos \varphi$$

$$F_{T_x} = \rho Q (g_2 \cos \varphi - g_1) \quad (3.23.2)$$

Y yo'nalishida:

$$F_{T_x} = \rho Q (\mathcal{G}_{2_y} - \mathcal{G}_{1_y}) \quad (3.23.3)$$

$$\mathcal{G}_{1_y} - \mathcal{G}_1 \sin 0 = 0$$

$$\mathcal{G}_{2_y} - \mathcal{G}_2 \sin \varphi$$

$$F_{T_x} = \rho Q \mathcal{G}_2 \sin \varphi \quad (3.23.4)$$

4. Bosim kuchini hisoblash.


$F_p = 1$ ga bosim kuchi- 2 ga bosim kuchi

$$F_p = p_1 A_1 \cos 0 - p_2 A_2 \cos \varphi = p_1 A_1 - p_2 A_2 \cos \varphi \quad (3.23.5)$$

$$F_{p_y} = p_1 A_1 \sin 0 - p_2 A_2 \sin \varphi = -p_2 A_2 \sin \varphi \quad (3.23.6)$$

4. Jism kuchini hisoblash.

x , $\hat{e}$ y yoʻnalishlarida hech qanday hajm kuchlari mavjud emas.



3.23.3-rasm. Ogʻirlik kuchi

Jismning yagona kuchi bu ogʻirlik kuchidir (hujjat asosida ushbu misolda amalga oshuvchi va – biz inobatga olishimiz shart boʻlmagan yoʻnalish).

6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqarish.

$$F_{T_x} = F_{R_x} + F_{p_x} + F_{B_x}, \quad F_{T_y} = F_{R_y} + F_{p_y} + F_{B_y}$$

$$F_{R_x} = F_{T_x} - F_{p_x} - 0 = \rho Q (\mathcal{G}_2 \sin \varphi - \mathcal{G}_1) - p_1 A_1 + p_2 A_2 \sin \varphi \quad (3.23.7)$$

$$F_{R_y} = F_{T_y} - F_{p_y} - 0 = \rho Q \mathcal{G}_2 \sin \varphi + p_2 A_2 \sin \varphi \quad (3.23.8)$$

Endi suyuqlikdagi natijaviy kuch ushbu formula orqali topiladi, tortishish kuchi.


$$F_R = \sqrt{F_{R_x}^2 + F_{R_y}^2} \quad (3.23.8)$$

$$\varphi = \tan^{-1} \left(\frac{F_{R_y}}{F_{R_x}} \right) \quad (3.23.9)$$

Burilishdagi kuch qarama-qarshi yoʻnalishdagi kattalikka teng.

$$R = -F_R \quad (3.23.10)$$

Quvurlar soplosidagi kuchlar: Quvurdan chiqishda soplodagi kuchlanish. Soploda tinchlanadigan soplo kuchlanishi natijasida suyuqlik siqilar ekan, soplani ushlab turuvchi barcha narsalar ushbu kuchlarga qarshi turib bera oladigan darajada kuchli boʻlishi lozim.



3.25.4-rasm. Quvur soplodagi kuchlar

Tahlil yuqoridagi metodika singari amalga oshiriladi:

1. Nazorat qilish va chizish.
2. Oʻqlar tizimi koordinatsiyasi qarorini qabul qilish.
3. Umumiy kuchni hisoblash.
4. Bosim kuchini hisoblash.
5. Jism kuchini hisoblash.
6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqarish.

1 va 2 nazorat hajmi va koordinata oʻqlari pastdagi 3.23.1-rasmda koʻrsatilgan.

Bu bizning ishimizni ancha yengillashtiruvchi bir oʻlchamli tizim ekanligiga eʼtiboringizni qarating.

3. Umumiy kuchni hisoblash.

$$F_T = F_{T_x} = \rho Q (g_2 - g_1) \quad (3.23.11)$$

Uzluksizlik boʻyicha

$Q = A_1 g_1 = A_2 g_2$, shuning uchun

$$F_{T_x} = \rho Q^2 \left(\frac{1}{A_2} - \frac{1}{A_1} \right) \quad (3.23.12)$$

4. Bosim kuchini hisoblash.

$F_p = F_{p_x} = 1$ dagi bosim kuchi – 2 dagi bosim kuchi.

Biz bosimni hisoblab chiqarish uchun Bernulli tenglamasidan foydalanamiz.

$$\frac{p_1}{\rho g} + \frac{g_1^2}{2g} + z_1 = \frac{p_2}{\rho g} + \frac{g_2^2}{2g} + z_2 + h_f \quad (3.23.13)$$

Ishqalanishdagi yo‘qotishlar inobatga olinmaydi, $h_f = 0$;

Gorizontal soplo, $z_1 = z_2$

va tashqaridagi bosim atmosfera bosimidir, $p_2 = 0$;

va uzluksiz tarzda quyidagicha natija bo‘ladi.

$$p_1 = \frac{\rho Q^2}{2} \left(\frac{1}{A_2^2} - \frac{1}{A_1^2} \right) \quad (3.23.14)$$

5. Jism kuchini hisoblash.

Jismning yagona kuchi bu u o‘q yo‘nalishida og‘irlik kuchi bilan shartli bo‘lgan vazndir, biroq biz uni X yo‘nalishidagi ko‘rilayotgan yagona kuch deb qarashimiz kerak emas.

6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqarish.

$$F_{T_x} = F_{R_x} - F_{P_x} - F_{B_x}$$

$$F_{R_x} = F_{T_x} - F_{P_y} - 0$$

$$F_{T_x} = \rho Q^2 \left(\frac{1}{A_2} - \frac{1}{A_1} \right) - \frac{\rho Q^2}{2} \left(\frac{1}{A_2^2} - \frac{1}{A_1^2} \right) \quad (3.23.15)$$

Shu tarzda o't o'chiruvchi ushbu kuchga qarshi tura olishi kerak.

$$R = -F_{T_x} \quad (3.23.16)$$

3.24. OQIMNING TEKISLIKKA TA'SIRI

Avvalo pastroqda ko'rsatilganidek, 90° burchak ostida yassi plastinaga (tekislik) urilayotgan oqimni ko'rib chiqamiz.


Biz plastinaning reaksiya kuchini, ya'ni plastina o'z holatini saqlab qolish uchun ishlatishi kerak bo'lgan kuchni topishni istaymiz. Tahlil xuddi yuqorida kelirilgan metodika asosida amalga oshiriladi:

1. Nazorat qilish va chizish.
2. O'qlar tizimi kordinatsiyasi qarorini qabul qilish.
3. Umumiy kuchni hisoblash.
4. Bosim kuchini hisoblash.
5. Jism kuchini hisoblash.
6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqarish.

1 va 2 nazorat hajmi va koordinata o'qlari tepada 3.24.1-rasmda ko'rsatilgan.

3. Umumiy kuchni hisoblash.

$$F_{T_x} = \rho Q^2 (\vartheta_{2_x} - \vartheta_{1_x}) = -\rho Q \vartheta_{1_x} \quad (3.24.1)$$



3.24.1-rasm. a-b. Tekislikka tushgan perpendikulyar oqim

Tizim simmetrik bo'lgani uchun, u yo'nalishidagi kuchlarni olib tashlash lozim, ya'ni.

$$F_{T_y} = 0$$

4. Bosim kuchini hisoblash.

Bosim kuchi 0 ga tengdir, chunki kirishdagi va nazorat hajmdagi chiquvchi yoriqda ham bosim atmosferik bo'ladi.

5. Jism kuchini hisoblash

Nazorat hajmi juda kichkina bo'lgani sababli, og'irlik vazni tufayli jism kuchini inobatga olmasligimiz mumkin.

6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqish.

$$F_{T_x} = F_{R_x} - F_{P_x} - F_{B_x} \quad (3.24.2)$$

$$F_{R_x} = F_{T_x} - 0 - 0 = -\rho Q g_{1_x} \quad (3.24.3)$$

Suyuqlikka biriktiriladi.

Tekislik kuchi qarama-qarshi yo'nalishdagi kattalikka tengdir.

$$R = -F_{R_x} \quad (3.24.4)$$

3.25. EGILGAN PARRAKDA YUZAGA KELUVCHI

AYLANISH KUCHI

Bu holat, quvurdagi holatga o'xshash, biroq tahlil ancha onsonroqdir, chunki bosimlar teng va ko'ndalang kesishuv hamda tezliklar (oqim yo'nalishida) doimiy bo'lib saqlanadi.

Oqim va parrakning yo'nalishini pastdagi 3.25.1-rasmda aks ettirilganidek koordinatalari kerak. 1 va 2 boshqarish hajmi va koordinatalar o'qi yuqoridagi 3.25.1-rasmda ko'rsatilgan.

Oqim egilgan parrakda chetlanmoqda.

$\mathcal{X}$ yo'nalishidagi umumiy kuchni hisoblang


$$F_{T_x} = \rho Q (\mathcal{G}_2 - \mathcal{G}_1 \cos \varphi) \quad (3.25.1)$$

$$\mathcal{G}_1 = \mathcal{G}_1 = \frac{Q}{A}. \quad (3.25.2)$$

biroq, shunday

$$F_{T_x} = -\rho \frac{Q^2}{A} (1 - \cos \varphi) \quad (3.25.3)$$

va y yoʻnalishida



3.25.1-rasm. Oqim parraklari

$$F_{T_x} = -\rho Q (\mathcal{G}_1 \sin \varphi - 0) = \rho \frac{Q^2}{A} \quad (3.25.4)$$

4. Bosim kuchini hisoblash.

Va yana bir bor bosim kuchi 0 ga teng, chunki nazorat hajmidagi kirish va chiqishdagi bosim atmosfera bosimiga teng.

5. Jism kuchini hisoblash.

$\tilde{O}$, yoʻnalishida hech qanday kuch yoʻq

$$F_{B_x} = 0$$

$\acute{O}$ yoʻnalishidagi amaldagi kuch suyuqlikning massasi sifatida amal qiladi.

Agar W – undagi suyuqlik hajmi boʻlsa

$$U \text{ holda, } F_{B_x} = \rho g W$$

(koʻrsatkich koʻp hollarda kichik boʻladi, zero oqim hajmi ham kichkinadir. U holda odatda tahlil davomida inobatga olinmaydi).

6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqish.

$$F_{T_x} = F_{R_x} - F_{P_x} - F_{B_x}, \quad F_{R_x} = F_{T_x}$$

$$F_{T_y} = F_{R_y} - F_{P_y} - F_{B_y}, \quad F_{R_y} = F_{T_y}$$

Suyuqlikdagi natijaviy kuch ushbu formula orqali topiladi.

$$F_R = \sqrt{F_{R_x}^2 + F_{R_y}^2} \quad (3.25.5)$$

Va suyuqlikga taʼsir koʻrsatuvchi ilova yoʻnalishi.

$$\varphi = \tan^{-1} \left(\frac{F_{R_y}}{F_{R_x}} \right) \quad (3.25.6)$$


Bukilgan parrakda yuzaga keluvchi aylanish kuchi xuddi shunday, biroq qaram-qarshi yoʻnalishda.

$$R = -F_R \quad (3.25.7)$$

3.26. PELTON GʻILDIRAGI TIGʻI

Yuqorida keltirilgan oqimning parrakka taʼsiri taxlillari kengaytirilishi va trubina lopatkalariga nisbatan qoʻllanilishi mumkin.

Pelton gʻildiragi nomiga ega trubina lopatkasida bu yanada yorqinroq koʻrinadi.




3.26.1-rasm. Pelton gʻildiragi.

Pelton gʻildiragining joylashishi pastroqdagi 3.26.1-rasmida koʻrsatilgan.

Ingichka oqim (odatda suvnik) katta metall disk perimetri boʻylab parraklar tomonidan oʻqqa tushiriladi.

Har bir shu tigʻning shakli shundayki, oqim ularga har biri tegishi natijasida oqim ikkiga boʻlinib ketadi (pastdagi rasmga qarang), bunda suv miqdorining yarimi bir tomonga qolgani ikkinchi tomonga ajralib ketadi.

Bu kabi oqimning parchalanishi trubinani oʻrnatish uchun qulay hisoblanadi – u podshipniklarda teng va qarama-qarshi kuchlarni (demak 0 yigʻindini) yuzaga keltiradi.



3.26.2-rasm. Oqim parragi.

Pelton gʻildiraklarining joylashuvi va oqim parragining koʻndalang kesishuvi.

- Jet of water – suv oqimi

Tahlilda foydalanish uchun kerak bo'ladigan nazorat hajmi va tig'larni yanada yaqinroq ko'rinishini pastdagi 3.26.2-rasmda ko'rish mumkin. Tahlil yana quyidagi qadamlarni amalga oshiradi:

1. Nazorat qilish va chizish.
2. Koordinata o'qlari tizimi haqida qaror qabul qilish.
3. Umumiy kuchni hisoblash.
4. Bosim kuchini hisoblash.
5. Jism kuchini hisoblash.
6. Natijaviy kuchni hisoblash.

1 va 2 nazorat hajmi va koordinata o'qlari pastdagi rasmda ko'rsatilgan.

3. x yo'nalishidagi umumiy yig'indini aniqlang.

$$F_{T_x} = \rho \left(\frac{Q}{2} g_{2_x} + \frac{Q}{2} g_{2_x} - Q g_{1_x} \right) \quad (3.26.1)$$

$$g_{1_x} = -g_1$$

$$g_{1_x} = g_2 \cos \varphi$$

$$F_{T_x} = \rho Q (g_2 \cos \varphi + g_1) \quad (3.26.2)$$

Va y yo'nalishida ham simmetrik, shuning uchun.

$$F_{T_y} = 0$$

4. Bosim kuchini hisoblash.

Bosim kuchi 0 ga teng, chunki nazorat hajmining kirishi va chiqish yo'lidagi bosim atmosfera bosimidir.

5. Jism kuchini hisoblash.

Biz hech qanday hajm kuchlari mavjud bo'lmagan gorizonta tekislikni ko'rib chiqayapmiz.

6. Natijaviy kuchni hisoblab chiqazish.

$$F_{T_x} = F_{R_x} - F_{P_x} - F_{B_x}$$

$$F_{R_x} = F_{T_x} - 0 - 0 = -\rho Q (\mathcal{G}_2 \cos \varphi + \mathcal{G}_1) \quad (3.26.3)$$

Suyuqlikka taʼsir koʻrsatuvchi.

Parrakdagi kuch qarama-qarshi yoʻnalishdagi kattalikka teng.


$$R = -F_{R_x} \quad (3.26.4)$$

Shunday qilib, parrak x yoʻnalishida harakatlangan.

Real vaziyatda parrak harakatlanmoqda. Buni parrakning mavjud boʻlish vaqti davomida nazorat qismlariga kiruvchi impulsar miqdorini kiritgan holda taxlilni kengaytirish mumkin. Bu ikkinchi bosqich modulida keyingi yil batafsil koʻrib chiqiladi.

3.27. QIYA TEKISLIKKA URILGAN ZARBA KUHLARI

Biz yuqorida oqimning tekislikka toʻgʻri burchak ostida tushganligi natijasida yuzaga kelgan kuchlarni oʻrganib chiqdik. Agar tekislik burchak ostida egilsa u holda taxlil bundan murakkabroq boʻladi (shuni maʼlum qilishimiz kerak boʻladiki, onsonlik yaratish maqsadida gravitatsiya va ishqalanishni inobatga olmaydilar).



3.27.1-rasm. a- b. Qiya tekislikdagi reaktiv oqim $\mathcal{G}_3$

Biz plastinaga taʼsir etuvchi normal kuchni topmoqchimiz, shuning uchun ham yuqorida koʻrsatilgan tekislikka normal boʻluvchi oʻqlar tizimini aniqlaymiz. Diagramma aylantirilishi mumkin, pastda koʻrsatilganidek, uni ushbu oʻqlar boʻyicha tekislash va tushuntirishga onsonlashtirish uchun, qiya tekislikka tushgan oqimning aylangan koʻrinishi.

Biz har bir yoʻnalishdagi oqimning tezligini bilmaymiz. Ularni topish uchun Bernulli tenglamasini qoʻllash mumkin.

$$\frac{p_1}{\rho g} + \frac{g_1^2}{2g} + z_1 = \frac{p_2}{\rho g} + \frac{g_2^2}{2g} + z_2 = \frac{p_3}{\rho g} + \frac{g_3^2}{2g} + z_3 \quad (3.27.1)$$

Balandlik farqlari bir oz inobatga olinmagan holda $z_1 = z_2 = z_3$, va barcha bosim atmosferik = 0. Shu tarzda

$$g_1 = g_2 = g_3 = g, \quad (3.27.2)$$

Uzlusizlik boʻyicha

$$Q_1 = Q_2 + Q_3, \quad (3.27.3)$$

$$g_1 A_1 = g_2 A_2 = g_3 A_3, \quad (3.27.4)$$

Shunday qilib $A_1 = A_2 + A_3$,

$$Q_1 = A_1 g,$$

$$Q_3 = (A_1 - A_2) g. \quad (3.27.5)$$

Bundan foydalangan holda biz kuchlardan xuddi oldingidek foydalanishimiz mumkin.

1. Umumiy kuchni hisoblash.
 2. Bosim kuchini hisoblash.
 3. Jism kuchini hisoblash.
 4. Natijaviy kuchni hisoblab chiqish.
- 1 x yoʻnalishidagi umumiy kuchni hisoblang.

Koordinatalar tizimi plastinaga nisbatan normal ekanligini yodingizdan chiqazmang.

$$F_{T_x} = \rho(Q_2 \mathcal{G}_{2_x} + Q_3 \mathcal{G}_{3_x}) Q_1 \mathcal{G}_{1_x} \quad (3.27.6)$$

Bu $\mathcal{G}_{2_x} = \mathcal{G}_{3_x} = 0$, X yo'nalishida komponentlarsiz oqimlar plastinaga paralleldirlar.

$\mathcal{G}_{1_x} = \mathcal{G}_1 = \cos \varphi$, shunday qilib

$$F_{T_x} = \rho Q_1 \mathcal{G}_{1_x} \cos \varphi \quad (3.27.7)$$

2. Bosim kuchini hisoblash.

Baribir 0 ga teng, chunki bosim hamma yerda atmosferikdir.

3. Jism kuchini hisoblang.

Nazorat hajmi kichik bo'lgani uchun ham, demak, suyuqlik og'irligi ham kichkina bo'ladi. Bu yerda biz jism og'irligini inobatga olmasligimiz mumkin.

4. Natijaviy kuchni hisoblang.

$$F_{T_x} = F_{R_x} - F_{P_x} - F_{B_x}$$

$$F_{R_x} = F_{T_x} - 0 - 0 = -\rho Q_1 \mathcal{G}_1 \cos \varphi \quad (3.27.8)$$

Suyuqlikka ta'sir etuvchi, plastinadagi kuch qarama-qarshi yo'nalishdagi kattalikka teng.

$$R = F_{R_x} = \rho Q_1 \mathcal{G}_1 \cos \varphi \quad (3.27.9)$$

Endi biz har bir yo'nalishda plastinada qancha harakat qilinayotganini bilsak bo'ladi.

$$F_{T_y} = 0.$$

Y yo'nalishida ham:

$$\mathcal{G}_{1_y} = \mathcal{G}_1 = \cos \varphi, \quad \mathcal{G}_{2_y} = \mathcal{G}_2, \quad \mathcal{G}_{3_y} = -\mathcal{G}_3,$$

$$\begin{aligned}
F_{T_y} &= \rho \left((Q_2 \mathcal{G}_{2_y} + Q_3 \mathcal{G}_{3_y}) - Q_1 \mathcal{G}_{1_y} \right) \\
F_{T_y} &= \rho \left(Q_2 \mathcal{G}_{2_y} + Q_3 \mathcal{G}_{3_y} - Q_1 \mathcal{G}_{1_y} \cos \varphi \right)
\end{aligned} \tag{3.27.10}$$

Kuchlar plastinaga parallel bo'lgani sababli ular 0 ga tengdirlar

$$0 = \rho A_2 \mathcal{G}_2 - A_3 \mathcal{G}_3 - A_1 \mathcal{G}_1 \cos \varphi$$

Tepadan $\mathcal{G}_1 = \mathcal{G}_2 = \mathcal{G}_3$

$$0 = A_2 - A_3 - A_1 \cos \varphi$$

Bizda tepada quyidagi bor $A_1 = A_2 = A_3$, shunday qilib

$$0 = A_2 - A_3 - (A_2 - A_3) \sin \varphi$$

$$0 = A_2 (1 - \cos \varphi) - A_3 (1 + \cos \varphi)$$

$$A_2 = A_3 \left(\frac{1 - \cos \varphi}{1 + \cos \varphi} \right) \tag{3.27.11}$$

Xuddi mana bu ifoda kabi $\mathcal{G}_2 = \mathcal{G}_3 = \mathcal{G}$,

$$Q_2 = Q_3 \left(\frac{1 + \cos \varphi}{1 - \cos \varphi} \right) \tag{3.27.12}$$

$$Q_2 = Q_3 \left(\frac{1 + \cos \varphi}{1 - \cos \varphi} \right) + Q_3 = Q_3 \left(1 + \frac{1 + \cos \varphi}{1 - \cos \varphi} \right)$$

Endi biz har bir plastina yo'nalishdagi harakatni bilamiz.

IV –BOB. SUYUQLIKLARNING HARAKAT REJIMI


4.1. REYNOL'DS TAJRIBASI

Avvalam bor gidravlik hisob-kitoblarda quyidagi xolatlarni eʻtiborga olish kerak: koʻrilayotgan suyuqlik oqimida qanday harakat rejimi mavjud ekanligini aniqlash.

Barcha naporli va naporsiz harakatdagi oqim ikki xil rejim asosida harakatlanadi (4.1- rasm). Tabiatda ikki xil tartibli suyuqlik harakati mavjud.

- 1.Laminar kichik tezlik bilan parallel oqimchali, yaʼni tinch oqim;
- 2.Turbulent, katta tezlikdagi, oʻramali, qaynab, toʻlqinsimon oqim.

Oqimdagi harakat rejimini aniqlash va hisoblash ishlarida Reynolʻds sonini aniqlash- Re va u son qiymatini Re_{kr} - Kritik Reynolʻds soni bilan taqqoslash kerak.



4.1.1-rasm. Suyuqlikning ikki harakat tartibi

Reynolʻds soni Re -bu ismsiz son boʻlib quydagi formulalar yordamida son qiymati aniqlanadi:

Laminar harakat vaqtida suyuqlik zarrachalari bir-biriga nisbatan qavat-qavat bo‘lib joylashadi va suyuqlik harakati davrida ular bir qavatdan ikkinchi qavatga o‘tmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, suyuqlik zarrachalari oqimlar harakatiga ko‘ndalang yo‘nalishda harakatlanmaydi.

Amaliyotda laminar harakatni kuzatish uchun suyuqlik oqayotgan shisha trubaning boshlang‘ich kesimiga shisha naycha orqali rangli suyuqlik yuborilsa, u holda suyuqlikda rang aralashmasdan to‘g‘ri chiziq bo‘lib oqim ko‘rinishida harakatlanadi (4.1- rasm).

Endi suyuqlikning tezligini oshirib borsak, harakat tartibi o‘zgarishini kuzatash mumkin.

Oqim tezligi oshib ketishi natijasida zarrachalar bir qavatdan ikkinchi qavatga tez o‘ta boshlaydi. Natijada suyuqlik harakatining tartibi tez o‘zgaradi. Bunday harakat **turbulent harakat** deyiladi. Suyuqlik harakatining bu ikki tartibini ingliz olimi Osborn Reynol‘ds tajribasida har tomonlama tekshirgan va natijalarini 1883 yilda e‘lon qilgan. Suyuqlik harakatini tezlikning oqim o‘lchamiga ko‘paytmasining kinematik qovushqoqlik koeffitsientiga nisbatidan iborat o‘lchovsiz miqdor harakterlaydi.

Bu miqdor Reynol‘ds soni deb ataladi va quyidagicha ifodalaniladi:

$$Re = \frac{\vartheta d}{\nu} \quad (4.1.1)$$

Suyuqlik harakatining laminar harakatdan turbulent harakatga o‘tishi Reynol‘ds soni Re ning ma‘lum kritik miqdori bilan aniqlanadi va u Reynol‘ds kritik soni deb atalib, Re_{kr} bilan belgilanadi. Bu son silindrik trubalar uchun $Re = 2320$ ga teng bo‘ladi. Turli shakldagi nosilindrik trubalar va o‘zanlardagi oqimlar uchun Reynol‘ds soni quyidagicha hisoblanadi:

$$Re = \frac{\vartheta \cdot d_{\text{эКВ}}}{\nu} = \frac{4\vartheta R}{\nu} \quad (4.1.2)$$

bu yerda, ϑ - o‘rtacha tezlik; d - quvur diametri;

R – gidravlik radius; ν - kinematik qovushqoqlikning koeffitsienti (6.1 – jadval)

- Naporli oqim uchun,

$$Re = \frac{g \cdot d}{\nu}, \quad (4.1.3)$$

bu yerda, d -naporli quvurning ichki diametri;

- Naporsiz oqim uchun,

$$Re = \frac{g \cdot R}{\nu}, \quad (4.1.4)$$

$$\nu = \frac{\omega}{\chi}. \quad (4.1.5)$$


bu yerda, ω - oqim ko‘ndalang kesim yuzasi;

χ - oqim ho‘llanganlik parametri.

Bu yerda, χ -ho‘llangan parametr m, sm. ω -suyuqlik ko‘ndalang yuzasi m^2 , sm^2 .

Agar $Re < Re_{kr} = 2320$ quvurdagi harakat rejimi - laminar.

Agar $Re > Re_{kr} = 2320$ quvurdagi harakat rejimi - turbulent. Quyidagi jadvalda turli xil temperaturalarda suv uchun kinematik qovushqoqlikning koeffitsientlari keltirilgan.



4.1.2-rasm.

$$\lambda = \frac{64}{Re} \quad \lambda = 0,11 \left(\frac{68}{Re} + \frac{\Delta}{d} \right)^{0,25} \quad (4.1.6)$$

Suyuqlik harkat rejimini Reynol‘ds soni orqali gidravlik ishqalanish qarshiligi koeffitsienti

λ ni aniqlash

Kinematik qovushqoqlik koeffitsienti

4.1.1 - jadval

$t, ^\circ\text{C}$	$\nu, \text{sm}^2/\text{s}$	$t, ^\circ\text{C}$	$\nu, \text{sm}^2/\text{s}$	$t, ^\circ\text{C}$	$\nu, \text{sm}^2/\text{s}$
0	0,0178	11	0,0127	24	0,009
1	0,0173	12	0,0124	26	0,0088
2	0,0167	13	0,0121	28	0,0084
3	0,0162	14	0,0117	30	0,0080
4	0,0156	15	0,0114	35	0,0073
5	0,0147	16	0,0112	40	0,0066
6	0,0142	17	0,0109	45	0,0060
7	0,0139	18	0,0106	50	0,0056
8	0,0135	19	0,0104	55	0,0052
9	0,0131	20	0,0101	60	0,0048
10	0,0127	22	0,00989		

4.2. SUYUQLIKNING LAMINAR HARAKATI. TEZLIKNING SILINDRIK QUVUR KESIMI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI


Quvurlarda real suyuqliklar laminar harakat qilganda, uning oqimchalari bir-biriga parallel harakat qiladi. Quvur devorlari yopishib qolgan suyuqlik zarrachalari bilan qoplanadi. Quvur devorlarida yopishib qolgan suyuqlik zarrachalarining tezligi nolga teng bo‘ladi.

Quvur devori sirtidagi qavatning tezligi 0 ga teng bo‘lib, quvur o‘qiga yaqinlashgan sari tezlik oshib boradi. Quvur o‘qida, ya‘ni markazida tezlik maksimal qiymatga ega bo‘ladi. Quvur ichidagi ishqalanish kuchi Nyuton qonuni bilan quyidagicha ifodalanadi

$$\tau = -\mu \frac{d\vartheta}{dr} \quad (4.2.1)$$

Laminar harakat tartibida tezlikning truba kesimi bo‘yicha taqsimlanishini kuzatamiz. Buning uchun quvur ichida uzunligi L va radiusi R bo‘lgan elementar

naycha ajratib olib o'rganamiz (4.2.1-rasmda). 1-1 - kesim uchun R_1 , 2-2 - kesim uchun R_2



4.2.1-rasm. Laminar harakatda tezlikning taqsimlanishi

Ishqalanish kuchi $T = \tau 2\pi r l = -\mu 2\pi r l \frac{d\mathcal{G}}{dr}$ dan (1.92) iborat

$$\mathcal{G} = -\frac{P_1 - P_2}{4\mu l} (r^2 - R^2) \quad (4.2.2)$$

Xulosa qilib aytish mumkinki, ya'ni silindrik quvurda laminar harakat tezligi ko'ndalang kesimda parabola qonuni bo'yicha taqsimlangan bo'lar ekan.

Reynol'ds kritik soni:

Re_{kr} – harakat rejimini almashinuvini ko'rsatadi.

Naporli oqim harakatida

$$Re_{kr} = 2320.$$

Naporsiz oqim harakatida

$$Re_{kr} = 500.$$

Soddalashtirilgan holatda Reynol‘ds sonini 4.1.3-rasmda keltirilgan formulalar yoki shkala yordamida son qiymatini aniqlash mumkin. Masalan naporli vodoprovod quvur diametri $d = 20 \text{ mm}$, $\mathcal{G} = 1 \text{ m/s}$, $\mathcal{G} = 10^{-6} \text{ m}^2 / \text{s}$.

Bu quvurdagi harakatlanayotgan suyuqlik oqimidagi Reynol‘ds soni.

$$\text{Re}_{kr} = 0,02 / 10^{-6} = 20000.$$

20000 soni $\text{Re}_{kr} = 2320$ dan katta qiymatga ega ekanligidan, naporli harakat rejimi turbulent ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Qolgan barcha gidravlik hisoblar shu ko‘rsatilgan rejim uchun keltirilgan formulalar yordamida bajariladi.

4.3. NAPORLI VA NAPORSIZ OQIMLAR HISOBI

Naporli oqimlarni hisoblashda asosan noma‘lum sarf Q , tezlik $\mathcal{G}$ yoki napor yo‘qolishi (naporlar farqi) H larni aniqlashga olib keladi. Quvurlar uchun uning ichki diametri d ham aniqlanadi.

Umumiy naporning yo‘qolishi (naporlar farqi) quyidagi Veysbax formulasi yordamida aniqlanadi:

$$\Delta H = \xi \frac{\mathcal{G}^2}{2g}, \quad (4.3.1)$$

-gidravlik qarshilik koeffitsenti.

Oqimnig o‘rtacha tezligi uning sarfi orqali qo‘yidagicha aniqlanadi.

$$\mathcal{G} = Q / \omega \quad (4.3.2)$$

Bu yerda, ω -oqim ko‘ndalang kesim yuzasi yoki ionli kesim yuzasi. Masalan, dumaloq kesimli quvur uchun $\omega = d^2 / 4$.

Shunday qilib keltirilgan bog‘lanishlar orqali ΔH , $\mathcal{G}$, Q , va ω , d – parametrlar aniqlanib harakatda naporli harakatni hisoblash mumkin. Koeffitsent ξ ni qiymati hisoblashda yo‘qotilgan napor turiga qarab aniqlanadi. U uzunlik bo‘yicha yoki mahalliy qarshilikda yo‘qotilgan napor bo‘lishi mumkin.

Umumiy yo‘qotilgan napor ΔH (m) har qanday oqim uchun h_l uzunlik bo‘yicha yo‘qotilgan va mahalliy qarshilikda yo‘qolgan napor h_M lar yig‘indisidan iborat bo‘ladi:

$$\Delta H = \sum h_l + \sum h_m. \quad (4.4.3)$$


Uzunlik bo‘yicha yo‘qotilgan napor h_l quvur to‘g‘ri bo‘ylab holda mavjud bo‘ladi (4.3.1.a-rasmda). Ayrim adabiyotlarda h_l haqida boshqacha atamalar ham mavjud: uzunlik bo‘yicha yo‘qotilgan napor; yo‘l bo‘yicha yo‘qotilgan napor. h_e qiymatini Veysbax formulasi yordamida aniqlash mumkin.

$$h_l = \xi \frac{g^2}{2g}. \quad (4.5.4)$$

bu yerda, gidravlik qarshilik koeffitsenti ifodaga asosan quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\xi_l = \frac{\lambda l}{d}, \quad (4.5.5)$$

bu yerda, λ -ishqalanishda gidravlik qarshilik koeffitseti, bu kattalik laminar hamda turbulent rejimiga qarab 4.3.4 yoki 4.3.2- formuladagi bog‘lanishlar yordamida aniqlanadi. (4.3.1-rasmga qarang) l-quvurning to‘g‘ri chiziqli kesimi uzunligi.



4.3.1-rasm. Yo‘qotilgan napor. a-uzunlik bo‘yicha; b-mahalliy bo‘yicha; 1-quvur tizimi; 2-napor chizig‘i; 3-mahalliy qarshiliklar

Laminar rejimda gidravlik qarshilik ko'ffitsenti

$$\lambda = 64 / \text{Re}. \quad (4.3.6.)$$

Turbulent rejim holatida A.D.Al'tishul' formulasi yordamida aniqlanadi.

$$\lambda = 0,11 \left(\frac{68}{\text{Re}} + \frac{\Delta}{d} \right)^{0,25}, \quad (4.3.7)$$

bu yerda, Δ -quvur devorlarining g'adir-budurliqi. Masalan eski po'lat quvurlarda $\Delta \approx 1,5 \text{ mm}$. Yangisida esa $\Delta \approx 0,1 \text{ mm}$. Gidravlik qiyalik deb i uzunlikdagi yo'qolgan naporni H_l oqim uzunligi l ga nisbati tushuniladi (4.3.1.a-rasm karang).

$$i = h_l / l \quad (4.4.8)$$

Mahalliy qarshiliklarda yo'qolgan napor h_M oqimni deformatsiyadagi joylarda hosil bo'ladi: quvur burulishda, toraygan yoki kengayishida, traynik (uchliklar), krestovinalar (to'rtliklar)da, kranlarda, ochib-yopqichlarda, naporli yo'nalishlarda ularni boshqaruvchi qurilmalarni kamaytirilgan joylarda h_M , (4.3.1. b- rasm) hollarda ko'rinishga ega.


Naporsiz oqimlarning hisobi.

Naporsiz oqimlarning gidravlik hisoblashda Q – sarfga ega bo'lgan V mumkin bo'lgan tezlikda quvur va kanalning i_{geom} qiyalikdagi orqali birgalikdagi ifodalovchi masalani hal qilishiga olib keladi. Naporsiz yoki erkin sirtga ega bo'lgan oqimlar kanalizatsiya tarmoqlarida, quvurlarda, lotok va kanallarda kuzatiladi; tabiatda daryolar, ariqlarda uchraydi.

Naporsiz oqim uchun tekis harakatdagi oqim holatda hisoblar qilinadi. Ushbu holda geometrik qiyalik i_{geom} erkin sirtning ya'ni p'ezometrik qiyalikdagi gidravlik i qiyalikka teng deb olinadi. Tagidagi sirt 1, erkin sirt 2 va napor chizig'i 3 lar bir-biriga parallel deb olinadi. (4.3.2-rasm). Bu esa hisoblashni osonlashtiradi, gidravlik

qiyalik i ni aniqlashda avtomatik ravishda i_{geom} qiyalik aniqlanadi. Aslida naporsiz oqim naporli oqimdan iborat! *Naporsiz* degan tushuncha fan sohasiga kiritilgan termin bo'lib qolgan, to'g'rirog'i *erkin sirtlik oqim* deyish aniqroq bo'lar edi. Masalan, 4.3.2-rasmda A va B nuqtalarda naporlar mavjud, uni miqdori Pito quvurchasi yordamida aniqlanadi, shuningdek H_A va H_B naporlar hisoblanadi.

Naporlar ayirmasi $H_A - H_B$ esa uzunlik l bo'yicha yo'qolgan h_e naporni ifodalaydi. h_e miqdor esa ΔZ ga teng, hamda 4.3.2- rasmdagi balandlik belgilarini boshlang'ich va oxirgi qismlardagi tengliklarini ayirmasidan iborat, shuningdek $i = \frac{h_e}{l}$, $i_{\text{geom}} = \frac{\Delta Z}{l}$, $i = i_{\text{geom}}$ bo'lganda,



4.3.2-rasm. Naporsiz harakat. 1-yuza; 2-erkin yuza; 3 napor chizig'i; 4-Pito quvurchasi; 5-garizon chizig'i

Naporsiz oqimda ham naporli oqimga o'xshab mahalliy qarshiliklarda yo'qolish h_m oqimning keskin deformatsiyali joydarida hosil bo'ladi: bo'rilishlarda, bo'linishda, keskin kengayishda, mahalliy toraygan joylarda va xokazo. Ammo naporsiz oqimlarni hisoblashda h_m odatda hisobga olinmaydi.

Naporsiz harakatdagi oqimni gidravlik hisoblashda odatda tezlik (4.3.1.v-rasm, ga qarang) $\frac{h}{d}$, va i_{geom} qiyaliklarga chegara qo'yiladi. Masalan, kanalizatsiya quvurlarini hisoblashda uchta chegaralanish bo'lishi shart, ular:

$$0.7 \leq d \leq 4, \quad 0.3 \leq \frac{h}{d} \leq 0.6, \quad \frac{1}{d_{\text{geom}}} \leq i_{\text{geom}} \leq 0.15,$$

bu yerda, d_{mm} – quvurning ichki diametri bo‘lib mm larda o‘lchanadi. Naporsiz oqimni hisoblashda geometrik qiyalikni quvur kanallarning tagiga nisbatan olinadi va ular odatda Shezi formulasi yordamida aniqlanadi.

$$i_{\text{geom}} = \frac{V^2}{R \cdot C^2} ; \quad (4.3.9)$$

bu yerda, R - gidravlik radius (m); C koefitsient Shezi. Shezi koefitsientini amaliyotda anchagina aniqlik bilan Manning formulasi yordamida aniqlanadi:

$$C = \frac{1}{n} \cdot R^{\frac{1}{6}} ; \quad (4.3.10)$$

bu yerda, n -koefitsient quvur yoki kanal devorlari g‘adir-budurligini ifodalaydi; R gidravlik radius metrlarda o‘lchanadi. Shezi formulasi turbulent rejimlarda aniqroq qiymatlarga ega. Odatda bunday oqim amaliyotda ko‘plab uchraydi.

Tezlik esa oqim sarfi orqali quydagi formula yordamida topiladi:

$$g = \frac{q}{\omega} \quad (4.3.11)$$

Shunday qilib barcha naporsiz oqimlarning gidravlik hisobini keltirilgan formulalar yordamida amalga oshiriladi. Shezi formulasini hisoblashda hozirda kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi.

V-BOB. GAZ DINAMIKASI

Gaz dinamikasi bu aerodinamikaning (gaz mexanikasi) bir bo‘limi bo‘lib gaz harakati va muvozanati qonuniyatlarini o‘rganadi.

Bu bo‘limda asosan gaz sifatida havoni e‘tiborga olamiz. Amaliyotda havo harorati xuddi gidravlikada ko‘rilgandek siqilmaydigan suyuqlikka o‘xshaydi faqat zichlik ρ va ν qovushqoqlik va napor o‘rniga bosim qo‘llaniladi.

Aerodinamik terminlar lug‘ati.

Aerodinamik terminlarni gidravlik qarshiliklar bilan taqqoslab o‘rganamiz.

Naporli va **naporsiz** harakatlarning o‘xshashligi suyuqliklarda bo‘lganidek gazlarda ham mavjud.

Gaz oqimi quvurda yopiq kanallarda yoki havo haydash quvurlarida to‘liq oqib uning ko‘ndalang kesimi devor bilan chegaralanganda suyuqliklarda bo‘lganidek naporli harakatga ega. Misol uchun gaz uzatgich quvurlarida shamollatish majmualaridagi quvurlarda naporli oqim mavjud. Endi naporsiz harakatni oqimchali havo oqimlarida uchratamiz.

Masalan, issiq yoki sovuq havo oqimlarini xonalarga tarqatishda ko‘ramiz. Aerodinamikada ham gidrodinamikadek ko‘ndalang kesim yuzasi kesim ω , m^2 , sarf Q , m^3/s , tezlik $\mathcal{G}$, m/s , lar bilan ifodalanadi. Shuni e‘tiborga olinadiki aerodinamikada suyuqlik so‘zini urniga gaz so‘zi ishlatiladi. Binoni shamollatishda va isitishda havo tezligi 0,5-1,5 m/s , chegarada o‘zgaradi. Quvurlar kanallar va havo haydovchi quvurlarda ularning ko‘ndalang kesimi dumaloq bo‘lsa geometrik paraometrlarni hisoblashda ichki diametr d deb olinadi. Dumaloq bo‘lmagan kesimlar uchun ekvivalent diametr d_{ek} e‘tiborga olib u quyidagicha ifodalanadi.

$$d_{ek} = 4\omega / \chi, ; \quad (5.1)$$

bu yerda, χ -kesimning to‘liq parametri (napor quvurdagidek)

Masalan, havo haydovchi to‘rtburchak kesimli quvurda tomonlari a va b bo‘lgan ekvivalent diametr quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$d_{ek} = 4\omega / \chi = 2ab / (a + b). \quad (5.2)$$

Suyuqliklarda gazlarning erishi: Bu holat hamma vaqt ham kuzatiladi, faqat gazlar miqdori suyuqlik birlik hajmida har xil suyuqlik uchun farq qiladi va bosim o'zgarishi bilan o'zgaradi. Gazning nisbiy hajmi suyuqlikda erigan miqdoriga nisbatan bosimga to'g'ri proporsional bo'ladi:

$$\frac{V_{газ}}{V_{жидк}} = K \cdot \frac{P_{2Г}}{P_{1Г}}. \quad (5.3)$$

K- eruvchanlik koeffitsienti.

Agar suyuqliklarda bosim kamaytirilsa, unda erigan gazning suyuqlikdan ajralib chiqishi kuzatiladi. Bu jarayon erishga nisbatan tezroq davom etadi. Bu hodisa har xil gidrotizim va gidromashinalar ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oddiy ichimlik suv tarkibida taxminan 2% erigan gaz miqdori uchraydi.

5.1. GAZ OQIMNING UZLUKSIZLIK TENGLAMASI

Gaz oqimlari uchun uzluksizlik tenglamasi fizik ma'noda masalaning saqlanish qonuni quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathcal{Q}_1 \omega_1 = \mathcal{Q}_2 \omega_2, \quad (5.1.1)$$

Bu ifoda xuddi suyuqlikdagidek.


Keltirilgan to'liq bosim.

Harakatdagi gazning istalgan nuqtasiga quyidagicha to'liq bosim ta'sir qiladi:

$$P_{tul} = P_{st} + P_0, ; \quad (5.1.2)$$

bu yerda, P_{st} - statik bosim;

$P_{din} = \rho \mathcal{Q}^2 / 2$ - dinamik bosim bo'lib gaz oqimining kinetik energiyasini ifodalaydi;



5.1.1-rasm. To'liq bosimni tushuntirishga doir sxema

(suyuqlikda tezlik nabori $h_g = g^2 / (2g)$ ga o'xshash)

Shunga qaramay to'liq bosim P_{tul} harakatdagi gaz nuqtasidagi to'liq energiya o'z ichiga olmaydi chunki unga nuqta holatini ifodalovchi parametr $\rho g z$ ni o'z ichiga olmagan.


Shuning uchun ham istalgan nuqtadagi gaz oqimini energetik xarakteristikasini ifodalash uchun keltirilgan to'liq bosim tushunchasi kiritilgan:

$$P_{qul.tul} = \rho g z + P_{st} + \rho g^2 / 2, ; \quad (5.1.3)$$

bu yerda, oldingi ikki had $\rho g z + P_{st}$ -potensial energiyani ifodalaydi, oxirgi had $\rho g^2 / 2$ -kinetik energiyani ifodalaydi (5.1.1-rasmda).

5.2. GAZ UCHUN BERNULLI TENGLAMASI

Uzgaruvchi kesimga ega bo'lgan gaz oqimini quvurdagi harakatini ko'rib o'tamiz (5.2.1-rasm). Birinchi kesimda keltirilgan to'liq bosim $P_{qul.tul \cdot 1}$ ga teng. Quvurdagi gazning harakatida birinchi qismdagi $P_{qul.tul \cdot 1}$ bosim ichki ishqalanish kuch ta'sirida keyingi kesimda yo'qolib borib $P_{qul.tul \cdot 2}$ gacha kamayadi va yo'qolgan bosim ΔP_{yqot} ga kamayadi.



5.2.1-rasm. Gazlar uchun Bernulli tenglamasiga doir sxemasi.

Bernulli tenglamasi oddiy holda quyidagicha yozishni egallaydi:

$$P_{qul.tul \cdot 1} = P_{qul.tul \cdot 2} + \Delta P_{yqot}, \quad (5.2.1)$$

Bu tenglama suyuqlik uchun Bernulli tenglamasiga o'xshash bo'lib (5.2.1) farqi shundaki ushbu tenglama naporlar orqali yozilmasdan bosim orqali yoziladi. Agar keltirilgan to'liq bosimni xususiyatini ochib yozilganda ya'ni $P_{qul.tul \cdot 1}$ va $P_{qul.tul \cdot 2}$ ni (5.2.1) orqali ifodalasak quyidagi formulani olamiz:

$$\rho_1 g z_1 + P_{st.1} + \frac{\rho_1 \mathcal{G}_1}{2} = \rho_2 g z_2 + P_{st.2} + \frac{\rho_2 \mathcal{G}_2}{2} + \Delta P_{yqot}. \quad (5.2.2)$$

Gaz uchun yozilgan Bernulli tenglamasini energetik ma'nosini u energiyani saqlanish qonunini ifodalaydi geometrik ma'noda esa ko'rinmaydi chunki gaz uchun bosim birligida (Pa) keltiriladi naporda emas (m).

5.3. GAZ UCHUN HARAKAT REJIMI

Avvallam bor aerodinamik hisoblarda gaz harakati qanday rejimda ekanligi muhim ahamiyatga ega. Gaz harakat rejimi xuddi suyuqliklardagidek ikki rusmda bo'ladi:

- 1) kichik tezlikda sokin-laminar rejimi;
- 2) katta tezliklarda uyurmali-turbulent rejimi;

Laminar va turbulent harakatlarini o'rganishda Reynol'ds soni- Re hisoblash hamda Reynol'ds kritik son- Re_{kr} son bilan taqqoslash kerak. Gaz uchun Reynol'ds son qiymati Re quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Re = \frac{\mathcal{G} \cdot d_{ek}}{\nu}, \quad (5.3.1)$$

Bu yerda, d_{ek} -ekvivalent diametr –quvur, havo haydovchi quvur, yoki kanallarda agar $d_{ek} = d$, bo'lsa dumaloq kesimli quvur uchun e'tiborga olinadi.

Gaz uchun Reynol'ds kritik soni $Re_{kr} \approx 2000$.

Agar $Re < Re_{kr}$ -laminar rejim.

Agar $Re > Re_{kr}$ -turbulent rejim.

Amaliyotda ko‘pincha turbulent rejim mavjud: shamollatish kanallarda, gaz quvurlarida, bug‘ quvurlarida shamol esganda.

Muhandislik tarmoqlaridagi aerodinamika.

Injenerlik tarmoqlari shamollatish va isitishda issiqlik energiyasi sohasida hisoblash ishlarini loyihalashda aerodinamika qonuniyatlari asosida bajariladi.

Bu holda hisoblash ishlarini Bernulli tenglamasi yordamida bajariladi faqat napor o‘rniga bosimni e‘tiborga olinadi. Xattoki suv bilan isitgich tarmoqlarini hisoblashda ham bosim orqali hisoblanadi, chunki bu joyda harorat o‘zgaradi demak zichlik qiymati ham o‘zgaradi.

Aerodinamik hisoblarda ΔP_{qul} -bosimlar farqi, bosim yo‘qolishi ΔP_{yqot} - tezlik sarf ko‘ndalang kesimning geometrik o‘lchamlari inobatga olinadi.

Bernulli tenglamasi yordamida hisoblash shunday bajariladi. Quvurning o‘lchamini shunday olish kerakki unda oqim tezligi sarfi va bosim farqi ΔP_{qul} tarmoqda yo‘qotilgan ΔP_{yqot} bosimga teng bo‘lsin. Shuni ham e‘tiborga olish kerakki yo‘qotilgan bosim har ehtimolga qarab sun‘iy ravishda 10% ga oshiqroq qilib olinadi. Shuning uchun ham keltirilgan bosimni quyidagicha olinadi:

$$\Delta P_{qul} = 1,1 \Delta P_{yqot} \quad (5.3.2)$$

Hisoblash tarmog‘i natijasida shu tenglikni qanoatlantirgan bo‘lishi kerak. Quyida bosimlar ayirmasi ΔP_{qul} ni hisoblash o‘choqning tutun haydash quvurlarida va suv yordamidagi tabiiy sirkulyatsiya isitgichlarda .

ΔP_{yqot} misol tariqasida keltiramiz quvurlar havo haydash quvurlarida gaz uzatgich quvurlarida bosim yoki gazlar uchun quyidagi Veysbax formulasi yordamida aniqlanadi:

$$\Delta P_{yqot} = \zeta \frac{\rho g^2}{2}, \quad ; \quad (5.3.3)$$

bu yerda, ζ -gidravlik qarshilik koefitsenti. Bu xuddi suyuqliklardek agar quvur dumaloq bo'lmasa u holda ekvivalent d_{ek} va d , dan foydalaniladi. Umumiy yo'qotilgan bosim ΔP_{yqot} uzunlik ΔP_{uzin} bo'yicha yo'qolgan bosim va mahalliy qarshilik yo'qolgan bosim $\Delta P_{m.yqot}$ lar yig'indisidan iborat:

$$\Delta P_{yqot} = \sum \Delta P_{uzin} + \sum \Delta P_{m.yqot}. \quad (5.3.4)$$

Uzunlik bo'yicha yo'qolgan ΔP_{uzin} va $\Delta P_{m.yqot}$ ni aniqlaydi. Veysbax formulasidan foydalanib gaz uchun (5.3.4) ifoda qo'llaniladi. Shuni e'tiborga olish kerakki ζ o'rniga ζ_l uzunlik yoki ζ_m mahalliy qo'yiladi d , -diametr o'rniga d_{ek} , qo'yiladi.

Masalan, ΔP_l ni aniqlashda uzunlik bo'yicha gidravlik qarshilik koefitsenti (isimsiz son) quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\zeta_l = \lambda l / d_{ek}, \quad ; \quad (5.3.5)$$

bu yerda, l -tarmoqning to'g'ri chiziqli qismi.

Ishqalanishdagi gidravlik qarshilik koefitsenti λ turbulent oqimda (5.3.6) formula yordamida aniqlanadi.

$$\lambda = 0,11 \left(\frac{68}{Re} + \frac{\Delta}{d_{ek}} \right)^{0,25} \quad (5.3.6)$$

Bu yerda, Δ -quvur yoki kanallarning g'adir-budurligi mm. Masalan, po'lat venilatsion quvurlarda $\Delta = 0,1$ g'isht devorli havo haydagich quvurlarda $\Delta = 4$ mm, Δ ni qiymatini maxsus spravochniklardan foydalanish mumkin.

Mahalliy qarshilik koefitsentini ζ_m spravochniklardan olinadi (bular quvurga kirishda burilishda trayniklar va x.k).

Tabiiy tortishdagi tizimlarni hisoblash.


Binolarni sovutish va isitishda qozonlar ishlatilini undan chiqishdagi tutun tabiiy holda quvurlar yordamida haydaladi. Bu quvurlarda keltirilgan to'liq bosim ichida va tashqarida va uzunlik bo'yicha yo'qotilgan ΔP_l (Pa) kattalikda aniqlanadi.

$$\Delta P_l = gh(\rho_{tashqi} - \rho_{ichki}), ; \quad (5.3.7)$$

bu yerda, h -tutun haydash quvur yoki shamollatish shaxtasining uzunligi; ρ_{tashqi} -tashqi sovuq havo zichligi; ρ_{ichki} - ichki issiq havo zichligi, (5.3.8) formula yordamida aniqlanadi.

Misol tariqasida o'choqning hisobini keltiramiz. Uchoqda yoqilg'i yonganda tutun issiq xolatda quvur orqali yuqoriga ko'tariladi.

Issiq havo o'choq ichida t_{ichki}^0 va tashqarida t_{tashqi}^0 haroratga ega. Albatta harorat o'zgarishi natijasida havoni zichligi ham ρ_{ichki} va ρ_{tashqi} o'zgaradi. Tezlikning miqdori $\mathcal{G}$ kichik bo'lgani uchun tarmoqda dinamik bosim $P_{din} = \rho \mathcal{G}^2 / 2$ formulada hisobga olinmaydi.



Gaz uchun Bernulli tenglamasini (5.3.8) keltirilgan to'liq bosimlarni A va V nuqtalardagi (5.3.1-rasmda) qiymatlari orqali tabiiy holdagi tutun tarqalishini hisoblash formulasi (5.3.7) ga qo'yib ΔP_l ni aniqlaymiz.

5.3.1-Rasm. Tutun quvurining sxemasi.

Keyingi qadamda umumiy ΔP_{yqot} yo'qotilgan bosim qiymatini ΔP_l bilan taqqoslaymiz. Agar (5.3.7) tenglik bajarilsa u holda hisoblash tugatilgan bo'ladi. Demak, tutun haydash tizimi me'yorida ishlayotganligini bildiradi va tutun yoqiladi.

Agar (5.3.7) tenglik bajarilmasa u holda tutun haydash tizimi konstruksiyasini yoki yo‘qolgan bosimni o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Masalan, tutun tartibli ketishini ikki xil usulda yaxshilash mumkin.

-quvurni tepaga ko‘tarish;

-o‘choq ichidagi va tashqaridagi harorat o‘zgarishi (bu hol hamma vaqt ham mumkin bo‘lavermaydi).

Yo‘qotilgan bosim yo‘llari:

-quvurni ko‘ndalang kesimini o‘zgartirish;

-olib ketilayotgan gaz yo‘lini kamaytirish;

-g‘adir-budirni kamaytirish.

Binolardagi ifloslangan havoni har doim tozalashda yoki shamollatishda ham yuqoridagi hisoblash ishlari qo‘llaniladi.

5.4. BOSIM AYIRMASI VA YO‘QOTILGAN BOSIM

Gaz harakatida keltirilgan to‘liq bosimlar ayirmasi ya‘ni $\Delta P_{yqot} = P_{qul.tul \cdot 1} - P_{qul.tul \cdot 2}$ da ifodalanib katta bosimdan $P_{qul.tul \cdot 1}$, kichik bosim $P_{qul.tul \cdot 2}$ tomonga harakat qiladi.

Masalan, binoni shamollatsak tabiiy holda shunday hollar mavjud.

ΔP_{yqot} -yo‘qotilgan bosim gaz oqimi harakatida yo‘qolgan to‘liq energiyani ifodalaydi. Masalan, havo haydash quvuri qancha uzun ko‘ndalang kesimi kichik devorlari g‘adir-budir bo‘lsa yo‘qolgan bosim ΔP_{yqot} katta bo‘lib boradi. Natijada bino havosi tozalanishi yomonlashib boradi.

Barqaror harakatdagi gazlarda bosimlar ayirmasi son jixatdan $\Delta P = \Delta P_{yqot}$ ga teng.

Shunday qilib *bosimlar ayirmasi* gaz harakati uchun sabab bo‘lib *yo‘qolgan bosim* esa harakat vaqtidagi natijadir. XUB sistemasida ular paskallar (Pa) da o‘lchaniladi.

Tabiiy sirkulatsiya holatidagi tizimning hisobi:

Binolarni isitishdagi tabiiy sirkulyatsiyaga asoslangan tizimning bir ko‘rinishi berilgan 5.4.1-rasmda. Strelkalar bilan suvning aylanishi ko‘rsatilgan. *Shu bilan birga suv aylanadi.*


Suv isitgich qozonlarida suv harorati o‘zgarib qaynoq holda bo‘lganda uni zichligi ρ_{issiq} - bo‘lib sovuq suvga nisbatan ρ_{sovuq} -qum qiymatga ega bo‘ladi. Hisoblash ishlarini bajarishda qozonning o‘rta qismidagi harorat va radiator sovutgich qismidagi haroratlar e‘tiborga olinadi bu holda tabiiy bosim ΔP_l hosil bo‘ladi.

-bu qozon va radiator oralig‘idagi keltirilgan to‘liq bosimlar farqi tushuniladi (Pa) . Shu kattalik suvni yopiq tizimida aylanadi.

–bu tabiiy sirkulyasiya deyiladi. ΔP_l qiymatini oldin yozganimizdek gaz uchun yozilgan Bernulli tenglamasidan aniqlanadi:

$$\Delta P_l = \gamma h (\rho_{sovuq} - \rho_{issiq}), \quad (5.4.1)$$

bu yerda, h -isitgich markazidan sovutgich orasidagi balandlik (5.4.1-rasmga qarang).



5.4.1-rasm. Tabiiy sirkulyatsion suv isitish sxemasi. 1-Suv isitgich qozoni; radiator; 3-kengaytirilgan idish; 4-suv quvuri tizimi.

ΔP_l hisobdan keyin umumiy yo‘qotilgan bosim hisoblanadi.

Bu yo‘qotilgan bosim ΔP_{yqot} 5.4.1-rasmda V dan A gacha harakatdagi sirkulyatsiya vaqtidagi yo‘qolgan bosim.

Agar (5.4.1) tenglik bajarilsa u holda hisoblash tugatilgan bo‘ladi va tizim binoni me‘yorida isitishni ta‘minlaydi. Agar tenglik (5.4.1) bajarilmasa u holda tabiiy bosimni yoki ΔP_{yqot} moslashtirish kerak.


5.5. ARXITEKTURA – QURILISH AERODINAMIKASI

Bino qurilishlarida albatta shamol bilan bo‘ladigan muammolar binoga qo‘shimcha kuchlanishlarni keltirib chiqaradi. Shamol-havo oqimi binonga oqib o‘tishi natijasida binodagi qurilish mexanizmlariga (kran v.b) ta‘sir etib ag‘darib tashlashi mumkin.

Shamol vaqtida uylarning tepa qismida va atroflarida bosim oshishi va kamayishi mumkin. Natijada binodagi qurilish mexanizmlarni, kranlarni ag‘darib tashlaydi. Bosimlar farqi natijasida uylarning hamma tomonlaridan noxush holatlar mavjud bo‘ladi. Bunday xolatni aerodinamikasini bilish maqsadga muvofiq. Binoni atrofini havo yordamida oqib o‘tishida tok chiziqlari yo‘nalishlari keskin o‘zgaradi. Binoga qarshi shamol uning orqa tomonida uyurmalar hosil qiladi. Uyurmalar hosil qilishda bosim pasayib ketadi (5.5.1-rasm).

Bino oldi tomonida shamol yo‘nalishi ta‘siri tomonida bosim kattalashadi. Shamol bosimi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$p_{shamol} = k_{shamol} C_{aerod} p_{din} = k_{shamol} C_{aerod} \frac{\rho g^2}{2} ; \quad (5.5.1)$$




5.5.1-rasm. Havo oqimining binoda aylanishi

bu yerda, k_{shamol} -shamol bosimini balandlik bo'yicha o'zgarish koeffitsenti;
 C_{aerod} –aerodinamik koeffitsent; (ismsiz son) $\rho_{din} = \rho g^2 / 2$ dinamik bosim; (Pa);
 $\rho \approx 1,22 \text{ kg/m}^3$ -havo zichligi, qurilish hisoblarida e'tiborga olinadi. g -shamol
tezligi m/s. Koeffitsent k_{shamol} yer yuzidan balandlikka ko'tarilishda uning qiymati
0,4 da 1,5 gacha o'zgaradi. Boshlang'ich holda $k_{shamol} \approx 1$ deb qabul qilinadi.

Aerodinamik koeffitsenti C_{aerod} umumiy holda binoning tuzilishiga va jismni
Reynol'ds soniga bog'liq. Bu koeffitsent jism formulasiga konstruksiyasiga keskin
bog'liq. Ko'rilayotgan jismni havoda oqishida o'sha jism uchun o'zgarmas son
bo'ladi.

Aerodinamik koeffitsent C_{aerod} son qiymati bo'yicha 1 va 0 orasida o'zgaradi
(absolyut qiymati bo'yicha).

Masalan, shamol esayotgan tomondan uning devorida $C_{aerod} = +0,8$, teskari
tomonida $C_{aerod} = +0,6$, (5.5.1-rasmda).



5.5.2-Rasm. Oyning erkin tepa sirtidagi shamol epyurasi

Bu bilan *minus* belgi ishora shamolning binodan uzilishidagi bosim bilan
bog'liq. Bu yerda, *plyus* belgi ishora bosim bino devoriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir
etayotganini ko'rsatadi. Binoga berilayotgan shamolni p_{shamol} ni bino devorlari
bo'yicha tarqalish ko'rinishini ko'rish uchun bosim epyurasi tuziladi (5.5.2-rasmga
qarang). Uning ordinatasini qiymatini aniqlashda (5.5.1) formula orqali shamol
bosimini aniqlaymiz.

Odatda P_{din} dinamik bosim bino qurilayotgan joydagi oldin ma'lum bo'lgan normativ hujjatlar asosida shamol tezligi $\mathcal{G}$ meteorologlarning ma'lumotlariga asoslangan bo'ladi. Real xolatda shamol bosimi P_{shamol} epyurasi egri chiziqli ko'rinishga ega. Lekin qurilish ishlarida hisoblash odatda bosim epyurasi to'g'ri burchakli epyura deb qabul qilinadi (5.5.2- rasm).


5.6. GIDRAVLIK ZARBA

Ko'pincha suv o'tkazgich quvurlarida katta napor ostida suyuqlik harakat qilsa, jo'mraklarni birdan yopilishida, nasoslarni harakatga keltirishda va uni to'xtatish vaqtida suyuqlik harakati beqaror harakatga aylanadi. Birdan harakatni tormozlanishi yoki tezlanish oshishida quvurda tebranma harakatni vujudga keltiradi. Bunday harakat gidravlik zarba deyiladi. Nazariy mexanikada, zarba hodisasida shunday ta'rif beriladi: jismga kichik vaqt ichida katta kuch ta'sir etadi.

Suyuqliklarda u kuch amplitudasi katta bo'lgan tebranuvchi bosim kuchi bo'lib, me'yoriy bosimga nisbatan o'n, xattoki yuz barobar katta qiymatga ega bo'ladi. Natijada quvurning bo'shroq yoki mustahkamligi kamroq joyini yorib yuborishi mumkin.

Hisoblash uchun bog'lanishlar va zarba hodisasini o'rganishdagi gidravlik parametrlar. Gidravlik zarba vaqtida Eyler tenglamasidagi lokal tezlanish $d\mathcal{G}/dt$ juda katta qiymatga ega bo'lib, inertsia kuchi ham katta qiymatga ega bo'ladi. Shu inertsia kuchi ta'siridagi suyuqlikdagi dinamik bosim kattalashib, suyuqlik zichligini hamda siqilmaslik xususiyatini ham o'zgartirib yuboradi. Misol tariqasida oddiy holda quvurda harakatlanayotgan suyuqlikda sodir bo'ladigan zarba hodisasini ko'rib chiqamiz. (5.6.1-rasm).

Jo'mrak-1 ochiq turganda suyuqlik ma'lum napor- $\hat{I}$ da $\mathcal{G}$ o'rtacha tezlikda oqib 1-1 kesimda o'zining oldingi holatini to'liq saqlab jo'mrak oldida pi ishchi bosim harakatda bo'ladi. Yopilish vaqti t yo'q > 0 bo'lganda suyuqlik harakati II holatni oladi.



5.6.1- rasm

Jo'mrakni yopilgandan keyingi holati (rasmni chap tamoni) da suyuqlik qatlami to'siqqa urilish natijasida shu joyda tezlik nol qiymatgacha tushadi. Ma'lum Δt vaqtdan keyin suyuqlik orqa tamonga qaytib ΔS masofani o'tadi. Bu vaqtda chap tamondagi 1-2 bo'lakda (2-2 kesimda) me'yoriy holat ro'y berib turaveradi: ya'ni o'rtacha tezlik v va bosim $p_2 = p_1$ ishchi bosimni saqlab turadi, 1-1 kesimda esa $\mathcal{G} = 0$, bosim esa zarba natijasida inertsia kuchi oshishi hisobiga ishchi bosimga nisbatan zarba vaqtidagi P_3 bosim miqdoricha oshadi:

$$p_1 = p_2 + p_3. \quad (5.6.1)$$

Ko'pincha P_3 o'n megopaskalgacha ko'tariladi. Oshib ketgan bosim natijasida quvurning 1-2 bo'lagida suyuqlik deformatsiyalanib, quvur devoriga ham ta'sir etadi. Quvur katta qiymatdagi siqilishga ega bo'lib, 2-2 kesim 21 – 21 holatni egallaydi. Quvur diametri kattalashadi (rasmda u shtrix bilan ko'rsatilgan). Quvurni mustahkamligi hisobiga quvur ko'ndalang kesimi - ω va qaralayotgan bo'lakdagi - ΔS ni o'zgarmas deb harakat miqdor tenglamasini X o'qidagi proektsiyasini quyidagicha yozamiz:

$$\rho \omega \Delta S \cdot \mathcal{G} = (p_1 - p_2) \omega \cdot \Delta t \quad (5.6.2)$$

$$\rho \mathcal{G} \Delta S = p_3 \Delta t \quad (5.6.3)$$

Ushbu tenglamadan zarba vaqtidagi bosimni aniqlaymiz:

$$\rho g \frac{\Delta S}{\Delta t} \rho g \cdot a \quad (5.6.4)$$

$a = \frac{\Delta S}{\Delta t}$ - quvur bo'ylab zarba natijasida hosil bo'lgan tezlik taqsimotini ko'rsatadi va zarba to'liqini tezligini ifodalaydi. Ushbu tezlik muhitdagi tovush tezligini ko'rsatadi. Cheksiz fazoda tovush tezligi quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$a' = \sqrt{\frac{E}{\rho}} \quad ; \quad (5.6.5)$$

bu yerda, E – elastiklik moduli;

ρ – zichlik (suvda tovush tarqalish tezligi 1435 m/s).

Birinchi marta gidravlik zarba masalasini hal qilgan inson rus olimi N.E. Jukovskiy bo'lgan. U zarba to'liqinini tarqalish tezligi quyidagi formula yordamida ifodalaydi:

$$a = \frac{1}{\sqrt{\rho \left[\frac{2r_0}{E_m \delta} + \frac{1}{E} \right]}} \quad ; \quad (5.6.6)$$

bu yerda, r_0 va δ - quvur devorining ichki radiusi va quvur qalinligi; E_m va E – elastiklik modullari bo'lib, tegishlicha quvur materiali va suyuqlik uchun (5.6.4) formula tovush tezligi bilan quyidagi ifoda bilan bog'langan.

$$a = \frac{a'}{\sqrt{1 + 2r_0 E / E_m \cdot \delta}} \quad ; \quad (4.6.7)$$


(5.6.5) formulani chuqurroq talqin qilsak, zarba to'liqini tarqalishida inertsia kuchini roli gidravlik zarba hodisasida juda katta ekanligini ko'ramiz: gidravlik

zarba bosimi suyuqlikning zichligi, tezligi va shu suyuqlikda to‘lqin tarqalish tezligiga proporsional bo‘lib, uning ko‘paytmasiga teng.

Agar suyuqlikda to‘lqin tarqalish tezligini aniqlasak, tezlikni Pito quvurchasi yoki mikrovertushka (mikroprildok) yordamida aniqlab, zichlikni tegishli suyuqlik uchun jadvallardan foydalansak (5.6.5) formula yordamida zarba bosimini topa olamiz. Shuni eslatib o‘tamizki a – zarba to‘lqinining tarqalish tezligi (5.6.3) formulaga asosan tovush tezligi hamda quvurning elastiklik xususiyatlariga bog‘liq ekanligini unutmaslik kerak. Tovush tezligi: suv uchun 1435 m/s; benzinda 1116 m/s; yog‘lar uchun o‘rtacha 1400 m/s deb olinadi.

Agar to‘lqin oqimga qarshi harakatda bo‘lib, quvur uzunligi bo‘yicha bosimni oshishi bilan kuzatilsa, bunday to‘lqinni to‘g‘ri zarbaga aytiladi.

Quvurga suyuqlik xavzadan kirish qismida bosim harf $p = \gamma H$ bilan berilgan. Zarba hodisasi vaqtida esa quvurning boshlang‘ich kesimida to‘g‘ri to‘lqin yetarli miqdorda katta bo‘ladi. Ko‘rilayotgan vaqtda tinch xolat beqaror bo‘ladi, bu xolatda jo‘mrak yopilgan vaqtda bosim farqi to‘siq oldida kattalashib oldindagi to‘lqinga qarshilik qila olmay kichikroq miqdorda yana orqaga qaytadi.



5.6.2- a, b-rasmlar

Zarbada hosil bo‘lgan P_3 bosim quvurdagi suyuqlikni elastik kuchi bilan siqadi va quvur devorlarini kengaytirishga harakat qilib, boshqacha, teskari to‘lqin hosil qiladi va bosimni kamaytiradi. Nazariy jihatdan bosimni kamayishi zarba bosimiga miqdor jihatdan teng bo‘lib, teskari ishoraga ega bo‘ladi (5.6.2-a, b-rasmlar).

To'g'ri va teskari to'liqlarning l uzunlikdagi o'tish vaqti $t = l/a$ ga teng. Bosim jo'mrak oldidagi kattalashuvi davomiyligi gidravlik zarbaning fazasini ifodalaydi va u quyidagiga teng:

$$t_f = \frac{2l}{a} \quad (5.6.8)$$

Jo'mrak oldida hosil bo'lgan zarba bosimi 3 oldingi vaqtda katta bo'lib, uni qaytishida vaqt o'tishi bilan ishqalanish, suyuqlikning deformatsiyalanishi va quvurning kengayishiga ta'siri natijasida to'liq kamayib boradi (5.6.2-b-rasmda) va vaqt o'tishi bilan u kamayib boradi. Zarbadan saqlanish uchun jo'mrakni yopish vaqtini uzaytirish kerak, ya'ni $t_{ypiq} > t_f$, bu holda maksimal bosim, to'liq bo'lmagan zarba uchun quyidagicha yoziladi:

$$P_{t.bos} = P_3 \frac{t_f}{t_{ypiq}} \quad (5.6.9)$$

bu yerda, t_f – gidravlik zarbaning fazasi;

t_{ypiq} – jo'mrakni yopish vaqti;

P_3 – gidravlik zarba bosimi. N.E. Jukovskiy formulasi bilan aniqlanadi.

Gidravlik zarba hodisasi quvurlar majmuasini me'yoriy ishlatilinishiga katta zarar keltiradi. Quvurlarni biror yerini yorib yuborishi ham mumkin. Gidravlik zarbani quyidagi usullar bilan zarba bosimini so'ndirish mumkin.

Birinchi usul – jo'mrakni ochilish va yopilish vaqtini uzaytirish, ya'ni $t > \frac{2l}{a}$

ga yetkazish bilan to'g'ri zarbani yo'qotish va P_3 ni kamaytirish.


Ikkinchi usul – quvurlarga gidravlik zarbani kamaytiruvchi so'ndirgichlar qo'yilish yo'lidir. So'ndirgichlar quvurdagi suyuqlikka nisbatan yuqori siqiluvchanlik xususiyatiga ega elastik elementli idishlardan iborat bo'lib, ularning tuzilishlari quvurdagi suyuqlikni turiga qarab ko'rinishlari har xil bo'ladi.

Ulardan ko'p tarqalgani elastik element, temir prujina yoki gaz bo'lgan porshenli, membranali va klapanli so'ndirgichlardir.

Uchunchi usul – gidravlik zarba paydo qiladigan quvurlarni uzunligini oshirish. Bu usulda qarshilik kuchining kattalashuvi hisobiga energiya kamayishi va zarba to‘lqini davrining ortishi natijasida to‘g‘ri zarbani yo‘qotish yo‘li bilan zarba to‘lqinini ta‘sirini so‘ndiradi.

Hayotda ba‘zi hollarda qo‘shimcha zarba hosil qiluvchi jo‘mraklar yordamida suv ko‘targichlar yasab foydalanish mumkin. Bunday suv ko‘targich qurilmalarini, gidravlik tarang deb yuritiladi. Bunday taranglarning effektini oshirish maqsadida professor Xamidov Axmadjon tamonidan yangi nazariyalar yaratilib, gidravlik parametrlarning ekstremal qiymatlari topilgan.

Gidravlik zarba naporli quvurlardagi bosimni impuls ravishda o‘zgargandagi hodisaga aytiladi. Masalan, agar ichimlik suvi quvurning jo‘mragini keskin berkitilsa, bu holda $\mathcal{G}$ tezlik bilan harakatlanayotgan suv keskin to‘xtashga majbur bo‘ladi (5.6.3-rasm).



5.6.3-rasm. Gidravlik zarba

Harakatdagi suvga inertsia kuchi ta‘hiri natijasida jo‘mrak oldida zarbali oqimcha ΔP miqdordagi bosim hosil bo‘ladi.

Quvur ichida keskin ravishda tovush tezligida $\mathcal{G}_{tov}$ miqdordagi harakat hosil bo‘lib, quvurlarni avariya holatiga olib kelishi mumkin.

ΔP (Πa) miqdordagi gidravlik zarba vaqtidagi bosimni quyidagi N.E.Jukoviskiy formulasi yordamida aniqlanadi.

$$\Delta P = \rho \cdot \mathcal{G}_{urt} \cdot \mathcal{G}_{tov} , \quad (5.6.10)$$

bu yerda, ρ - suyuqlik zichligi, $\frac{kg}{m^3}$; $\mathcal{G} \approx 1000 \frac{m}{s}$.

Binolarga o‘rnatilgan quvurlarni gidravlik zarbaga uchrashidagi hodisani naqadar xavfli ekanligini quyidagi misolda keltirish mumkin.

O'rtacha tezlikda, ya'ni $\mathcal{G} = 1 \frac{m}{s}$ da oqayotgan suvda quvur jo'mragini keskin berkitilsa (5.6.1-rasmga qarang), bu holda bosim katta qiymatga ega bo'ladi va avariya holati bo'lishi mumkin.

$$\Delta P = 1000 \cdot 1 \cdot 1000 = 1000000 \text{ Pa} = 10^6 \text{ Pa} = 100 \text{ m} = 10 \text{ at}$$

chunki mumkin bo'lgan bosim $0.45 \cdot 10^6 \text{ Pa}$ dan oshmasligi mumkin. Shuning uchun ham vodoprivod jo'mraklari gidravlik zarba hosil qilmasligi uchun ularni sekin asta yopiladigan qilib ishlangan bo'ladi.

5.7. AERODINAMIKA (GAZ MEXANIKASI)

Aerodinamika suyuqlik va gaz mexanikasining bir bo'limi bo'lib gazlarning muvozanat va harakat qonunlarini o'rganadi.

Ko'pincha amaliyotda aerodinamik hisoblash ishlarida asosan havo muvozanati hamda harakatiga asoslanadi. Ushbu kitobda asosan havo asosiy gaz deb olingan.

Ko'pincha gidravlik qarashlarda ham gazlar asosan siqilmaydigan suyuqlik deb qaraladi. Shuning uchun ham aerodinamikada gidravlika qonuniyatlariga amal qilinadi.

Aerodinamika, bu yerda asosan binolarning gaz taminotiga ta'siri, mikrojarayonlarda shamollatish holatda xonalarga kirib borishini hisoblashda ishlatilgan.

Gazlarning fizik xususiyatlari: Zichlik - ρ , solishtirma og'irlik - γ , dinamik qovushqoqlik - μ va kinematik qovushqoqlik - ν lar suyuqlik holati, uchun ham birdek ta'rifga ega bo'ladi.

Zichlik: Gaz zichligi ρ (kg/m^3) bosim va harakatga (temperaturaga) bog'liqligi Mendeleev Klayperon formulasi yordamida aniqlanadi:

$$\rho = \frac{P_{c6}}{R_2 T}, \quad ; \quad (5.7.1)$$

bu yerda, $P_{s,b}$ - gazdagi statik bosim, Pa (gidrostatikadagi kabi);
 R_g - gaz o'zgarmas kattaligi, $\text{Дж}/(\text{кг} \cdot \text{K})$, T - absolyut harorat Kelvin gradusida,
 gaz uchun (K) Selsiy ($^{\circ}\text{C}$) gradusi orqali (t^0) quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$T = t^0 + 273 \quad (5.7.2)$$

Masalan, havo zichligi $t^0 = +20^{\circ}\text{N}$ da atmosfera bosim gaz doimiysi
 $R_g = 287 \text{ Дж}/(\text{кг} \cdot \text{K})$ da (55) formula yordamida

$$\rho = 101325 / (287(20 + 273)) = 1,2 \text{ кг} / \text{м}^3$$

Qurilishlarda, binolarda havo almashinuvida havo zichligi izobarik jarayonida
 (ya'ni bosim $p_{cm} = p_{amm} = 101325 \text{ Pa}$ o'zgarmas) holat hisoblanadi. Zichlik
 havo uchun faqat harakatga (temperaturaga) bog'liq bo'lishi e'tiborga olinadi.

Solishtirma og'irlik.

Solishtirma og'irlik γ ($\text{Н} / \text{м}^3$) gazlar uchun quyidagi formula yordamida
 aniqlanadi:

$$\gamma = \rho \cdot g \quad (5.7.3)$$

Qovushqoqlik.

Dinamik qovushqoqlik ko'pincha eksperimentdan olingan quyidagi formula
 yordamida aniqlanadi:

$$\mu = 1,745 \cdot 10^{-5} + 5,03 \cdot 10^{-8} t^0 ; \quad (5.7.4)$$

bu yerda, t^0 - harakat $^{\circ}\text{C}$. Masalan, $t^0 = 20^{\circ}\text{C}$ da dinamik qovushqoqlik
 koeffitsenti

$\mu = 1,85 \cdot 10^{-5} \text{ Па} \cdot \text{с}$ va kinematik qovushqoqlik koeffitsenti

$$\nu = \mu / \rho = 1,85 \cdot 10^{-5} / 1,2 = 1,54 \cdot 10^{-5} \text{ м}^2 / \text{с}.$$

Shuni eʻtiborga olish lozimki gazlarda harakatning oshishi bilan qovushqoqlik ham oshadi (va teskarisi harakat pasayishi bilan uning qiymati ham kamayadi). Suyuqliklarda esa bunday holni aksi boʻlib harakat oshishi bilan qovushqoqlik qiymati kamayadi va harakat kamayishi bilan qovushqoqlik koeffitsenti qiymati oʻzgaradi.


Gaz statikasi.

Gaz statistikasi- bu aerodinamika (gaz mexanikasining) boʻlimidan biri boʻlib, gazning muvozanati va bosim tarqalishini qonuniyatlarini oʻrganadi.

Statik bosim.

Statik bosim p_{cm} (Pa) tinch holatdagi gazga taʻsir etayotgan tashqi bosim p_0 yoki gorizontal sathga (masalan, barometr yordamida oʻlchangan atmosfera bosim) va gazning ogʻirlik bosimi (ogʻirlik bosim) yigʻindisidan iborat boʻladi (5.7.1-rasm).

Bu yerda, h -statik bosimi oʻlchanayotgan nuqtagacha boʻlgan gaz qatlami balandligi. Bu yerda ham xuddi gidrostatikadek gaz bosimi ham gaz qatlami chuqurligiga proportsional ravishda oʻzgaradi u qonun ham toʻgʻri chiziqli qonuniyatga boʻysunadi.




5.7.1-rasm. Statik bosimini aniqlash sxemasi.

$$p_{cm} = p_0 + \gamma h = p_0 + \rho g h, \quad (5.7.5)$$

Gaz bosimini oʻlchashda quyidagi asboblardan foydalaniladi:

- Barometrlar (atmosfera bosimini oʻlchaydi);
- Manometrlar (ortiqcha bosimni oʻlchaydi);
- Vakuummeterlar (vakuum bosimini oʻlchaydi).

XUB da gazlar bosimini paskallarda oʻlchaniladi.



$$\left(Pa = \frac{N}{m^2} \right) \text{ u suv ustini va}$$

kgk / sm² larda qo'yidagicha ifodalanadi:

$$1 Pa = 0,1 \text{ mm suv. us.} = 10^{-5} \text{ kgk / sm}^2.$$

5.7.2-rasm. P_{st} O'lchosh sxemasi. 1-Idish; 2-barometr; 3-manometr yoki vakuummetr

Atmosfera statik bosim P_{st} va P_{atm} teng bo'lib barometrlar bilan o'lchanadi.

Boshqa qatlamlar uchun ρgh qo'shimcha qo'shiladi yoki ayriladi. Masalan, $t^0 = + 20^0 C$ atmosferada har bir sakkiz metr balandlikda taxminan 100 Pa kamayadi bu holni (5.7.5) formula yordamida P_{st} aniqlanadi. P_{st} bosimni havzalarda (5.7.2-rasm)da) ikki hol mavjud:

1. Agar ikki bosim atmosfera bosimdan katta bo'lganda ($P_{st} > P_{atm}$), barometrlar va manometrlar ishlatiladi

$$P_{st} = P_{atm} + P_{man}, \quad (5.7.6)$$

bu yerda, P_{man} , manometrik bosim (ortiqcha)

2. Ichki bosim atmosfera bosimidan kichik bo'lsa ($P_{st} < P_{atm}$), u holda barometr va vakuummetrlar ishlatiladi u holda

$$P_{st} = P_{atm} + P_{vak}, \quad (5.7.7)$$

bu yerda, P_{vak} , vakuummetrik bosim.


5.8. BOSIM EPYURASI

Gazni o'rab turuvchi quvur gaz balon, gaz saqlagich yopiq rezervuarlarni mustahkamlikka hisob-kitob qilishlarda sirtqi tomonlarga bosim epyurasi quriladi:

-ortiqcha $P_{man} = P_{st} - P_{atm}$, (5.8.1. a- rasmda);

-vakuummetrik $P_{vak} = P_{atm} - P_{st}$, (5.8.1. b -rasmda).

Bosim epyurasi 5.8.1-rasmda rezervuarning balandlik bo'yicha o'lchami hisobga olinmagan, shuning uchun ham vertikal devorda ular to'g'ri burchakli suyuqlikdagidek uchburchakli emas (5.8.1. a- rasmga qarang). Bunday holatlar uncha balandlikka ega bo'lmagan hamda solishtirma og'irligi katta qiymatga ega bo'lmagan gazlar uchun mumkin bo'ladi.



5.8.1-rasm. Bosimning erkin sirt epyurasi: a- b-sirtning o'lchami.

Aslida bosim epyurasi gaz saqlash idishlarinig konstruksiyalarini mustahkamligini hisoblash uchun ma'lumot beradi u materiallar qarshiligi va qurilish mexanikasida keltirilgan usullar yordamida aniqlanadi.

$$a). P_{st} > P_{otm}; b). P_{st} < P_{atm}.$$

Yupqa devorning sirtidagi suyuqlik va gaz bosimi 5.8.2-rasmda. $P_{01} > P_{02}$

$$F_1 = \frac{1}{2} \rho g H^2 h \quad (5.8.1)$$


$$F_3 = (P_{01} - P_{02}) bL;$$

$$F_2 = \rho g H \cdot H_2 h;$$


$$F = F_1 + F_2 + F_3.$$

Suyuqlik va gaz bosimining epyurasi.

Suyuqlik va gaz bosimining epyurasi – bosimni qattiq yuzaga taʼsirini grafik asosida koʻrsatilishi. Epyuraning tekis hamda egri sirtlarga boʻlgan bosimi grafiklari 5.8.2 va 5.8.3- rasmlarda misol tariqasida koʻrsatilgan.



5.8.2-rasm. Yassi devoridagi suyuqlik ustini bosimining chizmasi.



5.8.3-rasm. Egri devoridagi suyuqlik ustini bosimining yoysimon chizigʻi epyurasi chizmasi.

Epyuradagi strelka (yoʻnalishi) bosimni tegishli sirtlardagi (aniqrogʻi bosim orqali sirtga berilayotgan normal kuchlanishni ifodalovchi skolyar miqdordir. Yoʻnalishlarni masshtab orqali koʻrib chiqilganda u bosim miqdorini kattaligini ifodalaydi.

Bosim epyuralari, suyuqlik bilan devorlar orasidagi mustahkamligini, Konstruktsiyasini hisoblashda xizmat qiladi. Masalan, suzish havzalari, suyuqlik bilan toʻlatilgan idishlar, sisternalarni mustahkamligini hisoblash uchun poydevordir.

Hisob kitob ishlarini materiallar qarshiligi qurilish mexanikasi qoidalari asosida olib boriladi. Koʻpchilik hollarda hisoblash ishlarida asosan ortiqcha bosim P_{art}

e'tiborga olinadi. To'liq bosimi esa e'tiborga olinmaydi, chunki idishlar va suyuqlik atmosfera bosim bilan o'ralgan.

Tekis va egri sirtlarda hosil bo'ladigan bosim epyuralarini ko'rishda chiziqli bog'lanishdagi manometrik bosim $P_{man} = \gamma h$ formula orqali hisoblash ishlari bajariladi. Bu hodisa gidrostatik bosim haqidagi 1-xususiyatni ifodalaydi (yuqoridagi statika bo'limi-sahifani ko'ring).

Ammo gazlar uchun haroratga ρ ni bog'liq holatda zichligini o'zgarishiga qarab napor haqida yuqoridagidek tushuncha qilib bo'lmaydi.

Shuning uchun ham gazlarda energetik tomondan solishtirishda keltirilgan statik bosim tushunchasi kiritiladi

$$P_{kel.st} = \rho g z + P_{st} \quad (5.8.2)$$

VI-BOB. GAZ FILTIRATSIYASI

6.1. GAZLARDAGI FILTIRATSIYASIYA QONUNLARI

Gaz filtratsiyasi ya'ni gazni g'ovak muhitdagi harakati qurilish ob'ektlarida alohida ahamiyatga ega bo'lib, devor va suvoq ishlarida gaz filtratsiyasi hisobga olinadi.

Qish kunlari devor tirqishlaridan g'ovak muhitlaridan deraza oynalardan havo o'tib bino ichini sovutib yuboradi, ya'ni shamol (havo) filtratsiyasi hosil bo'ladi. Shuning uchun binolarga pardozi berishda ma'lum qurilish normalari belgilangan bo'ladi.

Gazning devor g'ovaklaridan bo'layotgan filtratsion tezlik Darsi qonuniyati asosida hisoblanadi.

$$g_{fil} = \frac{k_0}{\mu} \cdot \frac{\Delta p_{kel}}{l}, \quad (6.1)$$

bu yerda, k_0 -g'ovak muhit o'tkazuvchanligi, m^2 ; μ -gazning dinamik qovushqoqligi, $(Pa \cdot s)$; Δp_{kel} - keltirgan to'liq bosimning farqi (gazni harakatlantiruvchi bosim) (Pa) ;

l -filtratsiya yo'li m.

Darsi qonuni texnikaning barcha sohalarida ishlatilib kelinadi. Masalan, gaz quduqlarini to'g'irlash ishlarida gazni filtratsion oqimini hisoblashda (6.1.1) formula ishlatiladi. Shuni e'tiborga olish kerakki bu formula laminar rejimida filtratsion oqimini hisoblash uchun to'g'ridir. Qurilish ishlarini havoni filtirlash qonuni laminar hamda turbulent rejimlarda filtratsiya qonuni boshqacha ko'rinish oladi.

$$g_{fil} = \left(\frac{\Delta p_{kel}}{\rho R_{qar}} \right)^n, \quad (6.2)$$

bu yerda, ρ -gaz (havo) zichligi, kg/m^3 ; R_{qar} -qurilish materialini havo o'tkazish qarshiligi, $m^2 \cdot soat \cdot Pa/kg$.

(Qurilish ishlarida material qalinligiga δ bog'liq bo'ladi); $n=1$ devor va suvoq uchun (laminar filtratsion rejim); $n=2/3$ -deraza va balkon eshiklarida (turbulent rejim). (6.2.) formula bilan hisoblashda barcha parametrlar XUB sistemasida olingan bo'lishi kerak.

Shunday qilib (6.1) va (6.2) formulalar bilan filtratsion gaz (havo) oqimini $Q = \mathcal{G}_{fil} \omega$, yordamida hajmiy sarfi aniqlanadi. Olingan material qalinligi l yoki δ maydon yuzasi ω . Og'irlik bo'yicha filtratsion sarf uchun u formulaga gazning solishtirma og'irligi γ ga ko'paytiriladi.

6.2. FILTRATSIYA NAZARIYASI TO'G'RISIDA ASOSIY

TUSHUNCHALAR VA FILTIRATSIYA HISOBI

Filtratsiya deb, suyuqlik, gaz va ular aralashmalarining g'ovakda va yoriqsimon muhitlardagi harakatiga aytiladi. Yoriqsimon muhit bu o'zaro g'ovak va mikroyoriqlar orqali tutashgan qattiq jinslardan iborat. Filtratsiya suyuqlik juda kichik tezliklarida nihoyatda kichik g'ovak kanalchalar ko'ndalang kesimi bo'yicha sodir bo'ladi. G'ovak muhit g'ovaklilik va yorig'liklar koeffitsientlari bilan xarakterlanadi.

$V_{g'ov}$ g'ovak hajmning V butun g'ovak muhit hajmiga nisbatiga

m g'ovaklik koeffitsienti deb ataladi.

$$m = \frac{V_{g'ov}}{V} \quad (6.2.1)$$

Berilgan qirqimdagi $\omega_{g'ov}$ kesim g'ovak yuzalarining shu kesim butun yuzalari nisbatiga n nisbiy g'ovak yuza koeffitsienti deyiladi.

$$n = \frac{\omega_{g'ov}}{\omega} \quad (6.2.2)$$

Qatlam uzunligi bo'yicha nisbiy g'ovak yuza qiymati g'ovaklikka teng ekanligini ko'rsatish mumkin, ya'ni

$$\tilde{n} = \frac{1}{l} \int_0^l n(x) dx = m \quad (6.2.3)$$


shuning uchun nisbiy g'ovak yuzalarining o'rta qiymatlari

$$\tilde{\omega}_{g'ov} = \tilde{n}\omega = m \cdot \omega$$


G'ovak muhitning soddalashgan modeli bo'lib, fiktiv (yasama) grunt hisoblanadi. Fiktiv grunt modelida g'ovaklar bir xil diametrga ega bo'lgan shar ko'rinishidagi ko'p sonli zarrachalardan tashkil topgan deb tushiniladi. Fiktiv gruntning asosiy elementi (asosiy yacheykasi) bo'lib, romboedr hisoblanadi. θ burchak 60° dan 90° gacha bo'lgan oraliqda o'zgaradi. $\theta = 60^\circ$ burchakka zich qilib terilgan, $\theta = 60^\circ$ esa erkinroq terilgan sharlar mos bo'ladi. Ch.Slixter formulasiga ko'ra fiktiv grunt g'ovakligi quyidagicha aniqlanadi.

$$m = 1 - \frac{\pi}{6(1 - \cos \theta)\sqrt{1 + 2 \cos \theta}} \quad (6.2.4)$$

Fiktiv grunt formulasini tabiiy gruntlarga qo'llash uchun fiktiv gruntga ekvivalent real gruntga almashtirish kerak. Bunday fiktiv grunt zarrachasining diametri d_e effektiv diametr deyiladi.



7.2.2-rasm



6.2.1- rasm

Effektiv diametrni aniqlash uchun juda ko'p usullar mavjud. Masalan, o'rtacha zarrachalarning og'irlik usuli bilan effektiv diametrni aniqlash mumkin;

$$d_a = \sqrt{\frac{\sum n_i \cdot d_i}{\sum n_i}} \quad (6.2.5)$$

bu yerda, d_i va i – fraktsiyaning oʻrtacha diametri;

n_i - fraktsiyadagi qum zarralari soni.

Yana effektiv diametri Kryuger-Sunker usuli bilan ham aniqlash mumkin:

Suyuqlik Q sarfi hajmini ω qatlam koʻndalang kesim yuzasi nisbatiga $\mathcal{G}$ filtratsiya tezligi deyiladi:

$$\frac{100}{d_e} = \sum_{i=1}^n \frac{\Delta g_i}{d_i} \quad (6.2.6)$$

$$\mathcal{G} = Q / \omega \quad (6.2.7)$$

Filtratsiya tezligi bilan harakat oʻrtacha tezligi orasida quyidagi bogʻlanish bor:


$$\mathcal{G} = \mathcal{G} / M \quad (6.2.8)$$

Filtiratsiya hisobi: Amaliyotda, koʻpincha filtratsiya hisoblarida, asosiy oʻrinni sizot suvlarning sarfi $Q (m / sut)$ boʻlib, uning zovurlarga, drenajlarga kelib tushishi eʼtiborga olinadi, shuningdek suvni nasos orqali chiqarib tashlashda nasos unumdorligini oldindan tanlab olinishi kerak. U nasos sizot suvning Q sarfiga mos boʻlishi talab etiladi.

Sizot suvlar (6.2.2-rasmga qarang) bu yer ostiga joylashgan suvli gorizont boʻlib, erkin sirtga ega (sizot suv sathi) suv oʻtkazmaydigan qatlamdan yuqorida turadi. Shunday qilib sizot suvlar koʻpincha naporsiz boʻladi. Bunday sizot suvlar qum, sof tuproqli qatlam orasiga joylashgan boʻlib, ushbu qatlam biror aniq $\hat{E}_o$ filtratsiya koeffitsientga ega. Suvga toʻyingan qatlam tabiiy $\hat{I}_a$ quvvatga ega.

Sizot suv sathi quvurlar orqali boshqariladi. Suv sathi esa atmosfera bog‘liq bo‘ladi. Filtiratsiya hodisasini hisoblashda hozirgacha Darsi qonuniyati (6.2.9)-formulasi yordamida amaliyotda ishlatilib kelinmoqda.

Darsi (6.2.9) qonuniyati asosida ariq zovurlardagi qurilish ishlarda, sug‘orishda amaliyotda qanday holatda hisoblash ishlarini misol tariqasida ko‘rib o‘tamiz. Bu hol uchun eng sodda tekis parallel bir o‘lchamli va radial filtratsiya holatida sodda ko‘rib o‘tamiz. 6.2.2-rasmda uzunligi $\hat{A}$ bo‘lgan o‘rani bir ko‘rinishli sxemasi berilgan.



6.2.2. a, b-rasmlar. Chuqurga filtaratsiya. a-reja; b-kundalang kesim; 1-yauqur, 2-filtaratsiya yunalishi, 3-chegara filtaratsiya maydoni; 4-suv bosimi, 5-issiq suvni tabiiy bosimi, 6-pasaytirilgan tabiiy bosim, 7-nasos.

Sizot suv sathi quvurlar. A- rejasi; b-sizot suvi idishi;

Tubi esa o‘tkazmaydigan qatlam bilan chegaralargan. Bu sizot suv, qazilgan zovurga kelib tushadi va Q sarf bilan nasos orqali so‘rib turiladi. Quduqqa tushayotgan sizot suv ham o‘ng tomondan Q_n va Q_l sizot suv sarfi kelib turadi.

l_D osti sizot suvli qatlamdan va quduqdagi napor o‘zgarishi orqali $-\Delta \dot{M} = H_e - H_m$ sizot suv harakatlanadi. Napor esa, suv o‘tkazmaydigan qatlamdan boshlab hisoblanadi.

Filtiratsiya yo‘li L_t (6.2.2.b-rasmga qarang) suv kelish zonasi deb yuritiladi. Tabiiy sizot suv sathi sekin asta quduq tomonga qarab pasayib boradi. Bu pasaygan chiziqchalar depressiya egri chizig‘i deyiladi.

Zovur atrofida tuproqning qurishi bilan depressiya egri chizig'i uzun hamda egrilanib boradi. L_t kattalikni K.E.Lembke formulasi yordamida aniqlash mumkin.

$$L_t = 1,73 \sqrt{\frac{K_\phi H_e t}{\mu_b}}, \quad (6.2.9)$$

bu yerda, t -suvni tortib olishdagi vaqt, sut

Zovurga tushayotgan sizot suvni ikki tomonlama tushish sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Q = Q_n + Q_{\dot{e}} = \mathcal{G}_o \omega + \mathcal{G}_o \omega \quad (6.2.10)$$

Darsi qonuniga asosan (6.2.9) filtratsiya tezligi quyidagicha yozish mumkin.

$$\mathcal{G}_\phi = K_\phi \frac{\Delta H}{l} = K_\phi \frac{H_e - H_m}{L_t} \quad (6.2.11)$$

Depressiya egri chizig'i chegarasidagi o'zgaruvchi balandlikni o'zgarishdagi filtratsion oqimning jonli kesimi (6.2. 2. b-rasmga qarang) quyidagicha aniqlanadi.

$$\omega = B \frac{H_e + H_m}{2} \quad (6.2.12)$$

$\mathcal{G}_o$ ni (6.2.11) ifodadan hamda ω ni (6.2.12) e'tiborga olib (3.2.13) ifodadagi Q ni quyidagi Dyupyu formulasini zo'vurga tushayotgan oqimni quyidagicha ifodalaymiz.

$$Q = K_\phi B \frac{H_e^2 - H_m^2}{L_t} \quad (6.2.13)$$

Radeal filtratsiya uchun sizot suvlarni hovuzlarga oqishi (6.2.3-rasm), quduq yoki o'raga tushayotgan oqimini Darsi (6.2.14) formulasi asosida quyidagicha aniqlash mumkin.


$$Q = \mathcal{G}_o \omega \quad (6.2.15)$$

Filtratsiya tezligi esa (6.2.14) formula asosida quyidagicha ifodalanadi.

$$\mathcal{G}_\phi = K_\phi \frac{\Delta H}{l} = K_\phi \frac{dH}{dr} \quad , \quad (6.2.16)$$

bu yerda, dH - napor differentsiali (farqi); dr - radial koordinatadan olingan differentsial, bu koordinata r_K va R_t orasida yotadi (6.2.3-rasm). O'zgaruvchi balandlikka ega bo'lgan depressiya egri chizig'i ya'ni, r_K da R_t gacha bo'lgan oraliqqa mos keluvchi oqim jonli kesimi yuzasi quyidagi formula bilan aniqlanadi (6.2.3.b-rasm) (6.2.16) va (6.2.17)larni (6.2.15)ga qo'yib H va r o'zgaruvchilarga taqsim qilish bilan quyidagi differentsial tenglamani hosil qilamiz.

$$\omega = 2\pi r h \quad (6.2.17)$$



6.2.3. a, b-rasmlar. Tayyor chuqurga filtaratsiya. a-reja; b-ko'ndalang kesim; 1-chuqur, 2-filtaratsiya yo'nalishi, 3-chegara filtaratsiya maydoni; 4-suv bosimi, 5-issiq suvni tabiiy bosimi, 6-pasaytirilgan tabiiy bosimga aylanma harakat, 7-nasos.

Tenglama chap tomonidan r_K va R_t oraliqda, o'ng tomonini esa H_K hamda H_e oraliqda aniq integral olsak zovur ichiga kelayotgan filtratsion oqim sarfini (6.2.3-rasm) quyidagicha Dyupyu formulasini olamiz.

$$Q = \frac{\pi \kappa (H_e^2 - H_\kappa^2)}{l_n(R_t / r_\kappa)}, \quad (6.2.18)$$

bu yerda, H_e - sizot suvdagi tabiiy napor (uning quvvati); H_k -havuzdagi (zovurdagi) napor (hovuzdagi suv qatlami); R_t - suv sigʻimidagi radiusning taʼsiri; r_k -hovuz radiusi R_t kattalikni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin.

$$R_t = r_k + 1,5 \sqrt{\frac{K_\phi H_e t}{\mu_b}}, \quad (6.2.19)$$

bu yerda, t -sizib chiqish boshlanishidan hisoblangan vaqt, sut. Real holatdagi qazilgan hovuzning F kesim yuzasini unga teng boʻlgan shartli dumaloq hovuz radiusi orqali ifodalanadi:

$$r_x = \sqrt{\frac{F}{\pi}} \quad (6.2.20)$$

Hovuzga, oʻraga sizib chiqayotgan suvning sarfi boshlangʻich vaqtda maksimal qiymatga ega boʻlib vaqt oʻtishi bilan kamayadi hamda L_t yoki R_t oshib boradi.

6.3. GʻOVAK MUHITDAGI SUYUQLIKNING HARAKATI

Gʻovak muhitlarda suyuqlikning harakatini va ularda tarqalishini shimilish (filtrasiya) deyiladi. Gruntlarning oʻlchamlari zarralarining formasiga bogʻliq holda suyuqliklarning shimilish xususiyatlari 6.3.1-6.3.2-jadvallarda keltirilgan.

Grunt zarralarining fraksiyasi klassifikatsiyasi

6.3.1-jadval

Fraksiya nomlari	Diametr, mm
Loyqali	< 0,005
Changsimon	0,005...0,05
Mayda qum	0,05...0,5
Yirik qum	0,5...2,0
Mayda shagʻal	2,0...4,0
Shagʻal	4,0...200
Yirik shagʻal	>200

Har xil turdagi gruntlarning gʻovakligi

6.3.2-jadval

Grunt	G'ovakligi - n
Shag'al, qum	0,3...0,45
Mayda qum zarralari va loy aralashmasi	0,35...0,50
Suglinka	0,40...0,50

Suyuqlikning laminar harakatida shimilish tezligini aniqlashda Darsi qonuni o'rinli hisoblanadi.

$$\mathcal{G} = \frac{k \Delta P}{\mu L}, \quad (6.3.1)$$

bu yerda, k - Darsi yoki shimilish koeffitsienti; μ - dinamik yopishqoqlik (qovushqoqlik); ΔP - ikki kesim orasidagi bosimlar farqi; L - qatlamning uzunligi.

Yuqorida keltirilgan formulani quyidagicha ham yozish mumkin.

$$\mathcal{G} = kJ, \quad (6.3.2)$$

bu yerda, J - pe'zometrik qiyalik.

Shimilish koeffitsienti k bu holda grunt jinsiga, suyuqlikning qovushqoqligiga va suyuqlikning o'tkazuvchanlik xususiyatiga bog'liq. Ko'pincha shimilish koeffitsienti o'rniga faqat grunt jinsiga bog'liq bo'lgan suv o'tkazuvchanlik koeffitsienti ishlatiladi.

$$k_{o'tk} = \frac{k \nu}{g} \quad (6.6.3)$$

k va $k_{o'tk}$ koeffitsientlar qiymatlari quyidagi 6.3.3-jadvalda ifodalangan.

Gruntlarning shimilish va suv o'tkazuvchanlik koeffitsientlari

6.3.3-jadval

G'ovak muhitlar tavsifi	Shimilish koeffitsienti k , sm/s	Suv o'tkazuvchanlik koeffitsienti $k_{o'tk}$ sm ²
Suv o'tkazishi qiyin bo'lgan tuproqlar: zich joylashgan va boshqa massiv jinslar	0,000001	10^{-11}
Juda kam suv o'tkazadigan tuproqlar	0,000001...0,0001	$10^{-11}...10^{-9}$
Kam suv o'tkazadigan qum, torf, sof tuproq va boshqalar	0,0001...0,001	$10^{-9}...10^{-8}$
Suv o'tkazadigan loy yoki mayda qum bilan aralashgan qum-shag'al yoriqsiz jinslar	0,001...0,01	$10^{-8}...10^{-7}$
Yaxshi suv o'tkazadigan qum, shag'al, yirik qum, o'rtacha donador toza qum	0,01...0,1	$10^{-7}...10^{-6}$
Yaxshi suv o'tkazadigan shag'al, yirik qum, yorilgan jinslar	0,1...1,2	$10^{-6}...10^{-5}$

6.4. SUV BOSIMI REJIM SHAROITLARIDA SIQILMAYDIGAN SUYUQLIKNING BIR O'LCHAMLI HARAKATI

Agar p'ezometrik bosim chizig'i qatlam yuqori chegrasidan balandda joylashgan bo'lsa, suyuqlik harakati naporli deyiladi.

Agar filtratsiya bosimi va tezligi oqimga chizig'i bo'yicha olingan faqat bir koordinataning funktsiyasi bo'lsa, bu holda suyuqlik va gaz barqaror filtratsiya oqimi bir o'lchamli deyiladi.

Bir o'lchamli oqimga quyidagilar kiradi:

- 1) to'g'ri chiziqli-parallel filtratsiya oqimi;
- 2) tekis radial; 3) radial – sferik.

Siqilmaydigan suyuqlikning bosimli tekis radial harakati.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tekis radial harakatda filtratsiya tezligi vektorlari radius bo'yicha quduq o'qiga yo'nalgan bo'lib, filtratsiya bosim va tezligi faqat R koordinataga bog'liq bo'ladi. h qalinlik (quvvati) va R_q radiusi bo'lgan chegaralangan gorizontal silindrik qatlam markazida joylashtirilgan R_s radiusli mukammal quduqqa kiradigan (yoki quduqdan chiqadigan) tekis radial oqimni ko'rib chiqamiz.

Agar iste'mol konturiga mos keladigan qatlamning tashqi chegarasida P_q o'zgarmas bosim saqlab turilsa, quduq tubida esa P_s o'zgarmas bosim bo'lsa, g'ovakligi va o'tkazuvchanligi bo'yicha qatlam bir jinsli, filtratsiya Darsi qonuniga asosan sodir bo'lsa, u holda quduqning debit hajmi Dyupyui formulasidan aniqlanadi.

$$Q = \frac{2\pi \cdot k \cdot h}{\mu} \cdot \frac{P_q - P_s}{\ln \frac{R_q}{R_s}} \quad (6.4.1)$$

Bosim taqsimlanish qonuni istalgan quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$P = P_q - \frac{P_q - P_s}{\ln \frac{R_q}{R_s}} \quad (6.4.2)$$

yoki

$$P = P_k - \frac{Q\mu}{2\pi \cdot k \cdot h} \cdot \ln \frac{R_k}{r} \quad (6.4.3)$$

yoki

$$P = P_s + \frac{P_q - P_s}{\ln \frac{R_q}{R_s}} \cdot \ln \frac{R}{R_s} \quad (6.4.4)$$

$P_x = P(P_s)$ chiziq bosim depressiya egri chizig'i deyiladi.

Quduqqa yaqinlashganda filtratsiya bosim va tezlik gradientlari tez o'sadi. Izobar kartani chizganda izobar radiuslari geometrik progressiya bo'yicha o'zgaradi, shu paytning o'zida esa izobarlardagi bosim arifmetik progressiya bo'yicha o'zgaradi.

Indikator chiziq (quduq debitining $\Delta P = P_k - P_s$ depressiyaga bog'liqligi) Darsi qonuni saqlangandagi oqimning quduq tomon oqishida indikator chiziq (quduq debitining $\Delta P = P_k - P_s$ depressiyaga bog'liqligi) to'g'ri chiziqni aks ettirib, $Q = K \cdot \Delta P$ tenglamadan aniqlanadi.

Mahsuldorlik koeffitsienti

$$K = \frac{2\pi kh}{\mu \cdot \ln \frac{R_q}{R_s}} \quad (6.4.5)$$

son jihatidan depressiyadagi debitga teng, ya'ni birga.

Agar $m=0$ da zarracha koordinatasi $P = P_0$ nuqtada joylashgan bo'lsa, unda oqim chizigi uzunligi bo'yicha zarrachaning saqlanish qonuni quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$t = \frac{\pi h m}{Q} (R_o^2 - R^2) \quad (6.4.6)$$

yoki

$$t = \frac{m \mu \ln \frac{R_q}{R_s} (R_o^2 - R^2)}{2k (P_q - P_s)} \quad (6.4.7)$$

a) G'ovak muhit hajmi bo'yicha qatlam bosimning o'rtacha qiymati

$$\bar{P} = \frac{1}{\Omega} \int_{\Omega} P d\Omega \quad (6.4.8)$$

bo'ladi, bu yerda Ω - g'ovak muhit hajmi

$$\Omega = \pi (R_q^2 - R_c^2) h \cdot m,$$

$$d\Omega = 2\pi h m R dR$$

P uchun (6.4.7) ifodaga qo'yib, integrallab va R_s^2 li hamma a'zolari hisobga olmasdan

$$\bar{P} = P_q - \frac{P_q - P_s}{2 \ln \frac{P_q}{R_s}} \quad (6.4.9)$$

Mukammal quduqqa oqib kirishidagi Darsi qonunining buzilishida bosim taqsimlanish qonuni

$$-\frac{dp}{ds} = \frac{dp}{dR} = \frac{\mu}{k} \mathcal{G} + b\mathcal{G}^2 \quad (6.4.10)$$

Filtratsiya tezligi

$$\mathcal{G} = Q / 2\pi R h$$

ifodasini (6.4.10) ifodaga qo'yib va o'zgaruvchilarga ajratib

$$dp = \frac{Q\mu}{2\pi k h} \cdot \frac{dr}{R} + \frac{Q^2 b}{(2\pi h)^2} \cdot \frac{dr}{R^2} \quad (6.4.11)$$

tenglamani hosil qilamiz:

P ni P_s dan P_q gacha va P_s ni P_s dan P_q gacha integrallab

$$P_q - P_s = \frac{Q\mu}{2\pi k h} \cdot \ln \frac{R_q}{R_s} + \frac{Q^2 b}{(2\pi h)^2} \left(\frac{1}{R_s} - \frac{1}{R_q} \right) \quad (6.4.12)$$

ifodaga ega bo'lamiz.

Bu kvadrat tenglamani yechib, Q quduq debitini topamiz. (6.4.12.) tenglamani

P bo'yicha P dan P_q gacha va P dan P_q gacha integrallab, bosim taqsimlanishi qonunini topamiz:

$$P = P_q - \frac{Q\mu}{2\pi kh} \ln \frac{R_q}{R_s} - \frac{Q^2 b}{(2\pi h)^2} \left(\frac{1}{R} - \frac{1}{R_q} \right) \quad (6.4.13)$$

(6.4.13) ifodadan ko‘rinadiki, Darsi qonuni buzilishida indikator chiziq parabola ko‘rinishida bo‘ladi.


Agar filtratsiya Krasnopolskiy qonuniga ko‘ra bo‘lsa, unda debit quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q = 2\pi h \sqrt{\frac{R_s}{b} \Delta P} \quad (6.4.14)$$

6.5. SIQILMAYDIGAN SUYUQLIKNING DARSİ QONUNIGA KO‘RA RADIAL-SFERİK HARAKATI

Katta quvvatli gorizontal o‘tkazmaydigan bir jinsli qatlamni to‘liq ochmagan mukammal gidrodinamik kichik diametrli quduqqa oqib kiradigan suyuqlikning radial – sferik oqimini qaraymiz. (6.5.1-rasm)

Agar radiusi R_s bo‘lgan yarimsfera ko‘rinishidagi quduq tubida P_s keltirilgan o‘zgarmas bosim saqlab turilsa, quduqdan ancha uzoq masofada R_s radiusli yarimsferik sirtidan esa P_q o‘zgarmas bosim va bir jinsli qatlamida bo‘ladi.



6.5.1-rasm.

$$Q = \frac{2\pi R_s k (P_q^* - P_s^*)}{\mu} \quad (6.5.1)$$

Filtratsiya Darsi qonuni bo‘yicha sodir bo‘lsa, u holda quduqning debit hajmi quyidagi formuladan aniqlanadi:

Kesimning istalgan nuqtasidagi keltirilgan bosim ushbu (6.5.2)

$$P^* = P_q^* - \frac{P_q - P_s^*}{\frac{1}{R_s} - \frac{1}{R_q}} \left(\frac{1}{R} - \frac{1}{R_q} \right) \quad (6.5.2)$$

formuladan aniqlanadi, oqim chizig'i bo'ylab R_s koordinatali nuqtadan R_s koordinatali nuqtagacha bo'lgan zarracha harakati qonuni quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$t = \frac{2\pi m}{3Q} (R_o^3 - R^3) \quad (6.5.3)$$

6.6. IDEAL GAZNING BARQAROR FILTRATSIYASI

Ideal gazning izotermik oqimidagi holat tenglamasini quyidagicha yozish mumkin.

$$\frac{P}{\rho} = \frac{P_{at}}{\rho_{at}} = RT, \quad (6.6.1)$$

bu yerda, P_{at} – gazning atmosfera bosimi va qatlam temperaturasiidagi zichligi.

Bundan

$$\rho = \frac{\rho_{at} P}{P_{at}}, \quad (6.6.2)$$

shuning uchun ideal gaz uchun Leybenzon funktsiyasi

$$Leb = \int \rho dP + C = \int \frac{\rho_{at} P}{P_{at}} dP + C = \frac{\rho_{at} P^2}{2P_{at}} + C \quad (6.6.3)$$

ko'rinishni oladi. Bunda P_{abs} -absolyut bosim.

1. Ideal gazning Darsi qonuniga ko'ra to'g'ri chiziqli-parallel filtratsiyasini qaraymiz. Siqilmaydigan suyuqlikning to'g'ri chiziqli-parallel oqimidagi hajmiy

sarf (6.6.4) formula bilan aniqlanadi, siqilmaydigan suyuqlik va gaz o'rtasidagi analogiyadan foydalanib, gaz uchun massaviy sarf formulasini

$$Q_m = \frac{k(P_k - P_g)}{\mu \ell} Bh \quad (6.6.4)$$

yozamiz yoki (7.6.4) ifodani inobatga olib,

$$Q_m = \frac{kP_{at}(P_q^2 - P_g^2)}{\mu 2P_{at}l} Bh \quad (6.6.10)$$

yozamiz.

Q_{at} keltirilgan sarf deb, atmosfera bosimiga va qatlam haroratiga keltirilgan hajmiy sarfga aytiladi, ya'ni

$$Q_{at} = \frac{Q_m}{P_{at}} \quad (6.6.11)$$

(6.6.11) formuladan

$$Q_{at} = \frac{k(P_q^2 - P_g^2)Bh}{2\mu P_{at}l} \quad (6.6.12)$$

ifodani hosil qilamiz.

Siqilmaydigan suyuqlikning to'g'ri chiziqli-parallel filtrtsiyasidagi bosim taqsimlanish qonunini ifodalovchi (6.6.12) formulada P ni Leb ga almashtirib, chiziqli qonunga ko'rta Leybenzon funksiyasining taqsimlanishini

$$Leb = Leb_q - \frac{Leb_q - Leb_g}{l} \cdot x \quad (6.6.13)$$

va (6.6.13) formuladan foydalanib, parabolik bosim taqsimlanishini

$$P^2 = P_q^2 - \frac{P_q^2 - P_g^2}{l} \tilde{o} \quad (6.6.14)$$

hosil qilamiz.

Gazning qatlam hajmi bo'yicha o'rtacha bosimi

$$\tilde{P} = \frac{2}{3} \cdot \frac{P_q^3 - P_g^3}{P_q^2 - P_g^2} \quad (7.6.15)$$

teng.

2. Gazning tekis radial filtratsiyalari (6.6.15) Dyupyui formulasiga mos gazning massali debiti

$$Q_m = \frac{2\pi k(P_q - P_s)}{\mu \ln \frac{R_q}{R_s}} \quad (6.6.16)$$

formulasiga ega bo'lamiz.

(6.6.16) formuladan Leybenzon funksiyasining qiymatini (6.6.17) formulaga qo'yib,

$$Q_m = \frac{\pi k h \rho_{at} (P_q^2 - P_s^2)}{\mu \rho_{at} \ln \frac{R_q}{R_s}} \quad (6.6.17)$$

ekanligini topamiz. Atmosfera bosimiga va qatlam haroratiga keltirilgan gazli quduqning hajmiy debiti ifodasini

$$Q_{at} = \frac{\pi k h (P_q^2 - P_s^2)}{\mu \rho_{at} \ln \frac{R_q}{R_s}} \quad (6.6.18)$$

ko'rinishda hosil qilamiz.

(6.6.18) formulada P ni Leb ga almashtirib, gazning tekis radial filtratsiyasida Leb bosim taqsimlanishining logarifmik qonunini hosil qilamiz:

$$Leb = Leb_q - \frac{Leb_q - Leb_s}{\ln \frac{R_q}{R_s}} \cdot \ln \frac{R_q}{R}, \quad (6.6.19)$$

bundan, (6.6.19) tenglamadan foydalanib, bosim taqsimlanish qonunini

$$P = \sqrt{P_q^2 - \frac{P_q^2 - P_s^2}{\ln \frac{R_q}{R_s}} \cdot \ln \frac{R_q}{R_s}} \quad (6.6.20)$$

topamiz.

Darsi qonuniga ko'ra barqaror tekis radial filtratsiyasida gazning o'rtacha bosimi taqriban

$$\tilde{P} = P_q \left[1 - \frac{1 - \left(\frac{P_s}{P_q}\right)^2}{2} \cdot \left(\frac{1}{2 \ln \frac{R_q}{R_s}} - \frac{1}{\frac{R_q^2}{R_s^2} - 1} \right) \right] \quad (6.6.21)$$

formula bo'yicha aniqlanadi.

3. Ideal gazning tekis radial filtratsiyasi holatidagi (6.6.21) formula bilan ifodalanadigan filtratsiyaning chiziqli qonunida, atmosfera bosimi va qatlam haroratiga keltirilgan quduq sarfi

$$P_q^2 - P_s^2 = \frac{\mu P_{at}}{\pi k h} \ln \frac{R_q}{R_s} Q_{at} + \frac{\beta^* \rho_{at} P_{at}}{2 \pi^2 h^2} \left(\frac{1}{R_s} - \frac{1}{R_q} \right) Q_{at}^2 \quad (6.6.22)$$

formuladan aniqlanadi.

6.7. DEFORMATSIYALANADIGAN YORIQSIMON QATLAMDA SUYUQLIK VA GAZNING BARQAROR FILTRATSIYASI

Kollektorlar toza yoriqsimon va yoriqsimon-g'ovak bo'ladilar. Agar birinchisida suyuqlik va gazning harakati faqat yoriqlarda bo'lsa, ikkinchisida esa yoriqlar orasida joylashgan yoriq va g'ovak bloklarda bo'ladi. Yoriqsimon g'ovak muhitni ikki har xil masshtabli g'ovak muhitlar yig'indisi deb qaraladi: birinchi muhitda g'ovak kanallar bo'lib, yoriqlar xizmat qiladi, ular orasidagi yoriq bloklar

esa g'ovakligi m_o va o'tkazuvchanligi k_o bo'lgan donador jins bo'ladi; ikkinchi muhit g'ovakligi m_n va o'tkazuvchanligi k_n bo'lgan g'ovak bloklar sistemasidan iborat.

Toza yoriqsimon qatlamlarda m_o g'ovaklik va k_o o'tkazuvchanlik G yoriqlar tig'izligi:

$$G = \frac{n}{h}$$

bilan aniqlanadi.

m_o g'ovaklik yoriqlar tig'izligiga va ularning o'rtacha ochilish nisbatiga bog'liq.

$$m_T = \sigma G \delta, \quad (6.7.1)$$

bu yerda, σ - yoriqlar sistemasi geometriyasining hisobga oluvchi koeffitsienti, $1 \leq \sigma \leq 3$.

Izotrop yoriqsimon qatlamning o'tkazuvchanlik koeffitsienti yoriq tig'izligi va ularning o'rtacha yorilishi orqali ifodalanadi:

$$k_T = \frac{\sigma G \delta^3}{12} = \frac{m_T \delta^3}{12}. \quad (6.7.2)$$

Agar qatlam bosimi o'zgargandagi yoriq yorilishining o'zgarishi

$$\delta = \delta_0 - \Delta\delta = \delta_0 [1 - \beta(P_0 - P)] \quad (6.7.3)$$

formula bilan ifodalansa va yoriqsimon qatlamdagi elastik deformatsiyalar bilan aniqlansa, unda bunday qatlamda k_T o'tkazuvchanlik koeffitsienti (7.7.2) formulaga mos bo'ladi.

$$k_T = k_{T0} [1 - \beta(P_0 - P)]^3, \quad (6.7.4)$$

bu yerda, $\sigma_0 - P_0$ bosimdagi yoriqlar yorilishi; $\beta = \beta_T l / \delta_0$ -yoriqsimon muhitning kompleksli parametri; $\beta_T = (1 - 2\sigma) / E$ -elastiklik o'zgarmasi; σ - Puasson koeffitsienti; E - jinsning Yunga moduli; l - yoriqlar orasidagi o'rtacha masofa.

Bosimning kam o'zgarishlarida k_T o'tkazuvchanlik koeffitsientining bosimga bog'lanishi.

$$k_T = k_{T0} [1 - \alpha(P_0 - P)], \quad (6.7.5)$$

chiziqli deb hisoblash mumkin. Bunda $\alpha = 3\beta$.

Ba'zi avtorlar yoriqsimon qatlam o'tkazuvchanlik koeffitsientining bosimga bog'lanish ekspponentsial funktsiya

$$k_T = k_{T0} e^{-\alpha(P_0 - P)} \quad (6.7.6)$$

ko'rinishida ifodalaydilar.

Yoriqsimon g'ovak qatlamdagi filtratsiya qaralishida k_T yoriq o'tkazuvchanlik koeffitsienti bosimga bog'liq bo'ladi, g'ovak bloklardagi k_f o'tkazuvchanlik esa bosimga bog'liq bo'lmaydi va o'zgarmas bo'ladi

$$Q = \frac{2\pi k_{T0} h(P_q - P_s) \left[1 - \frac{\alpha}{2}(P_q - P_s) \right]}{\mu \ln \frac{R_q}{R}} \quad (6.7.7)$$

va bosim taqsimlanishi

$$P = P_q - \frac{1}{\alpha} \left[1 - \sqrt{1 - \frac{2\alpha(P_q - P_s) \left[1 - \frac{\alpha}{2}(P_q - P_s) \right]}{\ln \frac{R_q}{R}}} \cdot \ln \frac{R_q}{R} \right] \quad (6.7.8)$$

ifodalarni hosil qilamiz.

Agar o'tkazuvchanlik koeffitsientini (6.7.4) ifodadan olsak, unda debit

$$Q = \frac{\pi k_{T0} \left\{ 1 - \left[1 - \beta(P_q - P_s) \right]^4 \right\}}{2\mu\beta \ln \frac{R_q}{R}}, \quad (6.7.9)$$

bosim

$$P = P_q - \frac{1 - \sqrt{1 - \left\{ 1 - \left[1 - \beta(P_q - P_s) \right]^4 \right\} \cdot \frac{\ln R_q / R}{\ln R_q / R_s}}}{\beta} \quad (6.7.10)$$

trayektoriya bo'yicha suyuqlik zarrachasi harakati qonuni esa

$$t = \frac{2m_T(R_0^2 - R^2)\mu\beta \ln R_q / R_s}{k_{T0} \left\{ 1 - \left[1 - \beta(P_q - P_s) \right]^4 \right\}} \quad (6.7.11)$$

bo'ladi, bunda R_0 -boshlang'ich vaqt ($\dot{\theta} = 0$) momentidagi nuqta koordinatasi.

(6.7.4) bog'lanish bajarilishida yoriqsimon qatlam deformatsiyasidagi ideal gaz filtratsiyasining barqaror tekis radial masalasi echilishi gaz hajmiy debitining atmosferaga keltirilgan formulasiga olib keladi:

$$Q_{at} = \frac{\pi k_{T0} h}{2\mu\beta P_{at} \ln \frac{R_q}{R}} \cdot \left\{ \left[P_q - P_s (1 - \beta(P_q - P_s)) \right]^4 \right\} - \frac{1}{5\beta} \left[1 - (1 - \beta(P_q - P_s))^5 \right] \quad (6.7.12)$$

Q_{at} ma'lum bo'lgandagi qatlamda bosim taqsimlanishni topish uchun (6.7.12) ni ushbu


$$Q_{at} = \frac{\pi k_{T0} h}{2\mu\beta P_{at} \ln \frac{R_q}{R}} \cdot \left\{ \left[P_q - P(1 - \beta(P_q - P)) \right]^4 \right\} - \frac{1}{5\beta} \left[1 - (1 - \beta(P_q - P))^5 \right] \quad (6.7.13)$$

ko‘rinishida yozish mumkin. $P < P_q$ qiymatlar berib, (6.7.13) bo‘yicha mos R qiymatlari topiladi.

6.8. CHEGARAVIY QATLAMNING TAQSIMLANISHLARINI SALBIY BOSIMLAR GRADIENTLARI

Agar chegara orqali harakatlanayotgan oqim va oqimchalar yo‘nalishida bosim kamayishi natijasida ro‘y berayotgan bo‘lsa, suyuqlik tezlashaveradi, chegaraviy qatlam esa yupqa bo‘lib qoladi.

Bu konvergent oqimlarga tegishli




6.12.1-rasm

Tezlashayotgan suyuqlik devor yonida harakatlanayotgan suyuqlikni ushlab turadi. Demak, oqim turg‘un holatda saqlanib qoladi va turbulent oqimi kamayadi. Chegaraviy qatlam taqsimlanishi yuzaga kelmaydi.

6.9. TARQALUVCHI OQIM VA OQIMCHALARNING IJOBIY BOSIM GRADIENTLARI

Bosim oqim yo‘nalishida katalashganida vaziyat keskin o‘zgarib ketadi. Chegara qatlamidan tashqaridagi suyuqlik uni ortga itarmoqchi bo‘lgan bosimni bartaraf etish uchun kerakli impulska ega. Bu hodisa chegaraviy qatlamning


taqsimlanishi deb ataladi. Chegaraviy qatlamdagi suyuqlik esa shunchalar kam impulsiga egaki, u juda tez to'xtatilishi va xatto yo'nalishi o'zgartirilishi ham mumkin. Agar bu holat ro'y berayotgan bo'lsa u chegaraviy qatlamni pastda ko'rsatilganidek tepaga ko'tarib yuboradi.



6.9.1-rasm

Bu holda model va bir-biriga o'xshash sifatidagi dinamik harakatlar bir xil bo'la oladi. Rasman bu tenglamaning o'ng tomonidagi nazorat qiluvchi o'lchamsiz guruh model va bir-biriga o'xshash sifati uchun bir xil bo'lganidagina amalga oshishi mumkin. Bu holda nazorat qiluvchi o'lchamsiz guruh Reynol'ds raqami bo'ladi.

8.2. DINAMIK JIHATDAN O'XSHASH MODELLAR

8.2.1-misoli; Diametri 2 m va uzunligi 10 m ni tashkil etuvchi suv osti raketasi kuchlarni aniqlash uchun suv tunellarida haqiqiy bir-biriga o'xshash sifatida sinovdan o'tkazilmoqda.

Foydalanilayotgan model 1/20 shkalada. Agar bir-biriga o'xshash sifatida raketaning tezligi maksimal sekundiga 10 m ni tashkil etsa, tuneldagi dinamik o'xshashlikka erishish uchun suvning tezligi qanday bo'lishi kerak?

Dinamik o'xshashlik bo'lishi uchun model va bir-biriga o'xshash sifatining Reynol'ds raqamlari bilan

$$\text{Re}_m = \text{Re}_p$$

$$\left(\frac{\rho g d}{\mu} \right)_m = \left(\frac{\rho g d}{\mu} \right)_p$$

ga teng bo'lishi kerak.

Shu tarzda model tezligi quyidagicha bo'lishi kerak:

$$g_m = g_p \frac{\rho_p d_p \mu_m}{\rho_m d_m \mu_m}$$

bir-biriga o'xshash sifati ham model ham suvda bo'lganliklari sababli

$\mu_m = \mu_p$ yki $\rho_m = \rho_p$ quyidagicha bo'ladilar:

$$g_m = g_p \frac{d_p}{d_m} = 10 \frac{1}{1/20} = 200 \text{ m/s.}$$

Bu judayam katta tezlik ekanligiga e'tibor berishimiz kerak. Bu nega model testlari doimo Reynol'ds raqamlariga teng bo'lmasligining sabablaridan biri hisoblanadi. Agar Reynol'ds raqami katta bo'lsa ko'p hollarda ekvivalentlik talabining sustlashishi mumkin bo'ladi.

Bu misolda aerodinamik quvurlardan foydalanish imkoni mavjud. Agar bu hollar uchraganida, yuqorida keltirilgan misollarda ρ va μ munosabatlari uchun kerakli belgini olish kerak bo'ladi.

8.2.2- misoli; Samalyot modeli 1/10 masshtabida qurilgan bo'lib, atmosfera bosimi 20 martaga teng bo'lgan aerodinamik quvurda sinishi kerak. Samalyot soatiga 500 km tezlikda uchadi.

Model va bir-biriga o'xshash sifati o'rtasida dinamik o'xshashlik yuzaga keltirish uchun aerodinamik quvvur qanday tezlikda ishlashi kerak?

Agar modelning qarshilik ko'rsatish o'lchovi 337,5 N ga teng bo'lsa samalyotning qarshilik ko'rsatish darajasi qanday bo'ladi?

Oldinroq biz havoda harakatlanayotgan jismdagi qarshilik tenglamasini olgan edik:

$$R = \rho g^2 l^2 \varphi \left(\frac{\rho g l}{\mu} \right) = \rho g^2 l^2 \varphi(\text{Re})$$

$\text{Re}_m = \text{Re}_p$ larning dinamik o'xshashliklari uchun quyidagicha:

$$g_m = g_p \frac{\rho_p d_p \mu_m}{\rho_m d_m \mu_p}$$

μ Kattaligi bosim bilan katta o'zgarishga ega bo'lmaydi, shuning uchun $\mu_m = \mu_p$ bo'ladi.

Ideal gaz tenglamasi $p = \rho RT$. Harorat bir xil bo'lgani sababli modeldagi zichlik quyidagicha olinishi mumkin:

$$\frac{p_m}{p_p} = \frac{\rho_m RT}{\rho_p RT} = \frac{\rho_m}{\rho_p}$$

Shu tarzda model tezligi

$$\frac{20 p_p}{p_p} = \frac{\rho_m}{\rho_p}$$

$$\rho_m = 20 \rho_p.$$

$$g_m = g_p \frac{1}{20} \frac{1}{1/10} = 0,5 g_p$$

ga teng bo'ladi. $g_m = 250 \text{ kg/h}$

Kuchlar nisbati

$$\frac{R_m}{R_p} = \frac{(\rho g^2 l^2)_m}{(\rho g^2 l^2)_p}$$

$$\frac{R_m}{R_p} = \frac{20}{1} \frac{(0,5)^2}{1} \frac{(0,1)^2}{1} = 0,05$$

dan joylashgan. Shu tarzda maketlar modeliga qarshilik kuchi quyidagicha bo‘ladi.

$$R_p = \frac{1}{0,05} R_m = 20 \cdot 337,5 = 6750 \text{ N}$$

8.3. ERKIN SIRTLI MODELLAR

Daryolar, kanallar va boshqa erkin sirtli suyuqliklarni modellashtirishda tortish kuchi juda ahamiyatli bo‘lsada, asosiy boshqaruvchi cheksiz raqam bo‘lib Frud raqami ishtirok etadi. Yuqorida keltirilgan harakatga qarshilik formulasi yana bir π guruhini olish uchun g orqali qo‘shimcha qarama-qarshi o‘zgaruvchilar sifatida olinadi.

Shunday qilib aniqlovchi tenglama quyidagicha bo‘ladi:

$$\varphi(R, \rho, g, l, \mu, g) = 0$$

O‘lchov tahlili quyidagini beradi:

$$R = \rho g^2 l^2 \varphi\left(\frac{\rho g l}{\mu}, \frac{g^2}{g l}\right)$$

$$R = \rho g^2 l^2 \varphi(\text{Re}, \text{Fn})$$

Umuman olganda bir-biriga o‘xshash sifatida juda katta Reynol‘ds raqamiga ega bo‘ladi va bu holda Re dagi kichkina o‘zgarishlar muammoning tabiatiga kuchli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Afsuski ba‘zi hollarda modellar shunchalar kichkina ammo Reynol‘ds raqamlari esa shunchalar katta bo‘lganlarida yopishqoqlik ta‘siri kuchga kiradi. To‘g‘ri natijalarga erishish uchun bu kabi vaziyatlarni bartaraf qilish kerak bo‘ladi. Bu muammoni hal qilish model o‘lchamini kattalashtirish, yoki undan ham

qiyinroq yo‘l ya‘ni Re ni kichraytirish uchun suyuqlikni o‘zgartirish (ya‘ni suyuqlikning yopishqoqlik darajasini o‘zgartirish) orqali amalga oshishi mumkin.

8.4. DARYOLAR VA OQIMCHALAR MODELLARIDA GEOMETRIK BUZILISHLAR

Daryolar va oqimchalar modellari qurilib bo‘lganlarida, juda ko‘p muammolar hal etilgan bo‘lardilar. Model uchun mos shkalani topish va shu bilan birga geometrik o‘xshashlikni saqlab qolish juda murakkab hisoblanadi.

Kerakli oqim chuqurligiga ega bo‘lgan model odatda juda katta bo‘lib, ko‘p joyni egallaydi. O‘lchamlarni kichraytirib, geometrik o‘xshashlikni saqlab qolish esa yopishqoqlik kuchi ishga kirganida juda kachik chuqurlikni beradi. Bu esa quyidagi muammolarga olib keladi:

1. Chuqurlik va chuqurlik o‘zgarishlarini aniq kattaliklari o‘lchash uchun murakkablik tug‘diradilar.
2. Kanal yuzasining juda dag‘allik darajasi deyarli past bo‘lib qoladi.
3. Laminar oqim yakunlanishi mumkin (turbulent oqim esa daryo gidravlikasida normal bo‘ladi).

Ushbu muammolarni hal etishda amalga oshiriladigan ishlar odatda gorizonta va vertikal tekisliklarda turli shkalalarni olish orqali aniq geometrik o‘xshashliklardan voz kechishdan iboratdir. Vertikal tekislik uchun 1/100 va gorizonta tekislik uchun 1/200 hamda 1/500 o‘rtasidagi shkalalar tashkil etadi.

Oqimning qoniqarli umumiy misollari va suv sarflanishi tavsiflari shu uslub orqali keltirib chiqilishlari mumkin, biroq oqimning lokal detallari modellashtirila olmaydilar.

Ushbu modellarda Frud raqami (u^2 / d) dominant o‘lchovsiz raqam sifatida foydalaniladi. Frud raqamlarida bir-biriga o‘xshash sifatida va model o‘rtasida ekvivalentlikka erishish mumkin (xatto noto‘g‘ri modellar uchun ham). Dag‘allik muammolari uchun ham to‘g‘ri keladi.

8.5. GIDROMAHSINALAR

NASOSLAR, GIDRODVIGATELLAR VA KOMPRESSORLAR

Gidromashinalar - mexanik harakatni suyuqlikning harakatiga yoki suyuqlikning harakatini mexanik harakatga aylantirib beruvchi qurilmalardir.

Gidromashinalar texnikaning suyuqlik bilan ishlaydigan turli qismlarida keng qo'llaniladi.

Nasoslar va gidrodvigatellar gidromashinalarning shunday turlariga kiradiki, ularda suyuqlik energiya qabul qilib oluvchi yoki energiya bilan taminlovchi ish jismi vazifasini bajaradi.

Nasos deganimizda suyuqlikka energiya beruvchi mashina deb tushunishimiz lozim, ya'ni suyuqlikni suv, benzin, moylar va boshqa suyuqliklarni bir joydan ikkinchi joyga (chuqurlikdan tortish, yuqoriga ko'tarish) uzatish, ular yordamida boshqa jismlarni ko'chirish, tashish uchun ishlatiladi. Ya'ni suyuqliklar nasos orqali o'tganida ularning energiyasi ortadi. Bu energiya yordamida suyuqlik ustida aytilgan ishlarni bajarish mumkin bo'ladi. Nasoslarga teskari ish bajaruvchi, ya'ni suyuqlikdan energiya olib uni harakat ko'rinishida boshqa mexanizmlarga uzatuvchi mashinalar **gidrodvigatellar** deyiladi. Gidrodvigateldan suyuqlik o'tganda energiya kamayadi. Bu kamaygan energiya hisobiga gidrodvigatelning ish qismi harakatga kelib, bu harakat boshqa mexanizmga beriladi va biror ish bajariladi. Suvning energiyasini elektr energiyasiga aylantirishda ishlatiladigan gidrodvigatellar **turbinalar** deb ataladi. Bu mashinalar juda katta miqdordagi energiyani qabul qilib va uni harakatga aylantirib generatorga berishi bilan farq qiladi.

Gidrotexnika, energetika tog' sanoati va boshqa sohalarida nasoslar va gidrodvigatellar juda ko'p qo'llaniladi. Ulardan nasos stansiyalari va elektrostansiyalar tashkil qilinadi. Bu stansiyalarda bir necha nasos yoki gidrodvigatellar birga ishlatiladi.

8.6. NASOSLARNI GURUHLASH

Nasoslar ishlash prinsipiga qarab ikki gruppaga bo'linadi:

1. Dinamik nasoslar: ularda suyuqlik gidrodinamik kuchlar ta'sirida siljtiladi. Bu gruppaga parrakli (markazdan qochirma, diagonal, o`qiy) va uyurmali nasoslar kiradi.

2. Hajmiy nasoslar: ularda suyuqlik ish kamerasining hajmi davriy ravishda o`zgarishi hisobiga siljtiladi. Bu gruppaga porshenli, plunjerli, shesternyali, vintli nasoslar kiradi.

Markazdan qochma va o`qiy nasoslar eng ko`p ishlatiladi. Har xil modifikatsiyalardagi, markazdan qochirma nasoslardan xalq xo`jaligining deyarli barcha sohalarida foydalaniladi. Bu hil nasoslardan yerlarni sug`orish, zax qochirish ishlarida, suv bilan ta'minlashda mashinasozlikda foydalaniladi.

O`qiy nasoslar, asosan, sug`orishda, hajmiy nasoslar traktorlar, avtomobillar va qishloq xo`jaligi mashinalarining gidrosistemalarida asosan (shesternyalilari), porshenli (plunjerli) nasoslar mashinasozlikda va neft mahsulotlarini bir joydan ikkinchi joyga tortishda, uyurmali nasoslar esa fermalarni suv bilan ta'minlashda ishlatiladi.

Nasoslarni yana suyuqlikka berilgan energiya turiga qarab ham guruhlash mumkin. Nasosdan o`tayotgan suyuqlikka berilgan energiya uch xil bo`lishi mumkin: Holat energiyasi Z , bosim energiyasi (p/γ), kinetik energiya ($v^2/2g$).

Faqat holat energiyasi beruvchi mashinalar suv ko`targichlar deyiladi. Bu guruhga suv ko`tarish uchun ishlatiladigan barcha qurilmalar: charxpalak, chig`ir, Arximed vinti va boshqalar kiradi. Zamonaviy qurilmalardan bu guruhga kiradiganlari qatoriga kam debitli kam sarfli quduqlardan neft chiqaruvchi tortish qurilmalari, chuqur quduqlardan gaz va havo yordamida suyuqlik (suv, neft) ko`taruvchi ko`targichlar kiradi.

Ikkinchi guruhga (bosim energiyasi beruvchi) suyuqlikka bosimni orttirish yo`li bilan energiya beruvchi nasoslar kiradi. Suyuqlikni porshen bosimi (porshenli nasoslar), aylanuvchi qismlar (rotorli nasoslar), siqilgan havo, gaz yoki bug` (pnevmatik suv ko`targichlar va h. k.) yordamida siqib chiqarish mumkin.

Uchinchi guruh nasoslarda suyuqlikka kinetik energiya ($v^2/2g$) berilib, so`ngra u bosim energiyasiga aylantiriladi. Bularga kurakli (markazdan qochma, parrakli,

o`qiy) nasoslar kiradi. Ikkinchidan, oqimchali nasoslar (ejektorlar, injektorlar, gidravlik elevatorlar) kiradi (ularda suyuqlikka energiya beruvchi boshqa suyuqlik gaz yoki bug`dir).

8.7. DINAMIK VA HAJMIY NASOSLARNING ISHLASH PRINSIPLARI

Biz yuqorida nasoslarni ikki guruhga bo`lgan edik, ya'ni nasoslarda su-yuqlik qaysi tipdagi kuchlardan (dinamik kuchlar yoki statik kuchlar) foydalanib so`rilishiga qarab, ular dinamik yoki hajmiy nasoslarga bo`linadi, degan edik.

Dinamik nasoslar o`zidan o`tqazayotgan suyuqlikning kinetik energiyasini orttiradi, so`ngra bu energiyaning ko`proq qismini bosim energiyasi (potensial, energiya)ga aylantiradi. Suyuqlikka dinamik nasoslar yordamida kinetik energiya berish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchidan, nasosning g`ildiragiga kirishdan oldin suyuqlikning bosimi siyraklanadi, siyraklanish bosimi bilan ta'minlovchi idishdagi bosimlar farqi hisobiga suyuqlikning kinetik energiyasi ortadi.

Ikkinchidan ish g`ildiragida (ish kamerasida) mexanik harakat yordamida kinetik energiya beriladi. Kurakli nasoslarda yuqori tezlik bilan aylanayotgan ish g`ildiragi suyuqlikni aylanma harakat qildiradi, natijada suyuqlikning tezligi avvalo aylanma harakat hisobiga ortadi. Aylanma harakat qilayotgan suyuqlikka albatta markazdan qochma kuch ta'sir qilib, uning markazdan qochma tezligini oshiradi. Yuqorida aytganlarimizga asosan suyuqlikning tezligi oshadi.

Markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlik nasos korpusiga borib taqalishi (markazdan qochma tezlikning kamayishi) natijasida potensial energiya (bosim) ham qisman ortadi, lekin bu nasoslarda suyuqlikka asosan kinetik energiya beriladi. Suyuqligimiz nasosdan chiqishda esa avval spiral yo`l yoki yo`naltiruvchi apparat yordamida, so`ngra esa diffuzor yordamida suyuqlikning kesimini oshirib boradi. Natijada suyuqligimiz olgan kinetik energiyaning ko`pchilik qismi potensial energiyaga aylanadi. Suyuqlikning olgan kinetik energiyasi uni inertsia bo`yicha harakat qildiradi. Potensial energiyadan zaruratga qarab turli maqsadlarda foydalaniladi. (Masalan, so`rilgan suyuqlikni transport qilish, boshqa biror mexanizmni gidrodvigatellar yordamida harakatga keltirish va hokazo).

Hajmiy nasoslarda esa nasosdan o'tayotgan suyuqlikka potensial energiya ish bo'lmasing o'zida berilgani uchun dinamik nasoslardagi kabi uning chiqishida ham maxsus qurilmalar qo'llashga hojat qolmaydi.

Bu ish porshenli nasoslarda porshenni ilgarilama-qaytma harakat qildiruvchi kuchi yordamida avval ish bo'lmasing hajmini oshirib, suyuqlikni so'rilish klapani orqali bo'lmaga kiritgan, so'ngra suyuqlikni xajmini kamaytirish hisobiga haydash klapan orqali siqib chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bu prinsip rotorli nasoslarda ham qo'llaniladi.

Plastinkali (shiberli) nasoslarda esa suyuqlikka potensial energiya berish hajmi kamayib boruvchi bo'lmada ikki tomonidan plastinkalar bilan chegaralangan hajmning avval bo'lmaning tor qismidan keng qismiga so'ngra keng qismidan tor qismiga aylanma harakat yordamida haydash bo'lmachasiga keltirilib tushurish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ikki plastinka bilan chegaralangan hajm bo'lmaning tor qismidan siljiganda esa haydash jarayoni vujudga keladi.

Shesternali va vintli nasoslarda bu ish so'rish bo'lmachasidagi suyuqlik bilan ikki tomonidan (shesternya tishlari, vintning bo'rtmalari bilan) chegaralangan hajmni to'ldirish va katta aylanma tezlik yordamida haydash bo'lmachasiga keltirib tushirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunda suyuqlik haydash bo'lmachasi bir shesternya yoki vintdag i chegaralangan hajmga ikkinchi, shesternaning tishi yoki vintdagi bo'rtmasi siqilib kirishi natijasida suyuqlik siqib chiqariladi. Bo'shagan hajm esa so'rish bo'lmachasida yana suyuqlikka to'ldiriladi.

8.8. NASOSLARNING ASOSIY PARAMETRLARI

Nasoslar ishini harakterlaydigan asosiy parametrlari yoki ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat. Nasosning so'rishi (Q) ya'ni suv sarfi, hosil qiladigan bosimi yoki naponi (H), quvvati (N), foydali ish koeffisienti (η) va nasos vali yoki ish sildiragining aylanishlari soni (n) kiradi.

1. Uzatish (ish unumi, suv sarfi) - nasos vaqt birligida uzatgan suyuqlik miqdori. Suyuqlik uzatish ikki xil bo`ladi: hajmiy uzatilish-  $Q$  l/s;  $m^3/s$ ;  $m^3/soat$  hisobida o`lchanadi va vazniy uzatilish - kg/s , t/s ; $t/soat$ hisobida o`lchanadi.

2. Bosim (napor) - bir kg suyuqlikning nasos orqali so`rib olish patrubogidan haydash patrubogigacha o`tishida olgan energiyasi; u bir joydan ikkinchi joyga tortilayotgan (so`rilayotgan) suyuqlikning m hisobidagi ustuni bilan ifodalanadi. Markazdan qochma nasoslarning sarfi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Q = \omega_1(\pi d_1 - \delta z)b_1 \sin \beta_1 \text{ yoki}$$

$$Q = \omega_2(\pi d_1 - \delta z)b_2 \sin \beta_2. \quad (8.8.1)$$

bu yerda: ω_1, ω_2 - ish g'ildiragiga kirish va chiqishdagi nisbiy tezliklar; d_1, d_2 ish sil-diagining ichki va tashqi diametrlari; δ - nasos kuraklarining qalinligi; Z - kuraklar soni; b_1, b_2 - kuraklarning kirish va chiqishdagi eni; β_1, β_2 - kuraklarning kirish va chiqishdagi egrilik burchaklari.

Bosim (napor) ikki xil usulda aniqlanadi:

1. Nasos ishlab - turganda asboblarning; vakkummetr va monometrning ko`rsatishlari yig`indisidan;

$$H = V + M \quad (8.8.2)$$

2. Loyihalashda - suv olinadigan joydagi suv sathidan suv qabul kamerasidagi suv sathigacha vertikal bo`ylab o`lchangan suvning, ko`tarilishining geometrik (geodezik) balandligi  $H_1$  bilan sistemadagi.(so`ruvchi va bosim truboprovodidagi gidravlik qarshiliklar (bosimning kamayishi) ning yig`indisi sifatida aniqlanadi;

$$H = H_r + \sum h_w \quad (8.8.3)$$

Bosimni (naporni) o`lchash birinchi usuli ya'ni nasos ishlab turganda quyidagicha hisoblanadi:

$$E_1 = h_c + Z + \frac{p_1}{\gamma} + \frac{v^2}{2g} \quad (3.3.4)$$

bu yerda h_c , p , v – soʻrish balandligi, bosimi va tezligi. Soʻngra nasosdan chiqishdagi energiyani hisoblanadi.

Bu yerda Z - kirishdagi vakuummetr bilan chiqishdagi monometrlar oʻrnatilgan sathlar farqi; p_x, v_x - haydash bosimi va tezligi.

Oxirida chiqish va kirishdan solishtirma energiyalar farqini hisoblab, nasosdan oʻtayotganda suyuqlik olgan energiya topiladi. Bu farq nasosning bosimiga teng boʻladi.

$$H = E_1 - E_2 = (h_c + H_0 + \frac{p_x}{\gamma} + \frac{V_x^2}{2g}) - (h_c + \frac{p_c}{\gamma} + \frac{V_c^2}{2g}) = h_c + \frac{p_x - p_c}{\gamma} + \frac{V_x^2 - V_c^2}{2g} \quad (8.8.5)$$

Bu yerda H_0 - kirishdagi vakuummetr bilan chiqishdagi monometrik oʻrnatilgan sathlar farqi.

Soʻrish bosimini vakkumetr koʻrsatkichi boʻyicha aniqlash mumkin.

$$P_c = P_a - P_{vak}$$

Haydash bosimini monometr koʻrsatishidan aniqlanadi.

$$P_x = P_a + P_m$$

Yuqoridagi munosabatlardan foydalanib va vakuummetrni hamda monometrik bosimlarni tegishli bosim miqdorlari orqali ifodalab

$$h_{vak} = \frac{P_{vak}}{\gamma}, h_{mono} = \frac{P_{mano}}{\gamma},$$


Nasosning bosimi uchun quyidagi munosabatni olamiz:

$$H = h_{mano} \cdot h_{vak} + Z + \frac{v_x^2 - v_c^2}{2g} \quad (8.8.6)$$

Koʻpincha tezlik bosimlarining ayirmasi kichik miqdor boʻlganligi uchun ularni amaliy hisoblashlarda eʼtiborga olinmaydi. Nasos pastki idishdan r_0 bosimli suyuqlikni soʻrib, yuqoridagi R_1 , bosimli idishga chiqarib bersin.

Nasos oʻqining pastki sathidan balandligi $h_{soʻrish}$ geometrik soʻrish balandligi deyiladi va bu balandlikkacha suyuqlik harakat qilayotgan truba soʻrish trubasi deyiladi. Suyuqlikning yuqori sathining balandligi $h_{zoʻriqish}$ geometrik balandligi

(napornaya) deyiladi va suyuqlikni bu balandlikka ko'tarishda qatnashuvchi truba haydash (nagnetatelnaya yoki napornaya) trubasi deyiladi.



3.3.1-rasm. Nasosni o'rnatish sxemasi.

1-nasos; 2-so'ruvchi truboprovod; 3-bosim truboprovodi; 4-zadvijka.

Bosimni (naporni) o'lchashning ikkinchi usuli (ya'ni loyihlashda) u quyidaicha xisoblanadi.

Avval ta'minlovchi idishdagi suyuqlik sathidan kesim (I-I) va nasosga kirishdagi kesim (2-2) uchun Bernulli tenglamasi yoziladi.

$$Z_1 + \frac{p_1}{\gamma} + \frac{v_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{p_c}{\gamma} + \frac{v_c^2}{2g} + h_c \quad (8.8.7)$$

Nasosning bosimi V-vakuummetr va M-monometr asboblarida o'lchanadi.

Keyin nasosdan chiqishdagi kesim (III-III) va suyuqlikning eng yuqori ko'tarilgan sathidan kesim (IV-IV) uchun Bernulli tenglamasi yoziladi.

$$Z_3 + \frac{p_x}{\gamma} + \frac{v_x^2}{2g} = Z_4 + \frac{p_4}{\gamma} + \frac{v_4^2}{2g} + h_x \quad (8.8.8)$$

Bu yerda: Z_1, Z_2, Z_3, Z_4 - tegishli kesimlarning geometrik balandligi. h_c, h_x - so'rish va haydash trubalaridagi gidravlik qarshiliklar.

Eng yuqori kesim (IV-IV) qabul qiluvchi idishdagi suyuqlik sathi desak idishlarning kesimi trubalar kesimiga qaraganda katta bo'lgani uchun V_1 va V_4 larni V_s va V_x larga so'rish va haydashlarga nisbatan kichik miqdor deb tashlab yuboramiz. Oxirgi ikki tenglamaga $Z_2 - Z_1 = H_1$, $Z_4 - Z_3 = H_2$ belgilashlarni kiritib ulardan so'rish va haydash bosimlarini topamiz.

$$\frac{p_{so'r}}{\gamma} = \frac{p_1}{\gamma} - H_1 - \frac{v_{so'r}^2}{2g} - h_c \frac{p_{2\ hay}}{\gamma} = \frac{p_4}{\gamma} + H_2 - \frac{v_{hay}^2}{2g} + h_{hay} \quad (8.8.9)$$

Olingan miqdorlarni yuqoridagi (4) tenglamaga qo'yib ushbu tenglikni hosil qilamiz.

$$H = \frac{p_4 - p_1}{\gamma} + Z + H_2 + H_1 + h_{so'r} + h_{hay}$$

$$Z + H_2 = h_{hay}, \quad H_1 = h_{so'rish}, \quad \text{bunga asosan}$$

$$Z + H_2 + H_1 = h_{so'r} + h_{so'r} = H_{st}$$

Ta'minlovchi va qabul qiluvchi idishlardagi suyuqlik erkin sirtidagi bosim odatda atmosfera bosimiga teng bo'ladi. Shunga asosan bosim uchun yozilgan oxirgi tenglama quyidagi ko'rinishga keladi.

$$H = H_{st} + \sum h_w \quad (8.8.10)$$

Bu yerda H_{st} -statik balandlik; - so'ruvchi va bosim trubaprovoddagi gidravlik qarshiliklarga sarflangan bosim.

Quvvat N - nasosning vaqt birligida bajargan ishi uning quvvati deyiladi. quvvat kgm/s , o.k., kvt quvvatni o'lchash birligi qilib qabul qilingan. Bir kilovatt quvvat bir sekunda bajarilgan $102\ kg.m$ ishga teng, ya'ni $1\ kvt = 102\ kg.m / s$.

Agar siz massasi $102\ kg$ keladigan yukni bir sekunda bir m balandlikka ko'tarsangiz, unda siz bir kvt quvvatga ega bo'lasiz. Bir sekunda bajarilgan $75\ kg.m$ ga teng ishni bir o. k. ga teng quvvat birligi qilib qabul qilingan, ya'ni $1\ o. k. = 75\ kg. m/s$.

Quvvat ikki xil bo'ladi.

1. Foydali quvvat

$$N_f = \frac{\gamma Q H}{102} \quad kVt$$

$$N_f = \frac{\gamma Q H}{75} \quad o.k \quad (8.8.11)$$

Bu olingan quvvat formulalari nasosning suyuqlikka bergan energiyasini ifodalovchi foydali quvvatni beradi.

2. Sarflangan quvvat yoki nasos validagi quvvat

$$\begin{aligned} N_v &= \frac{\gamma QH}{102\eta} \text{ kVt} \\ N_v &= \frac{\gamma QH}{75\eta} \text{ o.k} \end{aligned} \quad (8.8.12)$$

bu yerda η - nasosning foydali ish koeffisienti.

Sarflangan quvvat (N_v) sinashlar o'tkazishda asboblarning yordamida aniqlanadi. Foydali quvvat hisoblab topiladi.

Sarflangan quvvat ya'ni dvigatelning valini aylantirishga sarflangan quvvati foydali quvvatdan ancha ko'p bo'ladi.

$$\eta = \frac{N_f}{N_v} \quad (8.8.13)$$

Dvigatelning nasos valiga bergan quvvati bilan foydali quvvatning farqi suyuqlikni ko'tarishda turli qarshiliklarni yengishga sarf bo'ladi.

Foydali ish koeffisienti (FIK) foydali quvvatning nasos validagi sarflangan quvvatga bo'lgan nisbatidan iborat.

Nasosning fik. fik o'lchovsiz kattalik u birdan kam bo'ladi

Ba'zan adabiyotlarda pasportlarda. Katologlarda FIK prosent hisobida beriladi, ya'ni yuz marta orttirilgan holda ko'rsatiladi. Hisoblashlarda FIK ning o'lchovsiz absolyut qiymatini olish kerak bo'ladi.

Umumiy quvvat quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi.

$$\begin{aligned} N_v &= \frac{\gamma QH}{102\eta} \text{ kVt} \\ N_v &= \frac{\gamma QH}{75\eta} \text{ o.k} \\ N &= \frac{\gamma QH}{\eta} \text{ kg} \cdot \text{m/s} \\ N &= \frac{QP}{\eta} = \frac{Q\rho gH}{\eta} \end{aligned} \quad (8.8.14)$$

Bu formula yordamida nasosga dvigatel tanlab olinadi. Yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki FIK suyuqlikni ko'tarishdagi barcha energiya yo'qotishlarini ifodalovchi miqdordir. Bu yo'qotishlar uch xil turga bo'linadi: gidravlik, mexanik va hajmiy. Umumiy FIK uch tur FIK ning ko'paytmasidan topiladi.

$$\eta = \eta_{gid} \cdot \eta_{haj} \cdot \eta_{mex} \quad (8.8.15)$$

Gidravlik yo'qotish - bu yo'qotish asosan nasosda sodir bo'ladi (gidravlik ishqalanish, nasosga kirish va chiqishda, uyurmalar hosil bo'lishida va x.k) ya'ni nasosdagi qarshiliklarni yengishga sarflanadigan energiyalardir. Bu yo'qotishlarni gidravlik FIK hisobga oladi.

$$\eta_r = \frac{H}{H + \sum h_{nasos}} \quad (8.8.16)$$

Bu yerda $\sum h_{nasos}$ - nasosdagi yo'qotishlar yig'indisi. η_{gid} - gidravlik FIK nasosning tayyorlanish sifatiga bog'liq (ya'ni nasos ish qildiragi va kurakchalarining tayyorlanish sifatidir).

Mexanik yo'qotishlar - ya'ni nasosning podshipnik maydonlaridagi ishqalanishga, krivoship-shatunli mexanizmlarga sarflangan quvvat yo'qotishlar bo'lib, uni η_{mex} FIK hisobga oladi.

$$\eta_{mex} = \frac{N_{indik}}{N_l} \quad (8.8.17)$$

Bu yerda N_{indik} - nasosning indikator quvvati bo'lib, nasos validagi quvvat va mexanik yo'qotishlarga sarflangan quvvatlarning ayirmasiga teng.

Hajmiy yo'qotishlar - nasosdagi zichlagichlar, klapanlar orqali suyuqlikning sirqib ketishi va nasos kamerasining yetarli to'ldirmasligi natijasida sodir bo'ladi.

η_{hajmiy} FIK quyidagicha ifodalanadi.

$$\eta_{haj} = \frac{Q}{Q + \Delta Q} \quad (8.8.18)$$

Bu yerda ΔQ - suyuqlikning nasosdagi hajmiy yo'qotishlari.

Zamonaviy nasoslarda sizib chiqishni maksimal qiymati 5% dan oshmaydi

tezkorlik koeffitsienti n_s – ga bog'liq xolda η_x – ni aniqlash uchun quyidagi qiymatlar tavsiya etiladi.

n_s	60	80	100	120	140	160	180	200
η_x	0,955	0,963	0,697	0,972	0,976	0,977	0,978	0,980

Lomakin A.A. markazdan qochma nasosni xajmiy FIK ni aniqlash uchun quyidagi formulani taklif etadi.

$$\eta_0 = \frac{1}{1 + 0,68n_s^{-2/3}} \quad (8.8.19)$$

Nazorat savollari

1. Nasos nima?
2. Hidrodvigatel nima?
3. So`rish balandligi nima?
4. Haydash balandligi nima?
5. Dinamik nasoslarga nimalar kiradi?
6. Hajmiy nasoslarga qaysi nasoslar kiradi?
7. Quvvat nima?
8. Sarf nima?
9. Foydalanish koeffisienti nima?

8.9. MARKAZDAN QOCHMA NASOSLAR

Markazdan qochma nasoslarning ishlashi quyidagicha bo`ladi, ya'ni nasos kamerasiga markazdan qochma kuch ta'sirida suyuqlikning kelishi natijasida bosim ortib, suyuqlik nasos kamerasidan haydash trubasiga ko`tariladi.

Markazdan qochma nasoslarning asosiy qismlari korpus, valga o`rnatilgan aylanuvchi ish g`ildiraklari bo`lib, valga bir yoki bir necha ish g`ildiragi o`rnatish mumkin.

Agar valga o`rnatilgan aylanuvchi ish g`ildiragi bitta bo`lsa, bir g`ildirakli yoki bir bosqichli deyiladi. Agar valga aylanuvchi ish g`ildiraklar bir nechta o`rnatilgan bo`lsa, ko`p bosqichli deyiladi.

Nasosda ish g'ildiraklarining oshishi bosimning oshishiga olib keladi. Markazdan qochma nasoslarda hosil bo'lgan bosim ish g'ildiragining aylanishi tezligiga bog'liq.

Bir bosqichli markazdan qochma nasoslar kichik bosimli nasoslar gruppasiga mansub bo'lib, bosimni oshirish uchun valga bir necha ish g'ildiragi o'rnatiladi.


Bir bosqichli markazdan qochma nasosning tuzilishi (3.4.1-rasmda) quyidagi sxema orqali tasvirlangan bo'lib, u nasosning ishlash prinsipi shartli ravishda ko'rsatadi. Markazdan qochma nasosning so'rish trubasi orqali ta'minlovchi idishdan ko'tarilgan suyuqlik kamerasining o'rta qismiga kiradi, so'ngra val 1 orqali harakatga keltiruvchi ish g'ildiragi 2 ning kuraklari 3 orasidan o'tib, nasos kamerasiga 4 ga tushadi. Bu yerda suyuqlik markazdan qochma kuch ta'sirida hosil bo'lgan bosim suyuqlikni haydash trubasiga siqib chiqaradi.

Suyuqlikning ish g'ildiragidagi harakati juda murakkabdir. Suyuqlikning haydash trubasida ma'lum miqdordagi tezlik bilan ta'minlanishi uchun o'tkazuvchi kamera yo'naltiruvchi apparat 5 va diffuzor 6 kabi maxsus moslamalardan foydalaniladi.

Suyuqlikning nasosga so'rilishi qabul qiluvchi idishdagi suyuqlik sathiga ta'sir qiluvchi bosim bilan so'rish trubasidagi siyraklanish bosimi orasidagi farq hisobiga amalga oshadi. Yuqoridagi aytilgan bosimlar farqi so'rilish balandligi, so'rish trubasidagi qarshiliklar va suyuqlikka tezlik berishga sarf bo'ladi. Bu tezlik suyuqlikning kameraga va so'ngra parraklar orasidagi kanalga kirishiga yordam beradi.

Nasosning so'rish yo'li - korpusning so'rish trubasidan ish g'ildiragiga o'tishdagi kanalidir. Spiral yo'l - suyuqlikning nasosdan chiqish kanali spiral kamera yoki yo'naltiruvchi apparat ko'rinishida bo'ladi.

Ish g'ildiragidan chiqqan suyuqlik zarrachasi spiral kamerasining biror qismiga kirgandan keyin radius bo'yicha harakatlanishini davom ettirish bilan birga, aylanma harakat qilib chiqish tomonga intiladi va o'zidan keyin kelayotgan suyuqlik zarrachasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi.



3.4.1-rasm . Markazdan qochma nasos sxemasi.

**Yo`naltiruvchi apparat** – yo`naltiruvchi apparat ish g`ildiragidan chiqqan suyuqlikning radius bo`yicha kengayib borishi davomida aylana bo`yicha ham kesimning ortib borishiga majbur qiladi. Natijada apparatdan o`tish davomida tezlik kamayib boradi.

Yo`naltiruvchi apparatning vazifasi ish g`ildiragidan chiqqan suyuqlikning haydash trubasiga kirishini osonlashtirishdir.

8.10. NASOS VA TURBINALAR UCHUN EYLER TENGLAMASI

Markazdai qochma, nasos uchun 1755 yil L.Eyler kashf qilgan va bu tenglama kurakli mashinalar nazariyasida asosiy tenglama deb tan olingan va keyinchalik u trubinalar va boshqa_turdagi kurakli mashinalarga ham qo`llanila boshlandi. Eyler tomonidan kashf qilingan tenglama nasos ish g`ildiragining geometrik va kinematik harakteristikalarini nasos hosil qilgan bosim bilan bog`lagan. Bu tenglama quyidagi ikki masalani hal qilishga yordam beradi.

1). Berilgan sarf va hosil qilinish kerak bo`lagan bosim bo`yicha ish g`ildiraklar soni va uning o`lchamlarini topish

2). Berilgan ish g`ildiragi va valning aylanish soni bo`yicha hosil bo`ladigan bosimni hisoblash.

Tenglamani chiqarishda.

1). Kuraklarning chekliligi hisobga olinmaydi.

2). Kuraklar orasidagi barcha kanaldan oqayotgan suyuqliklar bir xil sharoitda oqadi deb qaraladi.

Tenglamani chiqarish uchun markazdan qochma nasos ish g'ildiragi hosil qilgan bosimni hisoblaylik(8.10.1-rasm). Suyuqlik so'rish trubasidan kanalga S_1 tezlik bilan keladi. Kirishdagi tezlik S_1 kattaligi va yo'qolishi bo'yicha kanalning boshlanishidagi absolyut tezlikka ya'ni aylanma tezlik U_1 va kurakka nisbatan tezlik w_1 lardan tuzilgan parallelogramm diogonaliga teng. Kanaldan chiqishda suyuqlikning absolyut tezligi S_2 aylanma tezlik U_2 nisbiy tezlik w_2 bo'ladi. R_1 bilan kanalga kirishda bosim kanaldan chiqishdagi bosimni R_2 deb olsak u holda kanalning kirish va chiqish kesimlari uchun Bernulli tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$Z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{\omega_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{\omega_2^2}{2g} - H_k - h_{1-2} \quad (8.10.1)$$

Bu yerda h_{1-2} - kirish va chiqish kesimlar orasidagi gidravlik yo'qotish . H_k - kanaldagi harakat vaqtida markazdan qochma kuch hisobiga bosimning ortishi.

Eslatma:


H_k ni energetik nuqtiaiyi nazardan qarasak H_k - markazdan qochma kuch hisobiga hosil bo'lgan energiyani bildiradi. Bu energiya kinetik energiyaning ko'p ortib potensial energiyaning kam ortishi yoki potensial energiya ko'p ortib kinetik energiya kam ortishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Kinetik energiyaning ko'p ortishi ish g'ildiragini aktiv, potensial energiyaning ko'p ortishi reaktiv deyiladi.

Bunday nomlanish turbinalarda ko'proq qo'llaniladi (aktiv va reaktiv turbinalar).

Aktivlikning chegarasi $P_1 = P_2$ tenglikning bajarilishining reaktivlikning chegarasi $\frac{C_1^2}{2g} + \frac{C_2^2}{2g}$ - ning bajarilishi bilan baholanadi.

Bu yerda U_1 va U_2 - kirish va chiqishdagi aylanma tezlik, W_1 va W_2 - nisbiy tezlik, ω -burchak tezligi, C_1 , C_2 - kirish va chiqishdagi absolyut tezlik

Aylanma tezlik U nasos g'ildiragining diametrining katta kichikligini va aylanish soniga bog'liq.



8.10.1-rasm . Nazariy bosimga doir chizma .

Nasosdagi soʻrilish qabul qiluvchi, idishdagi suyuqlik sathiga taʼsir qiluvchi bosim bilan soʻrish trubasidagi siyraklanish bosimi orasidagi farq hisobiga amalga oshadi. Aytilgan bosimlar farqi soʻrilish balandligini, soʻrish trubasidagi qarshiliklar va suyuqlikga tezlik berishga sarf boʻladi. Bu tezlik suyuqlikning kameraga va soʻngra parraklar orasidagi kanalga kirishiga yordam beradi .

Eslatma:

Taʼminlovchi idish bilan soʻrish trubasidagi bosimlar farqi soʻrilayotgan suyuqlik bugʻlari bosimidan kam boʻlmasligi kerak .

Haydash balandligi markazdan qochma nasos yengishi mumkin boʻlgan eng yuqori balandlik boʻlib, g'ildirakning tashqi aylanmasidagi tezlik qancha katta boʻlsa, u ham shuncha katta boʻladi.

Absolyut tezlik U bu $C=U+W$ yaʼni aylanma tezlik bilan nisbiy tezlik geometrik yigʻindisiga teng. U ning yoʻnalishi aylanaga urunma yoʻnalishda yoʻnalgan (8.10.1-rasmga qarang) nisbiy vektor tezligimiz ishchi parrak sirtiga urunma yoʻnalishida yoʻnalgan.

Markazdan qochma kuch hosil qilgan energiya uning r_2-r_1 masofada bajargan solishtirma ishga teng boʻladi. Ish g'ildiragining burchak tezligi ω deb belgilab olsak, u xolda ogʻirligi (G), massasi (m) boʻlgan suyuqlik zarrachasiga taʼsir

qiluvchi markazdan qochma kuch $m\omega^2 r$ yoki $G/g\omega^2 r$ ga teng bo'ladi. U holda r_2 - r_1 masofada bajargan ish

$$A = \int_{r_1}^{r_2} \frac{G}{g} \omega^2 r dr = \frac{G\omega^2}{2g} (r_2^2 - r_1^2) \text{ ga teng bo'ladi.} \quad (8.10.2)$$

Burchak tezligi ω ning radiusi r ga ko'paytmasi aylanma tezlik u ga teng shuning uchun

$$\omega^2 r_2^2 = u_2^2; \omega^2 r_1^2 = u_1^2$$

u xolda

$$A = G \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g} \quad (8.10.3)$$

A ni G ga bo'lib kanaldagi harakat vaqtida markazdan qochma kuch hisobigabosimning ortishini topamiz

$$H_k = \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g}$$

Buni yuqoridagi (11.1) tenglamaga qo'ysak quyidagi tenglikni olamiz.

$$Z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{\omega_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{\omega_2^2}{2g} - \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g} + h_{1-2} \quad (8.10.4)$$

Ishchi g'ildiragiga kirish oldidagi bosim

$$H_1 = Z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{c_1^2}{2g}$$

G'ildirakdan chiqish ortidagi bosim

$$H_2 = Z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{c_2^2}{2g}$$

Kirish va chiqish bosimlari quyidagicha hisoblanadi.

$$H = H_2 - H_1 = Z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{c_2^2}{2g} + h_{1-2} - (Z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{c_1^2}{2g}) \quad (8.10.5)$$

Hadlarni tenglikning ikki tomoniga gruppallasak.

$$Z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{c_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{c_2^2}{2g} + h_{1-2}H \quad (8.10.6)$$

Endi (11.2) dan (11.3)ni ayirsak unda quyidagini hosil qilamiz.

$$\frac{\omega_1^2}{2g} - \frac{c_1^2}{2g} = \frac{\omega_2^2}{2g} - \frac{c_2^2}{2g} - \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g} + H \quad (8.10.7)$$

Bu tenglikdan kirish va chiqishdagi bosimlarning farqini topamiz, u quyidagiga teng bo'ladi:

$$H = \frac{\omega_1^2 - \omega_2^2}{2g} + \frac{c_2^2 - c_1^2}{2g} + \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g} \quad (8.10.8)$$

Kirish va chiqishdagi tezlik paralleligidan foydalansak

$$\begin{aligned} \omega_1^2 &= u_1^2 c_1^2 - 2u_1 c_1 \cos \alpha_1 \\ \omega_2^2 &= u_2^2 c_2^2 - 2u_2 c_2 \cos \alpha_2 \end{aligned}$$

Bularni (8.10.4) ga qo'yib, ba'zi soddalashtirilgandan keyin ushbuni xosil qilamiz.

$$H = \frac{u_2 c_2 \cos \alpha_2 - u_1 c_1 \cos \alpha_1}{g} \quad (8.10.9)$$

Tenglama (8.10.5) kirish va chiqishdagi bosimlar farqi yoki suyuqlikning ish g'ildiragidan olgan bosimi yuqoridagi munosabatlar yordamida aniqlanadi. Tenglama (8.10.5) markazdan qochma mashinalarning asosiy tenglamasi yoki Eyler tenglamasi deyiladi.

Markazdan qochma nasoslarning nazariy sarfi.

Markazdan qochma nasoslarning nazariy sarfini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$Q = \omega v$$

Bu yerda ω - oqim ko'ndalang kesim yuzi; C - shu kesimga normal bo'lgan o'rtacha tezlik.

Markazdan qochma nasoslarda ishchi kurakning chiqishdagi ko'ndalang kesim

yuzi silindrning yonbosh sirti kabi ya'ni diametri ishchi kurakning tashqi diametri D_2 deb qabul qilingan va balandligi chiqishdagi eni b_2 u vaqtda $\omega = \pi D_2 b_2$; sirt yuzasiga normal va radius bo'ylab yo'nalishga ega bo'lgan absolyut tezlik S_2 (meridional tezlik)

$$Q_{\text{naz}} = \pi D_2 b_2 C_{2r}$$

$$\text{Meridional tezlik } C_{2r} = C_2 \sin \alpha_2$$

Foydali sarfni (Q) hosil qilish uchun yuqoridagi formula hajmiy foydali koeffisientini η_v va ya'ni suyuqlikning nasosdagi zichlagichlar klapanlar orqali sirqib ketishi va nasos ish kameralarini yetarli to'ldirmasligi natijasida hosil bo'ladigan hajmiy FIK - ga ko'paytirishimiz darkor.

$$Q = Q_H \cdot \eta_v$$

8.11. NASOSNING NAZARIY BOSIMI. KURAKLAR EGRILIGINING BOSIMGA TA'SIRI

Yuqorida biz Eyler tenglamasini keltirib chiqargan edik. Va bu tenglama barcha kurakli mashinalar uchun umumiydir. Bizga ma'lumki ish g'ildiragi orasida suyuqlik harakati ancha murakkab shu sababli Eyler tenglamasi yordamida hisoblangan bosim nazariy bosim deyiladi. Eyler tenglamasini nasosga qo'llaganimizda $\alpha_1=90$ deb qabul qilishimiz kerak. Chunki odatda suyuqlik so'rish trubasi so'rilish yo'li orqali o'tib ish g'ildiragi kanaliga radial yo'nalishga kiradi, $\alpha_1=90$ deb olsak

nazariy bosim formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: $H_{\text{naz}} = \frac{U_2 C_2 \cos \alpha_2}{g}$.

Yuqoridagi tenglamamiz nasos ish g'ildiragi suyuqlikga bergan bosimning nazariy tenglamasi yoki markazdan qochma nasoslarning asosiy tenglamasi deb yuritiladi. Bu tenglamada U_2 aylana tezlik $C_2 \cos \alpha_2$, esa absolyut tezlikning aylana tezlik yo'nalishi proeksiya ekanligini nazarda tutmog'imiz lozim.

Tenglamadan ko'rinib turibdiki, U_2 va C_2 faqat bosimga bog'liq bo'lsa nasosdan o'tayotgan suyuqlik miqdoriga bog'liq emas. Tezlik parallelogramidan ko'rinadiki U_2 va C_2 o'rtasida quyidagi munosabat mavjud.

$$C_2 \cos \alpha_2 = U_2 - \omega_2 \cos \beta_2 \quad (8.11.1)$$

Bu tenglikni yuqoridagi tenglamaga qo`ysak, ushbu ko`rinishni hosil qilamiz.

$$H_H = \frac{u_2^2}{2g} \left(1 - \frac{\omega_2^2}{u_2^2} \cos \beta_2\right) \quad (8.11.2)$$

Bu tenglamadan ko`rinib turibdiki,  $H_{naz}$  - ish g`ildiragi aylanishlar soni kvadratiga proporsional (ya'ni $U_2 = \pi d_2 n$) va kuraklar shakliga bog`liq ekan.

Bunda uchta holni kuzatishimiz mumkin.

1. Kuraklar ish g`ildiragi aylanishi tomoniga egilgan $\beta_2 < 90^0$, ya'ni va

$\cos \beta_2 > 0$. Bu holda $\left(1 - \frac{\omega_2^2}{U_2^2} \cos \beta_2\right)$ bu birdan katta $H_H > \frac{U_2^2}{2g}$.

2. Kuraklar ish g`ildiragi aylanishiga teskari egilgan $\beta_2 > 90^0$ va $\cos \beta_2 < 0$. Bu holda bu birdan $\left(1 - \frac{\omega_2^2}{U_2^2} \cos \beta_2\right)$ kichik $H_H < \frac{U_2^2}{2g}$.

3. Kuraklar radial yo`nalishiga ega ya'ni $\beta_2 = 90^0$ va bu holda $\cos \beta_2 = 0$.

$$\left(1 - \frac{\omega_2^2}{U_2^2} \cos \beta_2\right); \quad H_H = \frac{U_2^2}{2g}$$

Bulardan quyidagi xulosaga kelamiz.

Nazariy bosimning eng katta qiymati kuraklar ish g`ildiraklari aylanishi tomoniga egilganda bo`lib, eng kichik qiymat teskariga egilganda bo`lar ekan. Lekin,  $\beta_2$  ning qiymati ortgan sari gidravlik yo`qotishlar ortib, nasosning FIK kamayib ketadi. Shu sababli amaliyotda nasoslarda H_H kam bo`lishiga qaramay, β_2 ni 90^0 dan kichik qilib olinadi.

Amaliyotda eng ko`p qo`llaniladigan burchaklar 16^0 dan 40^0 gacha qiymatlarda olinadi.

β_2 - ning kichrayishi albatta ish g`ildiragining, reaktivligini oshiradi.

Bu esa turbinalar nazariyasida qo`l keladi va aylanish sonining ortishiga sabab bo`ladi.

Foydali bosim

Nasos ish g'ildiragidan amalda olinadigan bosim amaliy deyiladi va H_a bilan belgilanadi.

Amaliy bosimning nazariy bosimga nisbati foydali ish koefitsientini beradi.

$$\eta_r = \frac{H_a}{H_H} \quad (8.11.3)$$

Gidravlik FIK 0,8 bilan 0,95 o'rtasida o'zgaradi.

$$H_a = \eta_r H_H = \eta_r \frac{u_2 c_2 \cos \alpha_2}{g} \quad (8.11.4)$$

yoki

$$H_a \eta_r = \frac{u_2 c_2 \cos \alpha_2 - u_1 c_1 \cos \alpha_1}{g} \quad (8.11.5)$$

Eslatma. Bosim tenglamalariga ish g'ildiragidagi kuraklar soni kirmaydi.

Haqiqatda olganimizda kuraklar soniga qarab, ular orasidagi kanal turlicha bo'ladi. Bu holda esa bosimga ta'sir qilmay qolmaydi. Yuqoridagi tenglamamiz kuraklar ko'p holati uchun olingan, chunki u kanallarda oqayotgan suyuqlikning barcha zarralari bir xil traektoriya bo'yicha harakat qilgan holi uchun o'rinlidir.

Kuraklar soni, odatda, 6 tadan 12ta gacha bo'ladi. Yo'naltiruvchi apparat kuraklarning soni ish g'ildiragi kuraklarining soniga teng bo'lmaydi.

Nasosda energiyaning yo'qotilishi. Nasosning foydali ish koefitsienti.

Nasosga berilgan energiya nasosdan olingan energiyaga nisbatan ko'p bo'lib, ularning farqi energiyaning yo'qotilishini ko'rsatadi.

Nasosda energiya yo'qotish uch xil yo'qotishdan tarkib topadi:

Mexanik yo'qotish; 2) Hajmiy yo'qotish ; 3) Hidravlik yo'qotish ;

Mexanik yo'qotish valga berilgan energiya bilan ish g'ildiragi kuraklarining suyuqlikga bergan energiyasining farqini bildiradi.

Mexanik yo'qotishning asosiy turlari podshipnik va salnikda ishqalanish kuchini yengish uchun sarf bo'lgan yo'qotishdan iborat.

Hajmiy yo`qotish nasos so`rayotgan suyuqlikka sarflangan energiya bilan nasosdan chiqayotgan suyuqlik energiyasining farqini bildiradi.

Nasosning hajmiy yo`qotishi chiqarilayotgan suyuqlik miqdorining so`rilayotgan suyuqlik miqdoriga nisbatini ko`rsatuvchi hajmiy FIK bilan baholanadi.

Ya'ni :

$$\eta_A = \frac{Q_{chiq}}{Q_{so'rish}}$$

Gidravlik yo`qotish bu so`rish va haydash trubalarida barcha qarshiliklarni yengishga, nasos kuraklarining chekliligi, g`ildirak, kanallarda va boshqalarga sarf bo`lgan energiyani bildiradi.

U quydagicha aniqlanadi, nasosga kirish oldidan o`matilgan vakuummetr ko`rsatgan bosim R_{vak} va chiqishda o`matilgan manometr ko`rsatgan bosim R_{manom} orqali quyidagicha aniqlanadi.

$$H^1 = \frac{P_{vak}}{\gamma} + \frac{P_{manometrik}}{\gamma} + \Delta Z \quad (8.11.6)$$

Bosimlar farqi

$$\Delta H = \left(\frac{u_2 c_2 \cos \alpha_2}{g} \right) - \left(\frac{P_{vak}}{\gamma} + \frac{P_{manom}}{\gamma} + \Delta Z \right) = H - H^1 \quad (8.11.7)$$

Gidravlik yo`qotish gidravlik FIK yordamida baholanadi.

$$\eta = \frac{H_H - \Delta H}{H_H} = \frac{\Delta H}{H_H}$$

Nasoslarda energiyaning umumiy yo`qotilishi foydali ish koeffisienti yordamida hisoblanishi mumkin.


Umumiy

$$\eta = \eta_M \eta_X \eta_\Gamma \quad (8.11.8)$$

8.12. NASOS BILAN TA'MINLANGAN TRUBALARNING HISOBI

Biz yuqorida trubalarni hisoblashda uning xarakteristikasini tuzish yoki qarshilikni yengish uchun sarf bo`ladigan energiyani hisoblash zarur bo`lishini ko`rgan edik. Sarflanadigan energiya trubaning uzunligi va diametri, qarshilik koeffisienti, mahalliy

qarshiliklar va boshqalarga bogʻliq. Bu sarfni yengish uchun qancha bosim kerakligini hisoblash yoʻli bilan suv toʻldirilgan idishni qancha balandlikka koʻtarish zarurligini yoki berilgan bosim yordamida qancha sarf olish mumkinligini hisoblash yoʻllari bilan tanishdik. Trubalardagi energiya sarfini engish va tegishli sarf olish uchun nasoslardan ham foydalanish mumkin.



3.12.1-rasm Nasosning ishchi nuqtasini aniqlashga doir chizma

Bunda albatta nasosning bosimi kerakli bosimdan kichik boʻlmasligi kerak..Shuning uchun truboprovodda tegishli sarfni olish uchun yetarli bosimni hosil qilib bera oladigan nasosni tanlash, nasosli trubalar hisobining asosini tashkil qiladi, buni amalga oshirish uchun bir grafikni oʻziga nasosning va trubaning bosim xarakteristikalarini bir xil masshtabda chizamiz.

3.12.1-rasmda 1-chiziq nasos xarakteristikasi, 2-chiziq esa truboprovod xarakteristikasi va 3-chiziq nasos FIK grafigidir. Koʻrinib turibdiki, xarakteristikalar joylashgan sohani uch qismga ajtatish mumkin. Birinchi qismda nasosning bosimi trubaning shu sarfga tegishli bosimdan ortiq boʻlib, bu qismda nasosning foydali ish koeffisienti kam boʻladi. Ikkinchi qismda nasos bosimi bilan, trubada tegishli sarf olish uchun zarur boʻlgan bosimlar deyarli teng boʻlib, bu qism xarakteristikalar kesishgan A nuqtani oʻz ichiga oladi. Shunday qilib, sohaning bu qismida nasos eng yaxshi ishlaydi va uning foydali ish koeffisienti yuqori boʻladi, yʻani uning bosimi trubada suyuqlikning kerakli sarfini hosil qilish uchun butunlay sarf boʻladi.A niqtada esa nasos truba bilan eng

yaxshi ishlaydi. Uchinchi qismida nasosning bosimi trubada tegishli sarf olish uchun zarur bo'lgan bosimdan kichik bo'ladi, y'ani nasos kerakli sarfni ta'minlay olmaydi.

Nasos xarakteristikasi bilan truboprovod xarakteristikalarining kesishgan nuqtasi A nasosning ishchi xarakteristikasi deb yuritiladi. Berilgan trubada tegishli sarfni olish uchun shunday nasos tanlab olish kerakki ularni xarakteristikalari shu sarf qiymati atrofida kesishsin.

8.13. KURAKLI NASOSLARDA KAVITATSIYA. CHEGARAVIY SO`RILISH BALANDLIGI

Nasos kanalining botiq tomonida bosim ortib, qavariq tomonida kamayishi hisobiga uyurmali harakat vujudga keladi. Ish g'ildiragining ba'zi qismlarida, asosan kirish qismida, absolyut bosim suyuqlikning to'yingan bo'g'lari bosimdan kamayib ketishi mumkin, shu sababli kavitatsiya hosil bo'ladi. Natijada suyuqlik oqimida pufakchalar hosil bo'ladi, ular ish g'ildiragidan chiqishga yaqinlashgan sari, bosim ortgani sababli, ya'ni erib ketadi, natijada pufakchalar egallagan bo'shliq birdan yopilishidan kichik gidravlik zarba hosil bo'ladi. Pufakchalarning yopilishidan hosil bo'lgan zarba nasosning ish g'ildiragi va nasos korpusiga katta zarar yetkazadi. Kavitatsiyaning asosiy zararlaridan biri – uning kuchayib ketishi natijasida nasosning moslashgan ishlash tartibi buzilishidir. Bunda so'rilish tomondagi vakuummi, chiqishdagi bosimni, sarf bo'layotgan quvvatni ko'rsatuvchi asboblarning strelkasi ko'rsatishni yo'qotib, betartib harakat qila boshlaydi va nasos suyuqlikni tortmay qo'yadi. Tashqaridan kavitatsiya hodisasiga xos shovqin paydo bo'lishi, nasos va unga tutashgan trubalarning tebranishi bilan harakterlanadi. Ikkinchidan - kavitatsiya kuchaygan joylarda metallarning yemirilishi sodir bo'ladi(8.13.1 -rasm).

Yuqorida aytilganlardan, kavitatsiya hodisasining paydo bo'lishiga nasosning kirish qismida va ish - g'ildiragida bosimning kamayib ketishi sababdir. Nasosning kirish qismida bosimning kamayishi ikki sababga ko'ra sodir bo'lishi mumkin; aylanish sonining ortishi, so'rilish balandligining ortishi. Aylanish sonining ortishi markazdan qochma kuchning ortishiga sabab bo'lgani uchun ish g'ildiragi o'qida (ish g'ildiragi kanaliga kirishda) bosimning kamayib ketishiga olib keladi .

So`rilish balandligining ortishi nasosga kirishda bosimning kamayishi orqali ta'sir qilib, so`rilish balandligi ma'lum chegaradan o`tganda so`rilishning to`xtashiga olib keladi. Ana shu chegara qiymat chegaraviy so`rilish balandligi deb yuritiladi.

Nasos qurilmasi sxemasi asosida chegaraviy so`rish balandligini quyidagicha tushuntirishga harakat qilamiz. Buning uchun ta'minlovchi idishdagi sathni 1-1 kesim, nasosga kirishdagi bo`limni 2-2 deb, belgilab olingan kesimlar uchun Bernulli tenglamasini tuzamiz. 1-1 kesimda bosim P_1 , tezlik v_1 , 2-2 kesimda bosim P_2 (so`rilishi bosim, tezlik  $v_2$  so`rilish tezligi kesimlar orasidagi balandlik h_c (so`rilish balandligi) deb quyidagi tenglamani hosil qilamiz,

$$\frac{P_1}{\gamma} + \frac{v_1^2}{2g} = \frac{P_c}{\gamma} + \frac{v_c^2}{2g} + h_c + h_{1-2} \quad (8.13.1)$$

Bundan so`rilish balandligi h_c -ni topamiz

$$h_c = \frac{P_1}{\gamma} - \left(\frac{P_c}{\gamma} + \frac{v_c^2 - v_1^2}{2g} + h_{1-2} \right) \quad (8.13.2)$$

Bu yerda h_{1-2} - gidravlik yo`qotishlar yig`indisi

$$h_{1-2} = \lambda \frac{l_1}{d} \frac{v_c^2}{2g} + \sum \xi \frac{v_c^2}{2g} \quad (8.13.3)$$

Bu yerda; l_c – so`rish trubasining uzunligi

d_c – so`rish trubasining diametri

$\sum \xi \frac{v_c^2}{2g}$ - mahalliy qarshiliklar yig`indisi

Yuqoridagi tenglamadan h_c – so`rilish balandligidan quyidagi xulosaga kelamiz. Ta'minlovchi idishdagi kesim bosimning ortishi so`rilishi balandligi (h_c), so`rilish bosimi ( $P_c$ ), so`rilish tezligi (v_c) va so`rish trubasidagi qarshilikning ortishi bilan kamayadi.


Agar ta'minlovchi idishdagi bosim $P_t = P_a$ bo'lsa, $V_t = 0$ bo'lsa, (idish ochiq), so'rilish bosimi (P_c) esa, suyuqlikning to'yingan bug' bosimiga teng.

Ya'ni $P_c = P_t$ bo'lsa u holda tenglamamiz quyidagicha yoziladi.

$$h_c \leq \frac{P_a}{\gamma} = \left(\frac{P_t}{\gamma} + \frac{v_c^2}{2g} + h_{1-2} \right) \quad (8.13.4)$$

Amaliy chegaraviy so'rilish balandligi

6 ÷ 8 m so'rilish tezligi esa $v_c = 1-1.5$ bo'ladi.



8.13.1-rasm. Kavitatsiyaga doir chizma

Kavitatsiya xarakteristikas.

Q, H, N, η (sarf va bosim quvvat va FIK) koefitsientlarining h_c so'rilish balandligiga bog'liqlik grafigi nasosning kavitatsiya xarakteristikalari deb ataladi.

$$Q = f_1(h_c); H = f_2(h_c); N = f_3(h_c); \eta = f_4(h_c) \quad (8.13.5)$$

Kavitatsiya xarakteristikasi maxsus qurilma yordamida tajriba yo'li bilan nasosda siniladi va tajribada olingan natijalarga asosan grafik tuziladi.

Tajribada asosan so'rilish bosimini kamaytirib borib yoki so'rilish balandligini oshirib borib tegishli Q, H, N , va η lar o'lchanadi va shularga asosan grafik tuziladi

Tajribadan maqsad kavitatsiya hodisasi bo'lishini oldini olishdir. Kavitatsiya h_c – so'rilish balandligini chegaralaydi. Kavitatsiyadan holis bo'lish uchun suyuqlikning nasosga kirish bo'limida so'rish patrubogida naporimiz suyuqlikning to'yingan bug'i bosimdan katta bo'lishi kerak.

Mana shu bosim farqi kavitation zapas deyiladi va Δh_{kav}^{kp}

$$\Delta h_{kav} = \left(\frac{P_c}{\gamma} + \frac{v_c^2}{2g} \right) - \frac{P_{t.p}}{\gamma} \quad (8.13.6)$$

Kavitatsiya zapasi qaysi kim kavitatsiya sodir bo'lishiga kiritik deyiladi.

Δh_{kav}^{kp} . Kiritik kavitatsiya zapasini S.S. Rudnev formulasi yordamida topish mumkin.

$$\Delta h_{kav}^{kr} = 10 \left(\frac{n\sqrt{Q}}{c} \right)^{\frac{4}{3}} \quad (8.13.7)$$

Bu yerda Q , m^3/sek , n (ayl/min) C -ning qiymati ishchi g'ildiragi konstruksiyasiga bog'liq. Ko'pincha $C=800 \div 1000$ nasosimiz kavitatsiyasiz ishlash uchun ruxsat etilgan kavitatsiya zapasi $\Delta h_{kav}^{kp} = (1,2-1,3)$ xisoblashda ishlatiladi.

Ruxsat etilgan kavitatsiya zapasini bila turib ruxsat etilgan so'rish balandligini Δh_{kav}^{pyx} aniqlashimiz mumkin.

$$\Delta h_{kav}^{rux} = \frac{P_a - P_t}{\gamma} - \sum h_c - \Delta h_{kav}^{rux} \quad (8.13.8)$$

Bu yerda: P_t - suyuqlikning to'yingan bug' bosimi

$\sum h_s$ - so'rish balandligidagi qarshiliklarga yo'qolgan napor.

Nazorat savollari

1. Hidravlik hisob nima?
2. Optimal foydali ish koeffisienti qaysi nuqtada yotadi?
3. Manometr nima?
4. Vakuummetr nima?
5. Ishchi nuqta qanday quriladi?

8.14. HAJMIY NASOSLAR


HAJMIY NASOSLAR TO'G'RISIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

Hajmiy nasoslar suyuqlikning ma'lum bir hajmini ajratib olib, unga kuch ta'sir qilish yo'li bilan harakatga keltiriladi.

Hajmiy nasoslar ikki katta guruhga bo'linib, ular porshenli va rotorli nasolar deyiladi. Bular ya'ni, bir qancha kichik guruichalarga bo'linadi.

Hajmiy nasoslarning energetik nuqtaiy nazardan qaraganimizda, ajratib olingan hajmdagi suyuqlikning potensial energiyasini oshirib beradi. Bu potensial energiyadan ikki xil usulda foydalanish mumkin: suyuqlikning yuqoriga ko'tarish yoki trubada oqizish;

foydali ish bajarish yoki ikkinchi mexanizmni harakatga keltirish. Birinchi holda suyuqlikda energiya suyuqlikka energiya berayotgan mexanizm nasos sifatida ishlasa, ikkinchi holda gidrouzatma sifatida ishlaydi.



8.14.1-rasm. Porshenli nasosning sxemasi.

Rasmda porshenli nasosning soddaxemasi keltirilgan. Bunda porshen 3, tarkibida shtok 2 boʻlgan krivoship shatun 1 yordamida harakat qiladi. Bu nasosda suyuqlikning soʻrilishi va haydashini porshen silindrda ilgariqlanma - qaytma harakatiga asoslangan. Porshen silindr ichida qaytma (orqaga) harakat qilganda uning oldidagi ish – boʻlmasining hajmi ortib, siyraklanish hosil boʻladi.

Bu siyraklanish maʼlum chegaraga yetganida ish boʻlmasidagi bosim bilan tirgak klapan 7 ochiladi ostidagi xrapovikda boʻlgan bosim orasidagi farq soʻrish klapani 4 ni ochadi va suyuqlik soʻrish trubasi 6 orqali ish boʻlmasiga kiradi. Soʻrish jarayoni porshen oʻzining eng chekka soʻrish chegarasiga yetguncha davom etadi. Bunda soʻrish trubasidagi siyraklanish soʻrish klapani oldiga joylashtirilgan vakuummetr yordamida oʻlchanadi. Taʼminlovchi idishdagi suyuqlik sathidan nasos silindirining eng yuqori sathigacha boʻlgan balandlik soʻrish balandligi h_c deyiladi. Nasosni ishga tushurganimizda u avval soʻrish trubasidagi havoni tortadi va suyuqlik soʻrish trubasiga koʻtariladi. Nasos biroz vaqt ishlagandan soʻng soʻrish trubasi va silindirdagi havo haydab chiqarilib, suyuqlik silindrni toʻldiradi.

Porshen ilgari lanma (oldinga) harakat qilganda ish bo`lmasida bosim ortib, so`rish klapani yopiladi. Bo`lmadagi bosim ortishida davom etib haydashga yetarli bosim  $P_{haydash}$  ga yetganida haydash klapani ochilib, suyuqlik haydash trubasi 9 ga o`ta boshlaydi. Suyuqlikning haydash porshenning eng chekka haydash chegarasiga yetguncha davom etadi.

8.14.1-rasmga qarang h_{hayd} silindrdagi yuqori sathi bilan suyuqlik ko`tarilgan eng yuqori sathlarining farqi haydash balandligi deyiladi.

So`rish balandligi bilan haydash balandligining yig`indisi to`liq statik bosimdan iborat ya'ni

$$H_{ct} = h_{so`rish} + h_{haydash} \quad (8.14.1)$$

Porshenli nasoslar yuqori bosim kerak bo`lgandagina ishlatiladi. Amalda ko`p hollarda porshenli nasoslar markazdan qochma nasoslarni siqib chiqaradi. Hajmiy gidro-uzatmalar tarkibida ishlayotgan nasoslar asosan porshenli nasoslar turiga kiradi. Porshenli nasoslarning ustunligi foydali ish koeffisienti yuqoriligidir. Porshenli nasoslarning markazdan qochma nasoslarga taqqoslagandagi asosiy kamchiligi ularning kattaligi, qimmatga tushishi, ishlatishning murakkabligidir.

Porshenli nasoslarda ham markazdan qochma nasoslar kabi, energiyaning yo`qotilishi mavjud bo`lib, u mexanik va gidrodinamik qarshiliklarni yengishga sarf bo`ladi. Bulardan biri hajmiy yo`qotish bo`lib, unga nazariy sarf bilan haqiqiy sarfning teng emasligi sababdir. Oddiy harakatli porshenning nazariy sarfi.

$$Q_H = SL \frac{n}{60} \quad (8.14.2)$$

Bu yerda: S - porshening yuzi

L - porshening yo`li

n - aylanishlar soni

Porshenning bir marta borib kelishidagi hajmi $V=SL$ ga teng, lekin SL hajmli suyuqlikning hammasi haydash trubasiga tushmaydi.

Suyuqlikning bir qismi porshen bilan silindir devori orasidagi tirqish orqali va salnikdagi tig`izlagichning kamchiligi sababli tashqariga sirqib o`tadi. Haydash davri boshlanganida so`rish klapaninining bir onda yopilmasligi natijasida ham juda oz

miqdordagi suyuqlik orqaga qaytishga ulguradi. Xuddi shu narsa haydash klapanida ham sarf bo`ladi. Natijada haqiqiy sarf nazariy sarfdan farq qiladi. Haqiqiy sarfning nazariy sarfga nisbati hajmiy foydali ish koeffisienti deyiladi va haqiqiy sarfning nazariy sarf QH ga nisbati bilan η_Q aniqlanadi.

$$\eta_Q = \frac{Q_{haqiqiy}}{Q_{nazariy}} \quad (8.14.3)$$

$$\eta_Q = 0,85; 0,99$$

chegarada o`zgaradi.

Nasosning suyuqlikni ko`tarish uchun sarflanayotgan energiyasi uning haydash trubasida hosil qilgan bosimi  $h_{hay}$  - bilan belgilanadi. Bu bosim so`rish bosimi

$$h_{so'rish} = \frac{P_c}{\gamma} \text{ nasosdagi va haydash trubasidagi gidravlik qarshiliklarni yengishga sarf}$$

bo`lgan bosimlar yigindisi $H_H + H_m$ orqali quyidagicha aniqlanadi.

$$H = \frac{P_{hay}}{\gamma} - \frac{P_{sor}}{\gamma} + H_H + H_m \quad (8.14.4)$$

Bu yerda H_H va H_m lar ishqalanish va mahaliy qarshiliklarni hisoblash formulalari yordamida aniqlanadi. Nasosning foydali bosimi H ga trubalardagi gidravlik qarshilik kirmaydi.

$$H_{foy} = P - h_c + H_H \quad (8.14.5)$$

Vakuummetr va manometrlar ko`rsatuvidan aniqlangan indikator bosim

$$H_u = \frac{P_{sor}}{\gamma} - \frac{P_{hay}}{\gamma} \text{ ga teng.} \quad (8.14.6)$$

Manometrik bosim $H_x = H_m$ degan tushunchani kiritamiz. U holda nasos qurilmasidagi yo`qotishlarni gidravlik FIK

$$\eta_r = \frac{H_M}{H_{un}} \quad (8.14.7)$$

va qurilmaning FIK orqali ifodalanadi.

$$\eta_k = \frac{H_{foy}}{H} \quad (8.14.8)$$

Nasosning suyuqlikni ko'tarish uchun sarflangan foydali quvvati

$$N_{foy} = \gamma \cdot Q_{foy} \cdot H_m \quad (8.14.9)$$

ni topsak, u holda indikator FIKni quyidagicha ifodalash mumkin

$$\eta_u = \frac{N_{foy}}{N_u} \quad (8.14.10)$$

N_f, N_{in} - nisbatidan quyidagi kelib chiqadi.

$$\eta_u = \frac{N_{foy}}{N_u} = \frac{\gamma Q_f H_m}{\gamma Q_H H_u} = \eta_Q \eta_r \quad (8.14.11)$$

Indikator quvvatning porshenga berilgan quvvat N_p ga nisbati FIK dan iborat

$$\frac{N_H}{N_p} = \eta_M$$

Bundan foydalanib, nasosning to'liq foydali ish koeffisientni topish mumkin.

$$\eta = \frac{N_{foy}}{N_p} = \frac{N_{foy}}{N_u} \frac{N_u}{N_o} \eta_u \eta_M \quad (8.14.12)$$

Bundan ko'rinib turibdiki, nasosning to'liq FIK hajmiy, gidravlik va mexanik FIKlarining ko'paytmasiga teng ekan.

$$\eta = \eta_a \cdot \eta_g \cdot \eta_m \quad (8.14.13)$$

Demak nasos olgan to'liq quvvat quyidagi formulalar bilan aniqlanadi.

$$N = \frac{Q_H H_M \gamma}{102 \eta} kVt, \quad N = \frac{Q_H H_M \gamma}{75 \eta} kVt, \quad N = \frac{Q_H H_M \gamma}{1000 \eta} kVt, \quad (8.14.14)$$

Nasos ishlab turganida dvigatelning sarflangan quvvati nasos foydalangan quvvat bilan quyidagicha bog'langan bo'ladi:

$$N_{dv} = \alpha \frac{N}{\eta_{ish}} \quad (8.14.15)$$


Bu yerda $\alpha=1,1 \dots 1,2$ quvvatning zapas koeffisienti

η_{ish} - boshqaruvchi zvenodagi ishqalanish kuchlarini belgilovchi FIK.

Indikator diagramma.

Indikator diagramma ishlab turgan nasos silindriga oʻrnatilgan va maxsus indikator deb ataluvchi asbob yordamida chizib oladigan grafikdir.

Porshenli nasosning silindridagi absolyut bosimning porshenining yurishiga yoki ish boʻlmasining hajmining oʻzgarishiga bogʻliqligini koʻrsatuvchi yopiq chiziqdan iborat grafikka indikator diagramma deyiladi.



8.14.2- rasm. Indikator diagramma

Rasmda oddiy bir harakatli porshening taxminiy indikator diagrammasi keltirilgan.

ab - chiziq soʻrish holati; P_c - soʻrish bosimi

P_c - soʻrish bosimi bu holatda atmosfera bosimidan past boʻladi.

Ya'ni soʻrish va atmosfera bosimlarining farqi $P_a - P_c$ ta'sirida soʻrish klapani ochiq holatda tutib turiladi. b nuqta chekka soʻrish holatiga toʻgʻri keladi. Bu holatdan boshlab, porshen oldinga qarab yura boshlaydi va bosim orta boshlaydi, natijada soʻrish klapani yopiladi. Porshenning oldinga yurishi davomida ($b - c$ - chiziq) bosim ortib borib, haydash bosimiga tenglashadi.

Shu vaqitdan boshlab haydash klapani ochiladi va u butun haydash jarayoni davomida ($c - d$ chizigʻi) ochiq turadi.

Shu davrda suyuqlik P_{xay} bosim ostida haydash trubasiga kiradi. Porshening eng chekka haydash holati d nuqtaga toʻgʻri kelib va haydash jarayoni tugaydi. Porshen orqaga harakat qila boshlashi bilan silindirdagi bosim kamayib, haydash klapani yopiladi. Bosim pasayib borib ($d - c$ chizigʻi) $P_{so'r}$ etganidan soʻng ya'ni soʻrish klapani ochilib, soʻrish

jarayoni boshlanadi. (a va c nuqtalardagi notekisliklar klapanlarning ochilish va yopilishi bir tekisda emasligi)

Indikator diagrammasidagi - $abcd$ yopiq chiziqli bilan chegaralangan yuzi porshenning bir marta borib kelishida bajarilgan ishini ifodalaydi.

$$A \approx (P_x - P_c) L = P_{xu} L$$

Bu yerda: P_{xu} indikator bosim

Porshenning suyuqlikka bergan quvvati indikator quvvati deyiladi va quyidagi formula yordamida aniqlanadi;

$$N_u = \frac{P_{xu} S L n}{60} \text{ krM / s} \quad (8.14.16)$$

Indikator quvvat foydali quvvat bilan quyidagicha bog'langan

$$N_u = \frac{N_f}{\eta_u} \quad (8.14.17)$$

Bu yerda η_u - indikator FIK

Indikator diagramma yordamida nasosning qay holatda ishlayotganini va nasosning quvvatini aniqlashga yordam beradi.


Porshenli burg'ilash nasoslari

Gaz va neft quduqlarini burg'ilashda qo'llaniladigan burg'ilash nasoslari yuvish eritmalarini burg'ilash tizmalari orqali uzatishga va maydalangan zarrachalarni quduq tepasiga chiqarishga mo'ljallangandir. Bizga ma'lumki yuvish eritmalarini energiyasi har xil mexanizmlarni, turbobur, elektrobur va tub dvigatellarni harakatga keltiradi.

Quduqlarni burg'ilash yuvish burg'ilash nasoslari yordamida amalga oshiriladi. Burg'ilash nasoslari yuvuvchi eritmalarni bosim bilan quduqqa uzatish uchun mo'ljallangandir.

Quduqlarni burg'ilashda faqat yotiq uzatmali ikki va uch silindrli porshenli nasoslar qo'llaniladi (13.3-rasm). Val –7 chi krivoship 6 va shatun 5 yordamida aylantirib, tebratma harakat paydo bo'ladi, 4-kreyskofga harakat uzatiladi, tug'ri yo'nalishda ilgari lanma-qaytma harakat va unga bog'langan holda shtok-3 va

porshenlar 12, silindr 2 ichida harakatni tugallaydi. So'ruvchi klapanlar-11 so'ruvchi quvurli uzatma 8 bilan biriktirilgan va pastki uchi sizma 9 bilan ta'minlangan. Eritma chanadan-10 suriladi. Bosimli klapan 13 bosimli kompensator-1 va bosim tizimi-14 bilan birlashtirilgan.



8.14.3-rasm. Ikki silindrli burg'ilash nasosi ishining sxemasi. 1-kompensator; 2-silindr; 3-shtok; 4-kreytskopf; 5-shatun; 6-krivoship; 7-val; 8-so'ruvchi quvur uzatma; 9-sizgich; 10-qabul chana; 11-so'ruvchi klapanlar; 12-porshen; 13-bosim bilan xaydovchi klapanlar; 14-bosim tizimi.

Porshenni silindrni o'ng qismidan chap qismiga harakatlanishida siyraklashish sodir bo'ladi, atmosfera bosimida chana –10 dagi yuvuvchi eritma so'ruvchi quvurli uzatma – 8 orqali ko'tariladi, chap so'ruvchi klapan 11 ochiladi va nasos silindriga kiradi, shu vaqtning o'zida silindrning o'ng bo'shligida eritma siqiladi ungdagi bosim klapaniga 13 yo'naltiriladi.

Bunda chap bosim klapani 13 va ung so'ruvchi klapan 11 yopiq bo'ladi. Porshenni teskari tomonga harakatida silindrning o'ng bo'shligida so'rilish, chap tomonida bosimni oshishi sodir bo'ladi. Shunday qilib, porshen u yoki bu tomonga harakatida silindrning bir yarmida so'rish, boshqa yarmida suyuqlikni bosimini oshishi, ya'ni nasosning ikki martalik harakati kuzatiladi.

Yuvish eritmalari zichligi $1.2-1.3 \text{ kg/l}$ va undan katta bo'lganda quduq tubiga qarshilik ko'rsatish bosimi, quduq ustunini himoyalash va burg'ilarni sovituvchilarni tarkibi burg'ilash sharoitiga mos holda tanlanishi kerak.

U burg'ilangan jinslarni zarrachalarini ushlab turishi uchun (mayda abraziv qattiq moddalarni massadagi tarkibi 5-10% ni tashkil etadi), ogirlashtirgich (gematit, barit va boshqalar), tarkibida kerakli reagentlar (oxak, kadetik soda, oshlash kislotalari va boshqa) bo'lishi kerak.

Porshenli nasoslarni texnik tavsiflari

Eng ko'p qo'llaniladigan burg'ilash nasoslariga – porshenli, ikki marta ta'sir etuvchi, gorizontal nasoslar kiradi.

NG-3 burg'ilash nasosining texnik tavsifi.

1. Maksimal yuvish eritmasini uzatish sarfi, l/s - 16.7
2. Maksimal bosim, MNG/m^2 - 3
3. Porshenni yurish uzunligi, mm - 35.6
4. Bir minutda porshenni ikki marta yurishi soni - 40
5. Elektrodvigatel, kVt - 70
6. Massasi, kg - 5700

Nasoslarning belgilanishida «Burovoy nasos -NB» maksimal uzatish kattaligi, maksimal bosim va gidravlik quvvati.

Masalan: NB-45-400-950 gidravlik quvvati 950kVt bir minutdagi ikkinchi yurishi 65, bosimli uzatishi 40-MNG/m² mo'ljallangan.

Burg'ilash nasosining bo'ylama qirqimi tasvirlangan. Nasos uzatish va gidravlik qismlardan tashkil topgan. Uzatma qismida yetakchi shkivning aylanish harakati vujudga keltirilib, porshenga ilgarilanma-qaytma harakat beradi.

Gidravlik qismda mexanik energiya porshenga, porshen energiyani esa suyuqlikka uzatadi va yuvish eritmasining gidrodinamik energiyasi vujudga keladi. Uzatma qismiga chana, tishli xalqada ildizli val, transmission val tuguni, shatun, (polzun) sirg'algich va oraliq shtoklari kiradi.

8.14.1 -jadval

Burg'ilash nasoslarining texnik tavsifi

Ko'rsatkichlar	Y8-7M	Y8-6M	Y8-4	BPH-1
1. Maksimal silindrik vtulkaning diametridagi uzatish, $l/sek.$	50.9	50.9	39.5	34.5
2. Silindr vtulkasining maksimal diametridagi bosim, MH/m^3	14.2	9.6	9.5	9.8
3. Tizzali valning aylanish chastotasi, ay/min (1 min. da 2 martalik xarakat)	66	66	65	72
4. Porshen yo'li uzunligi, mm	400	400	450	300
5. Uzatma quvvat, kVt	840	555	445	385
6. Massasi, t	34.5	28.6	18.6	13.0

6031-66 bo'yicha porshenli burg'ilash nasoslarining texnik tavsifi.

Ko'rsatgichlar	НБ45-320-750	НБ45-320-600	НБ45-250-475	НБ45-250-370	НБ35-200-300	НБ35-200-235	НБ28-200-190	НБ18-200-150
1. Yuvish eritmasini eng ko'p uzatish miqdori, l/s	45	45	45	45	35	35	28	18
2. Eng katta bosim, MN/m^2	32	32	25	25	20	20	20	20
3. Gidravlik quvvat, κVt	750	600	475	375	300	235	190	150

Uzatma va tizza vallarinnig tayanch podshipniklari sifatida tebratma podshipniklar xizmat qiladi. Nasosning gidravlik qismlariga almashtiriladigan detallar, klapan qutilar chana bilan biriktiriladi.

Xizmat muddatini uzaytirish maqsadida gidravlik qismini himoyalash detallari almashtiriladi: silindrik vtulka 1, porshen 2, shtok 3, klapanlar 4 va zichlanmalar kiradi. Silindrik vtulkaning xizmat muddati 300 soatdan oshmaydi. Gidravlik silindrining xizmat muddati 5 yildan kam emas. Korpusga silindrik vtulka maxkamlanadi.

Har bir nasos uchun sarfni pog'onali amalga oshirish ishini rostlashda ichki diametrlari bilan silindrik vtulkalarni jamlanmasidan foydalaniladi. Bu detallar sementlangan po'latlardan tayyorlanadi. Silindr vtulkasining porshenni yuvish eritmasini fazasida 10-30 MN/m^2 bosimda harakatlanadi. Xizmat muddaati 100 soatdan oshmaydi. Eng ko'p uzi zichlanadigan rezinali manjet turidagi porshenlar qo'llaniladi. Ularni osongina almashtirish mumkin. Porshen vulkanlashtirilgan rezina manjetli po'lat yurakchalardan tashkil topgan. Porshen shtokka maxkamlanadi, siljitgichga biriktiriladi, uzatma qismidan gidravlik qismga quvvat uzatadi.

Burg'ilash nasoslarini klapani likopsimon bo'lib, u bitta chiqish tirqishiga ega. Katta zichlikdagi burg'ilash eritmalarini uzatishda bu klapanlarni xizmat muddati 30

soatdan oshmaydi. Klapanlarga quyidagi talablar qo'yiladi: ishonchli ish, egarga kuchni zarbasiz uzatish, gidravlik yuqolishni kamaytirish, sifatli zichlanmalar.

Burg'ilash nasoslarining juda ko'p modifikatsiyalari mavjuddir: yuqori va pastki yo'naltiruvchi shtok, yuqori va quyi (pastki yunaltiruvchi shtok) To'rt va uchta pastki yo'naltiruvchi qanotli klapanlar uchraydi. Likopsimonlar rezinali zichlanmalar diskiga har xil biriktiriladi. Klapan qurilmalarni tez almashtirishga va ta'mirlashga ruxsat beriladi.

Nasosni bosim tizimiga oldindan himoya qiladigan klapanlar va bo'sh otadigan qulfaklar o'rnatiladi.

Bosim tizimida suyuqliklarni bir tekisda uzatish va turtkini (urilishlarni) bartaraf etish uchun havo klapaniga qo'shimcha kompensatorlar o'rnatiladi. Nasoslarni ishga tushirish dizel yoki elektromotor yordamida amalga oshiriladi.

Nasoslarning xizmat muddati 15-20 yilga teng. Asosiy masalalardan biri nasosning gidravlik qismini abraziv yoyilishdan himoyalash, uzun va katta uzunlikdagi yurishli ($S > 2-5$ m) gidrouzatma 2 yurishli sonli burg'ilash nasoslarini yaratishdan iborat.

Ilmiy tekshirishning asosiy yo'nalishlari - ishlovchi nasoslarni gidravlik jarayonini, almashtiriladigan detallarni yoyilish qonuniyatini, chidamlilik va uzoq muddatliligi yo'lini qidirish, gidravlik va uzatma qismlarining mustaxkamligi va yoyilishga chidamliligini kuchaytirish, nasos massasini kamaytirish muammolarini o'rganishdan iborat.

8.14.3-jadval

Plunjer nasosining texnik tavsifi.

Ko'rsatgichlari	1BV/.60	BV20/200	BV20/200	BV20/200
1.Uzatishi, <i>l/sek</i>	15	5	7	10
2. Bosim, <i>MN/m²</i>	15	23	19	15
3.Bir minutdagi ikki martalik harakatlar soni	375	375	375	375
4. Plunjer yurish yuli uzunligi, <i>mm</i>	120	120	120	120
5. Plunjer diametri, <i>mm</i>	78	60	70	80
6. Iste'mol quvvati, <i>κVt</i>	290	140	175	180

Plunjerli nasoslarning neft konlarida qo'llanilishi amaliyotda keng o'rin egallamagan. Hozirgi paytda neft konlaridagi qatlamlarga aralashmalar katta hajmida uzatiladi. Bunday holatlar uchun markazdan qochma nasoslarni qo'llanilishi qulayroqdir. Neft konlaridagi qatlamlarga yuqori bosimda suvli aralashmalarni uzatish tabiiy holat bo'lib, porshenli va plunjerli nasoslarni qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Porshenli nasoslarni o'rnatishda ishonch kamligi va to'xtovsiz suv uzatishi imkoniyatiga ega ekanligini hisobga olish kerak. Yuqori bosimli va past uzatish sarfi talab etiladigan qatlamli zinalarda plunjerli nasoslar qo'llanilib, ular yuqori qiymatdagi FIK ga egadir.

BV 20/200 markali nasosi sinovdan o'tkazilganda to'liq ishga yaroqligi, ishlash muddati 7-10 ming soatni tashkil etdi. BV20/200 plunjer nasosi qatlamga karbonsuvli gazlarni (propan-butan), barqarorsiz benzin va suvlarni uzatishga mo'ljallangandir. BV20/200 nasosi – tik, plunjerli, bir marta ta'sirli uch silindrli. Quyma chuyan ramaga, rolik podshipnikli, markazdan siljigan val joylashtirilgan va o'qli yunalishda yozib olinadi. Valdan aylanish harakatini shatunlar, kreyskopflar va shtok orqali plunjerga uzatiladi. Nasosning gidravlik qismiga uch xil ulchamdagi (60,70,80 mm) plunjerlar o'rnatish mumkinligi va bu plunjerlarni korpus zichlanmalariga mos kelishi ko'rib chiqilgandir. Nasos uzatma qismlarining hamma tugunlari shesternali nasos yordamida sirkulyatsiya usulida moylanadi.

BV 20/200 nasosini gidravlik qismlari quyidagi elementlardan tashkil topgan. 1-korpus, so'ruvchi qism-2 va bosim klapanlari 9 kiradi. Suyultirilgan karbonsuvli gazlar bilan ishlaganda maxsus rezinalar bilan zichlanadi. 5-egar, 6 va 8 yoymalarda joylashgani bo'lib, 4 va 10 stakanlar, 3 va 11 klapanlari bilan ushlab turiladi. Bu detallar yuqori darajadagi aniqlikda ishlangan bo'lishi kerak. Klapanlarning zichlanma sirtlari va egar TV4-ga issiqlik ishlovi berilgan bo'lishi kerak. 7-silindrik klapani maxkamlash uchun 12-ftorplastik xalqa qo'llaniladi. Plunjer 13 rezina metall vtulka-manjet 14 korpusga mos keladigan 15 zichlanma yordamida moylanadi. Sanoat jarayonida sinashda BV20/200 suv va eritmalarni uzatish uchun mo'ljallangan bo'lib, 5-11 l/s sarfda, 16-19MN/m² bosimda FIK 0.9 ni tashkil etadi.

Nazorat savoll

1. Porshenli nasoslarni tuzilishi va ishlash prinsipi ?
2. Porshenli nasos turlari?
3. Sarf nima?
4. Quvvat nima?
5. Napor nima?
6. Porshenli burg'ilash nasoslar haqida tushuncha bering.
7. Indikator diagramma nimani ko'rsatadi?

Rotorli nasoslar

Rotorli nasoslarning tasnifi , umumiy xossalari va qo'llanilishi

Hajmiy rotorli nasoslar - shesternyali, vintli, plastinkali (shiberli) va porshenli turlariga bo'linadi. Hajmiy rotorli nasoslar o'zgaruvchan sarfli, (sarfi boshqariladigan) va o'zgarmas sarfli (sarfi boshqarilmaydigan) bo'lish mumkin .

Rotorli nasoslar har xil bir jinsli suyuqliklarni uzatishda avtanom qurilma sifatida, shuningdek, gidroyuritmalar tarkibida suyuqlikning harakatlantiruvchi yoki suyuqlikka kerakli energiya bosim beruvchi nasos holida va harakatlanayotgan suyuqlik orqali o'zi harakat olib energiyasini boshqa mashinalarga qurilmalarga uzatuvchi gidrodvigatellar tarzida ishlatilishi mumkin.

Silindrlari umumiy blokka birlashtirilgan ko'p silindrli nasoslar rotorli – porshenli nasoslar deyiladi. Porshenni harakatga keltirish usuliga qarab aylanuvchi va qo'zg'almas blokli-rotorli-porshenli mashinalar mavjud. Silindrlar blok o'qiga nisbatan radial yoki aksial joylashishi mumkin. Agar blokda silindrlar radial joylashgan bo'lsa - bu nasoslar radial-porshenli deyiladi. Gidromashina blokida silindrlar, aksial joylashgan bo'lsa-aksial porshenli nasoslar bo'ladi. Ko'pchilik rotorli-porshenli mashinalarning xarakterli tomoni shundaki, ularda so'ruvchi va uzatuvchi klapanlari yo'q. Bu xususiyat nasoslardan aylanishlar sonining yuqori qiymatlarida foydalanish imkoniyatini beradi.

Rotorli-porshenli mashinalarda krivoship-shatun mexanizm yo'q. Bu nasoslar gidrouzatmalarda, moy uzatishda ichki yonuv dvigatellarida yoqilg'i surkov moyi, stanok keskichlarda sovituvchi suyuqlik uzatishda ishlatiladi. Rotorli gidromashinalar tarkibiga rotorli-plastinkali, shesternyali, vintli, rotoli-porshenli(radial va aksial joylashgan silindrli) nasoslar kiradi.

8.15. SHESTERNYALI NASOSLAR TUZILISHI, ISHLASH PRINSIPI VA XOSSALARI

Oddiy shesternyali nasoslarning asosiy ish detallari ikkita bir xil shesternadan iborat (8.15.1-rasmga qarang). Ular oʻzaro ilashgan va korpus ichiga joylashtirilgandir. Yetaklovchi shesternali va etaklanuvchi shesternadan iborat. Yetaklovchi-shesterna-harakatni dvigateldan oladi. Nasosda ikkita qopqoq boʻlib ularda yetaklovchi va yetaklanuvchi valiklar, podshipnik va salniklar bilan ta'minlangan. Nasosda ikkita teshik boʻlib, biri soʻrishga ikkinchisi haydashga moʻljallangan. Haydashga moʻljallangan teshikcha teskari tomonda (tishlar birikayotgan tomonda) boʻladi. Soʻrish teshigi esa shesternya tishchalari oʻzaro ajralayotgan tomonda boʻladi. Shesternyali nasoslar ishlayotganda tishlar orasidagi chuqurchalarda katta bosim vujudga kelib, u valik va nasos tayanchiga beriladi.

Bu kuchlarni kamaytirish uchun tishlar orasidagi teshikchalarda suyuqlikning qolib ketishiga yoʻl qoʻymaslik kerak. Shu maqsadda yuqori bosimli nasoslardagi chuqurchalarda radial kanalli ariqchalar yasaladi. Bu ariqchalardan qoldiq suyuqlik chiqarib yuboriladi, natijada nasos tayanchi va valiklardagi yuk kamayadi.

Shesternyalar aylanayotganda tishlar soʻrish boʻshligʻi (c) da bir-biridan uzoqlashadi. Natijada tishlar orasidagi chuqurchalarda suyuqlik katta tezlikda olib ketilishi sababli soʻrish boʻshligʻida siyraklanish roʻy beradi va soʻrish teshigi ichiga suyuqlik keladi. Tishlar oʻzaro birikkan paytida haydash boʻshligʻi (X) siqib chiqariladi, natijada haydash boʻshligʻida bosim ortib, suyuqlik tarmoqqa uzatiladi.


Shesternyali nasoslar hosil qilgan bosimga qarab past (10 kg/sm^2) oʻrtacha (30 kg/sm^2) va yuqori (100 kg/sm^2) bosimli boʻladi.

Past bosimli nasoslar mashinalarning sovitish moylash sistemalarida qoʻllaniladi. Oʻrtacha bosimlari kuch organlariga harakatni tez uzatish kerak boʻladigan stanoklarning gidrouzatmalarida (Maslan: parmalash, jilvirlash stanoklarida) ishlatiladi. Yuqori bosimli nasoslar stanoklarning ichki organiga katta kuch uzatish lozim boʻlgan gidrouzatmalarda qoʻllaniladi.

Shesternyali hasos 2,3,4 va hatto 5 shesternyali boʻlishi mumkin, ammo 3 dan yuqori shesternyalrni qoʻllaganda FIK kamayib ketadi. 3 shesternyali nasos 2 shesternyaliga

nisbatan katta sarfga ega, lekin hajmiy FIK kichik. Keyingi paytlarda hajmiy FIK ni oshirish maqsadida gidravlik kompensatorli shesternyali nasoslar chiqarila boshladi. Yon chetdagi tirqishlarni gidravlik kompensasiyalash uchun vtulka kuchli ishqalanish va edirilish hosil qilmaydigan qilib shesternyaga mahkam siqib qo'yiladi.

Bundan tashqari, yon qistirmalardan foydalanib yon chet tirqishlarni kichraytirish usulidan ham foydalaniladi. Bu qistirmalar elastik devorli katakchalarga ega bo'lib, shayba holida shesternya bilan nasos korpusi orasiga qo'yiladi. Nasos ishlayotganda devordagi tirqishlardan qistirma katakchalari moyga to'latiladi. Bosim ostida katakcha to'siqlari deformasiyalanadi va tirqishlardan moy shesternya yonlariga keladi.



8.15.1-rasm . Shesternyali nasos


Radial-porshenli nasoslar

Silindrlari umumiy blokka birlashtirilgan ko'p silindrli nasoslar rotorli-porshenli nasoslar degan edik. Porshenni harakatga keltirish usuliga qarab aylanuvchi va qo'zg'almas blokli-rotorli-porshenli mashinalar mavjud. Agar silindrlar blok o'qiga nisbatan radial joylashgan bo'lsa, radial porshenli agar aksial joylashgan bo'lsa, aksial-porshenli deb yuritiladi. Radial-porshenli nasos rotor 2, doiraviy yo'naltirgich 4, stator 1 va porshenchalar 3 dan iborat. Rotor qo'zg'almas o'q 5 atrofida aylanadi. Porshenchalar ilgari lanma-qaytama harakat qilib, o'z silindrlaridan chiqib prujina yordamida yo'naltiruvchi 4-ga tomon qattiq

itariladi. 8.15.2-rasmda shtrixlangan qism teshik 6-dan suyuqlik bilan to'ldiriladi, silindrning ish hajmi kichraygan paytda teshikdan suyuqlik haydab chiqariladi. Radial-porshenli nasoslarda ish xajmi;

$$q = \frac{\pi d^2}{4} 2lZ \quad (3.15.1)$$

Bu yerda $\frac{\pi d^2}{4}$ - porshenning yuzi $2l$ - porshenning yo'li (l – ekss`entrisitet, Z porshenlar soni)/ So'rish



8.15.2-rasm. Radial-porshenli nasos.

$$Q = \eta_x \cdot 2l \frac{\pi D^2}{4} \cdot Z \frac{n}{60} \quad (3.15.2)$$

$\eta_x = 0.7 \dots \dots \dots 0.9$


Radial-porshenli nasoslar 200 at.dan 1000 at.gacha bosim hosil qila oladi. Ularning unumi 800l/min va quvvati 155 kVt ga yetadi. Bu nasos gidrouzatlarda, ichki dvigatellarga yoqilg'i, surkash moyi, suyuqlik uzatishda ishlatiladi. Bu nasosning ikkinchi turi ekssentrik-plunjerli nasosdir, bu nasosda plunjer ilgarilanma-qaytma harakatni ekssentrik valdan oladi.

Aksial porshenli nasoslar

Aksial-porshenli nasoslarda porshenli silindrlar aylanish o'qiga parallel joylashgan bo'ladi. Nasosda rotor rolini silindrlardan iborat blok 4 o'taydi, uni val 1 yordamida

aylantiriladi. Taqsimlash diski 5 va yotiq disk 2 nasos ishlagan paytda qimirlamasdan turadi. Porshenlar 3 yotiq diskka tegib turadi. Porshenlar yuqorida prujina 6 bilan oldinga itariladi, pastda esa yotiq 2 ning ta'sirida orqaga qaytadi. Suyuqlik silindrlarda kanal a dan taqsimlanadi. Kanal b dan haydaladi. Porshenning yo'li diskiining gorizont bilan hosil qilgan burchagi bilan aniqlanadi.

Odatda, silindrlar bloki aylanadi, taqsimlash qurilmasi esa qo'zg'almasdir $\alpha = 0$ bo'lib, blok aylanayotganda, yotiq shayba (disk) va shatun yoki prujina yordamida porshenlar silindr ichida ilgari lanma-qaytma harakatlanadi. Taqsimlash diskidan uzoqlashgan porshenlar suyuqlikni so'radi, unga yaqinlashganda esa suyuqlikni haydaydi. Silindrlarda suyuqlikni keltirish va olib ketish silindrlar bloki chetidagi teshiklar orqali bajariladi.




8.15.3-rasm. Aksial porshenli nasos sxemasi

Plastinkali (shiberli) nasoslar

Plastinkali nasoslar moy va boshqa suyuqliklarni uzatishda ishlatiladi. Plastinkali nasoslardan benzonasos sifatida, metal kesuvchi stanoklarda, aviatsiyada ham foydalaniladi. Plastinkali nasoslar bir harakatli, ikki harakatli va ko'p harakatli bo'lishi mumkin. Plastinkali nasoslarda har qaysi plastinka bir aylanish davri ichida bir marta so'rish va haydashda qatnashadi, shuning uchun ular bir harakatli rotorli plastinkali mashinalar deyiladi. 8.15.4-rasmda bir harakatli rotorli plastinkali nasos tasvirlangan. Ikki harakatli nasoslarda so'rish 2 marta katta va o'zgarmas miqdorga ega bo'lib, rotorning burilish burchagiga bog'liq emas. Nasosning tuzilishi: 1 rotor, 2-disker, 3 plastinkalar (shiber). Rotor 1 nasos korpusida bir-biriga mahkam siqilgan disklar 2 orasiga joylashtirilgan. Nasosning

silindrik korpusi ichida aylanuvchi baraban bo'lib, uning o'qi korpus o'qiga nisbatan e masofaga yoki eksentritetga siljigandir. Rotor radiusiga tomon ozgina qiyalashgan yoki radial joylashtirilgan uyachalarda plastinkalar (shiberlar) 3 o'rnatilgan. Statorga taqalgan va rotor bilan birga aylanadigan plastinkalar statorning ichki silindrik yuzasi bo'ylab sirpanadi hamda rotorga nisbatan ilgarilanma - qaytma harakatda bo'ladi. Rotor eksentrik joylashgani sababli rotor bilan stator orasidagi bo'shliqning hajmi kattalashadi.



8.15.4-rasm. Plastinkali nasoslar.

Natijada bosim kamayib, moy bo'shliqni to'latadi. Moy stator chetida joylashgan va nasosning so'rish trubasi 6 bilan ulangan tuynuk 5 orqali kiradi va rotorning aylanish yo'nalishi bo'ylab plastinkalar yordamida siljiriladi. Plastinkalar rotor bilan stator oralig'idagi eng uzoq masofali nuqtadan o'tgach plastinkalar orasidagi bo'shliq hajmi kichraya boradi va moy qarshidagi tuynukdan 7 orqali haydash trubasiga siqib chiqariladi.

Haydash va so'rish bo'shliqlari qo'shilib ketmasligi uchun I – II va III – IV zichlovchi do'ngliklar yasaladi. Berk hajmda moyning qolib ketishini yo'qotish uchun III – IV do'nglik I – II dan qisqaroq qilinadi. Plastinkali nasoslarda har qaysi plastinka bir aylanish davri ichida bir marta so'rish va haydashda qatnashadi, shuning uchun ular bir harakatli rotorli plastinkali mashinalar deyiladi. Eksentrisitet o'zgartirib, ishchi hajmini o'zgartirishimiz mumkin. Bu - hajmni quyidagicha formula bilan aniqlashimiz mumkin.

$$q[2r(R-l) - Z\delta]2l\delta \quad (8.15.3)$$

Bu yerda R- statorning ichki sirt radiusi, l – eksentristik, va l - plastinkaning qalinligi va eni Z-plastinkalar soni

Nasosning sekundlik sarfi

$$Q = \eta_0 \left[2\pi (R-l) - Z\delta \right] 2l\delta \frac{n}{60} \quad (8.15.4)$$

$$\eta_0 = 0.75 \dots 0.98$$

Hajmiy nasoslarning xarakteristikasi

Hajmiy nasoslarning xarakteristikalari markazdan qochma nasoslarnikidan farq qiladi, hajmiy nasoslarning bosim xarakteristikasi $H = f(Q)$ ni quramiz. Nasosning nazariy bosimi aylanish soni o'zgarmas ($n = const$) bo'lganda bosim o'qiga parallel to'g'ri chiziq bo'ladi. Bunday bosim xarakteristikalari barcha hajmiy va rotorli nasoslarga tegishlidir. Bundan qat'iy nazar bosim xarakteristikasiga ega bo'lgan bu nasoslarda nazariy bosim cheksiz katta miqdorga intiladi. Nasosning haqiqiy so'rishi sarfi bosimga bog'liq bo'lib, uning ortishi bilan turli hajmiy yo'qotishlar ortib ketadi. Hajmiy nasoslarda berkitgichni yopib borgan sari uning oldidagi bosim ortib boradi, lekin sarf juda kam o'zgaradi. Bu o'zgarish ham bosimning ortishi natijasida suyuqlikning tirqishlardan sirqib ketishi hisobiga bo'ladi. Bu esa o'z navbatida bosimning juda oz miqdorga kamayishiga olib keladi. Shunday qilib, hajmiy nasoslarning haqiqiy bosim xarakteristikasi $H = f(Q_x)$, chapga bir oz qiyalashgan bo'ladi. Hajmiy nasoslarning xarakteristikalari markazdan qochma nasoslarnikidan butunlay farq qiladi.

$$H_{haj} = f(Q_{haj})$$

Rotorli nasoslar ichida porshenli nasoslarning bosim xarakteristikalari y'ana ham qattiqroq bo'ladi, chunki porshen va silindrlarni boshqa siqib chiqaruvchilarga nisbatan aniqroq ishlash mumkin va ularda tirqishlar kichikroq bo'lib, katta bosimlarda yuqori FIK hosil qilishga yordam beradi. Hajmiy nasoslarda quvvat xarakteristikasiga o'xshash bo'ladi, lekin quvvat grafigining egriligi bosimnikiga nisbatan kattaroq bo'ladi.

Hajmiy nasoslarda kuch o'zgargani bilan so'rish deyarli o'zgarmay ($\Delta Q=0$) markazdan qochma nasoslarda esa farq ancha sezilarli bo'ladi

Nazorat savollari

1. Rotorli nasoslar qaysi guruhga kiradi?
2. Sarf miqdori qaysi formuladan topiladi?
3. NSh - nimani bildiradi?
4. Aksial porshenli nasos sarfini qanday boshqariladi?
5. Rotorli nasoslarning afzalliklari?
6. Aylanish sonini qanday boshqariladi

8.16. GIDROUZATMALAR VA HAJMIY GIDROYURITMALAR. GIDRODINAMIK UZATMALARNING VAZIFASI VA ISHLATILISHI SOHALARI

Gidravlik uzatmalar deb, suyuqliklar ishtirokida bir mexanizmning ikkinchi mexanizmini harakatga keltirishga asoslangan mexanizmlarga aytiladi. Gidravlik uzatma bir agregatda ikki xil parrakli mashinadan, ya'ni markazdan qochma nasos va gidravlik turbinadan birgalikda foydalanuvchi qurilmadan iborat. Unda energiya elektr dvigatelidan gidrodvigatelga suyuqlik oqimi yordamida beriladi.

Transport mashinalarida gidravlik uzatmalardan foydalanish yetaklovchi g'ildiraklarning tezligini juda kamaytirish imkonini beradi:

Gidravlik uzatmasi bo'lmagan avtomobil dvigatellari, ko'pincha, turgan joyidan qo'zg'alishda, tepaliklarga ko'tarilishlarda, burilishlarda va boshqa hollarda o'chib qoladi.

Gidravlik uzatmali dvigatel bu kamchiliklardan holidir. Maxovik bilan dvigatel va kuch zanjirining qolgan halqalari orasida birk bog'lanish yo'qligi sababli, ular, shuningdek, dvigatelning o'zi ham zarbaga uchramaydi. Gidravlik uzatmalar avtomobil turgan joyidan siljishda va tezlikni o'zgartirishda hosil bo'ladigan keskin silkinishlarni kamaytiradi bu esa o'z navbatida mashinadan foydalanish davrini uzaytiradi.

Gidravlik uzatmalardan avtomobillar, teplovozlar, transportlarda, kemachilikdan, yo'l qurilish mashinalaridan, aviatsiyada keng foydalaniladi.

Gidrouzatmalardan foydalanib bajariladigan turli tuman harakat va operatsiyalarini tushinish uchun hajmiy gidrouzatmalar haqida tushunchaga ega bo'lish zarur, ular haqida hajmiy gidrouzatmalar bo'limida keyinchalik batafsil to'xtalamiz.

Ishlash prinsipiga qarab hajmiy va gidrodinamik turlariga bo'linadi:

Hajmiy gidravlik uzatmalar hajmiy nasoslar yordamida ishlaydi. Hajmiy gidravlik uzatmalar hajmiy nasoslar yordamida ishlaydi. Bunday uzatmalarda energiya suyuqlik orqali yetaklovchi valdan statik bosim sifatida uzatilib, dvigatelni ishga tushiradi.

Gidrodinamik uzatmalarda parrakli gidromashinilar yordamida ishlaydi. Ya'ni ish g'ildiraklarining parraklari yordamida suyuqlikka berilgan dinamik bosim energiyasidan foydalaniladi. Bu xil uzatmalarni ayrim hollarda turbouzatma deb yuritiladi, bunday deb

atalishining sababi ularda markazdan qochma nasos va gidravlik turbinalardan birgalikda foydalaniladi.

Gidrodinamik uzatmalar bir oqimli va ikki oqimli bo'lishi mumkin. Bir oqimli gidrodinamik uzatmalarda hamma quvvat gidravlik g'ildiraklar orqali uzatiladi. Ikki oqimlisida esa dvigatel quvvatining bir qismi gidravlik g'ildiraklar orqali, ikkinchi qismi esa mexanik yo'l bilan uzatiladi.

Aylantirish momentining uzatilish usullariga qarab gidrodinamik uzatmalar ikkiga bo'linadi:

- 1) gidroilashgich yoki gidromuftalar;
- 2) gidrotransformatorlar yoki turbotransformatorlar.

Hajmiy gidravlik uzatma rotosion nasos 1, sovitgich 2, teskari klapan 3, turbinalar 4, reversiv taqsimlagich 5 va taqsimlash klapani 6 dan iborat.

Suyuqlik nasos 1 dan taqsimlash klapani 6 va reversiv taqsimlagich 5 orqali turbina 4 ning kuragiga o'tadi. Undan keyin suyuqlik turbinadan truba 7 orqali sovitgich 2 ga keladi va suyuqlik sovitilib yana nasos 1 ga keladi. Reversiv taqsimlagichning holatini o'zgartirish yo'li bilan operator suyuqlikni turbinalarning kuraklariga yuqoridan yoki pastdan yo'naltirib mashinaning harakat yunalishini o'zgartiradi.

Hajmiy gidravlik uzatma nasosining seksiyalari soni bittadan to'rttagacha bo'lishi mumkin. Taqsimlash klapani yordamida gidravlik uzatmaning seksiyalarni ishga tushirish yoki to'xtatish yo'li bilan zarur bo'lgan uzatish nisbatiga erishamiz, y'ani tezlik nasosda gidrodvigatelga kiritayotgan suyuqlik miqdorini o'zgartirish hisobiga boshqariladi.


Gidrodinamik uzatmaning-ishlash prinsipi.

Gidrodinamik uzatmalar parrakli gidromashinalar yordamida ishlaydi. Bu yerda ish g'ildiraklarining parraklari yordamida suyuqlikka berilgan dinamik bosim energiyasidan foydalaniladi. Bu uzatmalar ba'zan turbouzatma deb ataladi, bunga sabab ularda markazdan qochma nasos va gidravlik turbinalardan birgalikda foydalaniladi.

Gidrodinamik muftalar tuzilishi va ishlashi

Gidromuftada yetaklovchi valdagi momentning miqdori har qanday o'zgartirilganda ham ikkala (etaklovchi va yetaklanuvchi) valda momentlarning tengligi ta'minlanadi. Yo'naltiruvchi apparatning yo'qligi gidromuftalar burovchi momentini o'zgartirmaydi va

har qanday uzatish nisbatlarida ham etaklovchi va etaklanuvchi vallardagi momentlar teng bo'ladi. Etaklanuvchi val faqat etaklovchi valning yo'nalishida aylanadi.




8.16.1-rasm. Hidrodinamik mufta yoki turbomufta nasos g'ildiragi
1-turbina g'ildiragi. 2- yetaklovchi val. 3 - yetaklanuvchi val. 4- diafragmali bosqich. 5 - yarim korpus. 6 - yarim tor. 7 - lardan iborat.

Hozir gidromuftalar 500 dan ortiq turdagi mashina va mexanizmlarda bir agregatda 0,5 ÷ 1 kVt dan 35000 kVt gacha va undan ortiq quvvatni uzatishda ishlatiladi. Gidromuftalar uzatish soni birga teng bo'lgan gidrouzatmalarda ishlatiladi.

Gidromuftada ishlatiladigan ish g'ildiraklari.

Ish g'ildiraklari radial kurakli (8.16.2-rasm a) orqaga og'ishgan kurakli (8.16.2-rasm b) va oldiga og'ishgan kurakli (8.16.2-rasm v) gidromufta ish g'ildiragi tasvirlangan.

Nasos va turbina g'ildiraklari shtamplangan yarim halqa shaklida tayyorlanadi.



8.16.2-rasm . Radial kurakli ish g'ildiraklari.

Gidromuftada ishlatiladigan ish g'ildiraklari. Gidromuftaning korpusi 2 ta shtamplangan qismdan iborat bo'lib, ular boltlar yordamida qavsharlanib maxkamlanadi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, oldinga og'ish burchagi 450 bo'lgan kurakli gidromuftalarning uzatgan momenti, radial kurakli gidromuftalarga qaraganda 2 marta ortiq, orqaga og'ishgan kurakli gidromuftalarning uzatgan momenti esa radial kurakli gidromuftalarnikiga qaraganda biroz kam ekan.

Gidromuftalar ishlagan paytda kuraklarning tebranishini yo'qotish uchun nasos g'ildiragidagi kuraklar soni turbina g'ildiragidagi kuraklar soniga teng bo'lmasligi kerak. Masalan GAZ-12 avtomobilidagi gidromufta nasos g'ildiragida 48 ta kurak va turbina g'ildiragida 44 ta kurak o'rnatilgan.

Gidrodinamik muftalarning ishini harakterlaydigan asosiy parametrlarga uning tashqi xarakteristikalariga kiruvchi va turbina g'ildiragi aylanishlari soni (n_2)ga bog'liq bo'lgan burovchi momenti (M) va FIK (η) kiradi (bunda nasos g'ildiragi aylanishlar soni n o'zgarmas). Gidromuftalarning nasos va turbina g'ildiraklariga oqimini hisoblash uchun Eyler tenglamasidan foydalaniladi (bu tenglamani parrakli mashinada bergan edik).

Gidrodinamik uzatmaning, ish g'ildiraklari kurakli sistemasidan tashkil topgan aylanma panjaradan iborat bo'ladi. Gidromufta g'ildiraklarining kuraklari, ko'pincha, tekis radial shaklda, gidrotransformator g'ildiraklarning kuraklari esa fazoviy yoki aerodinamik silindr shaklida tayyorlanadi.

Gidromuftaning dvigatel bilan birgalikda ishlashi.

Ichki yonuv dvigateli va gidromufta birgalikda ishlaganda dvigatelning tirsakli vali nasos g'ildiragi bilan blok qilib birlashtiriladi, shuning uchun

$$n_d = n_H$$

Dvigatel-gidromufta sistemasining xarakteristikalarini aniqlash uchun dvigatelning aylanishlar soni o'zgartirib beriladi. Bunda aylanishlar sonining eng kichik miqdori dvigatel aylanishlar sonining eng kichik turg'un qiymatiga teng va eng katta dvigatel aylanishlar sonining mumkin qadar eng kattasiga teng bo'ladigan qilib o'zgartiriladi. Dvigatelning tanlangan har bir aylanishlari soni uchun birdan boshlab nolgacha uzatish nisbatlarining qator qiymatlari berib boriladi. Har bir uzatish nisbati uchun mos ravishda nasos g'ildiragidagi moment hisoblab chiqariladi.

Agar uzatish nisbatlarining kattaliklari kamaytirilganda hisoblab chiqarilganda moment dvigatelning maksimal momentdan katta bo'lib chiqsa, u holda berilgan aylanishlar soni uchun hisoblash tugagan bo'ladi, chunki mufta bundan katta momentlarni uzatmaydi. Har bir uzatish nisbatlarining qiymatlari uchun turbina g'ildirak valining aylanishlar soni hisoblab chiqiladi. Odatda, natija jadval shaklida beriladi. Olingan natijadan foydalanib, dvigatelning aylanishlari n_d ning berilgan qiymatlari uchun $M_H = f(n_m)$ funksiya, dvigatel momenti M_d grafikalarini tuzish mumkin. Bu grafiklar gidromuftaning tortish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Gidromuftaning ishini rostlash uch usul bilan amalga oshiriladi:

1) yetaklovchi val aylanishlari sonini o'zgartirish yo'li bilan; 2) gidromufta oqar qismining shaklini o'zgartirish yo'li bilan; 3) ish bo'shlig'ini suyuqlik bilan to'ldirish darajasini o'zgartirish yo'li bilan.

Dvigatelning yetaklovchi vali aylanishlari sonini o'zgartirish bilan rostlash usulu, asosan, transport va yuk ko'tarish mashinalarida qo'llaniladi. Bu usul bilan rostlash natijasida gidromufta valida uncha katta bo'lmagan qoldiq moment hosil bo'ladi, bu esa transport mashinalari (avtomobil, traktorlar) uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, agar gidromufta validagi qoldiq moment harakatdagi avtomobil qarshiligidan kichik bo'lsa, u holda haydovchi dvigatelni o'chirmay faqat aylanishlar sonini kamaytirish bilan mashinani to'xtata oladi.

Agar gidromuftada katta qoldiq momenti hosil bo'lsa, u holda avtomobilni to'xtatish uchun tormoz yoki ajratish qurilmasidan foydalanish kerak bo'ladi. Rostlash darajasi moment va tezlik bo'yicha farqlanadi. Moment bo'yicha rostlash darajasi – yetaklovchi valning asosiy ish tartibidagi momentining to'xtatilganda o'sha valning o'zidagi minimal momentga nisbati bilan o'lchanadi.

Tezlik bo'yicha rostlash darajasi yetaklovchi valning nominal aylanishlar soni o'sha valning minimal aylanishlar soniga nisbati bilan o'lchanadi.

Ish bo'shlig'ining suyuqlik bilan to'ldirish darajasini o'zgartirish yo'li bilan rostlash gidromuftani rostlashning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. U uch xil tarzda bajarilishi mumkin:

- 1) gidromufta kirishida suyuqlik oqimini rostlash;
- 2) gidromuftadan chiqishda suyuqlik oqimini rostlash;
- 3) gidromuftaga kirish va chiqishda suyuqlik oqimini rostlash.

Gidromufta ishini rostlash natijasida uni shunday epchil boshqarishga erishiladiki, gidromufta ikkilamchi valining aylanishlar sonini tez o'zgartirish va gidromufta bir tartibdan ikkinchi tartibga minimal vaqtda o'tishi mumkin bo'ladi hamda gidromuftaning turli tartiblardagi ishi barqaror bo'ladi.

Gidrodinamik transformatorlar. Burovchi momenti va yetaklovchi valning aylanishlari soni, yetaklanuvchi val aylanishlari soniga nisbatan o'zgartirish yo'li bilan

quvvatni yetaklovchi valdan yetaklanuvchi valga uzatuvchi energetik mashina burovchi moment gidrotransformatori deb ataladi. Yetaklovchi va yetaklanuvchi vallarning bir tomonga aylanuvchi gidrotransformatorlar to'g'ri yo'lli qarama-qarshi tomonga aylanuvchilar esa teskari yo'lli gidrotransformatorlar deyiladi.

Gidrotransformatorlarning vazifasi, guruhlanishi, tuzilishi va ishlash jarayoni 1 va 2 adabiyotlarning gidrotransformatr bo'limi qaralsin.

Hajmiy gidrouzatmalar. Asosiy tushunchalar

Hajmiy gidrouzatmalar hajmiy gidromashinalar yordami bilan mexanik energiyani uzatish va o'zgartirish uchun mo'ljallangandir. Hajmiy nasos gidrodvigateldan tuzilgan qurilma hajmiy gidrouzatmaning prinsipial asosi hisoblanadi. Agar nasos va gidrodvigatel qurilishi jihatdan bo'linmaydigan birikma tashkil qilsa, unda bunday sodda gidrouzatma hajmiy gidrouzatma deyiladi.

